<p><b>Pedagogik vazifalar:</b> Mavzuning tub mohiyatidan kelib shiqqan holda, seminarsavollarini muayyan qismlarga bo'lish, har bir qismni o'zaro mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash, oshib berish, tushuntirish, shakllantirish. Darslik bilan ishlash kunikmalarini xosil kilish. Materialni taxlil kilish va tizimlashtirish kunikmalarini shakllantirish</p>	<p><b>O'quv faoliyatining natijalari:</b> qadriyatlarning namoyon bo'lishi shakllari. Aksiologiya qadriyatlar haqidagi fan. Qadriyatlar va tarix. Mustaqillik va qadriyatlar. O'zbekistonda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligini ta'minlash jarayoni. Qadriyatlarning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati. Siyosat va huquq, siyosiy va huquqiy munosabatlar, demokratik jamiyat tushunchalarining mohiyati. Siyosiy va huquqiy qarashlar taraqqiyotining tarixi va rivojlanish bosqichlari. Totalitarizm va demokratik jamiyat siyosati. O'zbekiston Respublikasi siyosatining ijtimoiy yo'naltirilganligi. Respublikada huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish haqida tushunchaga ega bo'ladi, mazmunini yorita oladi, tavsiflaydi oshib beriladi, ta'riflar va sharhlar beriladi</p>
<p>Ta'lim usullari va texnikasi</p>	<p>Muloqot, aqliy hujum, Muammoli vaziyat</p>
<p>O'quv faoliyatining tashkil qilish shakllari.</p>	<p>Jamoalardagi ishlash.</p>
<p>Ta'lim vositalari.</p>	<p>Doska, bur, darslik, ko'rgazmali qurollar.</p>
<p>Monitoring va baholash</p>	<p>Og'zaki nazorat savol- javob, reyting tizimi asosida baxolash</p>



**13- Mavzu: Global muammolar falsafasi. Jahon sivilizasiyasi va taraqqiyotning o'zbek modeli.**

**Seminar mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi**

<b>O'quv vaqti 2 soat</b>	<b>Talabalar soni 25-30</b>
O'quv mashg'ulotining shakli.	Bilimlarni shukurlashtirish va kengaytirish buyisha seminar mashguloti
Seminar rejasi	<p>1. Global (umumbashariy) muammolar, ularni hal qilish yo'llari va imkoniyatlari</p> <p>2. Jahon sivilizasiyasining hozirgi davri va rivojlangan mamlakatlar taraqqiyoti. O'zbekistonning mustaqilligi va erkin taraqqiyoti-jahon sivilizasiyasiga qo'shilish yo'li. Taraqqiyotning o'zbek modeli jahon sivilizasiyasining tarkibiy qismi ekanligi. O'zbekistonning jahon sivilizasiyasiga qo'shiluvining asosiy yo'nalishlari</p> <p>3. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar va Respublikaning jahon sivilizasiyasi tarkibiy qismiga aylanish imkoniyati va istiqbollari. Iqtisodiy plyuralizm va bozor munosabatlari-sivilizasiya belgisi.</p> <p>4. O'zbekistonda bunyod etilayotgan jamiyat va uning XXI – asrdagi ustuvor yo'nalishlari, asosiy tamoyillari. Ma'naviy barkamol avlod-buyuk kelajak poydevori.</p>
<b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b> Talabalarga aqliy xujum va baxs-munozara usulini kullash orqali hissiy, emperik nazariy mantiqiy va intiutiv bilish darajalari haqida tushuncha berish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> Mavzuning tub mohiyatidan kelib shiqqan holda, seminarsavollarini muayyan qismlarga bo'lish, har bir qismni o'zaro mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash, oshib berish, tushuntirish, shakllantirish. Darslik bilan ishlash kunikmalarini xosil	<b>O'quv faoliyatining natijalari:</b> hissiy bilishning mazmuni va mohiyati. Emperik bilim va uning shakllari, nazariy bilim va uning shakllari, tafakkurning asosiy shakllari haqida tushunchaga ega bo'ladi, mazmunini yoritadi, tavsiflaydi oshib beriladi, ta'riflar va sharhlar beriladi

kilish. Materialni taxlil qilish va tizimlashtirish kunikmalarini shakllantirish	
Ta'lim usullari va texnikasi	Muloqot, aqliy hujum, Muammoli vaziyat
O'quv faoliyatining tashkil qilish shakllari.	Jamoa, guruhlarda ishlash.
Ta'lim vositalari.	Doska, bur, darslik, ko'rgazmali qurollar.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat savol- javob, reyting tizimi asosida baxolash

### **Guruhda aqliy hujum tashqilishning qoidalari.**

- aytilayotgan barcha g'oyalar bir –biriga nisbatan muhimlikda tengdir.
- kiritilayotgan g'oyalar tanqid qilinmasligi kerak.
- g'oyani taqdim etayotgan paytda so'zlovchining gapini bo'lmaslik.
- so'zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emas.
- olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;
- istalgan g'oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;

## Blits savollar va topshiriqlar

1. Sezgi a'zolari orqali bilishning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Sezgi darajasida bilish empirik va oqilona bilishdan nima bilan farq qiladi?
3. Empirik bilimning qanday shakllari bor?
4. Oqilona bilim shakllarini ayting.
5. Sezgi darajasida va oqilona bilishning birligi mavjudmi?
6. Empirik va nazariy bilishni farqlash mezonlarini ko'rsating.
7. Intuitsiya nima?

### «Insert usuli»

**Insert-** samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi xisoblanib, mustakil ukib urganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshka materiallar oldindan talabaga vazifa kilib beriladi. Uni ukib chikib, «V; +; - ; ?;» belgilari orkali uz fikrini ifodalaydi.

### Matni belgilash tizimi

(V)- men bilgan narsani tasdiklaydi.

(+)- yangi ma'lumot.

(-)- men bilgan narsaga zid .

(?)- meni uylantirdi. Bu borada menga kushimcha ma'lumot zarur.

### Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

\* \* \*

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

---

Milliy istiqlol g'oyasi,  
falsafa va fan metodologiyasi kafedrası

Ma'ruzalar matni kafedraning 2006 yil «\_\_» avgustdagi  
1-sonli bayonnomasi qarori bilan tasdiqlangan.

**Kafedra mudiri:**            **prof. J.Ya.Yaxshilikov**

*FALSAFA*

---

---

**Tuzuvchilar:**

**prof. J.Ya.Yaxshilikov,**

**dos. H.R.Zohidov**

**dos. I.N.Negmatov**

**SAMARQAND – 2006**

**1-mavzu:** Falsafaning baxs mavzulari, jamiyatdagi o' rni va asosiy vazifalari.

### **Reja:**

1. Falsafaning predmet iva asosiy baxs mavzulari.
2. Dunyoqarash tushunchasi va uning tarixiy tillari.
2. Falsafiy duneqarash, uning xususiyatlari va tamoyillari.
3. Falsafaning asosiy yo'nalishlari, fanlar tizimidagi o' rni va vazifalari.
4. Mustaqillik va falsafiy dunyoqarashning yangilanish zarurati.

**Tayanch iboralar:** «Falsafa» atamasining mohiyati. Falsafaning bahs mavzulari. Falsafaning asosiy muammolari. Falsafada milliylik va umutsoniplik. Mshliy davlatchilik va milliy falsafa. O'zbek falsafasi. Dunyoqarash, Individual va ijtimoiy dunyoqarash. Dunyoqarashning tarixiy shakllari. Mifologik dunyoqarash Diniy dunyoqarash Falsafiy bilimlar tizimi. Falsafaning asosiy vazifalari. Falsafa va fan. Falsafa va mustaqillik mafkurasi. Mustaqillik va falsafiy dunyoqarashni o'rganish zaruriyati.

### **ADABIYoTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T., 2003.
2. Karimov I.A. Bizning maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. T., 2005.
3. Karimov I.A. Vtaanimiz tinchligi va xavfsizligi uz kuch o'z kuch qudratimizga va halqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. T., 2004.
4. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantarishning asosiy yo'nalishlari. T., 2002.
5. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T., 2003,

6. Karimov I.A. «Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir». T., 2000. (yoki: Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» gazetasi, 2000 y. 8-iyui).
7. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz». T., 2000, 3-9, 19-22 – betlar.
8. Karimov I. «O'zbekiston XXI-asrga intilmoqda». T.,1999, 3-18- betlar.
9. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI-asr bo'sag'asida". T., 1997; 137-151-betlar.
10. Karimov I.A. "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq millatni-millat qilishga xizmat etsin" T., 1998.
11. Karimov I.A. "Egali yurt erkini bermas". T.. 2000. (Yoki: "Xalk so'zi" gazetasi. 31-avgust, 2000 yil).
12. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, T., 2005, 9-jild, 178-181-betlar. "Falsafa" maqolasi.
13. Mustaqillik: izohli, ilmiy-ommabop lug'at.T.,-2006.
14. Falsafa. Qomusiy lug'at. T., 2004.
15. Falsafa. Qisqacha izoxli lug'at. T., 2004.
16. Falsafa asoslari. T., "O'zbekiston", 2005, 3-45-betlar
17. Falsafa. O'quv qo'llanma. T.. 1999. 3-48-betlar.
18. Raximov I. Falsafa. T., 1998, 3-9-betlar.
19. Falsafa. Ma'ruza matnlari. T., 2000,3-54 yillar.
20. Falsafa. (M.Ahmedova Umumiy tahriri ostida). T., 2006.
21. Erkin va farovon hayotni yuksak ma'naviyatsiz qurib bo'lmaydi. T., 2006.

1. Falsafa insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlaridan biridir. Falsafiy mulohaza yuritish, fikrlash inson tabiatiga xos, demak, uning o'zi kabi qadimiydir. U olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq va yo'qlik kabi ko'plab muammolar haqida baxs yuritadigan fandır.

«Falsafa» atamasi qadimgi yunon tilidagi «Filosofiya» soʻzidan olingan boʻlib va u lugʻaviy maʼnoda «donishmandlikni sevish» («filo» - sevaman, «Sofiya» - donolik) degan mazmunni anglatadi.

«Filosofiya» atamasi va u ifoda etadigan bilimlar majmui qadimgi Yunoniston va Rimda eramizdan avvalgi VII-III asrlarda yuz bergan yuksalish natijasi sifatida yuzaga kelgan edi. Oʻsha davrda endigina shakllanib kelayotgan nazariy fikrning ifodasi boʻlmish falsafiy tafakkur olamni yaxlit va bir butun holda tushunish mujassamiga aylangan edi. Qadimgi Yunonistonda «filosofiya» atamasini dastlab matematika fani orqali barchamizga yaxshi maʼlum boʻlgan, alloma Pifagor ishlatgan.

Bu tushunchaning maʼnosini u Olimpiya oʻyinlari misolida quyidagicha tushintirib bergan: anjumanga keladigan bir guruh kishilar bellashish, kuch sinashish, yaʼni oʻzi va oʻzligini namoyon etish uchun, ikkinchi bir guruh savdo-sotiq qilish, boyligini koʻpaytirish uchun, uchinchi esa, oʻyindan maʼnaviy oziq olish, bellashuv va tortishuv asosida yotgan haqiqatni bilish va aniqlashni maqsad qilib oladi. Ana shu uchinchi guruhga mansub kishilar, Pifagor talqiniga koʻra, faylasuflar edi. Bu bir qarashda, oddiy va joʻn misolga oʻxshaydi. Ammo uning maʼnosi nihoyatda teran. Qadimgi Sharq va Yunonistonda har tomonlama chuqur bilim va kata hayotiy tajribaga ega boʻlgan, inson maʼnaviyatini boyitish va haqiqatni bilishga intiluvchi kishilarni faylasuflar deb ataganlar. Fozil va komil insonlarga falsafa bilan shugʻullanganlar.

Falsafa donishmandlik haqidagi taʼlimot ekan, u holda donishmandlikning oʻzi nima? Qadimgi yunon faylasufi Diogen (taxminan e.a. 400-325 y)dan «Donishmand kim? – deb soʻrashganda, u «Haqiqiy donishmand xudodir, biz donishmandlikni sevguvchilarmiz», - degan. Demak, donishmandlikni sevguvchilar donolik tafakkuri bilan dunyoni, oʻzligini bilishga intiluvchilardir. Suqrot (e.a. 470-399 y) oʻz-oʻzini yerga urish tubanlashish, oʻzligini anglash, oʻzligini yuqori tutish esa donishmandlikdir, degan edi.

Yevropa madaniyatiga esa u atoqli yunon faylasufi Aflotun asarlari orqali kirib kelgan. Shu tariqa, u avvalo, qadimgi Yunonistonda alohida bilim sohasiga, toʻgʻridagi «fanlarning otasi», yaʼni fanlarning faniga aylangan.

Qadimgi dunyoda fanlarning barchasini, ular qanday ilmiy masalalar bilan shugʻullanishdan qatʼiy nazar, filosofiya deb ataganlar. U ham ijtimoiy borlik, ham tabiat toʻgʻrisidagi ilm hisoblanar edi. Shu maʼnoda, dastlabki filosofiya olam va unda insonning tutgan oʻrni haqidagi qarashlar tizim boʻlib, dunyoni ilmiy bilish zaruratidan vujudga kelgan edi.



Abu Nasr Farobiy filosofiyani «hikmatni qadrlash» deb talqin etgan. XIX asrning nemis qadriyatshunos olimi I.Rikkert ham shunga o'xshash fikrni quyidagicha bayon qilgan: «Odamzod olam va odam hamda hayotning qadrini anglab, ular omonat bir narsa ekanini tushuna boshlagan davrlardan falsafiy fikrlashga kirishgan. Binobarin, birinchi faylasuf kim bo'lganidan qat'iy nazar, hayotni qadrlaydigan kishi bo'lgani shubhasiz:

Falsafiy tafakkur olamdagi narsa va hodisalarni fikrda umumlashtirib, mavhumlashtirib, o'zaro bog'liklikda va rivojlanishda o'rganib, ularning mohiyatini chuqurroq va to'laroq bilishdir. Falsafa fanlar ichidagi fandır, tafakkur madaniyatidir.

Falsafiy tafakkur insonning o'z-o'zini anglashidan boshlanadi, uning olam haqidagi bilimlarini umumlashtirish asosida rivojlanib boradi. Vatandoshimiz, sharqda mashhur bo'lgan faylasuf Aziziddin Nasafiy shunday degan: «Ey darvesh, ulug' olamning avvalu oxiri, zoxiru botini, mohiyat va shakllarini anglab yetish uchun o'zingning mohiyatingni, zoxir va botinigni anglab yetkin. Bundan boshqa yo'l yo'q<sup>4</sup>.

Inson bilishining obyekti bo'lgan olam cheksizligi sababli, bu savollarga javob berish imkoniyati ham cheksizdir. Bu savollarga javob izlash bizning kunlarimizgacha davom etib kelmoqda, bundan keyin ham davom eta beradi.

2005 yilning 28 dekabr kuni Prezidentimiz Islom Karimov «Yoshlik» talabalar shaharida ta'qidlaganidek: «Dunyoni anglash, hayot va jamiyat qonuniyatlarini har tomonlama idrok etish, yer yuzidagi turli xalqlar va millatlar dunyoqarashi, g'oyasi, maslak-muddaolarini bilish, uchun ham falsafa fanini keng va atroflicha o'rganish darkor. Bir so'z bilan aytganda, yoshlarimizni falsafiy tafakkur bilan qurollantirish – davr talabi. Nega deganda, bugungi zamonda har qanday raqib va muxolif bilan bahsga kirishish uchun uning qarashlari va g'oyasi, falsafasini ko'proq bilishimiz, kerak bo'lsa, uning o'zidan ham puxtaroq egallashimiz lozim<sup>5</sup>.

Falsafiy bilimlar – olamni sezish va idroq etish. (masalan, badiiy idroq etish) shakllariga nisbatan yuqori maqomdagi bilimlardandir. Chunonchi, olamni bilish va tushunish kabi, «olam-odam» munosabatlari falsafiy dunyoqarashda esa o'ziga xos ravishda hal etiladi.

---

<sup>4</sup> Азизиддин Насафий. Зубдат ул калъойилъ. Форсчадан Нажмиддин Комилов таржимаси. Т., 1995 й. 5 бет.

<sup>5</sup> Эркин ва фаровон каетни юксак маънавиятсиз лъуриб бълмайди. Т., 2006 йил, 16-17 бетлар.

Boshqacha qilib aytsak, falsafa fani olam va odam o'zaro aloqadorlikda, yakka holda va umumbashariyat holida tushunishga intilishi tufayli shakllangan. Xullas, falsafa fani inson va olam munosabatlarini aqliy, nazariy va mantiqiy asoslarda, dalillar, tamoyillar, o'y-mushohadali qarashlar asosida o'rganadi va odamga hayot ma'nosini to'g'ri idrok etishga imkon tug'diradi. Falsafiy qarashlarni har doim ham keng tarqalgan fikrlarga mos kelishi yoki unga zid kelishi shart emas.

Aql-idrok va bir lahzali amaliy harakatni ko'zlovchi sog'lom fikr mavjud bo'lgan hayot muammosini payqamay qolishi ham mumkin. Falsafiy tafakkur albatta ana shu muammoni aniqlaydi va uni hal etish yo'lini izlaydi. To'g'ri, falsafiy tafakkur Amaliy harakatning o'rnini bosmaydi. Ammo, u muayyan amaliy harakat zaruratini, maqsadini yuzaga chiqarishning eng samarali, unumli yo'llarini topib bera oladi. Birinchidan, «Olam – odam» munosabatlari tizimi ko'p qirrali va rang-barang muammolarni o'z ichiga oladi. Obyektivlik va subyektivlik moddiylik va ma'naviylik, borliq va tafakkur, jism va ruh, ma'naviyat va ruhiyat, ular o'rtasidagi dialektik aloqadorlik ham falsafiy tadqiqot sohalariga kiradi.

Ikkinchidan, «Olam va odam» munosabatlari tizimi mehnat va buyum, ma'rifiy, metodologik, ma'naviy-axloqiy, badiiy-estetik munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Uchinchidan, falsafa fani olam va inson mohiyatini barcha rang-barangligi, o'zaro aloqalari va munosabatlari bilan to'laroq tushunishga yordam beradi. Demak, falsafa fan sifatida «olam va odam» tizimi rivojiga asos bo'luvchi eng umumiy qonuniyatlarini tadqiq etadi.

To'rtinchidan, falsafa ma'naviy olamni o'zgartirish sifatida nazariy bilimdonlarning tarixan birinchi ilmiy shaklidir. Falsafa yordamlarning amaliy faoliyatini va ilm-fan ma'lumotlarini nazariy umumlashtirib, yangi sifatidagi umumiy qonuniyalarini ishlab chiqadi.

Xususan, ilmiy bilimlarning barchasi falsafa fani xususiyatlarini tushunishga yordam beradi. Ekologiya va sinergetika kabi umumiy ilmiy fanlar falsafaga yaqin turadi va uning rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Ammo, shunisi ham borki, bu fanlarning o'zi falsafaga yaqin turadi va uning rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Ammo, shunisi ham borki, bu fanlarning o'zi falsafaning hozirgi fanlarni umumlashtirishdan kelib chiqqan. Ilmiy nazariyalar har qanday yirik (fundamental) va umumlashgan bo'lsa, u shunchalik katta muammolarni hal etishi mumkin. Falsafiy qarashlar esa ana shu muammolarni umumbashariy manfaatlar nuqtai nazaridan hal etish yo'llarini ko'rsatadi.

Falsafaning asosiy xususiyati-olamni va odamni alohida o'rganish emas, balki olam va inson o'rtasidagi munosabatlarning eng muhim qonuniyatlarini o'rganishdir. Falsafaning o'ziga xosligi va jamiyatdagi o'rni ham shundadir.

Falsafa fani olam va inson o'rtasidagi rang-barang, o'zaro aloqalar va munosabatlar, o'zaro faoliyatlarni o'rganish asosida mazmunan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tabiat va jamiyat o'zaro munosabatlarning umuminsoniyat tajribalariga tayanib tadqiq etadi, o'rganadi;

- borliq va olam haqidagi bilimlar xazinasidan kelib chiqib, odam olamni qanday bilishini, voqyelikka munosabatini, olamda o'z o'rnini, vazifasini qanday tushunish kerakligini, hayot ma'nosi va maqsad-muddaosini ilmiy anglashni tushuntiradi;

- olamni hissiy bilish yo'li bilan erishib bo'lmaydigan tamoyillar, qonunlar, kategoriyalar-muhim tushunchalarning ma'nolari va mohiyatini anglab olishga imkon tug'diradi. Va shu tufayli falsafa tili ilmiy, nazariy umumlashi tasnifida bo'ladi.

- «olam-odam» umumiy formulasi asosida falsafa fani barcha fanlarga daxldor ilmiy muammolar yechimini to'g'ri topishga yordam beradi;

- falsafa zamonaviy fanlarning yutuqlariga suyanadi, nazariy tafakkur va madaniyat kategoriyalari, muhim tushunchalarini aniqlaydi; olamning ilmiy manzarasini aks ettiradi;

- falsafa fani jamiyat hayotidagi mangu muammolarni va yangi tug'ilgan muammolarini qanday hal etish yo'llarini izlaydi va tushuntiradi<sup>6</sup>.

Falsafa o'z tadqiqot mavzusi sifatida insonning mohiyati, jamiyatdagi ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlarning asoslari va sabablari, borlik, materiya, tabiat taraqqiyotining eng umumiy muammolarini o'rganadi.

Olam va odam munosabatlari, dunyoning mavjudligi, undagi o'zaro aloqadorlik va taraqqiy etish, insoniyat hayotidagi adolat va haqiqat, yaxshilik va yomonlik, urush va tinchlik, ularning mazmuni, tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy tamoyillari bilan bog'lik ko'pdan-ko'p masalalar falsafa va falsafiy bilim sohalarining umumiy va azaliy muammolari sirasiga kiradi. Olamning asosida

---

<sup>6</sup> Ўларанг: Шермухамедов С. Фалсафа ва ижтимоий таралъиёт. Т., 2005 йил, 21-22-бетлар.

nima yotadi, uning mohiyati nimadan iborat degan masalada bir qancha qator falsafiy qarashlar shakllangan.

Monizm (yunoncha – monos, ya'ni yakka) – olamning asosida yakka yagona sababga, bitta asosga ega bo'lgan narsa yotadi deb ta'lim beradi.

Dualizm (lotin tilida dua, ya'ni ikki degan ma'noni anglatadi) olamning asosida ikkinchi asos, ya'ni modda va materiya bilan birga ruh va g'oya ya'ni ideya yotadi deyuvchi qarash.

Plyuralizm – (lotin tilida plyural, ya'ni ko'plik degan ma'noni anglatadi) – olamning asosida ko'p narsa va g'oyalar yotadi deb e'tirof etadigan ta'limot).

Materializm (lotincha – moddiy, moddiylashgan) olamning asosida materiya, ya'ni moddiy narsalar yotishini e'tirof etadigan ta'limot.

Idealizm – (yunoncha – ideya – g'oya) olamning asosida ruh yoki g'oyalar yotadi deb ta'lim beradi. Falsafada dunyoni anglash, uning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan bog'liq masalalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu masalalar bilan falsafaning gnoseologiya (yunoncha – gnosis, bilish logos – ta'limot) degan soha shug'ullanadi. Dunyoni bilish mumkin deb hisoblaydigan faylasuflarni gnostiklar; olamni bilish mumkin emas bilimlarimiz to'g'ri va aniq haqiqat darajasiga ko'tarila olmaydi deyuvchilarni esa agnostiklar (yunoncha – bilib bo'lmaydigan ma'noni anglatadi).

Odam va olam, ularning ibtidosi va intihosi, hayoti va o'zaro munosabatlari, inson tafakkuri, tabat va jamiyat taraqqiyotining umumiy qobiliyatlari falsafani azaliy muammolarini tashkil etadi.

Har bir kishiining dunyoga nisbatan o'z qarashi, o'zi va o'zgalar, hayot va olam to'g'risidagi tasavvurlari, xulosalari bo'ladi. Ana shu tasavvurlar, tushunchalar, qarash va xulosalar muayyan kishining boshqa odamlarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi. Shu ma'noda, dunyoqarash – insonning tevarak-atrofini kurshab turgan voqyelik to'g'risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o'zining undagi o'rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir. Dunyoqarash olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir.

Dunyoqarash – bu avvalo, inson o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi, tushunishi, bilishi va baholashi natijasida yuzaga kelgan xulosalari, bilimlari asosida shakllangan umumlashmalar tizimidir.

Dunyoqarashning ijtimoiy o'z-o'zini anglash sifatidagi xususiyati shuki, muhim hodisa va voqyealarga kishilarning o'z hayotiy maqsad va manfaatlari asosida, ularning shaxsiy yoki ijtimoiy mavqyelaridan kelib chiqqan holdagi munosabatlarining ifodalanishidir. Shunga ko'ra dunyoqarash insonning dunyoni kundalik ongda aks ettirishgina bo'lmay, balki uni qayta o'zlashtirish natijasi sifatidagi bilimlari hamdir.

Dunyoqarash – insoniyatning o'tmishi, hozirgi va kelajakdagi hayoti sharoitlarining anglab olingan qadriyatlari tizimidan iboratdir. Dunyoqarash kishilarning turmush tarzlari va hayotiy mavqyelarini, ularning aloq-odob me'yorlaridan tartib bir butun madaniyati va ma'naviyatigacha bo'lgan barcha jihatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Shu sababli dunyoqarashda butun insoniyat hayotiga oid ma'naviylikdan bahramandlik, insoniyat hayotining mazmunini anglash tajribasi jamuljam bo'lib, uning taraqqiyotida doimo eskirib qolgan nimalardandir voz kechish, nimalardandir avaylab asrash va yangi paydo bo'lgan tasavvurlar, qarashlar va bilimlarni qabul qilib olib, ularni yanada rivojlantirib borish muhim o'rin tutadi.

Dunyoqarashning bir kishiga yoki alohida shaxsga xos shakli individual dunyoqarash deyiladi. Guruh, partiya, millat yoki butun jamiyatga xos dunyoqarashlar majmuasi esa ijtimoiy dunyoqarash deb yuritiladi. Ijtimoiy dunyoqarash individual dunyoqarashlar yig'indisidan dunyoga keladi, deyish mumkin. Bunda ijtimoiy dunyoqarashning umumiy va xususiy shakllarini hisobga olish lozim.

Kundalik hayotiy tajribalar asosida jamiyatda, odamlarda oddiy, o'z-o'ziga rivojlanuvchi (stixiyali) mohiyatga ega bo'lgan qarashlar, tushunchalar, g'oyalar shakllanadi. Bu – dunyoqarashning o'z-o'zicha rivojlanuvchi (stixiyali) shakli hisoblanadi. Uni ko'pincha hayotiy falsafa, deb ham ataydilar. Hayotiy falsafaning doirasi juda keng bo'lib, ongning sodda namoyon bo'lish shakllarini ham, oqilona va sog'lom fikrlarni ham o'z ichiga oladi. Hayotiy falsafa yoki oddiy amaliy dunyoqarashning o'ziga xos turini inson faoliyatining turli sohalaridagi bilim va tajribalar ta'sirida shakllanayotgan qarashlar tashkil etadi. Dunyoqarash muayyan davrda shakllanadi. Shu ma'noda, har qanday dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy mohiyatga ega bo'lib, kishilarning umri, amaliy faoliyati, tabiatga ta'siri va mehnati jarayonida vujudga keladi. Har bir davrda ijtimoiy guruh, jamiyat va avlodning o'z dunyoqarashi mavjudligi ham bu tushunchaning tarixiy mohiyatga ega ekanligi ko'rsatdi.

Dunyoqarashning tarixiyligi yana shundaki, u ma'lum dialektik jarayonda takomillashib beradi. Uning shakllari o'zgaradi, tarixiy ko'rinishlari muttasil yangilanib turadi.

Dunyoqarashning tarixiy shakllari insoniyat taraqqiyotining qonuniy natijasi bo'lib, jamiyat rivojlanishining ma'naviy mezoni sifatida namoyon bo'lgan. Taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida kishilarning tabiatga, o'zlarining ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati turli rivoyat va afsonalarda o'z ifodasini topgan. Ular shu tariqa mifologik dunyoqarashni shakllantirgan.

Mifologik dunyoqarash qadimgi zamon kishilarining o'zlariga munosib hayot sharoitlarini yaratish ehtiyojlaridan kelib chiqqan.

Mifologik dunyoqarash voqyelikning xayoliy ingikosi sifatida asosan qadimgi davr kishilari uchun xarakterlidir. Bu dunyoqarash o'z ifodasini ko'proq qadimgi davrlarda yaratilgan naqlarda, rivoyat va afsonalarda topgan. Bu rivoyatlar va afsonalar ijtimoiy taraqqiyotning dastlabki davrlarda, uning turli bosqichlarida paydo bo'lib, ularda tasvirlangan obrazlar afsonaviy qahramonlar, xudolar, yovuz kuchlar bo'lishgan. Qadimgi kishilar bu afsona va rivoyatlarda tabiat va jamiyatning turli hodisa va voqyealarini umumlashtirib, ularni xayoliy shakllarda tasvirlaganlar. Bu bilan ularga bo'lgan munosabatlarini bildirganlar va olam haqidagi qarashi va tasavvurlarini tartibga tushirishga harakat qilganlar. Mifologik dunyoqarashning xususiyati shuki, unda hamma narsa va hodisalar bir-birining ishtirokchisi sifatida tasvirlanadi. Buning natijasida bir xil buyumlarning sifatlarini ikkinchi xil buyumlarga bemalol ko'chirish mumkin.

Mifologik dunyoqarashda tabiat kuchlari alohida jonli vujudlar ko'rinishida jonlantirib tasvirlanadi.

Dunyoqarashning ikkinchi tarixiy shakli-diniy dunyoqarashdir. Diniy dunyoqarash – olamdagi voqyea va hodisalar sabablarini ilohiy kuchlar, oldindan belgilangan maqsadlar bilan bog'lab tushuntirishdir.

Diniy dunyoqarashning boshlang'ich elementi – bu diniy tuyg'udir. Diniy tuyg'u bu kishilarning tabarruk va aziz, deb tasavvur qilinadigan mavjudotlarga, muqaddaslashtirilgan buyumlar, shasxlar, joylarga, bir-birlariga, o'z-o'ziga, shuningdek, ilohiy mazmunda talqin etilgan tabiat va jamiyat hodisalariga munosabatlarida paydo bo'ladigan hissiyotdir. Diniy tuyg'u tug'ma bo'lmaydi, u kishi yoki kishilar yashaydigan ijtimoiy va ruhiy shart-sharoitlar asosida vujudga keladi. Diniy tuyg'u kishidagi his-hayajon, kechinma, ruhiy holat bilan bog'liq bo'ladi. Shuni aytish kerakki, har qanday his-hayajon, ruhiy kechinma, diniy

tuyg'uni tug'idiravermaydi. Bu his- hayajon va ruhiy kechinmalar qachonki ma'lum diniy tasavvurlar, diniy g'oyalar va qarashlar bilan ko'shilib, ma'lum yo'nalish, ma'lum ma'no kasb etgan taqdiridagina diniy tuyg'uga aylanadi.

Diniy dunyoqarashning ikkinchi elementi – bu diniy aqidalaridir. Diniy aqidalar o'z mazmuni bilan dunyo va undagi voqeya – hodisalarni ilohiy e'tiqod asosida tushinish bilan bog'langan tasavvurlar va tushunchalardir. Masalan, bunday aqidalarning namunasi sifatida islom dinining sunmiylik mazhabida shakllangan iymon talablariga oid aqidalarni ko'rib chiqish mumkin. Ular Ollohning yagonaligi, farishtalarning mavjudligi, diniy kitoblarning muqaddasligi, ohiiratning borligi, taqdirning ilohiyligi, o'lgandan keyin qayta (qiyomat kuni) tirilish mumkinligidir.

Diniy dunyoqarashning navbatdagi elementi - bu biron buyumga, narsaga, hayvon va daraxtga, kishiga yoki xudoga sig'inishdir.

Sig'inish sodda yoki murakkab bo'lishi mumkin. Sig'inishning sodda ko'rinishi – kishilarning kundalik hayotida ilohiy kuchlarga toat-ibodat qilishidir. Sig'inish diniy tasavvurlar va g'oyalarni ifoda etuvchi, ilohiy kuchlarga, ilohiy obyektlarga qaratilgan yakka yoki jamoa bo'lib bajariladigan ramziy hatti-harakatdir. Masalan, tazim qilish, tiz cho'kish, sajda qilish, bosh egish, qo'l qovushtirish, chuqinish, toat-ibodat qilishlar sig'inishning sodda ko'rinishlaridir.

Namoz o'qish, Qur'on o'qish va o'qitish, qurbonlik va xudoyi qilish, diniy bayramlarni nishonlash sig'inishning murakkab shakllaridir. Sig'inish diniy e'tiqod bilan chambarchas bog'liq. Diniy e'tiqod diniy dunyoqarashning eng muhim elementi bo'lib, u g'ayri tabiiy kuchlar va ilohiy mavjudotlarga, diniy tasavvur va tushunchalarga diniy g'oyalar va qarashlarga so'zsiz ishonishidir. Dunyoqarashning navbatdagi shakli falsafiy dunyoqarashdir. Falsafiy dunyoqarash dunyoni, borliqni aqliy jihatdan umumlashtirib tushuntiruvchi nazariy qarashlar tizimidir. U diniy dunyoqarashdan farqli ravishda, insonning aqliy-intellektual faoliyatiga ko'proq e'tibor beradi. Shu sababli falsafiy dunyoqarashga har doim hur fikrlilik, fikriy teranlik kabi xususiyatlar xosdir. Falsafiy dunyoqarash bu aslida mantiqiy tahlil va umumlashtirishlar, mantiqiy muhokamalar va xulosa chiqarishlar, mantiqiy isbotlar va raddiyalar asosida nazariy fikr yuritishlar orqali dunyoni, borliqni tushunish, tushuntirish, baholash va izohlashdir. Falsafiy dunyoqarash, xayoliy obrazlar to'g'risidagi hayoliy obrazlar to'g'risidagi tasavvurlar va tushunchalarga emas, balki insonning borliqqa munosabati to'g'risidagi erkin, tanqidiy va ayni vaqtda umumiy aqliy mushoharalariga, nazariy umumlashmalariga asoslanadi. Falsafiy dunyoqarash, sodda qilib aytadigan bo'lsak, insonning olam, odam va borliqqa munosabatini ifodalovchi bilimlar

tizimdir. Falsafiy dunyoqarash borliq haqidagi ilmiy qarashlar tizimining o'z-o'zicha shakllangan (mexanik) yig'indisi emas, balki ularning umumiy qonuniyatlar asosidagi tizimidir. Falsafiy dunyoqarash tarkibida quyidagi tamoyillar namoyon bo'ladi:

ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, universallik, maqsadlilik, g'oyaviylik, nazariya va amaliyotning birligi.

3. Dunyoda xilma-xil fanlar bor. Muayyan sohaga oid ilmiy bilimlar tizimi fan deb ataladi. Ular «tabiiy fanlar», «Ijtimoiy fanlar», «Aniq fanlar», «texnika fanlari» kabi bir qator sohalarga bo'linadi.

Ma'lumki, inson o'z qiziqishi va ehtiyojlarini qondirish maqsadida qadim zamonlardan boshlab dunyoni bilishga harakat qilgan. Jamiyat taraqqiyoti yuksalib borishi bilan kishilarning bilim doirasi kengayib, tafakkuri rivojlanib bergan. Boshqacha aytganda, bilimlar tizimi insoniyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi mexanizmiga aylangan Falsafiy yunalishlar, tadqiqot olib boradigan sohasiga ko'ra, uziga xos bo'lib, asosiylari quyidagilardir:

Ontologiya – olam, inson va jamiyatning obyektiv universal mohiyati to'g'risidagi falsafiy ta'limot. Boshqacha aytganda, u borliq to'g'risidagi, insonning olamga bo'lgan munosabati haqidagi falsafiy bilish sohasidir. Gnoseologiya – bilish falsafasi bo'lib, olamni anglash, bilim nazariyasi, bilishning shakli, usullari va imkoniyatlari to'g'risidagi ta'limot.

Aksiologiya – qadriyatshunoslik yoki qadriyatlar to'g'risidagi falsafiy ta'limot.

Praksiologiya – insonning predmetli – o'zgartiruvchan, amaliy faoliyati to'g'risidagi falsafiy ta'limot.

Metodologiya – bilim va o'zgaruvchan faoliyat usullari to'g'risidagi ta'limot.

Logika – tafakkur shakllari (tushuncha, hukm, hulosa) va tafakkur vositalarini (ta'rif, qoida, muhokama, tafakkur qonuniyatlari), ularning mazmunidan qa'tiy nazar, xolis o'rganuvchi ta'limot.

Etika – axloq falsafasi, insoniyatning axloqiy tamoyillari, talab va tartib – qoidalari to'g'risidagi fan.

Estetika – nafosat falsafasi, jamiyat va inson xayotida go'zallikning o'rni, qonun – qoidalari to'g'risidagi qarashlar majmun. Bundan tashqari, inson falsafasi



(antropologiya), ijtimoiy falsafa, tabiat falsafasi, madaniyat falsafasi (antropologiya), san'at falsafasi, mafkura falsafasi (ideologiya), ma'naviyat falsafasi, din falsafasi (teologiya), siyosat falsafasi (politologiya), huquq falsafasi, texnika falsafasi kati sohalar ham mavjudki, ular bir so'z bilan ijtimoiy – falsafani fanlar tizimi deyiladi.

Insoniyatning yashashi, rivojlanish istiqbollari, orzu – havaslari, intilishlari, umidlari, turmush tarzi g'oyaviy qarashlarda ham o'z ifodasini topadi. Falsafiy g'oyalar, obrazli qilib aytganda, inson hayot tarzining ko'zguvidar. Har qanday falsafiy bilim dastlab g'oya tarzida shakllanadi.

Falsafiy g'oya insoniyat oldida turgan muayyan muammoni anglash va uni hal qilish maqsadi, uslub va vositalarining ifodasidir. Kishilarning narsa va xodisalarga o'z extiyoj va manfaatlari nuqtai nazaridan yondoshishi natijasida muammoga munosabat va uni hal qilishga qaratilgan amaliy, nazorat harakat paydo bo'ladi. Masalan, inson ongli mavjudot ekani bois o'zini muqarrar halokatga olib borishi mumkin bo'lgan g'ayriinsoniy g'oyalarga asoslangan xatti – harakatlarini chegaralashga, taqiqlashga qodir. Umumiyroq qilib aytsak, kishilarning yashash avlod qoldirish, hayotni davom ettirish mayli (instinsti) dunyoda nisbatan barqaror vaziyatni ta'minlab turadi.

Bugungi kunda tinchlik g'oyasi umumiysoniy maqsadlarni birlashtiruvchi falsafiy g'oyaga aylandi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblarida aytilganidek: «Odamning qalbida ikkita kuch – bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha o'zaro kurashadi. Afsus bilan ta'qidlashimiz lozim: tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatdagi insoniylikdan ko'ra vaxshiylik, ur iyqit instinktlari, ya'ni hatti-harakatlarini qo'zg'atish osonroq<sup>7</sup>.

Bunda ikki xil jihatga e'tibor berish lozim. Birinchisi tor doiradagi mutaasib kuchlarning g'ayrinsoniy g'oyalarni yoshlar ongiga, turmush tarziga singdirish yo'li bilan uzlarining muayyan maqsadlariga erishishni ko'zlagan xatti – xarakatining oldini olish uchun ehtiyot va xushyor bo'lmoq kerak. Ikkinchisi esa, sog'lom quchlarning ularga karshi insonni inson degan nomga munosib qilib tarbiyalash va sivilizasiyani saqlab qolish hamda rivojlantirish manfaatlari uchun kurashdir.

Har kanday manfaat shakllari va darajalari muayyan falsafiy g'oya va nazariyalarda o'z ifodasini topadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, g'oya va

---

<sup>7</sup> Islom Karimov. Миллий истиъллол мафкураси – калъ эътильоди ва буюк келажакка ишончдир. Т., 2000 й., 10-бет.

nazariyalar o'rtasida doimiy kurash borishi tabiiy hol. Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, «Hayotning o'zi turli – tuman g'oyalar kurashidan, bahsu munozaralardan iborat. Taraqqiyotning ma'no – mazmuni, kerak bo'lsa, falsafasi ham shunda...» O'z mustaqil fikriga ega bo'lgan, o'z kuchiga, o'zi tanlagan yulning to'g'riligiga ishongan inson doimo kelajakka ishonch bilan qaraydi. Jamiyatdagi fikrlar xilma – xilligidan cho'chimaydi, balki zamonaviy bilim va falsafiy qarashlarga, hayot haqiqatiga suyangan holda har qanday g'arazli niyat, taxdid va intilishlarni fosh qilishga qodir bo'ladi<sup>8</sup>.

Falsafa fanining dunyoqarashni shakllantirish borasidagi vazifasi quyidagilardan namoyon bo'ladi:

- birinchidan, inson qarashlarining shakllanish imkoniyatlari, inson qarashlarining shakllanish imkoniyatlari usul va vositalarini, ularning kundalik ong darajasidan nazariy g'oyalar darajasiga ko'tarilishi jarayonini, mifologik dunyoqarashdan farqlarini aniqlash;

- ikkinchidan, milliy dunyoqarashni shakllantirishdagi turli fan yo'nalishlarning muayyan vazifalarini, ularning bir-biri bilan g'oyaviy hamkorlik qilish va uyg'unlashuv moyilini ko'rsatish;

- uchinchidan, ilmiy dunyoqarashning milliy va umuminsoniy manfaatlariga mos kelishini aniqlash.

Falsafa fanining uslubiy vazifasini izohlash uchun, avvalo uslub (metodologiya) tushunchasini bilib olish lozim. Metodologiya falsafa fanining tadqiqot obyektni o'rganishga yo'naltirilgan eng umumiy tamoyillar usul va vositalar tizimidir. Metodologiya so'zining mantiqiy mazmuni ham borliqni bilishning usul va vositalari haqidagi ta'limot, degan ma'noni anglatadi. Shu ma'noda falsafa boshqa fanlar uchun metodologiyadir.

Falsafaning metodologik (uslubiy) vazifasi insonning olamni o'zlashtirish va o'zgartirishdan iborat tarixiy jarayonlarning umumiy qonuniyatlarini tushuncha va kategoriyalar yordamida tabiat, jamiyat va inson borligi, mavjudligini uning metodologik vazifasi belgilaydi.

Metodologik vazifa quyidagi masalalar va muammolarni o'rta qo'yish va hal etishda izohlanadi:

---

<sup>8</sup> Ислом Каримов. Миллий истиъллол мафкураси – калъ эътиълоди ва буюк келажакка ишончдир. Т., 2000 й., 28-29 бетлар.

- falsafa bilan ma'naviy olamni o'zlashtirishning boshqa shakllari o'rtasidagi munosabat masalasini o'rganish;

- olamni o'zlashtirishning falsafiy uslublarining o'ziga xos xususiyatlarini va ulardan umumiy foydalanish yo'llarini aniqlash;

- ilmiy tadqiqotlarning xususiy usublari bilan falsafaning umumiy usublari o'rtasidagi hamkorlikni aniqlash;

- amaliy ishlarning samarali uslublarini ishlab chiqish va foydalanish haqida zarur bilimlar berish;

Falsafaning metodologik vazifasi quyidagi munosabatlarni tahlil etishda ko'rinadi;

- bilim va hayotning o'zaro munosabatlari, bilish jarayonida subyekt (inson) va obyekt (narsa, hodisa) o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda;

- insonning olamga ma'rifiy va amaliy munosabatlari tizimida muayyan bilim turlarining vositalari, tamoyillari, tadqiqot usullari va uslublarining o'rni va rolini aniqlashda;

Falsafa fanining boshqa fanlarga nisbatan metodologik vazifasi quyidagilarda namoyon bo'ladi;

1) falsafa fanining metodologik vazifasi olamning substansiyaviy (javhariy) yagonaligi, olamni bilish mumkinligi, barcha qismlarning o'zaro aloqadorligi va rivojlanishda ekanligi, ziddiyatlilik holati, olam hodisalarining obyektiv (o'zicha) mavjudligi, unga vorislik xosligi kabi nazariy qoidalar va tamoyillardan boshqa fanlar tadqiqotchilari uchun ham o'z muammolarini o'rganishda foydalanish mumkinligida;

2) olamdagi narsa va hodisalarni o'rganishda ularning yakkaligi va alohidaligini falsafaning umumiy tamoyillari bilan qiyoslashda, (chunki bunday qiyoslashda insoniyatning tarixiy tajribasi, ma'rifiy va amaliy tajribasi jamlangan).

3) insoniyat tarixiy, ma'rifiy va amaliy tajribasidan ilmiy-falsafiy bashoratlarning nazariy asosan sifatida foydalanish, istiqboldagi analogiyalar o'xshash hodisalar va ekstrapolyasiyalarni oldindan bilishda (chunki bularsiz ilmiy tadqiqotlar mukammal bo'lmaydi).

4) falsafiy tamoyillarining asosli, binobarin, evristik (ya'ni, kashf etuvchi) ekanligi tufayli bu tamoyillarni (narsa, hodisalarning o'zaro aloqadorligi), o'zaro munosabati, xususiy fanlar bilan birgaligi (birga ish ko'rishi) bu tamoyillarning

samaradorligini oshiradi; ilmiy va ma'naviy, gumanitar bilimlarni egallashdagi muvafaqqiyatlarni falsafiy mushohada qilib umumlashtiradi.

Falsafaning gnoseologik vazifasi, uning borliqni bilish uchun umumiy metodlar tizimini yaratishi bilan bog'liq. Bunda bilimlarning haqiqiyligi masalasi asosiy o'rin tutadi. Falsafaning gnoseologik vazifasi, ong va dunyoni bilish masalasiga bag'ishlangan ma'ruzalarimizda ancha batafsil ma'lumotlar berish ko'zda tutilgan.

Falsafaning evristik vazifasi («evrika» yunoncha so'z bo'lib, kashf etish, degan ma'noni anglatadi) gnoseologik vazifasi bilan bog'liq bo'lib, tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojlanishining umumiy yangi qonuniyatlarini kashf etishni xarakterlaydi. Shu bilan birgalikda, bu vazifaga o'zini o'zi anglashni, milliy o'zlikni anglashni ham kiritish maqsadga muvofiq. Zero, inson va millatning o'zligini anglashi o'z tarixining haqqoniy qisralarini va kelajak istiqbollari kashf etish bilan belgilanadi. Falsafa tarbiyaviy vazifani bajaradi. Insonning ma'naviy barkamolikka yetishishida falsafaning o'rni va ahamiti kattadir.

Xususan, «Axloq falsafiy» kishida yuksak axloqiy me'yorlar-vatanparvarlik, mehnatsevarlik, g'oyaviylik, e'tiqod, ijtimoiy-siyosiy faollik va ma'suliyatni his etish tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Falsafaning proksiologik vazifasi falsafiy g'oya va nazariyaning ijtimoiy hayotga amaliy tadbiiq etilishi bilan izohlanadi. Har qanday amaliy faoliyat mustahkam ilmiy nazariyaga asoslanmasa, salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

4. Falsafiy tafakkur rivoji insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq jarayondir. Ma'lumki, hayotdagi voqeya hodisalarning barchasi ijtimoiy ongda aks etadi. Taraqqiyot jarayonida davrlar o'zgarishi bilan unga xos ma'naviy, huquqiy, siyosiy va falsafiy mezonlar ham shakllana boshlaydi. Ammo bu o'z-o'zidan yuz bermaydi.

Ayniqsa, inson tafakkurining o'zgarishi dunyoqarashning yangicha tamoyillarga ega bo'lishi uzoq davom etadigan murokkab jarayondir. Bu hol bizning kunlarimizda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi kunda jamiyatimizda istiqlol g'oyalariga asoslanadigan yangi dunyoqarashni shakllantirish asosiy vazifa bo'lib turibdi. Zero, inson dunyoqarashini, uning asosiy tamoyillarini o'zgartirmasdan, yangi jamiyatni qurish qiyin.

Istiqlolga erishganimizdan buyon tarixan qisqa davr o'tgan bo'lsa-da, mustaqil taraqqiyot mamlakatdagi ulkan imkoniyatlarni ruyobga chiqarishning yagona va muxim omili ekani o'zining to'liq isbotini topdi. Zero, faqat mustaqillikkina har bir xalqqa o'z falsafasini erkin rivojlantirish, takomillashtirish imkonini beradi. Mustaqillik yillarida falsafaning yangilanishi uchun zarur asoslar shakllandi. Eski, sobiq ittifoq davridagi iqtisodiyt yangi mazmundagi falsafani shakllantirish uchun asos bo'la olmas edi.

Ijtimoiy-siyosiy asoslar. Falsafaning siyosiy asoslari mustahkam bo'lishi zarurligi tarixiy taraqqiyot jarayonida ko'p bor isbotlangan ijtimoiy haqiqatdir.

Ma'naviy asoslar falsafaning yangilanishda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Falsafiy dunyoqarash o'zgarishining muhim jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, falsafiy dunyoqarashning yangilanishi ijtimoiy jarayondir. Ya'ni u, avvalo, taraqqiyotning bir bosqichdan ikkinchisiga o'tayotgan mamlakatdagi ijtimoiy munosabatlardagi uzluksiz o'zgarishning tarkibiy qismidir. Falsafadagi yangilanish jamiyatdan, o'z davridan, ro'y berayotgan ijtimoiy jarayonlardan tashqarida sodir bo'ladigan hodisalar yig'indisi emas. Balki u o'zida ana shu ijtimoiy jarayonlarning barcha asosiy xususiyatlarini aks ettiradi.

Ikkinchidan, mustaqillika erishgan va uni mustaxkamlashga harakat qilayotgan mamlakatimiz uchun bu tarixiy zaruratdir. Ya'ni, u tasodifiy namoyon bo'ladigan o'tkinchi hodisa emas. Balki o'tish davrining zaruriyati, jamiyatni tubdan isloh qilish, odamlarda yangicha tafakkurini shakllantirishdagi asosiy yo'nalishlardan biridir.

Uchinchidan, falsafiy dunyoqarashning yangilanishi nafaqat umumiy ma'naviy muhitning balki har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarning o'zgarishi hamdir. Shu ma'noda, u buyuk alloma bobomiz Abu Nasr Farobiy orzu qilgan fozil odamlarning komil fazilatlarini shakllantiradigan va takomillashtirilgan jarayondir. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, u g'oyat murakkab ruhiy o'zgarishlar, odamlarning qullik psixologisi va mustabid tuzumga xos mafkuraviy asoratlardan xalos bo'lish jarayoni hamdir.

To'rtinchidan, falsafiy ongning yangilanishi muayyan bir davrda amalga oshadi. Bu jarayon bizning mamlakatda o'tishi davriga to'g'ri kelmoqda. Ana shu davrda ijtimoiy muhitda yangi jihatlari vujudga keladi, odamlarning ruhiyati, qarashlarida tub o'zgarishlar ro'y beradi.

Beshinchidan, falsafiy dunyoqarashning yangilanish inkor va vorislik jarayoni hamdir.

Unda, bir tomondan, o'zbek falsafasida azaldan mavjud bo'lgan, hatto sobiq mustabid tuzum ham yo'qota olmagan ko'p jihatlarning saqlanib qolishi kuzatiladi. Ikkinchi tomondan, yaqingacha ustuvor bo'lgan ko'pgina sinfiy-partiyaviy tamoyillar o'tmishga aylanadi, inkor etiladi. Uchinchi tomondan esa, falsafiy tafakkurda yangi yo'nalishlar o'z o'rnini topadi.

Falsafa yangilanish xususiyatlari o'ziga xos namoyon bo'ladi. Dunyoqarashning yangilanishi keng qarovli tushuncha sifatida xilma-xil xususiyat va yo'nalishlarga ega. Avvalo, uning har bir kishiga xos individual ong bilan uzviy aloqadorligi va unga tayanishini alohida ta'kidlash lozim. Bu jihatdan u insonning insoniylik bilan bog'liq xususiyatlarini takomillashtiruvchi kuchini belgilaydi.

Falsafaning yangilanishi va g'oyaviy jarayonlar uzviy bog'liq. Falsafiy dunyoqarash ijtimoiy ongdan ajralmasdir. Mafkura jamiyatdagi ma'naviy muhit qanday ekanini ko'rsatib turadigan eng asosiy mezonlardan biri bo'lsa, falsafa uni shakllantiradigan omillar sirasiga kiradi. Har qanday mafkura jamiyatsiz paydo bo'lmaganidek, ijtimoiy hayotni ham mafkurasiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Falsafiy dunyoqarashning yangilanishi uchun istibdod va eski mustabid siyosat tufayli ongimizga singib ketgan mutelik, loqaydlik, boqimandalik, sustkashlik, ma'suliyatdan qochish kabi asoratlardan xolos bo'lish darkor. Bu asoratlar ham osonlikcha bartaraf etilmaydi. Bunda, avvalo, jamiyatning siyosiy-huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy hayotida yuz beradigan ijobiy o'zgarishlar uni harakatlantiruvchi, taraqqiy ettiruvchi asosiy omil-inson tafakkuri, ruhiyati, his-tuyg'ulariga samarali ta'sir etadi. Shu bilan bog'liq ravishda, Vatan va xalq tarixi, ma'naviy-madaniy meros, ona tili, din, milliy turmush tarzi, milliy urf-odatlarini yangi davrning mohiyat-mazmunidan kelib chiqqan holda tiklash, boyitish va milliy g'urur-iftixorning yuksalishida juda ulkan o'rin tutadi.

Dunyoqarashni yangilash zarurati bir qator yo'nalishlarda namoyon bo'ladi.

1. Avvalo, bu kelajagi buyuk davlatni barpo etish bilan bog'liq. Bunda ana shu yaratilajak yangi jamiyat haqida, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining qaror topa borishi, islohatlarning inson manfaatlariga xizmat qilishi, milliy uyg'onish ijtimoiy taraqqiyot taqozosi, komil insonni voyaga yetkazish davr talabi ekani kabi dasturiy vazifalarning hayotiyiligi to'g'risidagi g'oyalarni odamlar dunyoqarashida qaror toptirish zarur.

2. Falsafiy ongning yangilanishi mohiyat e'tibori bilan mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro nufuzi va aloqalarining o'sib borishi, tinchlik, osoyishtalik, milliy totuvlik, bahamjihatlikka xizmat qiluvchi g'oyalarga tayanadi. Uning hayotiyliigi xalq irodasiga, ruhiyatiga, milliy tuyg'ulari, orzu-intilishlariga mosligi bilan belgilanadi.

3. Albatta, falsafadagi yangilanish millat va Vatan manfaatlari, istiqbol rejaları milliy qadriyatlarimiz ruhiga mos holda kechadi. Bu esa, o'z navbatida, yurtimizda kechayotgan islohotlar jarayoni, davlatimizning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy hayotidagi ijobiy o'zgarishlar to'g'risida halqimizda to'g'ri tasavvur va tushunchalarni hosil qilib borish lozimligini ko'rsatadi.

4. Falsafiy tafakkur yangilanishi taqozo etadigan eng muhim vazifa poklanish jarayoni odamlar ruhiyati va tafakkurida amaliy tus olish uchun O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida mujassam etilgan maqsad va g'oyalarni amalga oshirish yo'lida xizmat qilishdir. Bu maqsad va g'oyalar omma manfaatlarini aks ettirgani bois ularni ma'naviy hayot tarzining tarkibiy qismiga aylantirish muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda O'zbekistonda qabul qilinayotgan qonun va boshqa xujjatlarning asl mohiyatini, ular bayon qilingan g'oya, xulosalar, takliflarni keng xalq ommasiga yetkazish benihoya muhim va dolzarb ekanini ta'kidlash joiz. Chunki huquqiy jamiyat va ma'rifatli barkamol inson tushunchalari o'zaro bog'liqdir. Madaniy bozorni ham, ma'naviy sog'lom jamiyatni ham ana shunday kishilar yaratadi. Ularni voyaga yetkazmay turib, jamiyatdagi yangilanishning asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish to'g'risida fikr yuritish qiyin.

5. Mamlakatimiz mustaqilligi, tinchligi, uning fuqarolari totuvligi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning qadriga yetish, jamiyatimiz hayot tarziga xavf solishi mumkin bo'lgan taqdirlarga qarshi ogohlilikni kuchaytirishda falsafa va umuman, ijtimoiy fanlarning shu jumladan «Ochiq axborot tuzilmalarida axborot-psixologik xavfsizlik» fanning ahamiyati beqiyosdir. Shu bois, o'z halqi tarixini, o'z milliy madaniyatini, urf odat va an'alarini yaxshi biladigan, milliy g'ururi yuksak avlodni tarbiyalash falsafaning muhim vazifasidir.

6. Falsafiy dunyoqarashning yangilanishi mohiyat e'tiboriga ko'ra, insondan, uning ijtimoiy xususiyatlari takomillashuvidan chetda kechadigan jarayon emas. U nafaqat umumjamiyat miqyosidagi, balki har bir inson kamoloti uchun ham zarur shart-sharoit yaratadigan jarayondir. Shu ma'noda, u ham, jamiyatdagi boshqa o'zgarishlar kabi, avvalo, inson uchun, uning kamoli va hayot farovonligini ta'minlaydigan islohotdir.

## **2-mavzu: Qadimgi sharq va antik dunyo falsafasi.**

### **Reja:**

1. Sharq-jahon sivilizasiyasi markazlaridan biri Misr, Bobil falsafasi.
2. Qadimgi Hind va Qadimgi Xitoy falsafasi.
3. Qadimgi Yunoniston va Rim falsafasi.

**Tayanch iboralar:** Jahon sivilizasiyasining rang-barangligi. Ilk falsafiy qarashlarning kelib chiqishi. Misr, Bobil falsafasi. Vedalar, upatishadalar, Jaynizm, hinduizm, buddizm. Konfusiy va Loa-Szi, Daosizm. Geraklit. Pifagor. Milet va Eley maktablari. Suqrot. Aflotun. Demokrit. Qadimgi Rim falsafasi. Xristianlikning shakllanishi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustaxkam irodasiga ishonaman.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2000-2005 yillar, 1-9-jildlardagi mavzuga tegishli maqolalar.
3. Falsafa asoslari. T., «O'zbekiston», 2005, 51-65-betlar.
4. Falsafa. Qomusiy lug'at. T., 2004
5. Falsafa. Qisqacha izohli lug'at. T., 2004
6. Falsafa. O'quv qo'llanma. T., 1999, 47-54-betlar
7. Falsafa. Ma'ruza matnlari. T., 2000, 67-80-betlar
8. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. T., 1999, 1-qism
9. Yo'ldoshev S. Aflotun T., 1997
10. Yo'ldoshev S. Arastu. T., 1998
11. Yo'ldoshev S. Antik falsafa. T., 1999
12. Qadimgi va O'rta asr G'rabiyy Yevropa falsafasi. T., 2003, 3-134-betlar
13. G'arb falsafasi. T., 2004, 3-204-betlar
14. Falsafa asoslari. T., 2005



## 15. Falsafa (M.Axmatova umumiy tahriri ostida) T., 2006

1-masala. Prezidentimiz I.A.Karimov «Fidokor» gazetasini muxburining savollariga bergan javoblarida ta'kidlaganidek: «Biroq bizda haligacha falsafa bo'yicha talab darajasidagi darsliklar «Jahon falsafasi», «Sharq falsafasi» kabi zarur kitoblar yaratilmayotganligini qanday izohlash mumkin? Dunyo tan olgan ko'p ulug' faylasuflarning asarlari hanuzgacha o'zbek tilida nashr etilmagani tufayli aksariyat ziyolilar, xususan, yoshlarimiz ularning g'oyaviy qarashlari bilan yaxshi tanish emas. Suqrot va aplotun, Nisshe va Freyd kabi olimlarning, hozirgi zamon chet el faylasuflarning kitoblarini ham tushunarli qilib, izoh va sharhlar bilan o'zbek tilida chop etish mumkin bo'lmasa?» Haqiqatdan ham Prezidentimiz I.a.karimov e'tirof etganidek, o'zbek tilida hind falsafasi, Xitoy falsafasi, Yunon falsafasi va hozirgi zamon chet el faylasuflarining asarlaridan deyarli tarjima qilinmaganligi achinarli hol.

Mustaqillik sharofati ila falsafa sohasida ancha ishlar amalga oshirildi. Darsliklar, o'quv qo'llanmalar hamda ma'ruza matnlari chop etildi. Ammo chop etilgan darsliklar o'qo'uv qo'llanmalari va ma'ruza matnlari ham ayrim kamchilik va nuqsonlardan xoli bo'la olmaganligini tan olishimiz kerak. Jamiyat taraqqiyoti natijasida kishilarning hayotiy faoliyatlari kengayib, aqliy zakovati ham boyib borishi tabiiy jarayon.

Insoniyat tarixidagi har bir davr falsafiy masalalarni tadqiq qilishda o'ziga xos yo'lni tanlab, o'z davri nuqtai nazaridan tahlil qilib kelgan. Mifologik va diniy dunyoqarash zaminida paydo bo'lgan falsafiy dunyoqarash insonlar ma'naviy hayotining yangi bosqichiga ko'tarildi, natijada dunyoni aql ko'zi, tafakkur salohiyati bilan o'rganish boshlandi, ya'ni dunyoni ilmiy tushunishning zamini yaratildi. Falsafa tarixida bir-biriga o'xshamagan, hatto bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan qarashlar, tizimlar, fikrlar paydo bo'lsa-da, ularning hammasi falsafiy tafakkurning rivojlanishida biror darajada xizmat qilgan.

Sharq qadimiy madaniyat o'chog'i va jahon sivilizasiyasining beshigi deya bejiz ta'riflanmagan. G'arb madaniyati tarixini o'rganish jarayonida Yevropasentrizm nazariyasiga og'ib ketish g'ayriilmiy bo'lgani kabi masalaning Sharq bilan bog'liq jihatini tahlil etganda ham Osiyosentrizm g'oyalari ta'siriga tushmaslik lozim.

Shu bilan birga, Sharqning o'ziga xosligi, unga mansub bo'lgan madaniy taraqqiyot jahon sivilizasiyasining beshigi, dunyo xalqlari rivojiga qo'shilgan

munosib hissa ekani ham sir emas. Bu hol jahonning barcha xolis mutaxassis olimlari tomonidan e'tirof etiladi. Qolaversa, Vatanimiz sivilizasiyasining sharq sivilizasiyasi quchog'ida voyaga yetgani va uning qadriyatlarini o'zida aks ettirganini, unga va butun dunyo madaniyatiga ulkan ta'sir ko'rsatganini doimo esda tutish darkor.

Sharq madaniyati taraqqiyotining ilk davrlari deganda, ko'pgina mutaxassislar bizning Vatanimiz o'tmishini, Misr, Bobil va insoniyat tarixining eng qadimgi sivilizasiyalaridan biri bo'lgan Shumer davrlarini esga oladi. Bularning har biri insoniyat tarixida jamiyat hayoti, qadriyatlar tizimining o'ziga xosligi, boshqarish va iqtisodiy jarayonlarning muayyan tarzda namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu madaniyat o'choqlari haqida maktab ta'limi jarayonida «Eng qadimgi tarix» darsliklari orqali ma'lumot berilgan. Zukko talabalar o'sha davrlarda qanday siyosiy jarayonlar kechgani, qanday podsholik va imperiyalar bo'lganini yaxshi biladi. Biz bugun o'sha davrlardagi falsafiy dunyoqarash, qadimgi ajdodlarimizning fikr-mulohazalari, o'ziga xos ta'limotlarning asosiy tamoyillari bilan yaqinroq tanishmoqchimiz. Ko'xna Sharq sivilizasiyasining beshiklaridan biri bo'lgan Misr, qadimgi zamonda ilk o'troq hayot va o'ziga xos dehqonchilik an'analari boshlangan Nil daryosi bo'ylaridagi madaniyat dunyo olimlari diqqatini tortib keladi.

Bizlarga ma'lumki Qadimgi Sharq va antiq dunyo falsafasi dastavval mifologik dunyoqarash tarzida vujudga kelganligini bilamiz.

Shuningdek, Qadimgi Sharq va antik dunyo falsafasining shakllanishi va taraqqiyotining o'ziga xos umumiy va xususiy jihatlari va qonuniyatlari mavjud. Ularga xos bo'lgan umumiy qonuniyat: sharqda ham antik dunyo falsafasi ham yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek mifologiyaga asoslanadi.

Falsafa ma'lumki mifologik dunyoqarash voqyealikning xayoliy in'ikosi sifatida asosan qadimgi davr kishilari uchun xarakterlidir. Qadimgi kishilar bu afsona va voqyealarni umumlashtirib, ularni xayoliy shakllarda tasvirlaganlar. Mifologik dunyoqarashda tabiat kuchlari alohida jonli vujudlar ko'rinishida jonlantirib tasvirlanadi. Shuning bilan bir qatorda falsafiy masalalar ham vujudga kela boshlaydi. Falsafiy dunyoqarash ko'r-ko'rona e'tiqodlar, xayoliy obrazlar to'g'risidagi tasavvurlar va tushunchalarga emas, balki borliqqa munosabati to'g'risidagi erkin, tanqidiy va ayni vaqtda umumlashmalarga asoslanib, olam qanday vujudga kelib, qanday rivojlanadi; hayot va o'lim o'zi nima kabi masalalar bilan bir qatorda yaxshilik va yomonlik, adolatlatlilik va adolatsizlik singari umuminsoniy qadriyatlarni ishlab chiqish kabi masalalar bilan ham Sharq, ham antik dunyo falsafasi shug'ullanib kelgan.

Qadimgi antik dunyo falsafasi to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, uning eramizdan oldingi birinchi ming yillikda Qadimgi Xitoy, Hindiston va Yunonistonda vujudga kelgan sivilizasiya bilan bog'liq zkanligini aytib o'tish kerak. Eramizdan oldingi VI asrlarda eski ijtimoiy hayotning buzilib, yangicha yashashning boshlanishi, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy zamin, shuningdek ma'naviy imkoniyatlarning vujudga kelishi bilan Qadimgi davr sivilizasiyasi natijasi o'laroq dunyoni chuqurroq va atroflicha o'rganishni o'z maqsadi qilib qo'ygan falsafiy dunyoqarash paydo bo'ldi.

Falsafa jamiyatdagi quyidagi ehtiyojlar tufayli shakllana boshladi:

a) taraqqiy etayotgan olamga, insonga, uning ongiga qarashlarga doir ta'limotlarni yaratish zaruriyati;

b) olamning boshlag'ich asoslari va rivojlanish qonuniyatlarini ishlab chiqish kerakligi;

v) olam haqidagi tafakkurning oqilona uslubiga mantiqiy fikrlashga va bilish nazariyasiga tug'ilgan ehtiyojlar paydo bo'lganligi;

g) afsonaviy va diniy tasavvurlardagi xayoliy fikrlarga asoslangan odamlarning ilmiy bilishdagi falsafiy tafakkur qilishdagi ongsizlikka barham berish zaruriyati.

Falsafaning rivojlanib borishi jarayonida undan dastlab matematika, geometriya, astronomiya(er.av I-II asr va er. I-II asrlari), keyinchalik fizika, ximiya,biologiya fiziologiya, so'ngra ijtimoiy va gumanitar fanlar ajralib chiqdi. Bu fanlar avval dalillar to'plash, ularni bir, tizimga solish va umumlashtirish bilan shug'ullandilar. Qadimgi Sharq falsafasida ham, antik dunyo falsafasida ham dunyoning ayrim tomonlarini alohida o'rganayotgan fanlar o'rtasidagi aloqadorlik va bog'lanishlarni tahlil eta boshlagani uchun fanlar go'yo falsafaning qismlari sifatida tasavvur etildi vafalsafani «fanlar fani» deb e'lon qilindi. Qadimgi Misr adabiyotining nodir asari «Arfist qo'shig'i» da dinni rad etuvchi fikrlar bor.Unda: «O'lganlardan hych biri qaytib kelgan emas va oxirat haqida so'zlab bergan emas, demak, oxirat yo'q. Oxiratga ishonguncha, shu dunyoda harakat qiling»,- deyiladi.

Eramizdan avvalgi to'rtinchi ming yillikning oxiri va uchinchi ming yillik boshlarida qadimgi Misrda dastlabki diniy-falsafiy fikrlar rivoj topgan.

Jahon mahnaviyati durdonalaridan biri Misr madaniyatidir. Misr mifologiyasida ijtimoiy hayot haqida, hayot ma'nosi to'g'risida fikr ritib, dunyo ne'matlaridan bahramand bo'lib, shod-hurram yashashga, o'lim vahimasiga

tushmaslikka da'vat etganlar. «Nasixatnoma» asarida odamlarni bilim olishga, unga ixlos qo'yishga chaqiriladi. Dastlabki taqvim (kalendar), tibbiyotga doir asarlar misrda paydo bo'lgani shu da'vatlarning dastlabki samaralari edi.

Qadimgi Misr yodgorliklarida tibbiy hodisalar moddiy ibtidosi haqida fikrlar bor. Ularda hamma narsalarning asosi suv, butun koinotda havo mavjud deyilgan. Ba'zi Misr yodgorliklarida «inson o'lgach, uning jismi kulga aylanadi», «o'z nomining abadiy qolishini hohlagan kishi oxirat haqida hayol qilmasdan, bu dunyo ishlari bilan shug'ullanishi lozim» deyilgan. Bobilda, xususan, Xammurapi davrida (er.av IV ming yillikning boshlari) quldorlik tuzimining ijtimoiy ziddiyatlari keskin tus oldai. Ishlab chiqarishning taraqqiy etishi bilan Bobilda astronomiya, matematika, geografiya fanlarida ma'lum yutuqlarga erishildi.

Bobil olimlari algebraning asoslarini, kvadrat va kub ildizlarni chiqarishni bilganlar, astronomlar osmon yulduzlari kartasini chizganlar. er. Av. II asrda yashagan Bobillik Selevka hatto olamning geliosentrik tuzilishi haqida faraz qilgan.

Byuobilda dastlabki falsafiy fikrlar 6 ming yil muqaddam boshlandi. O'sha davrlarda «Gilgamesh haqidagi doston», «Adapa» doston, «Xujayinning qul bilan suhbat» badiiy asari juda katta shuhrat qozondi. Bu asarda diniy qarashlar qattiq tanqid qilindi. Bu asar Bobilda qulchilik rivojlangan paytda jamiyatning bir tomonda boylik, ikkinchi tomonda ochlik, qashshoqlik o'sgan bir paytda vujudga kelgan. Bu yodgorlikda qul donishmand, hayotining mazmunini to'g'ri tushunadigan qilib tasvirlangan. Unda xudo yo'liga qilinadigan qurbonliklarning xojati yo'q, chunki xudo ovqatga muhtoj emas, deb diniy-mifologik qarashlar ustidan kulinadi.

Oxirat, jannat kabi diniy fikrlar rad etiladi. Tekstda qo'yidagi fikrlarni o'qiymiz: «Tepalikka chiqib qarigin, shaharlardagi vayronliklarni ko'rgin, o'lgan va oddiy odamlarning kalla suyagiga nazar tashlagin. O'lim hammani baravar qilgan, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi».

2-masala. Qadimgi Hindiston falsafasi Hindiston hududida topilgan eng qadimgi yozma yodgorliklarga (2500-1700 yy) asoslanadigan antik falsafa shakli.

Qadimgi hind jamiyati hayot haqidagi ilk manba Vedalar hisoblanadi. Hindistonning qadimiy gimni, falsafiy qarashlari uning madaniy merosining yozma yodgorliklarida, asosan 4 vedada (bilimlar, diniy gimnlar, qo'shiqlar to'plami) o'z ifodasini topgan. Bu vedalardan eng muhimi Rigveda bo'lib, eramizdan taxminan

1500 yil oldin maydonga kelgan. Qolganlari esa Yajurveda, Samaveda va Atxarvedalardan iborat. Eramizdan 1000 yil oldin Upanishad (maxfiy ta'limot) oqimi vujudga kelib, uning ijodiy mahsullikda, deb tushuntiradi. Upanishadlar falsafasining mohiyati shundaki, u jonni ruh bilan tenglashtiradi. Upanishadlarcha, tan jonning qobig'i bo'lib, jon esa – dunyoviy ruhning bir bo'lagidir. Upanishadlardagi falsafiy mavzular asosan insonni o'rab turgan borliq, uning hayotidagi o'rni va vazifasi, tashqi olam va inson tabiati, uning hayoti va ruhiyatining mohiyati, bilish imkoniyatining chegaralari axloq me'yorlari haqidadir. Falsafiy muammolar asosan diniy-mifologik nuqtai nazardan bayon etilgan.

Jaynizm (hindcha «jinna» - «g'olib») – eramizdan avvalgi 1-yillik o'rtalarida qadimgi Hindistonda yuzaga kelgan va olamning asosida ikki ibtido: materiya va jon yotadi, deb hisoblaydigan ta'limot. Jaynizm ta'limotiga ko'r. Insonning asosiy maqsadi tashqi olam xukmronligidan qutulish va kamolga erishishdir. Inson tabiati ham moddiy, ham ruhiydir. Jon bir vaqtning o'zida nafis jon (jiva) va dag'al materiya (ajiva)ning birligidan iborat. Insonning joni 9jivasi) qanday bo'lsa, u ham shunday bo'ladi, bu holat esa karma-nafis materiyaga bog'liq. Karma jonni (jivani) o'z ta'siridan chiqarmaydi. Yaxshi yoki yovuz karmalar mavjud. Bu esa insonlarning turli shaxsiy sifatlarini belgilaydi. Jaynizm ta'limotining tarafdorlari inson kamolikka erishishi mumkin, buning uchun inson o'z karmasiga rioya qilishi va o'z ehtiroslaridan qutilishga intilishi kerak. Inson yovuz karmadan xalos bo'lishi uchun ezgu ishlarni bajarishi lozim. Deb hisoblaydilar.

Jaynizm da dunyoning tuzilishi va mohiyati haqida turli g'oyalar ilgari surilgan. Bu dunyo abadiy, u hech kim tomonidan yaratilmagan va u yo'q qilib tashlanmaydi. Olamda ketma-ketlik tartibi mavjud: quyi dunyoda jinlar va gunohkorlar yashaydi, o'rta dunyo – biz yashab turgan dunyo, keyingi – xudolar dunyosi va undan yuqorida xudolarga o'xshashlar dunyosi joylashgan<sup>9</sup>.

Hinduizm – hindistonda tarqalgan din. Hinduizm ta'limoti verdizm va baraxmanizm g'oyalarining evolyusiyasi natijasida mil.av.2-ming yillikning o'rtalarida paydo bo'lgan. VIII-asrda Hindistonda islom dinining taraqqulishi bilan, uni qabul qilmaganlarni «hindu»lar deb atay boshladilar. Hinduizm ibtidoiy dinlarning ko'p unsurlarini saqlab qolgan: muqaddas hayvonlar, tabiat hodisalariga, ajdodlar ruhiga sig'inish va hakoza. Hinduizm yagona cherkov tashkilotiga ega emas. Uning paydo bo'lishini biror konkret asoschining nomi bilan bog'lamaydilar. Hinduizm diniy va falsafiy qarashlarning murakkab kompleksi hamda qonun-qoidalari majmuasidan tashkil topgan bo'lib, odamning

---

<sup>9</sup> Лъаранг. Фалсафа: љомусий луђат. Т., 2004, 123-бет.

tug'ulganidan to o'lgunicha bo'lgan barcha huquq va burchlarini belgilab beradi. Marosimlar o'tkazishga katta e'tibor beriladi. Hinduizm Trimurti tamoyiliga asoslangan. Olam, hayotning hamma shakllarini Braxma yaratgan. Biroq, Braxmaga sig'inish deyarli yo'q. Hindular boshqa xudoga – Vishnu va Shivaga sig'inadilar, shunga muvofiq, hinduizm ikki asosiy oqim – shivaizm va vishnuizmga ajraladi. Hinduizmning hamma oqimlari Vedalarning abadiyligi va xudo tomonidan yuborilganligiga, Koinotning deyarli mavjudligiga, bunda harakat pastlashib boruvchi yo'ldan ketishiga: jonning abadiyligi va o'lmasligi, ko'chib yurishi (sansara)ga ishonadi.

Buddizm (Budda nomidan olingan) – diniy falsafiy ta'minot, vujudga kelishi jihatidan birinchi jahon dini. Buddizm asoschisi – shahzoda Siddxartxa Gautama (mln.av. 567-488 y.) vafotidan so'ng «haqiqat natijalari» - budda deb atala boshlagan. Yagona ta'limot sifatida shakllangan buddizm dastlabki asrdayoq 18 ta maktabga bo'linib ketgan. Bir nechta saborlarda uni birlashtirishga urinish natijasiz yakunlangan. Milodning I-asrida buddizm xinozana 9kichik aravacha yoki najot topishning keng yo'li) oqimlariga bo'linib ketadi. Hozirgi davrda buddizmga e'tiqod qiluvchilar soni 400 mlndan ziyod oshib ketdi. Buddizm falsafasi vedalar matnlari asosida yaratilgan. Siddxartxa o'z ta'limotining asosiy qoidalarini Banorasdagi targ'ibotida «to'rt oliy haqiqat» shaklda bayon etgan: 1) azob-uqubat xaqidagi ta'limot; 2) azob-uqubat sabablari haqidagi ta'limot; 3) azob-uqubatlardan xalos bo'lish haqidagi ta'limot; 4) azob-uqubatlardan qutqarishrshning najot yo'llarini topish haqidagi ta'limot. Bu so'nggi ta'limot yechimi «Najotning olijanob sakkizlik yo'li»da o'z ifodasini topgan: taqvodorlik e'tiqodli, qat'iyati, so'zi ishi, turmush tarzi, taqvodorlikka intilish, taqvodorlikni orzu qilish, taqvodorlik fikr-hayoli bilan yashash. Bu yo'lga amal qilgan odam oqibatda yuksak kamolotga erishadi, ya'ni u arxatga (chin haqiqatni anglab yetgan avliyoga) aylanadi va nirvanaga o'tadi.

Chorvaka-lokayata – miloddan avvalgi VII asrda Hindistonda yuzaga kelgan falsafiy maktab. Chorvaka-lokayata maktabining asoschisi-donishmand Brixaspatidir. Chorvaka so'zining lug'aviy ma'nosi to'rt unsur, «loka» so'zining lug'aviy ma'nosi-bu dunyoda, ya'ni moddiy dunyo. Bu ikki ta'limotning mazmuni bir bo'lgani uchun «chorvaka-lokayata» deb atala boshlandi. Olam asosida to'rt unsur yotadi. Brixapati ta'limotiga ko'ra, biz yashab turgan moddiy dunyodan boshqa dunyolar yo'q. Inson ham ana shu to'rtta unsurdan tashkil topgan. To'rt unurni sezgilarimiz orqali qabul qilamiz. Ular hyech kim tomonidan yaratilmagan. To'rtta unurning turlicha birikishi orqali organizm, noorganik moddiy narsalar va hodisalar tashkil topadi.

Chorvaka-lokayataning ta'kidlashicha, insonda hissiy bilish muhim kasb etadi. Agar sezgi a'zolarimiz bo'lmaganda, olam haqida bilimga ega bo'lmagan bo'lar edik, deb ta'kidlashardilar. Ular aqliy bilishni ham tan olganlar. Lekin aqliy bilish hissiy bilishdan kelib chiqadi deb o'qtiradilar.

Qadimgi Xitoyda fan va madaniyat o'ziga xos shaklda rivojlangan. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yilning o'rtalariga kelib, Yuan-in davlatida muayyan xo'jalik shakli yuzaga kelgan. Eramizdan avvalgi XII asrda esa urushlar natijasida davlat Chjou qabilasining qo'ligi o'tgan. Bu hokimiyat eramizdan avvalgi III asrgacha davom etgan. Bu vaqtda diniy mifologik dunyoqarash hukmronlik qilgan. U olam va tabiatning paydo bo'lishini o'ziga xos tarzda tushurtirgan va dunyoviy bilimlar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Bunday ruhdagi falsafiy g'oyalar ayniqsa qadimgi Xitoy donishmandi Konfusiy (551-479) ijodida yaqqol aks etgan. Uning «Hikmatlari», ya'ni aforizmlari juda mashhur. Konfusiy ta'limotida umum insoniy qadriyatlarining Xitoy xalqi turmush tarzda namoyon bo'lishi, bu xalqqa xos ma'naviy mezoniyalar aks etgan. Bu ta'limot bir necha asrlar davomida ushbu hududda milliy g'oyalar majmui, millatning mafkurasi sifatida odamlarning ma'naviy ongi va qiyofasi shakllanishiga ta'sirt ko'rsatgan. U hozir Xitoyda ham o'zining muayyan ahamiyatini saqlab qolgan.

Konfusiy fikricha, olamni osmon boshqaradi. Osmon irodasi-taqdirdir. Biz yashab turgan olam, undagi tartib osmon hukmdori tomonidan yuborilgan. Jamiyat hayotidagi tartibga qattiq amal qilish talab etiladi. Tartib, Konfuyesiy nuqtai-nazariga ko'ra, ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini «lu» tushunchasi belgilaydi. U, ya'ni tartib duyoning mohiyatini aks ettiradi. Binobarin, jamiyatdagi barcha harakatlar unga binoan amalga oshishi lozim. Tartib-insoniyat jamoasining eng oliy hayotiy qadriyatlaridan biridir. Konfusiyning ta'kidlashicha, shaxs faqat o'zi uchun emas, balki jamiyat uchun ham yashashi kerak. Konfusiy ta'limotida insonninghayotidagi ijtimoiy o'rni nihoyatda ulug', u o'ziga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko'rmasligi, o'ziga ravo ko'rgan narsani boshqalarga ham ravo ko'rishi lozim. qadimgi Xitoyning ko'zga ko'ringan faylasuflaridan bir Lao Szidir (VI-V asrlar). Uning ta'limotiga ko'ra olam, jamiyat va inson hayoti Dao qonuniga bo'ysunmog'i lozim. Daosizm ta'limoti ana shu tariqa shakllangan. Dao qonuni-tabiatning yashash qonunidir, undagi rang-baranglik kurashi va uyg'unligi abadiylikning e'tirof etilishidir. Bu qonunga ko'ra, «Si», ya'ni beshta unsur-olv, suv, havo, yer va yog'och yokimetall olamdagi barcha jismlar asosini tashkil etadi hamda ularning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Lao-Szining ta'kidlashicha, olamda hech bir narsa doimiy va o'zgarmas, harkatsiz holda bo'lishi mumkin emas.

Daosimga binoan, dunyodagi hamma narsa bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turadi. Qarama-qarshi kuchlar qo'rtasidagi kurash, ya'ni In va Yan orasidagi munosabat-bizni o'rab turgan olamni harakatga keltiruvchi kuchlar manbaidir. Inva Yan o'rtasidagi kurash daoni anglatadi. Odamzod bu kurash jarayonida doimo yaxshilik tomonida turushi, o'zini qurshabturgan tabiat va atrofdagi olamga mehr ko'rsatishi lozim. Bo'lmasa, Dao qoneuni buziladi va bunday joyda baxtsizlik, fojia yuz beradi. Lao-Szi bu o'rinda ekologik halokatni nazarda tutgan. «kishilar Dao qonunini buzmasliklari kerak, aks holda tabiat ulardan o'ch oladi, degan edi Lao-Szi. Buni ekologik halokatlardan avj olib berayotgan bugungi kun voqeyeligi ham tasdiqlaydi.

3-masala. Qadimgi davr falsafasining yana bir silsilasi Yunoniston va Rimga tegishlidir. Bu davrdagi falsafiy qarashlar antik davr falsafasi deb yuritiladi. Unda Milet falsafiy maktabi, Suqrot, Pifagor, Aflotun, Arju va boshqalarning falsafiy, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-axloqiy ta'limotlari o'rganiladi.

Qadimgi Yunonistonda dastlabki falsafiy ta'limotlareramizdan avvalgi VII-VI asrlar o'rtasida Milet shahrida yuzaga kelgan va rivojlangan. Milet maktabi vakillari Fales, Anaksimandr, Anaksimandrlardir. Uning asoschisi Fales (er.av. 624-547 yillar) o'z davrining yetuk siyosiy arbobi, jo'g'rofi, faylasufi bo'lgan. Fales ta'limotiga ko'ra, tabiatdagi turli-tuman jism va hodisalar dastlabki ibtido-suvdan paydo bo'lgan va yana suvga aylanadi hamda bu moddiy birlik doimo o'zgarishida bo'ladi. Anaksimandr (Falesning shogirdi) (er.av. 610-546 yillar). U «Tabiat haqida» asarini yozgan, biroq asar bizgacha yetib kelmagan. Fales olamning asossiga suvni qo'ygan bo'lsa, Anaksimandr dunyo cheksiz, gazzimon apeyrondan iborat deydi.

Anaksimandrning fikricha, xamma narsa apeyrondan kelib chikadi va ma'lum bir vaktida apeyronga kaytadi. Apeyronning doimiy xarakat qilib turishi, Anaksimandrning fikricha, qarama-qarshiliklarning kelib chiqishi tufayli bo'ladi, buning natijasida bir xil narsalar paydo bo'lib, boshqalari yo'qolib turadi. Dunyodagi bu narsalarning mavjudligi hech qanday xudolarning ta'siriga muhtoj emas. Anaksimandr qadimgi Yunoniston fanida odamning paydo bo'lishini isbotlashga uringan olimlardan biri bo'lib hisoblanadi. Uning fikricha hayvonlar dunyosi qurib qolgan dengiz ostida paydo bo'lib, birinchi hayvonlar suvda yashaganlar keyinchalik qirg'oqqa chiqqanlar, odamlar esa baliqlardan paydo bo'lgan.



Milet maktabining keyingi vakili Anaksimenes (er. oldin 585-525 yillar) hisoblanadi. Anaksimenes Anaksimandrosning shogirdi bo'lib, uning mavhum materiyasi «apeyron»dan yanyada konkret materiya formasiga – havoga qaytadi. Anaksimenesning fikricha, butun narsalar doimiy harakatdagi havodan paydo bo'lib va yangi havoga qaytib turadi. Siyraklashib, suyuqlashib ketgan havo olovga, suyuqlashib ketgan havo esa yerga, toshga aylanadi. Havo Anaksimenesning fikricha, sovuqdan suyuqlashib va issiqdan quyuqlashib turadi. Uning fikricha, xudolarning o'zlari moddadan-havodan kelib chiqib, kosmik o'zgarishlar xudolarning ta'siri bilan emas, balki moddaning doimiy o'zgarishi natijasida paydo bo'ladi. Qadimgi Yunonistonning Eferas shahrida (er. av. 544-583 yillar) Geraklit degan faylasuf yashagan. U qadimgi Yunonistondagi stixiyali dialektikaning asoschisi bo'lib hisoblanadi.

Geraklit miletchilar singari dunyoning boshlang'ich asosi deb konkret modda – olovni oladi. Geraklitning fikricha, dunyo qonuniy ravishda alanganib va so'nib turuvchi olovdir. «Hamma narsadan tarkib topgan dunyoni, - deydi Geraklit, - xudolardan ham hech biri yaratmagan, dunyo qonuniyat bilan so'nadi, abadiy tirik olov bo'lib kelgan, hozir ham shunday va bundan keyin ham shunday bo'lajak».

Geraklit ta'kidlaganidek: «Hamma narsa mavjuddir va ayni zamonda mavjud emasdir, chunki hamma narsa oqib turadi, hamma narsa doimiy bo'lish va yo'qolish jarayonidir».

Geraklit o'zining «hamma narsa oqib turadi, ammo hamma narsa doimo o'zgarib turadi» degan dialektik fikri bilan dunyoni oqib turadigan daryo bilan taqqos qiladi. Geraklit: «oqib turgan daryoga ikki marta tushib bo'lmaydi», - deydi. Daryo oqib turishi tufayli, har bir tushganimizda unda yangi suvlar oqib turadi. Geraklitning fikricha, tabiatning doimiy o'zgarib turishining sababi – narsalarning ichki qarama-qarshiliklaridir.

«Hamma narsa kurash orqali maydonga keladi»- deydi Geraklit. Uning fikricha, qarama-qarshiliklar o'zaro kurash holatida bo'lib turganlari holda, bir-birlariga o'tib turadilar.

Geraklitning fikricha, doimiy o'zgarish, harakat va o'zaro qarama-qarshi tomonlarga o'tish – jismlar sifatining nisbiyligi bilan bog'liq. Masalan, Dengiz suvi inson ehtimoli uchun yaroqsiz bo'lsa baliqlar uchun ayni muddadir.

Geraklitning fikricha bilish jarayoni kishi sezgi organlari orqali olingan tasavvurlardan boshlanib, tafakkur orqali takomillashadi.

Pifagor (er. av. 580-500 yillar) Yunonistonning Samos orolida yashayab o'tgan. U qadimgi yunonistonda diniy-mafkuraviy falsafiy maktab, ya'ni pifagorchilikka asos solgan. Pifagor o'zining siyosiy qarashlari tufayli podsho Polikret bilan chiqisha olmagan. Va Samosni tark etib, janubiy Italiyaga ko'chib ketgan, o'sha yerda o'z uyushmasini tashkil etgan. Uningcha, dunyoni bilish jarayoni, avvalo, raqamlarni bilishdan boshlanishi kerak. Pifagorchilarning ta'limotiga ko'ra, olamning asosida modda ham, tabiat ham emas, balki ideallashtirilgan raqamlar

yotadi, narsa va hodisalar aynan ana shu raqamlar mahsulidir. Pifagorchilar birinchi bo'lib yunonistonda tabiatdagi narsa va hodisalarni izohlashda miqdor kategoriyasini ilgari suradi. Pifagor zodagonlar oilasiga mansub bo'lgani bois aristokratiyani himoya qilgan. U tartib to'g'risidagi ta'minotni yaratib, faqat aristokratlar o'rnatgan tartib ijtimoiy hayotda muhim rol o'yonaydi, degan. Uning fikricha, demokratiya bu tartibotning buzilishidir.

Eley falsafiy maktabi namoyandasi Ksenofakt (er.av. VI-V asr) shoir va faylasuf bulgan. U Kichik Osiyoda dunyoga kelgan. Ilim olish maqsadida Yunonistonga, janubiy Italiyaga sayohat qilib, umrining so'nggi yillarini Eley shahrida o'tkazgan. Tarixchi Diogen Laertskeyning yozishicha, ksenofont «Tabiat haqida» asarlarining muallifidir. Afsuski, ushbu asarning yarmigina omon qolgan, xolos. U ko'p xudolika hamda insonlarga xos sifatlarni hayvonlarga, o'simlik dunyosiga dahldor deb biluvchi ta'limotga qarshi chiqib itfologiyani rad etishga harakat qilgan. Uning falsafiy ta'limotiga ko'ra, tabiat- o'zgarmas va harakatsizdir, «hamma narsa yerdan unib chiqadi va pirovardida yana yerga qaytadi», «biz hammamiz yerdan tug'ilganmiz va yerga aylanamiz. Ksenofont qadimgi yunon faylasuflaridan birinchi bo'lib bilishning imkoniyati va chegarasi haqida fikr yuritgan. Bu qadimgi yunon gnoseologiyasining rivojiga turtki bo'ldi.

Qadimgi yunon madaniyatida sofistlar falsafasi katta o'rin tutadi. Sofistlar antropologiya (inson haqidagi fan) va gnoseologiya (bilish to'g'risidagi fan) muamolari bilan muug'ullangan. Sofistlar yangi kasblarning mohir ustalari, yani o'qituvchilar, diplomatlar, notiqalar, sud mahkamalarida ishlovchi mutaxassislardan iborat bo'lib, haqiqat, osoyishtalik, adolat o'rnatishga xizmat qilgan. Ularning talimoti Suqrot falsafasiga ham ma'lum darajada ko'rsatgan.

Afinaning buyuk faylasufi Suqrot (er. av. 469-399 yillar) avvalo sofistlar shogirdi bo'lib, keyinchalik ularning asosiy nuqtai nazarlarini qattiq tanqid qiladi.

Odam nima, uning ongi nima? Degan savolga javob axtarish Suqrot faoliyatining asosida yotadi. «O'z-o'zingni angla!» Suqrotning yeng sevgan shiori edi. U ongning nafaqat subyektiv, balki obektiv mazmunga ega ekanligini isbotlamoqchi bo'ldi, buni u aql deb atadi. Aql yesa faqat individual fikirlargagina ega bo'lib qolmasdan, yalpi umumiy, barcha uchun majburiy bilimni ham taqozo etadi. Binobarin, bahs vositasi ilk birgalikda haqiqatni izlash kerak, deydi u. Adolat nima ezgulik nima, eng yaxshi davlat qurulishi nima, degan savollarga javob berishga intiladi.

Suqrot tadqiqotlari markazida xuddi sofistlar singari inson hayoti, uning jamiyatdagi o'rni va maqsadi hamda adolatli ijtimoiy tuzim muammosi turadi. Falsafa ezgulik va yovuzlikni aglav olishda odamlarga yordam berishi kerak deb xisoblaydi. U axloqsizlik amalda haqiqatni bilmaslik natijasidir, degan xulosaga kelgan. Suqrotning shogirdi Aflotin (er.av. 428-347-yillar jahon falsafaasi tarixida o'chmass iz qoldirgan buyuk allomadir.

Aflotin falsafasi g'oya asosida g'oyalar to'g'risidagi ta'limot yotadi. Aflotun narsalarining dastlabki asosini g'oya tashkil qiladi, sezgilar orqali qabul qilinadigan narsalar esa, g'oyalar dunyosining soyasidir, deb ta'lim beradi.

**Aflotun bir-biridan ajralgan ikki dunyo g'oyalari va narsalar dunyosi bor, odamlar ham narsalar dunyosida yamaydilar, deb ta'lim beradi. Aflotun fikricha, g'oyalar, doimiy, o'zgarmaydi, real borliqqa ega; sezgiorganlarimizda ifodalangan narsalar esa paydo bo'lib yo'qolib turimlari tufayli doimiy o'zgaruvchan emasdir. Uning fikricha, eng oliy g'oya-bu xudo to'g'risidagi g'oya. Aflotuning bu fikirlari idealizm bilan din o'rtasidagi bog'lanishning yaqqol ifodasidir. Uning aytishicha, sezgi organlarimiz orqali olingan g'oyalar dunyosi to'g'risidagi bilimgina haqiqiy bilim bo'la oladi. Aflotun o'zining bilish nazariyasi asosiga doimiy g'oyalar va o'tkinchi narsalar dunyosini qo'yishi tufayli, bilim-g'oyalar orqali, tasavvur narsalar orqali bo'ladi, deb tushuntiradi. Shuning natijasida Aflotun sizgi organlarimiz orqali olingan tasavvurlarni bilim sohasidan chiqarib tashlab, sezgi organlarimiz bilan bog'liq «bo'lmagan» abstrakt tafakkurgagina haqiqiy bilim bera oladi, deb hisoblaydi. Aflotun abstrakt tafakkurni sezgilarga bog'liq bo'lmagan, g'oyalar dunyosida yashovchi ruhni kishi tamonidan «eslash» jarayoni natijasida, deb tushuntiradi. Aflotun jamiyat va davlat to'g'risidagi ta'lumoti uning dunyoqarashida, markazi o'rinlardan birini tashkil etadi. U faqat antik davr falsafasi – antologiya va gnoseovogiyaning klassigi bo'lib qolmay, mumtoz antik siyosiy nazariya va pedogikaning bilimdoni ham bo'lgan. Aflotun ijtimoiy-siyosiy masalalarga doir «Davlat», «Qonunlar», «Siyosat» va «Kritiy» nomli asarlar yozib qoldirgan. «Davlat» asarida jamiyat haqida, uning ideal siyosiy tuzumi to'g'risidagi qarashlarini markaziy ta'limoti-g'oyalar nazariyasi bilan uzviy bog'liq holda ilgari surgan. Uning fikricha, davlatning to'rtta shakli mavjud: teokratiya; oligarxiya; demokratiya; tiraniya. Aflotunning ideal davlat to'g'risidagi orzulari negizida adolat g'oyasi yotadi. Aflotun aytganidek, jamiyat barcha a'zolarining odil jamiyatdagi qonunlarga bo'ysunishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garovidir.**

**Qadimgi Yunoniston olimlari ichida eng ko'zga ko'ringan mutafakkirlardan yana biri Arastu (er. avv.384-322 y ) edi. Arastu 20 yil Aflotun akademiyasida ta'lim olib, uch yil mobaynida Iskandar Zulqarnaynning ustoz bo'lib xizmat qildi. Iskandar Zulqarnayn podsho bo'lib , Sharqqa yurish qilishi bilanoq Arastu Afinaga qaytdi. Bu yerda u Aflotun akademiyasi bilan birgalikda o'zining «Likkey» nomli falsafa maktabini tuzdi va shu davrda o'zining asosiy ilmiy asarlarini yozadi.**

Falsafani borliqning umimiy xususiyatlari to'g'risidagi fan hisoblab, unga «birinchi falsafa» deb nom beradi (keyinchalik «meta-fizika» deb yurgiziladi).

Falsafaga doir «Metafizika», tabiiyot bilimlariga doir «Fizika» va jamiyat hayotiga doir «Davlat», «Siyosat» Arastuning asosiy asarlari hisoblanadi.

Arastu zabardast olim bo'lib mantiq, psixologiya, falsafa, ahloq, notiqlik san'ati, tabiiy fanlar bo'yicha o'lmas bebaho asarlar yozib qoldirgan. Uning barcha asarlari borliqni o'rganishga qaratilgan. Mantiqqa oid asarlarning barchasini "Organon" ("Hurol") nomli asariga jamlagan. Faylasuf barcha fanlarni ikki turga nazariy va amaliy fanlarga bo'lgan. Amaliy fanlar shogirdlarga yo'l yo'riq ko'rsatishga, biror bir foydali ishni amalga yo'naltirilgan. U nazariy fanlarni uch qismga falsafa (metofizika), matematika va fizikaga ajratilgan.

Faylasuf ta'limotiga ko'ra, amaldagi narsa va hodisalar to'rtta sababga ega. Bular moddiy sabab, ya'ni modda (materiya), shakliy sabab yoki shakl, yaratuvchi sabab, piravar sabab yoki maqsad sabablardir. Yaratuvchi sabab, Arastu talqinicha, harakat manbaidir. Masalan, ota va bolaning ulg'ayishiga sababchidir. Arastu piravar sabab (maqsad sabab) vositasida insonga hos bo'lgan maqsadlarni tabiat xodisalariga ham tatbiq etmoqchi bo'lgan. Harakat olam singari abadiydir. Ayni paytda, olam o'zining abadiy sababi, ya'ni harakatlantiruvchikuchiga ega. Arastu Aflotunning bilish bu g'oyaalar dunyosidagi o'lmas ruxni eslanishi degan qarashini tanqid qilib, dunyoni bilish mumkinligini e'tirof etadi. u bilishning manbaini tabiatni o'zidan, obyektiv borliqda kuradi. Bilish jarayonida u sezgilarga katta urin beradi, seegilar orqali olingan hissiyotlar obyektiv mavjud bo'lgan va hodisalarning obrazi, deb hisoblaydi.

Arastuning jamiyat va davlat to'g'risidagi ta'limoti "Davlat" "Siyosat" kabi asarlarida bayon etilgan. Uning fikricha, davlat boshqaruvi jamiyat erkin va farovon hayoti uchun xizmat qilishi lozim.

Bu davrning eng ko'zga ko'ringan mutafakkirlari Levkipp va Demokritdir. Levkipp (er.av.500-440 yillar) qadimgi Yunoniston falsafasida deyarli birinchi marta atomistik qarashlarni olg'a surdi. Uning ta'limoti bo'yicha dunyodagi butun narsalar juda mayda bo'linmaydigan moddiy narsalardan, atomlardan («atomas» grek tilida «bo'linmaydigan») iborat. Bundan tashqari, Levkipp dunyodagi narsalarning paydo bo'lishi, yo'qolishini ma'lum zaruriyat va sababiyat bilan bog'laydi.

Qadimgi Yunoniston falsafasi tarixida yangi yo'l ochgan buyuk olim Demokrit (er.av.460-370) yillar. U Misr, Hindiston va Bobil kabi mamlakatlarga

sayohat qilib, bu mamlakatlar olimlarining ta'limotlarini o'rgandi. Demokrit o'z davrining butun ilmiy boyligini o'zlashtirgan, har tmonlama keng bilimli faylasuflardan edi. Demokrat ham Levkipp singari dunyoning moddiylikini e'tirof qiladi va uning atomistik ta'limotiga tayanadi. Demokrit dunyoning birinchi va dastlabki asosini atomlar va bo'shliq tashkil qiladi, deb ta'lim beradi.

Demokritning fikricha, atomlar ko'zga ko'rinmaydigan mayda, moddiy bo'lakchalardan iborat bo'li, tabiatdagi butun narsalar, shu jumladan, odamlar ham shu atomlardan tarkib topganlar. Demokrit harakatni atomlarning o'zlariga xos xususiyati dem, harakatning realligini e'tirof qiladi va materiya bilan harakatning ajralmas, bir-biriga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Demokrit olamning cheksiz dunyolardan iborat ekanligini va biz yashab turgan yer koinotdagi bir kichkina sayyora, deb hisoblaydi. Uning fikricha, olam «buyuk bo'shlik» bo'lib, cheksiz fazoda atomlarning bir-biri bilan to'qnashishi turli dunyolarni keltirib chiqaradi.

Demokrit tasodifiyatni inkor etgan. U «na tabiatda, na jamiyatda hech bir narsa tasodifan paydo bo'lmaydi», deb yozgan. Demokritning falsafiy qarashlarida ahloqiy ta'minot muhim o'rin tutadi. Uning bu boradagi qarashlari bilan uzviy bog'liqdir. Davlat manfaatlari qolgan barcha narsalardan ustun turmog'i lozim.

Me'yor, deydi faylasuf, axloqning tabiat insonlarga in'om etgan kuch va qobiliyatga mos kelishidir. Donolik uchta hosil keltiradi: yaxshi fikrlash; yaxshi so'zlash; yaxshi harakat qilish. Uning ta'limoti bugungi kunda insonlarni axloq-odobga, diyonatga davat etadi.

Antik davrning faylasufi Epikur (er.av.241-270 y.) edi. Epikur afinada o'zining filosofik maktabini ochib, Demokrit tarafdori edi, uning atomistik ta'limotlarini olg'a suruvchi sifatida maydonga chiqda.

Epikur falsafaning asosiy vazifasi-kishilarga baxtiyorlikka erishish yo'lini ko'rsatishdan iborat, deb tushintiradi. Uning fikricha, kishi baxtiyor bo'lish uchun tabiat va uning qoniniyatlarini o'rganishi lozim. Shunga asoslanib, u o'z falsafasini uch qismga: fizikaga, kanonika yoki logika va etikaga bo'ladi.

Epikur o'zining bilish nazariyasida sezgilarga katta ahamiyat berib, ularni bilishning birdan-bir manbai, deb hisoblaydi

Epikur ta'limotini rimlik Lukresiy Kar (ev.av.99.55 yillar) davom ettirgan. U «Narsalarning tabiati to'g'risida» nomli asari bilan mashhur bo'lgan. Yashashdan maqsad, deb yozgan Lukresiy, baxtli hayotl kechirishdan iboratdir. Jamiyat ham, huddi tabiat singari, o'z qonunlariga ega hamda tabiat qonunlariga tayangan holda

rivoj topadi, deydi u. Uning falsafiy qarashlari o'z davri va o'rta asr falsafasiga ta'sir ko'rsatgan.

Uning fikricha, modda (materiya) – abadiy, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib, shaklini o'zgartirib yashash-uning xossasi. Odamdagi barcha narsalar ikkiga – oddiy va murakkab turga bo'linadi. Lukresiy Kar atom harakatining uchta turini sanab o'tgan. Bular-narsalarning og'irlikka ega bo'lgani uchun to'g'ri chiziqli harakati, narsaning o'zicha og'ish harakati, narsaga turtki bo'lgan asosga qaratilgan harakat. Lukresiy nazariyasi mohiyatan sodda bo'lsa-da, tabiatshunoslikka ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Yevropada qadimgi Yunon va Rimdan o'rta asrlar falsafasigacha, ya'ni miloddan ilgari 1 asrdan XIV asrigacha, bir yarim ming yil davomida bir qancha oqimlar paydo bo'ldi va amal qildi. Bu davr falsafasida ikki xil jarayonni ko'rish falsafasida ikki xil jarayonni ko'rish mumkin: 1. Xristianlikning shakllanib davlat dini va mafkurasiga aylanishi; 2. O'rta asrlarga kelib inkvizitsiyaning ustivor yo'nalishga aylanishi. Gnostika, apologetika, partistika, realizm, nominalizm va boshqa oqimlar o'ta davr falsafasining qiyofasini belgilaydi. Bu xususda keyingi ma'ruzalarimizda batafsilroq to'xtalamiz.

**3-mavzu:** Markaziy Osiyo falsafasi, uning jahon madaniyatidagi o'rni.

### **Reja:**

1. Markaziy Osiyoda eng qadimgi falsafiy qarashlar. “Avesto” va zardushtiylig-g'oyalari. Moniy va Mazdakning falsafiy qarashlari
  2. Ilk o'rta asrlar falsafasi. Imom al-Buxoriy va Imom at-Termiziy. Imom ul-A'zam Abu Hanifa, Imom Maturidiy va Burxoniddin al-Marg'inoniy. Al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Farobiy, Beruniy va ibn Sinoning ilmiy-falsafiy qarashlari. Tasavvuf va uning tariqatlari
  3. Amir Temur va temuriylar davri falsafasi. XVI – XVIII asrlarda madaniy jarayonlar va milliy g'oyalar tanazzuli.
1. Chorizm istilosi va falsafiy fikr taqdiri. Jadidlik-milliy g'oyalar uchun kurash falsafasi

**Tayanch iboralar:** Qadimgi Markaziy Osiyo falsafasi. Zardushtiylik. Avesto: Ahamoniylar va Iskandar Zulqarnayn istilosi davrida ijtimoiy-falsafiy g'oyalar taqdiri. Kushon davri. Buddaviylik. Moniy falsafasi. Mazdak g'oyalari. Falsafiy me'ros. Tarixiy xotira. Milliy qadriyatlar. Kalom falsafasi. Mashshoiyyo'nlr. Imom Buxoriy. Imom Termiziy. Abu-Mansur Moturidiy. Burxoniddin al-Marg'inoniy. Al-Xorazmiy. Al-Farg'oniy. Farobiy. Beruniy. Ibn-sino. Tasavvuf. Yassaviya. Kubroviya. Naqshbandiya. Uyg'onish davri va uning ikki bosqichi. Mo'g'il bosqini oqibatlari. A.Temur. Ulug'bek. A.Navoiy. Z.M. Bobur. Milliy g'oyalar tanazzuli. Dunyoviylikning zaiflashuvi. Mirzo Bedil. Boborahim Mashrab. Tasavvuf. Ogahiy. Ahmad Donish. Jadidchilik harakati. Behbudiy. Munavvar Qori, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amalni ulug'lagan kitob. "Xalq so'zi" gazetasi. 4-noyabr 2001 yil
2. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI-asr bo'sag'asida". T., 1997. 137-151-betlar
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., 1998. 378-415-betlar
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., 1998
5. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin T., 1998.
6. Karimov I. «O'zbekiston XXI-asrga intilmoqda». T.,1999, 3-18- betlar.
7. Mustaqillik:izohli ilmiy-omabop lug'at. T., 2006 yil.
8. Falsafa. Qomusiy lug'at. T., 2004
9. Falsafa. Qisqacha izohli lug'at. T., 2004
10. "Avesto"- "Guliston" jurnali, 1999-yil sonlari
11. Avesto. T., 2001
12. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. T., 1999, 1-qism
13. Ma'naviyat yulduzlari. Markaziy Osiyoliy mashhur siymolar, allomalar, adiblar. T., 1999. 144-150, 154-169, 200-213, 251-256-betlar
14. Komilov N. Tasavvuf. T., 1996
15. Temur tuzuklari. T., 1996
16. Axmedov B. Amir Temur va Sharqning uyg'onish davri. T. 1996
17. Axmedov A. Ulug'bek. T., 1994
18. Mo'minov I.M. O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan. T., Fan, 1994
19. Falsafa asoslari. T., "O'zbekiston", 2005, 46-51, 64-92, 105-115-betlar

20.Falsafa. O'quv qo'llanma. T., 1999, 54-125, 134-143- betlar

21.Falsafa. Ma'ruza matnlari. T. 2000, 59-107, 123-133-betlar

1. Qadimgi Markaziy Osiyo zaminida dastlabki falsafiy fikrlar mil. avv. VIII-V asrlarda shakllangan. Qadimdan Markaziy Osiyo xalqlari tarixi boy ma'naviy merosga, ijtimoiy qarashlarga, jamiyat to'g'risidagi tasavvurlarga, insonning kelib chiqishi borasidagi fikrlarga ega bo'lgan. Bu xalqlar doimo o'z xalqi ozodligi, erki, farovon turmushi, insonlar baxtli hayoti uchun kurashib kelgan. Masalan, To'maris, Shiroq kabi qahramonlar butun umrini o'z xalqi uchun baxshida etganlar.

Miloddan avvalgi VII- III ming yilliklarda Markaziy Osiyoda Zardushtiylik dini ijtimoiy hayotning barcha sohalariga keng kirib borgan. Bu davrda Turonda ijtimoiy munosabatlar ancha rivoj topdi. Ayniqsa, bu paytda zardushtiylik va u bilan bog'liq bo'lgan dualistik dunyoqarash keng tarqalgan edi. Zardo'shtiylik faqat din bo'lib qolmay, balki o'sha davr mafkurasi, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-falsafiy qarashlarning ifodasi sifatida yuzaga keldi. Bu dinning muqaddas kitobi "Avesto" bo'lib, unda jamiyat va insonlarning kelib chiqishlari to'g'risida fikrlar bildirilgan. Zardo'shtiylik dinining ushbu kitobi 12 ming oshlangan mol terisiga oltin harflar bilan yozilgan. Unda qadimgi kishilarning tabiat va uni bilish yo'llari haqidagi tasavvurlari umumiy tarzda ifoda etilgan. Unga ko'ra, insonni o'z ichiga olgan koinot yer, okean, osmon, yorug'lik va jannatdan iborat. Avestoda insonning kelib chiqishi qo'yidagicha ifodalangan: birinchi inson Govamard (ho'kiz-odam; forscha Qayumars) hisoblanib, yerdagi barcha insonlar undan tarqalgan. Insonlarning birinchi shohi Yima bo'lib, u hukmronlik qilgan davr oltin davr deb atalgan. Chunki bu davrda o'lim, qarilik, sovuqlik va yovuzlik kabi yomon illatlar jamiyatda yo'q bo'lgan. Yaxshilik xudosi Ahuramazda doimiy bahorni yaratib, insonlar baxli hayot kechirganlar. Oradan 900 yil o'tgach shoh Yima kibri havoga berilib, jamiyatda qattiq ta'qiqlangan sigir go'shtini yeydi. Natijada, yomonlik xudosi Axriman boshliq devlar bosh ko'taradi. Butun dunyoni muzlik qoplaydi. Yima Ahuramazda amri bilan barcha jonzotlar uchun qo'rg'on qurib, hamma jonzotlardan bir juftan olib qo'rg'onga joylashtiradi va yerda hayotni shu tarzda saqlab qoladi. Shu bilan oltin davr tugab, Hayr va Sharr (yaxshilik va yomonlik) o'rtasidagi kurash davridan iborat ikkinchi davr boshlanadi. Bu ikkala xudo o'rtasida kurash ketadi va Ahuramazda g'alaba qozonadi. So'ngra uchinchi davr insoniyatning kelajak davri boshlanadi. Bu vaqtda barcha insonlarning orzu-umidlari, xohish-istaklari ro'yobga chiqadi, olamda yaxshilik hukmronlik qiladi.



Zardushtiylikda insonlar axloqiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan “ezgu fikr”, “ezgu so'z” va “ezgu amal”ga rioya etishgan.

“Avesto”da mehnat inson kamoloti va axloqiy sog'lomligining manbai sifatida ulug'lanadi. Zardo'shtiylik axloqi nuqtai nazaridan saxovatli bo'lish uchun inson birinchi galda halol mehnat qilishi, o'z qo'li bilan mahsulot yaratishi lozim. Shu boisdan Zardo'shtiylik dinida ishyoqmaslik hamma nuqsonlarning koni, deb qoralanishi bejiz emas.

Inson boshqalarga nisbatan baxillik qilmasligi lozim. Ezgu fikrlar esa jaholatga teskaridir, chunki jaholatda niyatlar yo'qoladi, burch va adolat unitiladi, uylamay ish qilinadi. Shuningdek, Zardo'shtiylikda insonni burch faqat axloqiy yo'l-yo'riqlarni o'zlashtirishdan iborat bo'libgina qolmasdan, balki oilaviy turmush, yaxshi yor va farzand to'g'risida ham uylash kerakligi ta'kidlanadi. Zardo'shtiylikda qadim zamonlardan beri kishilarning jamiyatdagi munosabatlarini tartibga soluvchi urf-odatlar va axloqiy qoidalar mavjud bo'lgan. Bunda Axuramazda xudosi ilohiy qonun darajasiga ko'tariladi. “Avesto”da huquqiy qoidalar tartibli tarzda ifoda qilingan bo'lmasada ham o'sha davrning huquqiy munosabatlari to'g'ri aks ettirilgan. Huquqiy sohalar jinoyat, fuqarolik, oila, yersuv huquqi kabilarga ajratilgan. qadimgi davrda ham sud jazosi o'zining shavqatsizligi bilan ajralib turgan. Jazolash vositasi sifatida o't, qizdirilgan temir va boshqa narsalar qo'llanilgan. Bu huquqiy qoidalar ham din asosida bo'lib, bosh hakam Axuramazdaning o'zi ko'rsatiladi.

Zardushtiylikdan keyin Markaziy Osiyoda II-III asrlarda rivojlangan ta'limot Monizm hisoblanadi. Bu ta'limotning asoschisi Moniy (216-276 yillar) bo'lib, u insonlar turmushi, hayoti va ijtimoiy masalalarga bag'ishlangan bir qancha risolalar hamda kitoblar yozib qoldirgan. Lekin ular bizgacha yetib kelmagan. Hatto u insonlar bilim olishi uchun «Moniylik yozuvi» alifbosini ham tuzgan. O'zining ijtimoiy qarashlarida jamiyatdagi adolat, erkinlik, mehnatsevarlik kabi tushunchalarni ulug'laydi. Uning ta'limoticha, insonlar hayotiga nur dunyosi – yaxshilik va zulmat dunyosi – yovuzlik hukmronlik qiladi. Ammo inson o'z hayoti davomida yaxshilikni yomonlik ustidan hukmronlik qilishini ta'minlaydi, deydi. Monizm ta'limoti o'zida asosan oddiy xalq ommasi manfaatlarini himoya qilgan bo'lib, jamiyatdagi barcha mol mulkka ega bo'lgan boylarga qarshi edi. Shu sababdan uning ta'limoti o'sha davrdagi hukmron mafkura tomonidan tazyiqqa uchradi.

V-VI asrlarda Markaziy Osiyoda zardo'shtiylikka qarshi qaratilgan ta'limot Mazdak (470-529 yillar) boshchiligidagi Mazdakizm ta'limoti edi. Bu ta'limotning asosiy negizini ijtimoiy masalalar tashkil etadi. Uningcha, dunyodagi yovuzlik

insonlarni boy va kambag'al bo'lishidir. Shu tarzda jamiyatda ijtimoiy adovatlarga qarshi kurash insonlar o'rtasida turli urushlar, bir-birlarini ko'ra olmasliklar yuzaga keladi. Bunday hayotni bartaraf etib, barchani jamiyatdagi tengligini ta'min etish lozim. Hamma insonlar tenglik mafkurasiga amal qilsinlar. Bu tenglik insonlar barcha moddiy boyliklarga bir xilda egaligini ta'minlashi zarur, deydi. Bu ta'limotning asosiy negizini «tenglik» g'oyasi tashkil etgan. Shu boisdan Mazdak ta'limotida ijtimoiy zulmga qarshi kurashish birinchi o'rinda turgan.

2. Sharq mamlakatlaridagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar bir-biri bilan bog'langan, yaxlit jarayon sifatida vujudga kelgan dinlar inson kamoloti borasida faol olib borgan. Yer yuzidagi barcha dinlar inson va jamiyatni kelib chiqishini ilohiy kuch asosida tushuntirib beradi. Mana shunday dinlardan biri VIII asrda Markaziy Osiyoda rivojlangan Islomdir. Islom dinining rivojlanishiga Sharq xalqlarining ta'siri katta bo'ldi. Islom dinining muqaddas kitobi «Qur'oni Karim»dir. Qur'oni Karim yer yuzi musulmonlarining dasturi, diniy ahkomlar manbaidir. «Qur'on» so'zi arabchadan olingan bo'lib, u «o'qish» deagn ma'noni bildiradi. Muhammad payg'ambar 40 yoshga yetganda unga Olohdan vahiy kela boshlaydi, ya'ni bu payg'ambarlik vahiyi bo'lgan. Shu asosda «Qur'oni Karim» 22 yil davomida vahiy orqali Muhammad payg'ambarga nozil bo'lgan. Unda 114 ta sura, 6236 ta oyat bor. Yigirmata surada oila va u bilan bog'liq masalalar tilga olinishi insoniy jamiyatda juftlik naqadar zarur ekanligini ko'rsatib turadi. Shuningdek, Qur'oni Karimda shariat masalalari ham o'z o'rnini topgan.

Qur'oni Karimdan keyin Islom olamida ikkinchi o'rinda turadigan manba bu Hadislar hisoblanadi. Hadisi Sharifda Muhammad payg'ambarning aytgan so'zlari, qilgan ishlari va sahobalari tomonidan amalga oshirilgan ishlarga munosabatlari to'g'risida hikoya qilinadi. Hadisi Shariflarni yig'ib kitob shakliga keltirish asosan payg'ambarimiz vafotlaridan keyin amalga oshirilgan. Islom olamining o'sha paytdagi madaniy markazlaridan sanalgan Bog'dod, Damashq, Buxoro, Samarqand, Urganch, Termiz kabi shaharlarda Hadis fani bilan shug'ullanuvchi muhaddislar ko'p bo'lgan va ular Hadis to'plamlarini tuzishgan. Ular ichidan eng ishonchli sanalganlari 6 ta bo'lib, bularni Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Imom at-Termiziy, Imom an-Naso'iy va Imom ibn Mo'jja tuzishgan.

Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan islom dinini targ'ibotchilaridan va Hadis ilmining mukammal sohiblaridan biri Imom al-Buxoriy (809-869 yillar) dir. O'zining «Al jome' as-saxix» nomli hadislar to'plamida insonlarni poklikka, kamtarlikka, ogohlikka, mehnatevarlikka chorlovchi hadislarini to'plagan va ayni paytda hadislarining mashhur targ'ibotchisi hamda hadis ilmidan dars beruvchi bo'lgan. Uning shogirdlaridan Shayx ibn Muhammad Yusuf Al-Farobiy shunday ma'lumot beradi. Imom Buxoriyni «Al jome' as-saxix»larini o'zlaridan 90 000 kishi eshitgan ekan. Yana bir shogirdining aytishicha, Imom Buxoriyning Bog'doddalik vaqtidagi darslariga men ham qatnashardim, shunda 20 000 dan ortiq

talaba hozir bo'lar edi, deydi. Buxoriy odamlarning bir-birlariga o'zaro mehr-shafqatli, inoq bo'lishlarini ta'kidlab, bunday insoniy fazilatlarga ega bo'lgan kishilarni inson tanasini a'zolariga o'xshatadi. U shunday deydi: «Mo'minlar o'zaro do'stlik, mehr va shafqatda xuddi inson tanasidagi a'zolarga o'xshaydilar, zero, uning biror a'zosi og'rigudek bo'lsa, boshqa a'zolari ham bedor va lahos bo'ladilar».

«Al jome' as-saxix» asarida hadislardan tashqari insonlarning kelib chiqishi, jamiyat rivojlanishi uchun zarur omillar, davlatni boshqarish yo'llari, islom marosimchiligi, axloq-odob, ta'lim-tarbiya masalari keng yoritib berilgan.

Islom olamida mashhur muhaddislardan biri Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824 – vafoti taxminan 892-893 yillar) bo'lib, xalq orasida Qur'oni Karimni tafsirchilaridan bo'lib yetishdi. At-Termiziy yoshligidanoq musulmon ta'limotini chuqur egallagan. U kishini insonni jamiyatda tutgan o'rni, uning kelib chiqishi, turmush-tarzi, jamiyat haqida aytilgan fikrlari, shariat masalalariga bag'ishlangan «Kitob at-tarix» («Tarix kitobi») asari hisoblanadi. Asarda ta'kidlanishicha, at-Termiziy o'zidan oldin yashab o'tgan imomlar izidan borib, inson Ollohning irodasi mahsuli ekanligi, islom qoidalari asosida jamiyatni boshqarish, musulmon Sharqida insonlar hurfikrlikka ega bo'lishi, barcha kishilar ilmiy-falsafiy, diniy-axloqiy bilimlarni keng qamrovli o'rganishlari, insonlarda islomning zamon shart-sharoitlariga moslashuvchanlik jihatlarini shakllantirish masalalari bayon etilgan.

Xo'ja Abduholiq Fijduvoni (1103-1179 yillar) tasavvuf ilmining asoschilaridan biridir. O'z ta'limotida sufiylikni targ'ib etdi. Uning ijtimoiy qarashlari «Vasiyatnoma»sida bayon etilgan. Unda aytilishicha, inson jamoatga mulozim bo'lishi, jamiyatga xizmat qilish kabi muqaddas vazifani doimo bajarishi kerak va Ollohga yaqinlashishning muhim yo'li shu ekanligini aytdi. U insonlarni Haq yo'lga chorlab, butun olamni yaratuvchisi yagona Olloh ekanligini uqtiradi. Inson uchun zarur bo'lgan poklik yo'lini tanlash uchun sakkizta rashha (qonun-qoida)ni ishlab chiqdi. Butun hayotida riyozat bilan mashg'ul bo'lib odamlarni to'g'ri yo'lga boshladi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodiyotida ijtimoiy taraqqiyotga doir qarashlar va g'oyalar yunon falsafasiga monand holda rivojlandi. Bu davrda Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi allomalar jamiyatni kelib chiqishi, uning rivojlanishi, insonlarning butun bir koinot haqidagi qarashlari borasida qimmatli fikrlar bildirildi. Bu davr Markaziy Osiyoda birinchi Uyg'onish davri deb yuritiladi.

Mana shunday ijtimoiy qarashlarni ilgari surgan mutafakkirlardan bir Abu Nasr Forobiy (873 - 950 yillar) hisoblanadi. Forobiy fikricha, borliq 6 bosqichdan iborat. 1. Birinchi sabab ya'ni xudo. 2. Ikkinchi sabab, ya'ni osmoniy jismlar. 3. Uchinchi sabab, ya'ni faol aql. 4. To'rtinchi sabab, ya'ni jon. 5. Beshinchi saba, ya'ni shakl. 6. Olimnchi sabab, ya'ni materiya.

Forobiy ta'limoticha, moddiy jismlar 6 qismga bo'linadi: osmon jismlari, aqlli hayvonlar, aqlsiz hayvonlar, o'simliklar, menerallar va 4 unsurdan tashkil bopgan.

Forobiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida kishilik jamiyati va uning vujudga kelishini insonning real hayotiy ehtiyojlari bilan bog'lab tushuntiradi. Bu haqda u shunda deydi: «Har bir inson o'z tabiatiga ko'ra shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi. U bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi va ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan narsalarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p insonlarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Shuning uchun inson shaxslari ko'payadilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnamshdilar. Natijada inson jamoasi vujudga keldi».

Forobiyning ijtimoiy qarashlarida muhim ahamiyatga molik fikr Arastu singari u ham insonni «ijtimoiy hayvon» deb ta'kidlashi va uning ijtimoiy mohiyatini ochib berganligidir. Bu haqda o'zining «Baxt-saodatga erishuv haqida» degan risolasida to'xtalib, hayvonni ikki xil nom bilan ataydi. Birinchisi, hayvoniy, ikkinchisi, madaniy hayvon yoki insondir, deydi. Shuningdek, Forobiy insonlar jamoasi haqida gapirib jamoani uchga ajratadi.

1. Katta jamoa bo'lib, unga yer yuzida yashaydigan barcha insonlar kiradi.
2. O'rta jamoa hisoblanib, bunga bir ma'lum xalq taalluqli.
3. Kichik jamoa, ya'ni ma'lum bir shahar kishilaridan iborat bo'ladi.

Forobiy ijtimoiy qarashlarida fozil va johil shahar haqidagi qarashlarini aytib o'tadi. Uningcha, fozil shahar boshlig'i har tomonlama rivojlangan yetuk shaxs bo'lmog'i lozim. U o'zida 12 ta ijobiy fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak deb, ularni birma-bir ko'rsatadi:

1. Fozil shahar hokimi jismonan sog'lom bo'lishi;
2. Nozik farosatli bo'lishi, suhbatdoshning so'zlari va fikrlarini tez ilg'ab olishi;
3. Xotirasi mustahkam bo'lishi;
4. Zehni o'tkir va zukko bo'lishi;
5. Chiroyli so'zlaydigan notiq bo'lishi;

6. Bilimga va ma'rifatga havasli bo'lishi;
7. Ochofat bo'lmasligi, nafsini tiyadigan bo'lishi;
8. Haqiqatgo'y bo'lishi;
9. Nomus oriyatli odam bo'lishi;
10. Molu-dunyo izidan qo'vmaydigan bo'lishi;
11. Adolatparvar bo'lishi;
12. Qa'tiyatli va jur'atli bo'lishi zarur.

Mana shu fazilatlarni o'zida mujassam etgan kishigina fozil jamiyatni boshqarishga qodir bo'ladi, deb aytadi.

Xorazmlik mutafakkir Abu Rayhon Beruniy (973-1048) alohida ijtimoiy qarashlari bayon etilgan maxsus asar yozib qoldirmagan. Lekin o'zining «Hindiston», «Geodeziya», «O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Meneralogiya», «Saydana» kabi asarlarida falsafiy va ijtimoiy qarashlari aks etgan. Uning fikricha, materiya hamma narsalarni yaratadi, ular bir shaldan ikkinchi shaklga o'zgaradi. Tabiat doimo to'xtovsiz harakatda, o'zgarishda. Beruniy ijtimoiy-siyosiy qarashlari Forobiynikiga o'xshab ketadi. U o'zini axloq falsafasiga katta e'tibor beradi. Unga ko'ra, mardlik, jasarat faqat o'zini emas, boshqalarni ham o'ylashdir. Kerak bo'lganda boshqalarga ham yordam berishdir. Beruniy falsafasicha, insonlar ichki va tashqi poklikka ahamiyat berishlari lozim. Uningcha, ichki poklikning kaliti yaxshi niyatdir. Inson o'z tashqi qiyofasina o'zgartira olmasada, u o'zini tarbiyalay oladi, ni ichki va tashqi jihatdan pok bo'ladi, deydi. Beruniy inson bilan hayvonlar o'rtasida genetik bog'liqlik borligini ko'rolmagan bo'lsa-da, u inson bilan maymun o'rtasida o'xshashlik borligini ta'kidlaydi. Masalan: ular a'zolarining o'xshashligi bilan, tashqi ko'rinishlari bilan ham bir-birlariga o'xshab ketadi, deydi. Beruniy fikricha, inson avvalo hayvondan aqli bilan farq qiladi va u shu bilan hayvonlardan ustun turadi. Beruniy insonni xudo yaratganligini ta'kidlaydi. Beruniy insonning jismoniy tuzilishida umuman uning hayotida geografik omilning roli haqida ajoyib fikrlar bildirgan. Bu haqda u shunday yozadi: «Odamlar tuzilishlarining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarining turlicha bo'lishi emas, balki tuproq, suv, havo, joylarning ham turlichaligiga bog'liqdir», deydi. Hatto tillarning turlichaligi ham geografik sharoitlarga bog'liq deb bilib, shunday yozadi: «Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlariga ajralib ketishi va bir-birlaridan uzoq turishidir».

Beruniy moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni roli jamiyatda katta ahamiyatga egaligi, ehtiyojlarning turli-tuman va son-sanoqsizligini aytadi. U faqat ehtiyojlarni bir xilcha so'zlashadigan kishilar birgalikda ta'minlay olishlari mumkin. Buning uchun kishilardan shaharlar tashkil etish zarurati tug'iladi. Kishilardagi hayotiy ehtiyojlarni birgalashib qondirishga intilish o'zaro bir-birlariga yordamlashish kabi

yaxshi niyatlar ularni jamiyatga birlashishga olib keldi, deb hisoblaydi. Ayni paytda Beruniy «Odamlar hammasi bir otaning bolalari va bir-birlariga juda o'xshaydi. Lekin ular oralaridagi raqiblik va ko'rolmovchiliklardan ham holi emas», deydi.

Butun dunyo ahli Abu Ali Ibn Sino (980-1037)ni mashhur tabib sifatida biladi. Ibn Sinoning falsafiy qarashlari uning tabiiy-ilmiy qarashlari bilan o'zviy bog'langan. Uning fikricha, falsafaning vazifasi mavjudotni, ya'ni barcha narsalarni kelib chiqishini, o'zaro munosabatini o'rganishi lozim. Bu olam yaxlit murakkab borliq deydi. U borliqni ikkiga bo'ladi. 1. Zaruriy vujud, ya'ni xudo. 2. Imkoniy vujud, ya'ni xudodan kelib chiquvchi narsalar.

Ibn Sino aytadiki, materiya 4 unsurdan tashkil topgan. Materiya doim harakatda, u vaqt va fazo bilan bog'liqdir. Uning nazdida avval tog'u-toshlar, so'ngra o'simlik, hayvonot va oxiri inson vujudga kelgan. Inson boshqa barcha hayvonot olamidan so'zi, aqli va tili bilan ustunlik qiladi. Uning dunyoqarashi pantistik edi.

Ibn Sino tabib bo'lish bilan birga o'zining inson haqidagi qarashlari, jamiyat ravnaqi borasidagi fikrlarni ham bayon etgan. U inson tana va jondan yoki jism va ruhdan tashkil topgan hamda unda aql bor. Inson o'z aqli orqali fikrlash qobiliyatiga ega bo'lib, barcha maqsadli harakatlarini amalga oshiradi. Aql har qanday bilishning va amaliy faoliyatning mezoni sifatida talqin qiladi. Aql tarozisida o'lchanmagan har qanday bilim haqiqiy bo'la olmaydi, demak u haqiqiy bilim emasdir, deb yozadi.

Ibn Sino kishilarni jamiyatda o'z o'rinlarini topishga chorlab, «Risolatut tayr» («Qush risolasi») asarida shunday yozadi: «Ey birodarlar! Bir-biringiz bilan samimiy do'st bo'lib, haqiqatni ochinglar. Har bir kishi o'z birodari uchun ko'nglidagi samimiylikdan (to'sqinlik) pardasini ochib tashlasin. Shunday qilinglarki, birodaringiz sizlardan (o'zi bilmagan) ba'zi narsalarni o'rgansin va boshqalari (bo'lsa) ba'zi narsalarni o'rganib o'zini kamolotga yetkazsin».

Tasavvuf (ya'ni sufizm-arabcha «suf»-jun) serqirra va murakkab oqim bo'lib, musulmon Sharqida VIII-XIV asrlarda rivojlandi. Tasavvuf g'oyalarining jamiyatda keng miqyosda amal qilishi bevosita insonparvar shoirlarning hayotga nisbatan kuchli ehtiroslarini vujudga keltirdi. Tasavvufning poklik, ilohiy ishq, zohidlik haqidagi haq va haqiqat, ajib insoniy xislatlar, kamolot kasb etish

g'oyalari she'riy misralarga aylandi. Tasavvufning behudlik va ishq konsepsiyasi soflik, adolat va haqiqat timsoli – Mutloq ilohga muhabbat zavqi ijod ahliga o'z ta'sirini o'tkazdi. Natijada, insoniyat g'ami bilan liq to'lgan qalb dardiga isyonkor ruhdagi shiorlarni bir ohangraboday o'ziga tortib, o'rtanishli, his-hayajonga serob va kishida qalb go'zalligini yaratuvchi bir qator ishqiy she'rlar vujudga keldi.

Sufiyona adabiyotning tasvirlanish mavzui tariqat yo'li bilan poklikka intilayotgan va tinmay komillik sari taraqqiy etayotgan «solik Inson»<sup>1</sup> bo'lgani uchun ana shu maqsad yo'lidan borayotgan yo'lovchi solik Insonning dunyoqarashi, estetikasi, kechinmalar olami muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Bunday fazilat sifitlarni Ilohiy ishq asosida Olloh vasliga yetkazishga qaratilgan. Shu boisdan ko'plab sufiylar «Iloh yaratgan moddiy olamdagi go'zallik-Ilohning kalomi va jamoli aks etgan narsalar va uning gultoji insonga muhabbat orqali bo'ladi. Shu tariqa dunyoviylik bilan ilohiylik o'zaro bog'lanadi. Shunisi ham borki, ilohiy muhabbat – bu irfoniy bir tuyg'u, ya'ni bilish zavqi, anglash zavqidan, g'oyaga, ma'rifatga aylanish zavqidan boshqa narsa emas. g'oyada sufiy muhabbat otashida yonib, go'yo moddiylikdan qutulib, yaxlit bir g'oya-bir ma'rifat parchasiga aylanadi.»<sup>2</sup>

Tasavvufiy adabiyotning barcha ko'rinishlari, janrlarida ana shu solik Insonning tuyg'ulari, tushunchasi tasvirga olinadi, uni tarbiyalash, unga Haqni va o'zligini tushuntirish turli rivoyat va hikoyatlar keltirish, o'git va pand-nasihatlar qilish bu uning ongi va qalbiga yo'l topish asosiy bosh masala qilib olinadi. Xususan, Farididdin Attorning «Ilohiynoma» asarida bu xildagi xilma-xil keltirilgan fikrlar insonlarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasiga qaratilgan. Unda yozilishicha, har qanday o'gitlarda «ko'z oldingizda ilohiy ilhomning mo'jizalari namoyon bo'ladi. Bunchalik izhori dard, iztirob va yonish lazzatidan sarmast bo'lib kuylash ishtiyoqi, nurga talpinib, nur-la yo'g'rilib, nurlanib porlash shodligi, hayajon va zavq toshqini!»<sup>1</sup>. Shoirning Ollohning yagonaligi va uning sirsinoatlarga boyligi haqidagi g'oyalari tabarruk so'zlar asosida yoritib beriladi. Shuningdek, olam mutloq Parvardigorning ijodi deb talqin etiladi, voqyelikning go'zalligi va qudratini Ilohdan, deb hisoblaydi.

Tasavvufning estetik mohiyatini talqin etishda Imom al-g'azzoliy «Diniy ilmlarning tiriltirilishi» nomli asarida bevosita to'xtalib, Ollohga bo'lgan ishq insoniylik, ezgulik, go'zallik, komillik tuyg'ularini tarbiyalashligini aytib o'tadi.

<sup>1</sup> солик инсон – Каълият йўлига кирган художўй, тальводор инсон.

<sup>2</sup> Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. Тавқид асрори. Т., Ҳ. Ҳулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1999, 5-6 бетлар.

<sup>1</sup> Фаридиддин Аттор. «Илоқийнома». Т., «Ёзувчи» нашриёти, 1994, 6-бет

Tasavvufning ishqiy g'oyalari A. Ansoriy, A. Yassaviy, S. Boqirg'oniy va boshqa sufiylar asarlarida tasvirlab berildi.

Eronda tasavvufning nafosat g'oyalarini ilgari surgan shoir Abdulloh Ansoriy (1006-1089 yillar) bo'lib, olamning go'zalliklarini o'z ijodida bayon qilgan. Uning estetik qarashlarga boy «Munojot», «Sayr etuvchilar manzillari», «Ilohiynoma», «Sirlar kitobi» kabi asarlarida Ollohni ko'rishga bo'lgan intilish tasvirlanadi.

A. Ansoriy asarlari o'rta asr musulmon Sharqi xalqlarining ma'naviy xazinasini, nafosat olamining nozik masalalarini o'zida mujassam etganligi bilan tasavvuf ahlining, qolaversa, insoniyatning buyuk va noyob o'tmishi bo'lib qoldi. Bu asarlarda insonlarning, jamoli Ollohning go'zalligini bir zarrasi bo'lib, shu go'zallikdan hammaning zavqlanishi, yaratgan egasini bilish g'oyalari yotadi.

Ahmad Yassaviyning shogirdi Sulaymon Boqirg'oniy (vafoti 1186 yil) hayotiga oid ma'lumotlar turli afsona va rivoyatlar bilan bog'lanib ketgan. Uni «Hakim ota» deb ham ataganlar. Boqirg'oniy «Bibi Maryam kitobi», «Oxir zamon kitobi» kabi dostonlar va «Boqirg'on kitobi» nomli she'rlar to'plamini yozgan. Uning she'rlari va dostonlaridagi g'oyalar Yassaviy ijodiga hamohang bo'lib, bu dunyo go'zalliklaridan voz kechish, tarkidunyochilik, ya'ni narigi dunyo lazzatlaridan bahramand bo'lish targ'ib qilinadi. Boqirg'oniy olamdagi nafosat va go'zallik xudoda o'z aksini topganligi ta'kidlanadi. Shuningdek, Boqirg'oniy milliy an'analar va qadimiy bayramlarni o'zida aks ettirgan «Navro'znoma» asarini estetik tamoyillar va tushunchalar asosida yozgan.

Umuman olganda, Boqirg'oniy yozgan she'rlari o'zining soddaligi, poetik jihatdan xalq qo'shiqlariga yaqinligi uchun xalq ommasi tomonidan iliq kutib olingan.

Sufiylikning qoidasi shunday iboratki, kambag'allik uning bezagi, sabr-toqat uning naqshi, qanoat qilish uning oti, ishonch uning qadr-qimmatidir. Tasavvufning muhim xususiyati xudo va insonning birligidir. Xudo hamma ko'rinadigan narsalarda mavjud, narsalar esa, o'z navbatida xudoda mavjuddir. U dunyoviy ruh shaklida butun olamga tarqalgan. Inson ana shu ruhning bir qismi, ertami-kechmi u bilan qo'shiladi. Bu qo'shilishda 4 ta asosiy bosqich bo'lib, bular shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqatdir.

Tasavvufda 3 ta yirik tariqat mavjud. 1. Yassaviya tariqati. 2. Naqshbandiya tariqati. 3. Kubroviya tariqati.

Yassaviya tariqati. Ahmad Yassaviy (1041-1167) Sharqning mashhur

tasavvufchi olimidir. Yassaviy jamiyatda tasavvuf g'oyalarini targ'ib qilib,

aholining turli qatlamlari orasidan o'ziga shogirdlar, muridlar topadi. Bu

tariqatda sufiy bo'laman degan kishi boshqalardan uzoqda, o'zi alohida yashashi

kerak. U faqat xudoga ibodat qilishi lozim. Shundagina sufiyda insofga,

adolatga, halollikka intiladi, xilvat va uzlatda yashaydi. Ahmad Yassaviy o'z



«Hikmat»larida insonni ulug'laydi, kishilarni zulmdan, adolatsizlikdan saqlashga intiladi. Xalq ommasining xarohligini o'ziga qaratib, o'zining pokiza fikrlari, adolatparvar g'oyalari bilan barchani obro'siga erishadi. Ayni paytda odamlarni sabr-toqatda bo'lishga, taqdirga tan berishga chaqiradi, oxiratni o'ylashni nasihat qiladi. Yassaviy fikricha, inson hayoti qanchalik qiyinchiliklarga, mashaqqatga va kulfatlarga to'la bo'lmasin, u hamisha komillikka intilishi kerak.

Kubroviy tariqati. Tasavvufning yirik vakillaridan bir Najmiddin Kubro (1145-1221) bo'lib, insonlarni vatanparvar bo'lishga chorlaydi. U shariat va tariqatning buyuk donishmandi bo'lgani uchun Kubro (ulug'larning ulug'i) va «Najmiddin» (dinning yulduzi) degan laqablarni olgan. Uning ta'limoti axloqiy poklik, mardlik, jasurlik g'oyalariga asoslangan. U xudoni sevish insonlarni baxtli hayotga chorlaydi, hamma shu yaratganning marhamati bilan o'zini kimligini, qaysi jamiyat vakili ekanligini anglab yetadi, deydi. U insonni «kichik olam» deb ataydi. Kubro ranglarning inson ruhiyatiga kuchli ta'siri borasida fikr yuritadi. Xilma-xil ranglar moddiy olam o'zgarishlari, rangsizlik – xudo olami belgisi deydi.

Naqshbandiya tariqati. Bahovuddin Naqshband (1318-1389) o'z tariqatida insonlar Allohga yetishish uchun to'g'ri va adolatli yo'lni tanlashi, jamiyatda halol yashashi, bu hayotda shod, xurram, baxtiyor kun kechirishi kerakligini aytadi. Bu tariqat markazida axloq va va xulq odob qoidalariga izchil amal qilish turadi. Insonlarni halol va pok bo'lishga, o'z mehnati bilan kun kechirishga,

muhtojlarga yordam berishga, kamtar va sofdil bo'lishga da'vat etadi.

Naqshband har bir inson jamiyatda o'zini o'rmini topa olsin, jamiyat a'zolari

bilan yashasin, deydi. Uning asosiy qoidasi «Dil ba yoru, dast ba kor»

hisoblanib, bu qoidaga amal qilgan Naqshband otasi bilan birgalikda temir va

mis buyumlarga turli naqshlar bitgan. Shu tarzda «Naqshband» taxallusi kelib

chiqqan.

Tasavvufning muhim ideallarini Alisher Navoiy so'z san'ati orqali ifodalashga harakat qildi. Unda sufiyona g'oyalar ilgari suriladi va so'z go'zalligi vositasida Oллоh nigohi namoyon bo'lishini aytadi. Navoiy Oллоhga bo'lgan ishqni gul so'zi asosida tushuntirishga intilib: «Mening ko'nglim, qalbim sening gul yuzing yashnab turadigan gulshan bo'lsin, qading niqoli jonim o'rtasida alifday tursin». Yoxud: «Sening gulday diling joyi mening ko'nglim, uning ko'ngil yaralariga davо, u qalbim gullarini yashnatadi. Go'zal surating, baland, zebo qomating jonim ichida. Bu yerni o'zingga makon qil».<sup>1</sup> Navoiy bu g'oyalari orqali Oллоhni chiroyli, go'zal so'zlar vositasida ifodalab, yor vasliga sufiyona yetishishga harakat qildi. U yor ishqiga sadoqatidan ilhomlanib, o'z dardini Oллоhga oshiqlik deb bildi.

Tasavvuf estetikasini nozik jabhalarini Mirzo Bedil iborali va ibratli so'zlar bilan tavsif qildi. Bedil sufiy darajasiga yetishishda sof ruh qalbdа hukmron bo'lishi kerak. Bu ruh nafas va latofatga boy hayot manbai. Ana shu ruhning tiniq va shaffof ilohiy nuri kishi dilini yoritadi. Oллоhga bo'lgan pok va sof beg'ubor tashnalikni qondiradi. Shu tarzda sufiy o'z madaniyati va ma'naviyatini doimo aql bilan boshqarishga intiladi, deydi. Sufiyning estetik olami bu-ezgulik, go'zallik, shirin so'zlik, nazokatlilik, go'zal qalb, go'zal xulq-atvor, go'zal g'oya va go'zal so'z ozuqasi bilan namoyon bo'ladi. Bular barchasi sufiyni Oллоhga yaqinlashishi va uning jilvasini ko'rishga yordam beruvchi omillar ekanini ta'kidlanadi.

Tasavvuf estetikasida jonli va jonsiz har bir narsada hayotning ызida Iloh qudratini anglab yetish, uning go'zalligidan hayratlanib, to'lib-toshib, jo'shqin olam manzarasini zavq-shavqqa to'laligini bilish, Ilohni aziz va beg'ubor, sof va pokdil yor deb bilish, unga sig'inish, suyanish, unga o'z dil rozini aytish masalasi turadi.

---

<sup>1</sup> Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. Тавшид асрори. Т., /./улом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1999, 90-бетлар.

Bundan ko'rinib turibdiki, sufiylarda real moddiy olam go'zalligi inkor etilmaydi, balki bu olamdagi barcha narsalar Ollahning mevasi va undan hammaning o'z ulushini olib foydalanishi aytib o'tiladi.

3. Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ikkinchi Sharq Uyg'onish davrida ko'plab mutafakkirlar tarix sahnasiga keldi. bu davrda A.Temur, M.Ulug'bek, A.Navoiy, A.Jomiy, Z.M.Bobur va boshqa bir qancha allomalar jamiyat rivoji borasidagi ijtimoiy masalalarni o'rta tashladilar.

XIV asrning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari, davlatni qurish, jamiyatni huquqiy qonun-qoidalar asosida boshqarish, insoniyat taraqqiyotiga yangi sivilizasiyani olib kirishda Amir Temurning hissasi katta bo'ldi. U o'zining ijtimoiy – siyosiy qarashlarini aytar ekan, men markazlashgan mustaqil davlat tuzishda va uni boshqarishda shior qilib olgan 12 ta tuzuklarimga amal qildim, deydi. «Temur tuzuklari»da «Adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o'zimdanda rozi qildim, gunohkorlarga ham rahm qilib haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim» degan so'zlarni o'qiymiz.

Temur o'z davrida davlatni boshqarish ishlarida bevosita o'tmishda mavjud bo'lgan davlatlar va podshohlar hayotini ham o'rganib chiqqanligini aytadi. Bu haqda shunday deydi: «Hayotni ko'p issiq sovug'ini ko'rib ulardan saboq olib tajribamni oshirdim. Shuning uchun do'st-dushman bilan kelishib yashadim. Odam Atodan boshlab Hotam ul an biyogacha, ulardan hozirgi damgacha o'tgan sultonlarning qonunlari, turish-turmushlari, qilish - qilmishlari, aytgan gaplarini xotiramda saqladim va yaxshi axloqlari, ma'qul sifatlaridan namuna olib unga amal qildim. Davlatning tanazzulga uchrashi sabablarini surushtirdim va davlatu-saltanat zavoliga sabab bo'luvchi ishlardan saqlandim».

Temuriylar davrida ijtimoiy fikr taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan davlat arboblardan bir Mirzo Ulug'bekdir. O'z davri fani va madaniyati, jamiyat rivoji uchun ko'plab dunyoviy bilimlarni xalqqa yetkazib berdi. Ayniqsa, jamiyat taraqqiyoti yosh avlod qo'lida ekanligini chuqur anglab yetib, yoshlar barcha egallagan bilimlarini mukammallashtirib borishi, ularni hayotga tadbiiq etishlari, jamiyat farovonligi uchun qayg'urishlari, doimo kasb va hunar egallashga intilishlari lozimligini uqtiradi. Uningcha, har bir inson o'z o'tmishi, tarixini yaxshi bilishi, qolaversa, kelajak haqida o'ylashi lozim. U o'zining «Ziji

Ko'ragoniy», ya'ni "Yulduzlar jadvali" nomli asarini yozdi. Bu kitobda jahon xalqlarining har xil hisoblaridagi eralar va ularning munosabatlari, vaqtni aniqlanish, quyosh va oy tutilishlari, yulduzlar va sayyoralarning harakatlar va boshqalar to'g'risida fikr yuritadi. U bir yilda 365 kun 6 soat 46 soniya borligini bundan 600 yil oldin aytib o'tgan.

Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy-falsafiy tafakkuri taraqqiyotida Boboraxim Mashrab (1657-1711 yil) qarashlari alohida ahamiyatga ega. U o'zining «Devonai Mashrab» deb nomlangan asarida insonlar g'am-tashvishlari, dard-alamlarini kuyladi. Mashrab she'rlarida jamiyatda hukm surayotgan ijtimoiy adolatsizliklarni qoraladi. Uning insonparvarlik so'zlari jamiyatdagi hukmdorlarga, shariat peshvolariga mutlaqo yoqmadi. Jamiyatdagi tengsizlik, haqsizlik kabi illatlarni qoralab, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni barchasi oddiy xalqni og'ir ahvolga solib qo'yishini aytadi.

Mirzo Abdulqodir Bedil (1644-1721) falsafiy qarashlarini bayon etar ekan, avvalo, barcha narsalar 4 unsur (tuproq, suv, havo va olov)ning qo'shilishidan kelib chiqqanligini aytadi. Bu unsurlarni birikuvini noorganik tabiatning, keyinchalik o'simlik olamining kelib chiqishi, o'simlikning rivojlanishi bilan hayvon kelib chiqishi sodir bo'ldi. Undan keyin so'zlashishga o'rganib inson paydo bo'ldi, deydi. Shu tariqa anorganik, organik tabiat, hayvonot olami va insoniyat o'rtasidagi o'zviy aloqa borligini ko'rsatadi. Bedil inson agar o'z vaqtida ovqatlanib turmasa quvvatdan ketadi, mehnat qilish qobiliyatini yo'qotadi deydi. Ayniqsa bu holat ko'pincha tarki dunyo qilganlar, gadoylar o'zlarini turli qiynoqlarga soladilar, o'z tanalarini murdaga aylantirib, o'zlarini o'zlari xor qiladilar. Bunday kishilarni ko'z oldilarida parilar, jinlar namoyon bo'ladi, natijada ular aqldan ozib qoladilar, deydi.

XIX asr adabiy merosiga katta hissa qo'shgan shoira Nodira (1792-1842) she'rlarida insonni ulug'lovchi g'oyalarni maydonga olib chiqdi.

Nodira o'z she'rlarida inson va uning tabiatiga bog'liq fikrlarni, jamiyat taraqqiyoti uchun zarur omillarni, insonlarning og'ir turmushini ko'yladi. Uning fikricha, inson olamdagi barcha mavjudotlarning eng oliysi, ham eng ulug'i hisoblanadi. Shu boisdan inson bu dunyoni go'zal etuvchi, hayotni sevgi-muhabbatga to'ldiruvchidir. O'z she'rlarida xalq ahvolidan xabar olmagan xonlarni, sultonlarni soxta obru-e'tiborlarini namoyish etdi. Nodira insonlar, shohlarni boylikka hirs qo'ymaslikka da'vat qildi. Uning insoniylik, muhabbatning mavjudligi insonning haqiqiy inson ekanligini bildiradi.

4. Xalq dardi, el-yurt istiqboli tashvishlari bilan yashagan alloma Axmad Donish (1827-1897) «Buxoro amirlari tarixi» asarida o'sha davr ma'naviy va madaniy hayotini aks ettirdi. U Buxoro xalqi hayoti bilan Rossiya xalqi turmushini solishtirib, o'z vatanini iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha orqada qolganligini ko'rsatib berdi. U Buxoro davlat tizimini isloh qilishi g'oyasini ilgari surdi. Donish o'zining isloh loyihasi bilan amirga murojat qildi. Bu murojatda «Davlat bir guruh kishilar emas, balki xalq manfaatlariga xizmat qilishi kerak» degan g'oyani asosladi. Bu fikrlarni amir rad etdi. Donish fikricha, mamlakatni boshqarishda hukmdor muhim ishlarni o'z atrofidagi davlat arboblari bilan maslahatlashib hal qilishi lozim. A. Donish ma'rifatparvar kishi sifatida mamlakatni aqlli, dono odamlar boshqarganda, davlat taraqqiy qilishi mumkin, deb o'ylaydi. Keyinchalik A. Donish hayotiy tajribalar ostida donishmand va odil hukmdorga umid bog'lash fikridan qaytdi.

Turkistonda ijtimoiy – falsafiy fikrlar XIX – XX asrlarda jadidchilik asosida shakllandi. Jadid so'zining ma'nosi yangi degani. Jadidchilik xalqning milliy ongini o'stirish, o'zligini anglash, ma'rifatparvar g'oyalarni ilgari surishga qaratilgan edi. Jadidchilik harakatining asoschisi qrim-tatar farzandi Ismoil Gaspirali edi. U 1884 yilda Qrimdagi Bog'chasaroy shahrida birinchi jadid maktabiga asos soladi. O'zi dastur tuzib, darslik yozdi. Ana shu yaratgan darslik asosida 40 kunda bolalarni savodini chiqardi va yangi usul, usuli jadid nomi bilan juda katta shuhrat qozondi. Gaspirali g'oyalarini xalqqa yetkazib berishda o'sha davrdagi «Tarjimon» gazetasining xizmati katta bo'ldi.

1893 yil Gaspirali Turkistonga kelib, uning shaharlari Samarqand, Buxoro va Toshkentda bo'ladi. Odamlarga jadid maktablarining mohiyatini tushuntirib beradi. U Buxoroda 1893 yilda amiri Abulaxad bilan kelishib bitta jadid maktabi ochadi. U ketganidan keyin bu maktabni amir yana yopib qo'yadi. 1904 yilda Gaspirali yana Buxoroga keladi va amir bilan muzokara olib borib, ushbu muzokaraning natijasida «Muzaffariya» jadid maktabi ochiladi.

1898 yilda Qo'qonda Salohiddin Domla boshchiligida jadid maktabiga asos solinadi. 1899 yilda Andijonda, Toshkentda jadid maktablari ochildi.

Turkistonda jadidchilik harakati boshida M. Behbudiy, A. Avloniy, Fitrat, Munavvar Qori va boshqa taraqqiyparvar kishilar turishgan. Shunday qilib, XX asrning boshlarida jadidlar Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi siyosiy kuch sifatida tarix sahnasiga keldi. Taraqqiyparvar ziyolilar, ya'ni jadidlarning ongini o'sishida, dunyoqarashining yuksalishida Bog'chasaroyda nashr etilgan «Tarjimon», Qozonda chiqqan «Yulduz», «Vatan» jurnallari katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Turkiston jadidlarining 1906 yilda «Taraqqiy», «Xurshed» gazetalari o'zbek tilida chiqadi va ko'p o'tmay hukumat tomonidan to'xtatilib qo'yadi. Turkiston jadidlarining ozodligi uchun kurash dasturida asosan 3ta yo'nalish bor edi.

1. Yangi usul maktablari tarmoqlarini kengaytirish
2. Iqtidorli yoshlarni chet ellarga o'qishga yuborish
3. Turli ma'rifiy jamiyatlar tashkil etish edi.

**4-mavzu:** O'rta asrlar va yangi davr G'arb falsafasi. Hozirgi zamon jahon falsafasi.

#### **Reja:**

1. O'rta asrlar G'arb falsafasi. Nominalizm va realizm. Apologetika, patristika, sxolastika g'oyalari. Uyg'onish davrida G'arbiy Yevropa falsafiy tafakkur rivoji. J. Bruno, N. Koperik, Galiliy, N. Kuzanskiy va boshqalar.
2. Yangi davr Yevropa falsafasi. F. Bekon, T. Gobbs, I. Kant, Gegel va boshqalar. XVIII asr ma'rifatchiligi. Volter, Russo, Lametri, Didro, Gelvesiy, Galbox.
3. Hozirgi zamon jahon falsafasi va uning asosiy oqimlari: Pozitivizm, Neopotivizm, hayot falsafasi, ekzistensializm jamiyat falsafasi (K. Popper, P. Sarokin)

**Tayanch iboralar:** Nominalizm. Realizm. Sxolastika. Apologetika. Patristika. Uyg'onish Operi: J. Bruno, II Kopernik. F. Bekon. T. Gobbs. Volter. Russo. Didro va b. Nemis milliy falsafasi. Pragmatizm. Ekzistensializm. Jamiyat falsafasi. P. Sorokin. KPopper.

## ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. A. Dnrihmand xalqimizning mustaxkam irodasiga ishonaman.
2. "Fidokor" gazetasi 2000, 8-iyul.
3. Falsafa. T., 1999, 125-134, 143-162-betlar.
4. Falsafa. Ma'ruza matnlari. T. 2000. 107-123, 133-144-betlar.
5. Falsafa asoslari. T., 2005, 92-105, 115-125-betlar.
6. Falsafa. Qomusiy lug'at. T., 2004.
7. Falsafa. Qisqacha izohli lug'at. T., 2004.
8. Qadimgi va O'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi. T., 2003, 134-201-betlar.
9. G'arb falsafasi. T., 2004, 2-3-4-5-6-7- bulimlar.

1. Yevropada Qadimgi Yunon va Rimdan o'rta asrlar falsafasigacha, ya'ni miloddan ilgari I asrdan milodning XIV asrigacha, bir yarim ming yil davomida bir qancha oqimlar paydo bo'ldi va amal qildi. Bu davr falsafasida ikki xil jarayonni ko'rish mumkin: 1. Xristi-anlikning shakllanib davlatdini va mafkurasiga aylannishi. 2. O'rta asrlarga kelib inkvizisiyaning ustuvor yo'nalishga aylanishi. Gnostika, apologetika, patristika, realizm, nominalizm va boshqa oqimlar o'sha davr falsafasining qiyofasini belgilaydi.

Bu davr falsafasida o'z o'rniga ega bo'lgan gnostisizm eramizning 150 yillarida o'zining yuksak ravnaqiga erishadi. Ular shunday falsafiy ta'limot yaratdilar, ularning fikricha, Xudo ruh sifatida yovuzlikda mutlaqo sof, inson esa o'z tabiatining ruhiy jihati bilan xudoga moslashgan. Bu masalada gnostisizm faylasuflari xristianlikni yunon falsafasi bilan birlashtirishga harakat qildilar.

Dualizm — gnostisizmning asosiy yo'nalishi, bu oqim tarafdorlari moddiy va ruhiy dunyo o'rtasida mustahkam chegara mavjud, deb ta'kidlaydilar. Ular ta'limotida materiya hamma vaqt yovuzlik timsolidir. Bundan ular Xudo hech mahal moddiy dunyoni yaratishi mumkin emas, deb xisoblaydilar.

Apologetlar xristianlik tarixida I va III asrlarda vujudga keldi. Apologetika so'zining lug'aviy ma'nosi "himoya qilish", demaqsir. Apologetlar hukumatning xristianlikka bo'lgan dushmanligini bartaraf qilishga, Rim davlatining xristianlikni ta'kid qilishi hech qanday okdashga loyiq emasligini isbotlashga harakat qilganlar, o'z asarlarida mushriklik (ko'p Xudolik) adabiyotlaridan olingan

bahslashish (dialog) shaklidan yoki apologetikaning mumtoz shaklidan foydalanganlar.

Apologetlar asarlarida ikki an'ana yaqqol sezilib turadi. Ya'ni, inkor qilish va tasdiklash. Ular eng avval mushriklar tomonidan xristianlikka qo'yilgan ayblar — g'ayriodatiy harakatlar, dabdababozlik kabilarni inkor qilganlar. Xristianlikning sofligini esa tasdiqlaganlar. Bu sohada Yustinning "Birinchi apologeya", "Ikkinchi apologeya" asarlarini. Tulcan va \_Anaksagor kabi fayla-sufklar faoliyatini ta'kidlash lozim.

“Patristika” suzi “ota” (“padre”) so'zidan kelib chiqqan. Bu nom bilan odatda Yevropada yepiskoplarni ularga hurmat sifatida ataganlar. Sharkda mashhur bo'lgan cherkov otalaridan biri Ioan Zlatoust (347—407) edi. Uning 640 ta da'vatlaridan ko'pchiligi avliyo Pavel nomalarinint sharhi edi. Uning asarlarida Injilni amaliy qo'llash sof axloqiy masalalar bilan qorishib ketgan.

G'arbda eng yirik cherkov otalaridan biri "Pok" degan unvonga sazovor bo'lgan Avreliy Avgustin (354—430) hisoblanadi. U faylasuf va ilohiyotchi bo'lgan. Uning o'sha davrdagi eng mash-hur asarlaridan biri "Sig'inish" 401 yilda yozilgan. Bu asarda u o'zining xristianlikkacha bo'lgan hayotini yozadi. "Bibliya" oyatlari ramziy — timsoliy bayon kilinadi. U mushriklik falsafasini qora-laydi. Uningcha, bu falsafa insonni xristian dinichalik hyech mahal haqiqatga olib kelmaydi. Avgustin bahs shaklida boshqa (dialog) falsafiy asarlar yozgan.

“Sxolastika” so'zchi yunoncha "shkola"dan ("shola") olingan bo'lib, "o'qish joyi", "maktab" ma'nolarini anglatadi. Buyuk Karl saroyida o'qituvchi-lik qilganlarni yoki umuman saroy maktabidagi o'qituvchilarni sxo-lastlar deb ataganlar. Shuningdek, dinni o'rganishda falsafani tatbiq qilgan o'rta asr olimlarini ham sxolastlar deb ataganlar. Sxolastikani ma'lum darajada ilohiyotni aqlga moslashtirish, dinni tafakkur yordamida quvvatlashga bo'lgan intilish, deb ham baholash mumkin. O'sha davrda ilohiyotni muqaddas kitoblar aqidalari asosida emas, balki falsafiy nuqtai nazardan tadqiq qilish toqozo qilinardi. Sxolastlarning maqsadi e'tiqod aqlga muvofiqmi, de-gan savolta javob berish bo'lgan.

Realizm.

Uning yirik vakillaridan biri kenterberiyalik Anselm (1038— 1109)dir. U Shimoliy Italiyada tug'ilgan, 1093 yilda Kenterberiyisk shahrining arxiyepiskopi etib tayinlanadi. Anselm o'zining ikki asari bilan mashhur.

Birinchisi, "Monopoliya" — Xudoning borligini sabab va oqibat munosabatlari tizimida isbot qilish. Bu isbot — kosmologik isbotning shakli



sifatida shunday talqin qilinadi: inson hayotda ko'p ne'matlardan foydalanadi. Bu ne'matlar esa eng oliy ilohiy ne'matlarning aksidir. Ular orqali hamma narsalar mavjuddir. Uzluksiz tanazzulni tasavvur qilib bo'lmagani sababli hamma narsaning, bir sababchisi bo'lishi kerakki, biz uni Xudo deb ataymiz.

Anselmning ikkinchi asari "Prologion" Xudo borligining deduktiv isbotidir. Uning ta'kidlashicha, har bir odam uchun oliy va komil mohiyat haqida g'oya mavjuddir. Bu g'oya esa obyektiv mavjudlikka ega bo'lgan reallikka mos keladi.

Arastu ta'limotining ko'p tomonlarini qabul qilgan o'rta asr sxolastlari mo'tadil realistlar, deb atalganlar. Ularning yirik vakillari Pyer Abelyar va Foma Akvinskiylar bo'lgan.

Britaniyada tutilgan P. Abelyar (1079— 1142) Pyer Abelyar juda yoshligidanoq o'z bilimi bilan mashxur edi. Abelyar — mo'tadil realistdir. Uning ta'kidlashicha, reallik yoki universal yoki dastlab Xudo aklida mavjuddir, undan keyin narsalarning o'zida mavjuddir va nihoyat, odamlarning ongida mavjuddir, abelyar "Men e'tiqod qilish uchun bilaman", degan g'oyani ilgari surgan. Uning fikricha, insonning o'limi Xudoni rozi qilish uchun emas, balki odamlarni Xudoga bo'lgan muhabbat bilan taajjubga solish va odamlarga axloqiy ta'sir ko'rsatish maqsadida sodir bo'ladi. Bu bilan odamlar o'z hayotini xudoga bo'ysundiradilar. Bu qarash axlo-qiy ta'sir qilish nazariyasi deb ataladi.

Foma Akvinskiy (1224—1292) mo'tadil realizmning yana bir yirik vakili hisoblanadi.

Akvinskiy ta'limoticha, dunyo iyerarxik narvondan iboratdir. Uning eng quyi qismida yer va 4 elementdan iborat bo'lgan hamma narsalar mavjuddir. Odam ruhi xudo va moddiy dunyo o'rtasidagi joyni egallaydi. Dunyoviy jamiyat tepasida esa, papa boshchiligidagi ilohiy davlat turadi.

O'sha davrning mashhur faylasuflaridan Vilyam Okkam biri Vilyam Okkam (1309-1349)dir. Uning va Rodjer Bekon fikriicha, ilohiyot aqidalari rasional (akd) yo'l bilan isbotlanishi mumkin emas. Ular faqat Muqaddas kitob nufuzi tufayligina qabul qilinishi mumkin. Bu qarash e'tiqod va tafakkurni bir-biridan ajratardi, ularni omuxta qilishni qoralardi.

Rodjer Bekon (1214—1292) ham Okkam mansub bo'lgan oqim vakillaridandir. U o'z hayotini ilmiy tajribalarga bag'ishlagan. Ular yordamida u tajribaviy fanga asos soldi. Bunday metodni XVII asrda Frensis Bekon ishlab chiqdi. Haqiqatni topishda tabiatni tajribaviy o'rganish metodini qo'llash nominalistlar qarashlariga to'liq mos kelardi. Nominalistlar va realistlar o'rtasidagi

karama-qarshilik o'rta asr sxolastikasining muhim muammolaridan biri edi. Butun o'rta asrlarda sxolastikaning bu ikki oqimi o'rtasida kurash ketgan. Sxolastikaning avjga chiqqan davri — 1150 va 1300 yillarda Foma Akvinskiyning mo'tadil realizmi nominalizm ustidan g'alaba qozondi. Lekin 1300 yildan keyin cherkov ilohiyotchilari tafakkurida nominalizm yuqori mavqeyeni egallay boshladi.

Bu insoniyat tarixida yuz bergan eng buyuk ilg'or taraqqiyot davrlaridan biri edi. Uyg'onish davrida hayotning hamma tarmog'ida muhim, ilg'or, hatto aytish mumkinki. inqilobiy o'zgarishlar yuz berayotgan edi.

Uyg'onish Davrida Yevropada falsafaning rivojlanishiga katta hissa qo'shganlardan biri nemis Nikolay Kuzanskiy (1401—1464)dir. Kuzanskiy ta'limoticha, Xudo hamma narsalarda mavjud, shuningdek, hamma narsalar Xudoda mavjud. Eng oliy haqiqatlarni bilish, sxolastik fikrlash bilan emas, balki, tajriba asosida amalga oshadi.

U Xudoni borliqning oliy va yagona asosi, deb hisoblaydi. Bu masalada Kuzanskiy shunday muhim kosmologik fikrlarni bayon qiladiki, hatto ma'lum darajada uni Kopernik va Brunolarning o'tmishdoshi deb hisoblash mumkin. Ikkinchi masala esa bilish na zariyasiga nisbatan uning butunlay yangicha yondashishidir. Ushbu masalalar bo'yicha Kuzanskiy tomonidan ilgari surilgan g'oyalar ayrim hollarda XVIII asr oxiri va XIX asr boshidagi nemis faylasuflari tomonidan bayon qilingan fikrlarning debochasi edi.

Falsafa va fan rivojlanishiga eng kata hissa qushgan Uyg'onish davrining mutafakkirlaridan biri polyak olimi Nikolay Kopernik (1473—1543)dir. Ma'lumki, fan tarixida Kopernik o'zining fanda tub o'zgarish yasagan geliosentrik ta'limoti bilan mashhur bo'lgan. Uning ta'limoticha, insonlar tomonidan kuzatiladigan Quyosh va yulduzlarning harakatlari aslida Yerning o'z o'qi atrofida kundalik aylanishidan va Quyosh atrofida yillik aylanishidan iborat. Bizning planetamizning markazi Yer emas Quyoshdir. Kopernikning buyuk kashfiyoti dunyoga teologik karashga zarba berib, tabiatshunoslikda to'ntarish yasadi. Bu kashfiyot Bibliyaning dunyo tuzilishi haqidagi va o'zgarmas deb tanilgan ta'limotiga zarba berdi. Kopernikning geliosentrik nazariyasidan chuqur ilmiy xulosalar chiqargan mutafakkirlardan biri italiyalik Jordano Bruno (1548—1600)dir. U Neapol yaqinida tug'ilgan. O'zining ilg'or fikrlari uchun Bruno dahriylikda ayblanadi va cherkovdan haydaladi.

Bruno geliosentrik nazariyani himoya qilish va targ'ib qilish bilan cheklanib qolmaydi. U tabiatshunoslik tajribalarini hisobga olib, bir necha muhim nazariy xulosalar qildiki, ular falsafa fani yana ham boyitdi. Bruno ta'limoticha, haqiqiy

falsafa ilmiy tajribaga suyanishi kerak, sxolastikani tugatish kerak. Uning ta'limoticha, koinot yagona, modsiy, cheksiz va abadiy. Juda ko'p dunyolar quyosh sistemasidan tashqarida mavjuddir. Viz ko'rib turgan narsalar koinotning eng kichik bir qismidir. Yulduzlar — boshqa planeta sistemalarining Quyoshi. Yer — cheksiz dunyoning kichik bir zarrasi. Demak, Bruno tabiiy-ilmiy qarashlarida Kopernikdan ilgarilab ketib, koinotning cheksizligi haqidagi fikrni aytadi, Kopernik esa koinotni chekli, deb hisoblagan edi. Bruno Kopernik ta'limotini Quyosh sistemasining tuzilishi haqidagi yangi qarashlar bilan boyitdi.

*Ushbu davr falsafasi xam oldingiga nisbatan katta kadam tashladi. Fanda qo'lga kiritilgan yutuqlarning falsafiy izohlanishi, kashf etilayotgan ilmiy usul va uslublarning falsafaga tatbik etilishi, falsafiy konunlarni fanning turli sohalarida sinab ko'rilishi o'sha davr faylasuflari uchun odatiy holga aylandi. Bu tamoyillar esa milliy chegaralarni bilmaydigan, umuminsoniy qadriyatlar xususiyatiga egadir. Uyg'onish davri Yevropa fani va falsafasi ham insoniyat tarixida eng buyuk ko'tarilish davrlaridan biri bo'lib koldi.*

2. XVII-XII asr Yevropa falsafasi tom ma'noda progressiv burjuaziyaning dunyokarashi bulib, u avvalo tabiiyot fanlari erishgan barcha yutuklarni umumlashtirgan, unga tayangan va uning uzi ayni vaktida tabiiyot fanlari uchun nazariy asos va bilish metodi bulib xizmat kilgan.

Bu davr falsafasi uchun metafizik tafakur va mexnaizm xos edi. Bunday xolatni vujudga kelishi tarixiy sharoit va tabiiyot fanlari tarakkiyotining darajasi bilan boglik edi. Ma'lumki, tabiat tugrisidagi kadimgi davrda erishilgan bilimlar umumiy xarakterga ega bulib, u yangi davr amaliyoti va fani talablariga javob bera olmaganligi uchun yangi davr tabiatshunoslari fanlarni bir necha tarmoklarga ajratdilar, falsafadagi metafizik metodga ingliz mutafakkirlari F.Bekon va J.Lokk asos soldilar.

Ingliz faylasufi FRENIS BEKON (1561-1626 yy.) yangi davr falsafasining asoschilaridan biri bulib, XVI asr oxiri -XVII asrda Yevropaning Gollandiya, Fransiya va Angliya singari mamlakatlarida kapitalistik munosabatlar tez rivojlanayotgan davrda yashadi. Bu davrga kelib Angliya dengiz mamlakatiga aylandi. Burjuaziya yangi rivojlanish boskichiga kutarildi, yangicha xayotiy va amaliy extiyojlar ishlab chikarish va fan oldiga katta talablar kuya boshladi. Ana shunday tarixiy sharoitda F.Bekon ingliz sanoat burjuaziyasi va yangi dvoryanlar manfaatining tarafdori sifatida uzining falsafiy asari - «Yangi organon»ni yaratdi.

Bekon urta asr sxolastikasining nazariy asosi bulib, xizmat kilgan Pifagor va Platon goyalariga karshi chikib, falsafa avvalo amaliy (praktik) xarakterga ega

bulishi kerak, uning asosiy predmeti materiya va uning tuzilishini urganishdir, degan goyani ilgari surdi. Uning fikricha, materiya buzilmas shakllarga ega bulib, bu moddiy shakllar zichlik, siyraklik, sovuklik, ogirlik, issiklik singari turlicha xarakatlanuvchi oddiy sifatlarning moddiy ifodasidir.

Bekon xarakat materiyaning obyektiv ichki xususiyati ekanligini e'tirof etdi, lekin olamdagi tarakkiyotni inkor kilid. U xarakatni 19 bulakka ajratdi. Xarakat shakllari turlicha bulsa xam ular bir doyra ichida kayta-kayta takrorlanish xususiyatiga egadir, deb tushuntirdi. Bekon Platonning tabiat moxiyatini, shuningdek uning konuniyatlarini bilish mumkinligini inkor etuvchi nazariyasini tankid kildi. Bekon bilishning asosiy kuroli sifatida tajribani oldi, shu bilan katorda bilish jarayonida tafakkur bilan nazariyaning rolini inkor kilmadi. Tajriba orkali tabiatni bilish mumkinligini tasdikladi. Bekon moddiy olamni bilishda inson bilimining kuchi va kudratiga yukori baxo berdi va birinchi bulib, «bilim-kuchdir» degan shiorni urtaga tashladi. Bekon fikricha bilish earayoni barcha amaliyotning uzaro birligidan iboratdir. bilimning uzi esa obyektiv olamning kishilar ongidagi in'ikosidir. Kishilarning sezgilari, xislari orkali olingan dalillar, bilimlar va tajriba xulosalari tafakkur orkali kayta ishlanadi. shuning uchun xam Bekon bilish jarayonida tafakkur rolini inkor etuvchi empiriklar va rasionalistlarni tankid kilib, empiriklarni narsalar tuplashdan boshka narsani bilmaydigan chumoliga rasionalistlarni esa tukuvchi urgimchaklarga uxshatdi.

Bekon yangi fan mash'alini yokdi-eksperimental tabiatshunoslik faniga asos soldi. Fan xulosalari faktlarga asoslanish, ulardan keng umumlashtirishga utishi kerak, narsa va xodisalarning sababiy boglanishini aniklash xakikiy bilimning asosiy garovidir, deb ta'kidladi.

Bekonning falsafa tarixidagi ulkan xizmatlaridan yana biri shundaki, u bilishda induktiv metodni ishlab chikdi. Bu yangi ilmiy metod kuzatish, taxlil, kiyoslash va eksperimentni uz ichiga oladi. Uning fikricha, indktiv bilish metodi ayrim faktlarni bilishdan boshlanib, asta-sekin umumiy nazariy xulosalar tomon boradi. Uning moxiyati dalillarni kuzatish, ularni sistemalashtirish va turlarga ajratish, ularni keraksiz dalillardan tozalash, xodisalarni kismlarga bulish, faktlarni tajribada tekshirib kurish va faktlarni umumlashtirishdan iboratdir, deb kursatdi. Bekonning induktiv metodi fan tarkkiyotida, shubxasiz katta axamiyatga ega buldi.

Bekon uzining ilgor falsafiy karashlari bilan davr talablariga javob berishga xarakat kildi, falsafa va fan tarixida aloxida mavke'ni egalladi. Bekon yangi davr ingliz materialistik falsafasi va umuman, tabiiy fanlar asoschisidir.

TOMAS GOBBS (1588-1670 yy.) XVII asr Angliya falsafasining buyuk vakili bulib, Bekon goyalarini ximoya kildi va davom ettirdi. Gobbs yirik faylasuf, mantikshunos, matematik, estetik, davlat va xukuk nazariyotchisi edi. Uning falsafiy nazariyasi ingliz burjuaziyasi va yangi dvoryanlar aristokratik kismi manfaatlarini aks ettirdi. Gobbs moddiy olamni birdan bir reallik deb xisoblab, falsafaning predmeti olamni tushunish va urganishdir, deb xisoblanadi. Uning fikricha olam materiya va jismlar yigindisidan iborat bulib, olamda jismoniy, moddiy sababdan boshka sabab yukdir. Tabiatdan boshka xech kanday sababni tan olmay materialistik va xurfikrlik goyasini ilgari surdi. Gobbs ong va tafakurni fikrlovchi materiyadan ajratish mumkin emas, deb ta'kidladi. Obyektiv yashash fakat materiyadagina xosdir.

Gobbs materiya va uning zarachalari xajm, shakl va mexanik xarakat singari xususiyatlarga ega bulib, ular uzunlik, kenglik va buyga egadir, deb yezdi. Anglashiladiki, Gobbs materiyani fakat matematik ma'noda tushunib, uning sifatliy tomonlarini inkor etdi. Shuningdek, buyumlardagi xid, ta'm, rang singari xissiy sifatlarning obyektiv xarakterini rad etdi.

Gobbs materiya xarakterini mexanik tarzda tushundi, uni tashki turtkining natijasi deb xisobladi. Gobbs mexanika xarakterini jamiyat xayotiga tadbik etib, jamiyatni mexanizm ma'nosida tasavvur kildi. Uning fikricha inson idroki prujina asboblar xarakterini butun tanaga tarkatuvchi gildirakdan iboratdir. U shunday kilib, falsafa Galidey mexanikasini olib kirdi. Gobbs Dekartning goyalarining tugma ekanligi tugrisidagi nazariyasini rad etib, goyalarimizning mazmuni obyektiv reallikning uzidir, dedi. Bilish jarayonidagi rasional va empirik momentlarga birgalikda kiradi. Ammo u rasional momentni tushuncha va muloxazalarning matematik kilishini va olinishi, deb karadi. Shuningdek, u bilish jarayonida tilning axamiyatini ta'kidlab, til predmetlararo boglanishni ifodalaydigan kishilarning muxim aloka vositasi, deb yezdi. Uning ta'limoticha, insonni urab turgan tabiat, narsalar inson sezgi a'zolariga ta'sir kilib, boshlangich goyalarni yaratadi.

Gobbs falsafasi tugallangan mexanastik va metafizik xarakterga egadir. Olamda ruy berayotgan tarakkiyotni fakat mikdoriy uzgarishlar bilan boglab tushuntirdi. Tomas Gobbs uz falsafiy karashlarini «Jism tugrisida», «Inson tugrisida» kabi asarlarida bayon etgan bulsa, jamiyat, davlat va xukuk tugrisidagi karashlarini «Fukaro tugrisida» asarida bayon etdi.

XVII asr fransuz falsafasi uziga xos yullar bilan rivojlandi. Uning ta'nikli vakillaridan biri RENE DEKART (1596-1650YY.) bulib, "Metod tugrisida muloxazalar" asarida risionalizm asosida fanning barcha soxalarida kullanilishi mumkin bulgan universal bilish metodini yaratishga xarakat kildi.

Dekart fikricha, falsafaning dastlabki vazifasi eski akidalardan voz kechib, mutlak o yangi metodologik asos yaratishdir. U yangi davrning uziga xos original falsafiy sistemasini yaratdi. Fanning kup soxalarida muxim kashfiyotlar kildi. Dekartning Kuyosh sistemasining paydo bulishi tugrisidagi farazlari, cheksiz olamning olovga, xavoga va yerga uxshash uch elementdan kelib chikkanligi tugrisidagi fikrlari, mexanistik asosda balsa xam evolyusiya goyasini ishlab chikilishi va uni tabiyotshunoslikka tadbik etishi - ana shularning xammasi fan tarakkiyotiga kushilgan buyuk xissa edi.

Dekart fikricha, koinot ulkan mexanizmdir. Olam materiyadan iborat, materiya esa mangu va cheksizdir. Materiya kornuskulyar zarrachalardan tashkil topgandir. Bu zarrachalar uzluksiz xarakatdadir. Xarakat esa predmetlarning urin almashuvidan iboratdir. Materiya, Dekart

ta'limoticha, mexanikaning universal konunlari bilan belgilanuvchi uzluksiz mikdori va sifatiy xarakatda buladi. Bu konunlarga organik dunyo xam buysunadi: xayvonlar murakkab mashinadir. Odam xayvonlardan farkli ravishda akl va nuikga ega. Mutafakkirning fikricha, ilmiy bilishning tabiati shundayki, u xamma narsaga shubxa bilan karashni talab etadi. Shubxalanuvchi tafakkurini aslo inkor etishi mumkin emas Dekart fakat tafakkurnigina birdan bir mavjud voke'lik deb xisobladi. Shu asosda uning: "Men fikrlayapman, demak, men mavjudman!" degan mashxur iborasi dunyoga kelgan.

Dekartning bilish nazariyasi deduktiv metot asosida kurilgandir. Bu metodga kura tafakkur umumiydan ayrimlikka tomon xarakat kiladi va u mantikiy yullar bilan xakikatni bilishga imkon beradi.

Dekartning ilmiy bilish metodi analitik yoki rasionalistik metod deb ataladi.

Dekart ong bilan materiya, tana bilan ruxning mustakil yashashini isbotlashga xarakat kildi. Olam xudo tomondan yaratilganligini ta'kidlab olamning moddiy birligini tamomila inkor etdi. Olam ikki mustakil ibtido: rux va moddiy substansiyadan iborat deb yezdi. Dekart falsafasining tarixiy axamiyati katta: u inson akli va bilishning kudrati kuch ekanligini isbotlashga xarakat kildi.

BENEDIKT SPINOZA (1631-1677M.) Gollandiyalik buyuk olim va XVII asr falsafasining tanikli vakilidir. U badavlat yaxudiy oilasida dunyoga keldi, yoshligidan «Tavrot» bilan shugullandi. Spinoza Dekart (u 20 yil Gollandiyada yashagan) falsafasi bilan yakindan tanishganidan sung iudaizm dini bilan butunlay alokasini uzdi. Buning okibati ularok yaxudiyalar uz dinlari va jamoasidan chetlatdilar.

Spinoza Gollandiya tarakkiyparvar burjuaziyasining idiologi sifatida tanilib, siyosiy karashlari burjua demokratik respublikasining nazariy asosi bulib xizmat kildi.

Spinoza Dekart ta'limotidagi materialistik goyalarni yanada rivojlantirdi. Uning falsafiy sistetmasi markazi «Moddiy substansiya» tushunchasi yotadi. Uning fikricha moddiy substansiya xech narsaga, xatto xudoga xam boglik emas. Spinoza uz falsafasidagi Dekart karashidagi dualizmni kat'iy rad etdi va dunyoning asosida fakat bir substansiya yotishini e'tirof kildi. Uning fikricha tabiatda ikki substansiyaning bulishi mumkin emas. Bir substansiya ikkinchisini vujudga keltira olmaydi. Turli predmet va xodisalar olami tabiat yoki modis ifodalaridan iboratdir.

Spinozaning ta'lim berishicha, substansiya cheksiz va doimiy bulib, uning yaratilishi xam, yukotilishi xam mumkin emas. Substansiya uzidan tashkarida mavjud bulgan kandaydir tashki kuch bilan boglangan emas va u uz oldiga xech kanday maksad xam kuya olmaydi, bu jixatdan u tabiatda fark kilmaydi, balki tabiatning uzginasidir. Spinoza uzining materialistik karashlarini panteizm bilan nikobladi.

Yagona substansiyaning ichki konunlaridan kelib chikuvchi sababi va oakibat munosabailari dunyoviy tartibotning birdan-bir prinsipidir. Substansiyaning sifati va mazmuni uning doimiy atribut (narsalarning ajralmas xususiyat)larini ifodalaydi. Uzluksiz materiya va tafakkur substansiyaning muxim atributlari xisoblanadi. Spinoza bu ikki atributni bir-biri bilan kushdi. Bir butun substansiyaning ayrim konkret maxsulini modus (narsalarning ayrim xolatiga xos bulgan xususiyat) deb atadi. Masalan, konkret buyumlardan tortib, to odamgacha bulgan xamma narsalar moduslar dunyosiga kirdi.

Spinoza fikricha, substansiya bilan moduslar bir-biriga uta olmaydigan tuziklar bilan cheklangandir. Substansiya bir butunlik, bulinmaslik xos bulsa modusga turli-tumanlik, utkinchilik xosdir. Narsani tushuntirish, demak, modusdan substansiyaga borishdir. Substansiya tabiiy zaruriyat asosida mavjudligi tufayli erkin emasdir. Substansiyaning mavjudligi zamon va makon bilan chegaralangan bulsa, modus zamonda yashagani xolda makonda boshka buyumlar bilan chegarallangandir. Substansiya dunyoning birligini ifodalasa, modus dunyoning xilma-xilligini ifodalaydi.

Shunday kilib, Spinoza dunyoning substansional bir ligi tugrisidagi ta'limotni yaratdi. Uning karashlarida olamni diallektik tushunish elementlari mavjud edi. Chunonchi, zaruriyat va erkinlik, cheksizlik va

cheklanganlik birligi tugrisidagi fikrlar shular jumlasidandir. «Erkinlik anglangan zaruriyatdir» degan ibora xam Spinoza daxosiga taaluklidir.

Spinoza olamni bilish mumkinligiga aslo shubxalanmadi. uning fikricha, bilish jarayoni uch boskichdan iborat bulib, u moddiy dunyo ta'sirida vujudga kelgan sezgi va xissalrimizga asoslanuvchi tasavvurlarimizdir. Xakikiy bilishning asosi akldir. Spinoza uzining rasionalistik nazariyasida geometrik metodga tayandi va amaliyetdan uzoklashgan, akl orkaligina umumiy xakikatga erishish mumkin, degan xulosaga keldi.

Spinozaning falsafiy ta'limoti falsafa va xurfikrlik tarixida muxim bir davrni tashkil etadi. U «Dekart falsafasining prinsiplari». «Etika» va boshka falsafiy asarlarni meros koldirdi.

JON LOKK (1632-1703 yy.) XVII asr Angliya falsafasining yirik nomayondasi bulib, Dekart rasionalizimiga zid ravishda sensualizm (lot. «sezgi», «xis» demakdir)ni asoslashga xarakat kildi. Uzining falsafaga doyr «Kishi akli tugrisida tajriba» asarida bilish nazariyasini birinchi uringa kuydi. J.Lokk tugma goyalar xakidagi nazariyani tankid kildi. Xudo goyasi noanik va chalkash, deb xisobladi. Uning ta'kidlashicha, kishilar bilimi va goyalarimiz tajriba va sezgilarimizdan kelib chikkandir. Kishilar tayyor tugma goyalarga ega bulmaydilar va bulishi xam mumkin emas. Lokk tajribaning ikki turini-ichki va tashki tajribani bir-biridan farkladi. Tashki tajriba tashki narsalarning sezgi a'zolarimizga ta'siri natijasida xosil bulgan sezgilar tuplamidan tarkib topadi. Ichki tajriba (refleksiya) esa aklning uz faoliyatini va uning kurinish uslublarini kuzatishdir.

Lokk ta'limoticha, moddiy olamni bilish tashki dunyo predmet va xodisalarning sezgi a'zolarimizga ta'sir etib, sezgi va xisslarni vujudga keltirishi bilan boshlanadi. Bilish jarayonining birinchi boskichi xissiy bilishdir, u tashki dunyo tugrisida oddiy goyalar beradi. Tafakkur esa bu tartibsiz goyalarni sistemalashtiradi.

Lok bilimni uch turga ajratdi: boshlangich bilim (bevosita xissiy bilish); xulosalar chikarish orkali kurgazmali bilim; induktiv bilim (akl-idrok orkali bilish) Lokk materiyaning sifat jixatdan turli tuman ekanligini inkor etdi. Uning fikricha kanday narsalar xajmi, shakl, xarakat va turgunlik singari xususiyatlar bulib, ular birlamchi sifatlardir. Ular obyektiv xarakterga egadir.

Narsalarning rang, ta'm, xid, tovush singari sifatleri ikkilamchi kishilarning sezgi a'zolariga xos subyektiv sifatdir.



XVII asr ingliz falsafasining rivojlanishi kapitalizmning qaror topishi bilan uzviy bog'lik edi. Kapitalizmning rivojlanishi va burjuaziyaning iktisodiy va siyosiy jixatdan kuchaya borishi bilan burjuaziya uzining ilgor goyalarini amalga oshirish uchun, XVII asr oxirlarida mavkura soxasida keskin burilish yasadi. Burjuaziya materializm va ateizmga qarshi kurash boshlab, dinga murojaat kila boshladi. Yangi sharoitda Angliyada subyektiv idealizm rivojlandi.

Bu davr subyektiv idealistik falsafaning yirik namoyondalari JON BERKLI (1684-1753 yy.) va DAVID YUM (1711-1775 yy.) edilar.

Berkli uz oldiga idealizm bilan dinni xar tomonlama kullab-kuvvatlashni maksad kilib kuydi. Shu maksadda avvalo materiya tushunchasini tankid kildi, obyektiv reallikni inkor etdi. Uning fikricha, materiya mavxum tushuncha bulib, uni xech kim kurgan emas, chunki material tugrisida xech kanday sezgilar yigindisi (kompleks)ni xosil kilish mumkin emas.

Berkli olamning borligini «Men» bilan boglandi. Olamda «Men» va sezgilardan boshka xech narsa yuk, olamdagi narsalar sezgilar yigindisidan iboratdir. Xamma narsalar sezgilar kompleksidan iboratdir. Berkli «Men» bor-olam bor. «Men» yuk-olam yuk, degan xulosaga keldi. U xudoni butun sezgilarning birdan-bir manbai, deb xisoblashga urinib kurdi. Uning fikricha, bizni kurshab turgan narsalar xudoning aklida goyalar sifatida yashaydi.

Bilish deydi Berkli, bu-kurish, eshitish, ta'm bilish kabilardir. Biz bilishda sezgilarimiz chegarasidan tashkariga chika olmaymiz. Demak, narsalarni sezsak bor, sezmasak yuk. Ana shunga asoslanib, Berkli inson sezgilaridan tashkaridagi obyektiv reallikning mavjudligini inkor etdi.

Berklining subyektiv idealistik falsafani asoslashga bagishlangan asarlari: «Kishi bilishning prinsiplari xakida risola» (1710), «Uch suxbat» (1713).

David Yun karashlari Berkli idealizmidan fark kilsa xam, mazmunan unga ancha yakindir. Yum Berkliga nisbatan boshkacharak pozisiyani tanladi: obyektiv olamning mavjudligini kat'iy rad etmadi. Yum obyektiv olam mavjudmi? Degan savolga: «bilmayman», deb javob berdi. Uning fikricha, obyektiv reallik mavjud degan ishonchni xozirgacha na fan, na amaliyot isbot kila olmadi. Tabiat bizdan ancha sir saklaydi. Shuning uchun xam biz bila olmaymiz. Yumning ta'kidlashicha, bizning bilish obyektimiz obyektiv reallik emas, balki subyektiv sezgilarimizdir.

Yum inson bilimlarining obyektiv reallikka mos kelishiga shubxa bilan karadi. Yum falsafiy ta'limoti uchun subyektiv idealizmni skeptinizm bilan

kushish xosdir. U narsa va xodisalar urtasidagi sababiy boshlanishlarni bilish mumkinligini inkor etdi. Uning fikricha kishilar narsalar va xodisalarning takrorlanishi tufayli bir xodisani ikkinchisining sababi sifatida kurishga odatlangandirlar. Shuning uchun xam kishilar xodisalar urtasidagi sababiy boglanishni ochishga ojizdirlar. Yum obyektiv sababiyatni inkor kilgani xolda subyektiv sabab mavjudligini e'tirof etdi. Sabab va okibat kategoriyalariga sezgilarning xususiyati sifatida karadi.

XVII asrning ikkinchi yarmiga kelib Garbiy Yevropa mamlakatlarida, ayniksa Fransiyada falsafa va burjua siyosiy karashlari urtasidagi kurash keskinlashdi. Bu kurash 1789-1794 yillardagi burjua inkilobida uz aksini topdi. Bu inkilobni goyaviy jixatdan tayyorlashda fransuz fayl asu f lari va ma'rifatchilari: VOLTER (1694-1778YY.) JAN JAK RUSSO (1712-1778YY.) DIDRO (1713 - 1784), LAMETRI (1709-1751), GELVESIY (1715-1771) va GOBBAX (1723-1789) muxim rol uynaydilar .Ular din va sxolastikaga asoslangan falsafaga xamda Fransiyadagi sosial-siyosiy tartiblarga karshi kurashdilar.

XVIII asr fransus materialistik falsafasi uziga xos xususiyatlarga egadir. Uning vujudga kelishida utmish goyaviy-madaniy merosining ijobiy ta'siri katta buldi . Ayniksa Dekard fizikasi Spinozaking materialistik ta'limoti , Bekon , Gobbs va Lokkning falsafiy karashlari ijobiy ta'sir kursatdi. Yangi davri falsafasining tabiy-ilmiy tayanchi xam XVII asrga nisbatan ancha mustaxkamrok edi.. Bu davrda mexanika , matematika , astranomiya singari katoriga medisina , fizialogiya, bialogiya singari fanlar kushildi.. Bu esa fransus faylasuflarining materiya va xarakat tugrisidagi tasavurlarning kengayishiga yordam berdi.

Fransuz faylasuflari Dekart, Lokk, Gobbs, Spinoza ta'limotlaridagi biryoklamalikni bartaraf etadilar va mexanistik materializm ta'limotini yaratdilar. Bunga sabab shu ediki, ular yashagan davrda tabiiyot fanlari, xususan fizika, ximiya, biologiya xali yurgakda edi. Fransuz faylasuflari biologik va ijtiomiy xodisalarni mexanika konunlari asosida isbotlashga va tushuntirishga xarakat kildilar. Materiyaning bulinmas va uzgarmas atomlaridan iborat ekanligini e'tirof etib, uning fakat fizikaviy ta'rifini berdilar. Ularning fkricha, insonning sezgi a'zolariga ta'sir kiluvchi barcha narsalar materiyadir. Golbax ta'limotiga kura, materiya jismlarining turlicha kelishuvidan iboratdir.materiya abadiydir: bordan yuk bulmaydi. Materiya tabiatdan tashkaridagi kuchga muxtoj emas. Materiyaning tuxtovsiz xarakati predmetlar va ularning xossalarini uzgartirib turadi.

Fransuz materialistlarining fikricha, tabiatning asosiy moxiyati amal kilish, ta'sir etish va xarakatidir.

Fransuz faylasuflari goyalar xakida fikr yuritib, «tugma goyalar» ning bulishini rad etdilar. Ularning ta'lim berishicha oddiy goyalar sezgilarimizning maxsulidir. Golbax: «Xar kanday goya sezgi va xissiy kabul kilishning manbai bulgan predmet obrazidir», - deb yezdi.

Fransuz faylasuflari dinni xar tomonlama: ilmiy-tarixiy, axlokiy va urf odat jixatidan tankid kildilar. Dinning paydo bulishi kishilarning tabiat kuchlari oldidagi ojizligi, ilmsizlik va nodonlik natijasi ekanligini isbotlashga xarakat kildilar. Golbax: «Tabiat sistemasi» asarida dinni keskin tankid kilib, xudo odamni emas, balki odam xudoni yaratgan, voke'likdan xech kanday gayri-tabiiy kuch yuk va bulishi xam mumkin emas deb yezdi. Mutafakkirlarning fikricha din kishilar ongini zaiflatiradi, ijodiy kobiliyatini susaytiradi, xurofot kuchiga aylantiradi.

Lametri uzining «Kishi-mashina» nomli asarida inson maxorat bilan yasalgan mexanizmdir, uning organizimini mexanikaga tayanib urganish kerak, degan goyani ilgari surdi. Lametrining falsafiy karashlari Epikiraning atomistik nazariyasi, Spinozaning yagona substansiya tugrisidagi ta'limoti, Dekartning fizik karashlari ta'sirida shakllandi. Yana bir tanikli fransuz materialisti Gelvesiy uzining falsafiy karashlarida axlok va ijtimoiy siyosiy masalariga kuprok e'tibor berdi. U kishi fazilatleri muxit va tarbiya maxsulidir, degan yangi nazariyani ilgari surdi. U axlokiy masalalarida ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarni muvafiklashtirish tarafdori sifatida maydonga chikdi.

Fransuz faylasuflari sezgilar bilish manbai ekanligini, bilish obyektiv borligini kishi ongida aks etishi ekanligini asoslash bilan tafakkurning bilishdagi roli va axamiyatini xam kayd etdilar.

Fransuz faylasuflari uz ijtimoiy karashlarida tabiat tugrisidagi materialistik ta'limotlarini jamiyat soxasiga tadbik eta olmadilar. Ular jamiyat tarixini buyuk shaxslar tarixidan iborat deb tushundilar.

XVIII asr fransuz falsafasining tarixiy axamiyati shundaki, u tabiatshunoslik fanleri bilan uzviy bogliklikda rivojlandi va falsafiy tafakkurni yangi boskichga kutardi.

3. Ma'lumki, hamma zamonlarda ham falsafa o'z davrining dolzarb muammolarini hal etish yo'llarini topishga harakat qilgan. XX asrga kelib insoniyat fan va texnika taraqqiyoti sohasida ulkan yutuk-larni ko'lga kiritdi. Lekin shu bilan birga, aynanushbu asr ijtimoiy silsilalar, ikkita jahon urushi, ekologik inqiroz, og'ir yo'k-tishlar davri ham bo'ldi. Bu esa falsafiy fikr taraqqiyotida o'z aksini topdi, uning turli yo'nalish va oqimlari shug'ullangan muammolarning

salmog'i, maksad-muddaosini anik belgiladi. Buning natijasi sifatida, hozirgi davr falsafasida nihoyatda xilma-xil oqim va yo'nalishlar mavjud. O'z navbatida, bu ilm-fan va amaliyotning hamda XIX asrning ikkinchi yarmi va hozirgacha bo'lgan falsafa ilmi rivojining asosiy xususiyatlarini belgilaydi.,

Hozirgi zamon falsafasining eng asosiy tamoyillari umuminso-niylikning ustuvorligi, uning milliylik bilan uyg'unligi, demokratik erkinliklar, inson kadri, biror ta'limotni mutlaklashtirmaslikdir. Bag'rikenglik va tolerantlik hozirgi falsafiy ta'limotlar rang-barangligini ta'minlaydi.

An'anaviy falsafada, turli g'oyaviy tizimlarga bo'linishiga qaramay, muhim muammolarni hal etishda ma'lum bir umumiylik mavjud edi. Hozirgi zamon falsafasida aksincha, falsafiy muammolarning ko'p xilligi va o'ziga xosligi, turli-tumanligi, ular asosida falsafiy oqimlarning mustaqil yo'nalish sifatida shakllanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

An'anaviy falsafada akd — inson mohiyatining belgilovchisi, deb talqin etilgan bo'lsa, endi rasionalizmga qarshi insonning mavjudligi (ekzistensializm) muammolari hamda uning norasional mohiyati ilgari surila boshladi. Ya'ni, ilgari ma'rifatparvarlik g'oyasi ustuvor bo'lsa, endilikda ko'proq inson huquklariga e'tibor kuchayib ketdi. Falsafa go'yoki, mavhumlikdan aniqliktomon bordi, umumiy emas, aniq-ravshan masalalarni hal qilish boshlandi.

An'anaviy falsafada hodisalar mexanika qonunlari asosida tushuntirishga harakat qilingan bo'lsa, endi bunday taxlil doirasidan chetda qolgan muammolar o'rganila boshlandi.

Bugungi kunga kelib ko'pgina falsafiy oqimlar o'zlarining an'anaviy falsafaga aloqador ekanliklarini hamda ulardan farq qilishlarini ta'kidlash maqsadida, nomlariga "neo", ya'ni yangi, zamona viylashgan degan ma'noni anglatuvchi qo'shimchani qo'shganlar. Masalan, neopozitivizm, neotomizm va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Pozitivizm (lotin. *positivus* — ijobiy) — falsafiy tafakkurning G'arb mamlakatlarida keng tarkalgan bir ko'rinishi bo'lib, uning diqqat markazida falsafa va fan munosabati muammosi turadi. XIX asrning 30—40-yillarida Fransiyada eski falsafiy an'analardan uzil-kesil voz kechish va yangi ilmiy falsafa yaratish zarurligi to'g'risida O. Kont bahs-munozaralar yuritadi va pozitivizm falsafasiga asos soladi.

P. ning rivojlanish jarayonida fandan dunyoqarashga bevosita taallukli muammolar olib tashlana bordi. Buni XIX asr pozitivizmining yirik vakillari — J. S Mill va Spenser qarashlarida yaqqol ko'ramiz. P. vakillarining ta'kidlashicha, bilish, tajriba, subyekt-obyekt munosabati. «Narsa», «substansiya», voqyelikning unsurlari, fiziologik va psixologik jarayonlarning o'zaro aloqadorligi masalalari sof metafizika muammolaridir.

Neopozitivizm oqimining yirik namoyandalari Karnap, Aiyer, Rassel, Vitgenshteyn va boshqalardir. Neo — yangi pozitiv — ijobiy, degan ma'noni anglatadi.

Neopozitivistlar verifikasiya prinsipiini ilgari suradilar (lot. Veritas — haqiqat). Ularning fikricha, faqat tajribada o'z tasdig'ini topgan bilimgina haqiqiydir. Lekin nazariy, mavhum bilimlarning hammasini ham tajribada ekvivalentini topish, aynan shunday ekanligini isbot qilish mumkin emasligi tufayli bu prinsip keyinchalik inkor etildi.

Shundan so'ng postpozitivizm (ya'ni, keyingi pozitivizm) vakili K. Popper falsifikasiyalash metodini ilgari surdi. Bunga ko'ra, inson ba'zi nazariy bilimlarning haqiqatligini emas, xato ekanligini isbotlashi kerak. Oxir-oqibatda neopozitivizm vakillari falsafa bilimlarning haqiqiyliyini mantiqiy — lingvistik usul orqali isbotlashi va sistemalashtirishi kerak, degan xulosaga keldilar.

XX asrning 30-yillariga kelib "ekzisten-ekzistensial sial falsafa" rivojlandi. Ekzistensiya — falsafa tom ma'noda mavjud bo'lmoq, demakdir. Ekzistensializm nihoyatda xilma-xil yo'nalishdagi ta'limotlarni insonning ma'naviy dunyosi, inson taqdiri, erkinligi g'oyalari asosida umumlashtirdi.

Ekzistensializm-vakillari asosan ikki yo'nalishga bo'linadilar. Biri — dunyoviy (Xaydeger, Sartr, Kamyu) va ikkinchisi liniy (Yaspers, Marsel) bo'lib bunday bo'linish nisbiydir.

Xaydeger, Sartr, Kamyularning ta'limotiga ko'ra, inson o'zining yaratish jarayonini o'zi erkin amalga oshiradi. Insoniyat oldida ulkan imkoniyatlar mavjud bo'lib, ulardan qaysi birini tanlashda u erkindir. Demak, inson o'z mohiyatini o'zi erkin belgilaydi, uning kim bo'lib yetishishi faqat uning o'ziga bog'liq. Shu ma'noda, inson doimo rivojlanib boradigan, tugallanmagan loyihaga o'xshatiladi. Erkinlik insonning o'zi tomonidan yaratiladigan ichki ruhiy holati tarzida talqin etiladi.

*Jamiyat taraqqiyotiga oid g'oyalar tahlili falsafada antik davrlardan, Suqrot va Aflotun zamonlaridan boshlab shakllana boshlagan. Bu g'oyalarning rivojida*

*XVII—XVIII asrlarda yashagan italiyalik faylasuf Dj.Viko, XVIII asrda yashagan I.G. Gerder va ayniqsa, nemis falsafasini yirik namoyandasi Gegel katta hissa qo'shganlar.*

Shunday qilib, XX asrga kelib rang-barang falsafiy ta'limotlar shakllandi. Ularning barchasini mazkur mavzuda ko'rib chiqish imkoniyati bo'lmasa-da, yuqorida bayon etilgan ma'lumotlardan falsafiy plyuralizm haqida, falsafa zamon va makon bilan *botlik*, murakkab fan ekanligi to'g'risida muayyan xulosaga kelish mumkin.

## MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. *“Uyg'onish davri” tushunchasini qanday talqin etasiz?*
2. *Yangi zamon falsafasi qanday tarixiy sharoitda vujudga kelgan?*
3. *XX asr falsafasining xarakterli xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?*
4. *Ekzestensial falsafaning mohiyati nimadan iborat?*

**5-mavzu:** Olam va odam: falsafiy talqin. Borliq, tabiat falsafasi.

### Reja:

1. Olam tushunchasi. Substansiya. Olam va odam munosabati falsafaning asosiy masalasi. Olam to'g'risidagi turlicha qarashlar. Olamning diniy-ilmiy, falsafiy manzarasi. Olamning namoyon bo'lish shakllari.
2. Borliq tushunchasi. Borliqning tuzulishi. Borliqning shakllari va ularning namoyon bo'lish xususiyatlari. Materiya.
3. Harakat va uning shakllari, tamoyillari (abadiylik, uzluksizlik, nisbiylik). Borliqning fazo va vaqtda mavjud bo'lish tamoyili. Ijtimoiy makon va zamon, uning taraqqiyot tamoyillari, xususiyatlari.
4. Tabiat tushunchasi, uning falsafiy mohiyati. Tabiatning tuzilishi. Tabiat va jamiyat. Tabiiy va sun'iy muhit. Biosfera. Noosfera.

**Tayanch iboralar:** Olam, substansiya, olam va odam, mavjudlik, reallik, borliq, ontologiya, moddiylik, ruhiylik, yo'qlik, obyektiv borliq,

mikrodunyo, makrodunyo, megadunyo, voqyelik, materiya, harakat, fazo va vaqt, tabiat, tabiat va jamiyat, biosfera, noosfera.

### **ADABIYOTLAR:**

23. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T.: 2003 y.
24. Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom, T.: 1996y. 104-139-b
25. Karimov I.A. Bizdan obod va ozod Vatan qolsin. 2-tom, T.: 1996 y. 37-38 – bet.
26. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom, T.: 1996 y. 3-54, 175-178 – betlar.
27. Karimov I.A. Bunyodkorlik – farovon hayot asosi. – Bunyodkorlik yo'lidan. 4-tom, T.: 1996 y. 156-187 – betlar.
28. Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. – Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-tom, T.: 1997 y. 104-131- betlar.
29. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, va taraqqiyot kafolatlari. 6-tom, T.: 1998 y. 31-261 – bet.
30. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. – Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom, T.: 1999 y. 293-312-b.
31. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: 1999 y.
32. Karimov I.A. Alloh qalbimizda, yuragimizda. T.: 1999 y.
33. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: 2000 y.
34. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. - Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-tom, T.: 2000 y. 489-508 – bet.
35. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-tom, T.: 2001 y.
36. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-tom, T.: 2002 y.
37. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. – Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-tom, T.: 2003 y. 3-51 – bet.
38. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi va bukilmas irodasiga bog'liq. – Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga,

- hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12-tom, T.: 2004 y. 243-275 – b.
39. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni moderinizasiya va isloh etishdir. – O'zbek xalqi hyech qachon, hyech kimga qaram bo'lmaydi. 13-tom, T.: 2005 y. 174-222 – bet.
40. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. – Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. 14-tom, T.: 2006 y. 61-97 – bet.
41. Mustaqillik: izohli ilmiy-omaabop lug'at. T.: 2006 y.
42. Ma'naviyat yulduzlari. T.: 1999 y.
43. Mo'minov I.M. O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan. T.: «Fan» 1994 y.
44. Falsafa. Ma'ruzaralar matni. T.: 2000 y.
45. Falsafa. O'quv qo'llanma. T.: 2005 y.
46. Falsafa asoslari. T.: 2005 y.
47. Falsafa. Qomusiy lug'at. T.: 2004 y.
48. Falsafa. Qisqacha izohli lug'at. T.: 2004 y.
49. Bilish falsafasi. T.: 2005 y.
50. Shermuhamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. T.: 2005 y.
51. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi. T.: «Sharq» 2003 y.
52. G'arb falsafasi. T.: 2004 y.

### **Qo'shimcha adabiyotlar.**

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: 1993 y.
2. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T.: 1991 y.
3. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. T.: 1966 y.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.: 1960 y.
5. Kaykovus. Qobusnoma. T.: 1986 y.
6. Komil inson haqida to'rt risola. T.: 1991 y.
7. Temur tuzuklari. T.: 1991 y.
8. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. T.: 1997 y.

1. Olam va odamning o'zaro munosabati, olamning paydo bo'lishi, unda insonning o'rni azaliy, abadiy, falsafiy muammodir. Sobiq ittifoq davrida o'zbek tilida chop etilgan falsafiy adabiyotlarda bu mavzu bo'yicha ya'ni, olam va odamning falsafiy talqini bo'yicha materiallar berilmagan. Mustaqillik yillarida bu masala falsafiy lug'atlar va ma'ruzalar matni hamda darsliklarda o'z o'rnini



topdi<sup>10</sup>. Bu mavzuning birinchi savolini bayon qilishda biz yuqorida ko'rsatilgan adabiyotlarga tayanamiz.

Olam – borliqni odam nazarda tutgan unsurlardan tashkil topgan odam tomonidan bilingan, anglangan qismi<sup>11</sup>. Olamning paydo bo'lishidan olidngi holati «hyech nima», «yo'qlik» tushunchalari bilan izohlanadi. Angliyalik olim Stiven Xoking «Olam vujudga kelmasdan ilgari nima bo'lgan?» degan savolning mantiqsizligini, vaqtning faqatgina kelajakka yo'nalgan oqimini ifodalovchi modeli vositasida asoslab bergan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, falsafadagi olam tushunchasi kosmologiyadagi, dindagi olam tushunchalariga nisbatan mazmunan boyroq, serqirralidir.

Odam yashayotgan shu dunyo o'zining barcha murakkabligi va muammolari, jozibadorligi, butun go'zalligi bilan yagona olamni ashkil yetadi. Olam tushunchasi, yeng avvalo, odam va uning faoliyati kechadigan makonni aks yettiradi. Agar odam bo'lmaganida edi, bu olam haqidagi tasavvurlar ham bo'lmas edi. Demak, olam odam bilan mazmundordir. Olam uni tashkil yetuvchi narsalar bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Hyech narsasi yo'q olam yo'qlikdir. U mavhum tushuncha, ya'ni abstraksiyadir.

Qadimgi davrlardan buyon odam o'zini anglagach, olamning tarkibiy qismi yekanligini tushuna boshladi. Dastlab, uning hayotini ta'minlovchi tirikchilik vositalarining ahamiyatini tushunib yetdi va ularni e'zozlash, avaylab-asrash tuyg'usi shakllana boshladi.

Shu tufayli olam asosida yotuvchi to'rt unurni: havoni, suvni, tuproqni va olovni muqaddaslashtirish singari g'oyalar vujudga keldi hamda olam to'g'risidagi sodda kosmologik qarashlar paydo bo'lgan. Ayrim kishilar odamning tirikchiligini ta'minlovchi narsalarni odam uchun, uning yashashi uchun xudo tomonidan yaratilgan ne'matlar deb bildi. Bunday qarashdan olam odam uchun yaratilgan, degan ma'no kelib chiqadi. Aslida qanday? Bu falsafiy muammodir.

Olamda odam yashashi uchun qulay bo'lgan sharoit bo'lmasa-chi? Odamlar qahraton sovuq hukmronlik qiladigan doimiy muzliklar bag'rida ham, har doim issiqlik taftidan qovjirab yotuvchi issiq o'lkalarda ham yashashadi-ku. Har bir joyda odam o'ziga qulay sharoit yaratib olishga intiladi.

Odam hayvonlardek tabiatdagi bor narsalardan oziqlanish bilangina chegaralanib qolmasdan, ularni o'ziga moslashtirishga, sovuq bo'lsa — isitishga, xom bo'lsa — pishirishga, issiq bo'lsa — sovutishga intiladi. Bu yesa odamning olamga moslashishga

---

<sup>10</sup> Љаранг: Фалсафа. Маърузалар матни. Т.: 2000 й., Фалсафа асослари. Т.: 2005 й., Фалсафа. Љомусий луђат.Т.: 2004 й., Фалсафа. Љисъача изоќли луђат. Т.: 2004 й.

<sup>11</sup> Фалсафа: ъисъача изоќли луђат. Т.: 2004 й, 243-бет.

intilishi oqibatidir. Ya'ni, olamni odam o'ziga, o'z yehtiyolariga moslashtirishga intilib kelgan. Shu tarzda odam ham, olam ham tako-millashib, yer yuzi uta "xonakilashtirilgan" olamga aylangan.

Olam, eng avvalo, tor ma'noda odam yashaydigan joy. Aslida odamzod va hayvonot olami, o'simlik va hasharotlar dunyosi, jismoniy, ruhiy, ma'naviy olam va shu singari boshqa ko'plab tushunchalar bor. Ular dunyoda mavjud bo'lgan narsa va xrdisalar nomi bilan ataladi. Masalan, odamning ruhiy olami uning bilim, tajriba va xayolotini o'z ichiga oluvchi o'ta keng qamrovli tushunchadir. Bunda olam odam yashaydigan joy, degan ma'noga qaraganda yanada kengroq mazmunga yega bo'lamiz.

Nimaiki mavjud bo'lsa, ularning hammasi birgalikda siz bilan biz mansub bo'lgan dunyoni ifodalaydi. Ammo tabiat, jamiyat va inson tafakkurining asosida yotuvchi va ularni birlashtiruvchi shunday bir umumlashtiruvchi tushuncha ham borki, u obyektiv olamning mazmunini ifoda yetadi. Bunday tushuncha haqidagi tasavvurlar butun fan tarixi mobaynida rivojlanib kelgan. Dastlab, bu umumlashtiruvchi tushuncha, narsalarning asosida nima yotadi, degan nuqtai nazardan kelib chiqib, substansiya (lotincha, substansia —nimaningdir asosida yotuvchi mohiyat, degan ma'noni beradi) deb ataldi<sup>1</sup>.

Substansiya — muayyan narsalar, hodisalar, voqyealar va jarayonlarning xilma-xil ko'rinishlari ichki birligini ifoda yetuvchi va ular orqali namoyon bo'luvchi mohiyatdir. Olamning asosida bitta mohiyat — substansiya yotadi, deb hisoblovchi ta'limotni monizm deb atashadi. Faylasuflar substansiya sifatida biror jismni, hodisani, materiyani, g'oyani yoki ruhni olishgan. Substansiya sifatida moddiy jismlarni, materiyani oluvchilar — materialistik monizm tarafdorlari.

G'oyani, ruhni oluvchilar esa — idealistik monizm tarafdorlari hisoblanadilar. Shuningdek, olamning asosida ham moddiy jism yoki materiya, ham g'OYA yoki ruh yotadi deb hisoblovchi faylasuflar dualistlar (dualizm lotincha, dualis — ikkilangan degan tushunchani anglatadi) deb hisoblanadi. Arastu, Moniy, R. Dekart va boshqalar dualistlardir. Olamning asosida ko'p substansiyalar yotadi, deb hisoblovchilarni esa plyuralizm (lotincha pluralis ko'pchilik so'zidan olingan) tarafdorlari deb atashadi.

Olamning asosida yotuvchi mohiyatni axtarish tarixi ham fanning uzoq o'tmishiga borib taqaladi. Masalan, qadimgi Hindiston va Xitoyda, Misr va Bobilda, k,adimgi O'rta Osiyo va Yunonistonda ba'zi faylasuflar olamning asosida qandaydir modda yoki muayyan unsur yotadi, deb hisoblashgan. Ularning ba'zilari bu unurni olov, boshqalari suv yoki havo, ayrimlari esa tuproqdan iborat deb hisob-lashgan. Ba'zi bir falsafiy

---

<sup>1</sup> Фалсафа асослари. Т.: 2005 й., 125-126 – бетлар.

ta'limotlarda esa, olamning asosida — olov, havo, suv va tuproq yotadi, barcha narsalar ana shu to'rtta unurning birikishidan hosil bo'lgan, deyilgan.

Olamning asosida yotuvchi substansiyami axtarishning yana bir yo'li narsalarning tarkibidagi bo'linmas yeng kichik unurni, ya'ni narsalarning tarkibidagi umumiy substrat (lotincha substratum — asos ma'nosini anglatadi) ni axtarishdir. Bunday yo'nalishga mansub oqimlardan biri atomistik oqim hisoblanadi. Masalan, qadimgi Yunon faylasuflari Levkipp, Yepikur, Demokrit va Lukresiylar narsalarning va butun olamning asosida yeng kichik bo'linmas un-surlar — atomlar yotadi, ular o'zlarining shakli, harakatlanishi va vaznlari bilan bir-birlaridan farq qiladi, deb hisoblashgan<sup>1</sup>.

Falsafiy tafakkur rivoji tarixida substansiyaga ikki xil yondashuvga duch kelamiz. Birinchidan, substansiya substrat (asos, negiz)dan farqlanmaydi. Masalan, Pifagorda son-miqdor, Geraklitda – olov, Falesda suv, Platonda g'oyalar, Ksenofaonda – tuproq, Anaksimenda – havo, ayni vaqtda ham substrat, ham substansiya ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, Levkipp, Demokrit, Epikur, Lukresiy Kar va Ibn Sinoda substansiya va substrat bir-ibirdan farqlanadi. Ibn Sino moddiy borliqning negizi (substrat) sifatida suv, havo, olov va tuproqni e'tirof qiladi. Har qanday narsa ularning o'zaro nisbati va birligidan tashkil topadi. Substansiya esa modda va jismning shakli birligidan iboratdir. Moddasiz shakl, shaklsiz modda borliqning mohiyati bo'la olmaydi. R.Dekartning dualizmiga ko'ra, moddiy substansiya va ruhiy substansiya parallel tarzda amal qiladi. Ularning amal qilish qonunlari bir-biridan mustaqildir. Ularning birontasi ikkinchisi ustidan hukmronlik saltanatini o'rnatmaydi, chunki ularning har biri o'ziga xos jabhaga ega, ulardan tashqarida qonunlarning ta'siri chegaralanadi. Shunday qilib, falsafiy tafakkur tarixida substansiya muammosi ustida olib borilgan falsafiy bahs-munozaralar birmuncha samarali bo'lib, moddiy va ruhiy jarayonlarni chuqurroq o'rganish, ular o'rtasidagi tafovut hamda o'zaro birlikni har tomonlama tahlil etishga o'z hissasini qo'shib keldi<sup>2</sup>. Substansiya tushunchasi olamni anglash, uning xilma-xil ko'rinishdagi umumiylikni bilib olishda o'ziga xos ko'maklashuvchi falsafiy kategoriya vazifasini bajaradi.

Olamni anglash to'g'risida turlicha, hatto bir-biriga qarama-qarshi qarashlar mavjud. Bunday qarashlar odamlarning olamga o'z ulchovlari bilan qarashlari oqibatida paydo bo'ladi. Birov uchun olam yaxshi va yomon, oppoq va kora ranglardan tashkil topgan, boshqa ranglarning bo'lishini u tasavvuriga ham sigdira olmasligi mumkin. Boshqalar yesa olamni xilma-xil rangda, qirralarda ko'radi. Ular oq bilan qora oraligida oqimtirroq yoki qiraroq ranglar ham bo'lishi mumkinligiga e'tibor qilishadi.

---

<sup>1</sup> Фалсафа асослари. Т.: 2005 й., 126-127 – бетлар.

<sup>2</sup> Фалсафа. Љисълъача изокли луђат. Т.: 2004 й., 293-294 – бетлар.

Olam tushunchasi keng qamrovli va keng yo'nalishli tushuncha bo'lib, ma'lum ma'noda voqeyelikka tizimli, ya'ni sistemali yondashishni talab qiladi. Masalan, yelementar zarrachalar olami tushunchasi odamga ma'lum bo'lgan va hali ma'lum bo'lmagan barcha elementar zarrachalarni qamrab oladi.

Agar biz yashayotgan butun koinotni elementar zarrachalardan tashkil topgan deb hisoblasak, bu tushuncha butun koinotni ham aks ettirishi mumkin. Yoki o'simliklar olami tushunchasini olaylik. Bu tushunchaga faqatgina o'simliklar kiradi, hayvonlar va odamlar bu olamdan chetda qoladi.

Shu nuqtai nazardan olam tushunchasi nisbiy mohiyatga yega. Ba'zi kishilar olam deganda barcha narsalarni, jismlarni, hodisalarni qamrab oluvchi universal sistemani tushunadi. Bu ma'noda olam kosmologik koinot tushunchasiga mos keladi. Ayrimlar uni cheksiz va chegarasiz, boshqalar yesa koinot ma'nosidagi olamni cheklangan obyekt sifatida talqin yetadi. Cheksizlik va chegarasizlik tushunchalari nisbiy ma'noga yega, bir sistemada cheksiz hisoblangan obyekt boshqa sistemada chekli bo'lishi mumkin va aksincha.

Diniy-kosmologik qarashlarda olam ilohiy qudrat kuchi bilan yaratilgan, deb talkin yetiladi. Bu olamning vaqtda boshlanishi mavjudligiga, ya'ni uning chekli yekanligiga ishoradir. Islom dinidagi kosmologik qarashlarda o'n sakkiz ming olam haqida gapiriladi va mazkur qarash bo'yicha biz yashayotgan moddiy olamdan tashqari, undan mustakil bo'lgan ko'plab boshqa olamlar ham mavjuddir, deyiladi.

Hozirgi zamon kosmologiyasida ham fanga asoslangan bir qancha konsepsiyalarda olam o'tkinchi, tabiiy ravishda paydo bo'lgan, degan g'oya ilgari suriladi. Bu nuqtai nazarlarda olamning paydo bo'lishidan oldingi holati "xech nima" va "yo'qlik" tushunchalari bilan izohlanadi. Angliyalik olim Stiven Loking "Olam vujudga kelmasdan ilgari nima bo'lgan?" degan savolning mantiqsizligini, vaqtning faqatgina kelajakka yo'nalgan oqimini ifodalovchi modeli vositasida asoslashga harakat qilgan. Uning fikricha, bu shimoliy kutb nuqtasidan turib qaraganda, hamma nuqtalar faqat janubga olib boradigan holatni yeslatadi. Bunday holat olamning bosh-langich holatidir. Vaqtning kelajakka olib boruvchi yo'nalishigina mavjud bo'lgan holati olamning boshlanishidir. Bu holatda o'tmish yo'q, faqat kelajak mavjud.

Olam haqidagi diniy tasavvurlar uning kelajagi, yaratilishi yoki o'tmishiga oid murakkab masalalarni, asosan, ilohiy qudratning hosilasi sifatida talqin yetadi. Dinda olamni "bu dunyo" — o'tkinchi olam va "narigi dunyo" — abadiy olamga ajratib tushuntirishadi. Bu dunyodagi mashaqqatlari yevaziga odam narigi dunyoda rohat-farog'atga muyassar bo'ladi, degan g'oyaga asoslaniladi.

Fan olam to'g'risida o'ziga xos fikr yuritadi. Unda olamga oid murakkab masalalarni amaliy tajribalardan kelib chiquvchi mantiqiy dalillar asosida isbotlashga uriniladi. Mavjud ilmiy mantiqdoirasidan chetga chiquvchi hodisalar yesa izohlanmaydi. Ayrim ajoyibot hodisalarining fan tadqiqot obyektiga kiritilmaganining sababi ana shunda<sup>1</sup>.

Falsafa olamni izohlashda fanning, dinning, san'at va adabiyotning, xullas, fan bilan birgalikda boshqa xilma-xil bilimlarga tayanib, umumlashgan xulosalar chiqaradi. Demak, falsafadagi olam tushunchasi kosmologiyadagi, dindagi va boshqa bilim sohalaridagi olam tushunchalariga nisbatan boyroq sermazmunroq va kengroqdir.

Olamning namoyon bo'lish shakllari xilma-xildir. Faqat moddiy jismlarnigina o'ziga qamrab oluvchi olamni moddiy olam deyishadi. Ayrim kishilar uni jismoniy, ya'ni fizik olam deb atashadi. Odamning ma'naviy, ruhiy dunyosini qamrab oluvchi olamni ma'naviy olam deyishadi. Aynan shu paytda biz bilan birgalikda mavjud bo'lgan olam aktual olam deyiladi. Kelajakda mavjud bo'lish imkoniyati bor va bo'lishi mumkin bo'lgan olam potensial olam deyiladi. Masalan, sizning bugungi kundagi talabaligingiz aktual olamga mansub bo'lsa, kelajakda mutaxassis bo'lib yetishishingiz yesa potensial olamga mansubdir.

Olamning mavjudligi shubhasiz bo'lgan va barcha ye'tirof yetadigan qismi real olam deyiladi. Kelajakda mavjud bo'lishi yehtimoli bo'lgan olam virtual olam deb ataladi (virtual so'zi lotincha virtualis — yehtimoldagi degan ma'noni beradi). Aniq ma'lum bo'lgan olam konkret olam deyiladi, xayoldagi, tasavvurdagi, idealdagi olam obrazi abstrakt olam deyiladi.

Odamning kundalik hayotidagi hammaga ma'lum bo'lgan, tan olingan hayoti real olamga mansub bo'lsa, uning xayoliy rejalari virtual olamga, uning o'zi va atrofida gilar konkret olamga, kelajakka yo'nalgan ozu-umidlari yesa abstrakt olamga mansubdir. Odam o'z rejalari ni real olamga asoslanib tuzsa, potensial olamning konkret reallikka aylanish yehtimolligi oshadi.

Odam olamda boshqalardan ajralib, yakkayu yagona bo'lib yemas, balki ijtimoiy hayot kechiradi va jamoa bo'lib yashaydi. Odamlar jamoasi jamiyatni tashkil yetadi. Odamlar jamiyatdagi o'zaro munosabatlari, faoliyatlari, uy-hayollari, ideallari, maqsad va maslaklari bilan birgalikda ijtimoiy olamni tashkil yetishadi. Odamning jamiyatdagi boshqalar bilan birgalikdagi ijtimoiy faoliyati, ularning har biriga xos bo'lgan takrorlanmas individual olamlariga bog'liqdir. Individual olam, ayni paytda tashqi olamni ham, ijtimoiy olamni ham aks yettiradi, o'zida ifodalaydi. Bular bir-birlari bilan chambarchas bog'liqdir.

---

<sup>1</sup> Фалсафа асослари. Т.: 2005 й, 127-128 – бетлар, Фалсафа. Љомусий луѓат. Т.: 2004 й. 312-бет.

Xullas, olam haqidagi xilma-xil tasavvurlar mavjudlikning yeng umumiy falsafiy tushunchasi shakllanishiga asos bo'lib keldi. Bunday tushuncha borliq haqidagi tushunchadir.

II. Borliq falsafiy kategoriya bo'lib, olamdagi turli-tumanlikni xilma-xil ko'rinishda va o'zaro bog'liqlikda ekanligini aks ettiradi. Shu nuqtai-nazardan borliq tushunchasi moddiylik, ijtimoiylik va ma'naviylik o'rtasidagi umumiylik va o'zaro aloqadorlikni ochib beradi. Borliq – bu tabiat, jamiyat va insonning real holati, kelajagi.

Faylasuflar qadim zamonlardan buyon "borlik," va "yo'qlik" haqida baxs yuritishgan. Ular borliqning vujudga kelishi, mohiyati, xususiyatlari va shakllari haqida ko'plab asarlar yozishgan. Xush, borliq nima? Bu savol bir qarashda juda oddiy ko'ringani bilan unga shu chokdacha barcha kishilarni birday qanoatlantiradigan javob topilgani yo'q. Bu holat borliqqa turlicha nuqtai nazarlardan qarashlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Masalan, ayrim faylasuflar borliqni moddiylik, moddiy jismlar bilan bog'lab tushuntirishadi. Ularning nuqtai nazarlaricha, borliq — obyektiv reallikningina qamrab oluvchi tushunchadir. U holda fikr, inson tafakkuri, uy-xayollarimiz borlik, tushunchasidan chetda qolar yekanda, degan savolga ular, bunday tushunchalar obyektiv reallikning hosilasidir, deb javob berishadi.

Falsafaning borliq, haqidagi ta'limotni izohlaydigan qismi — ontologiya deb ataladi. (Bu tushunchani falsafada birinchi bor X. Volf qo'llagan). Olam va borliq masalalarini falsafaning ana shu sohasi o'rganadi.

Yo'qlik hiech nima demakdir. Hamma narsani hiech narsaga aylantiruvchi, hamma narsaning ibtidosi ham, intihosi ham yo'qlikdir. Bu ma'noda yo'qlik cheksizlik, nihoyasizlik va mangulik bilan birdir. Yo'qlik chekingan joyda borliq paydo bo'ladi. Demak, borliqning bunyodkori ham, kushandasi ham yo'qlikdir. Borliq yo'qlikdan yo'qlikkacha bo'lgan mavjudlikdir. Yo'qlikni hiech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Fanda yo'qlik nima, degan savolga javob yo'q.

Demak, borliq va yo'qlik dialektik aloqadorlikda. O'tmishdagi borliq – bu yo'qlik<sup>1</sup>. Borliq olam ko'rinishlarining hozirgi holatidir. Borliq hozirdan kelajakka yo'nalgan jarayonlarni ham aks ettiradi.

Tarixdan ma'lumki, faylasuflar borliq haqida turlicha g'oyalarni ilgari surishgan. Markaziy Osiyo tuprog'ida vujudga kelgan zardushtiylik ta'limotida borliq quyosh va olovning hosilasidir, alangalanib turgan olov borlikning asosiy mohiyatini tashkil yetadi, deb hisoblangan. Chunki bu g'oya bo'yicha, har qanday o'zgarish va harakatning asosida olov yotadi va u borliqqa mavjudlik baxsh yetadi.

Qadimgi yunon faylasufi Sukrot borliqni bilim bilan qiyoslaydi va uningcha, biror narsa, biz uni bilsakkina bor bo'ladi, insonning bilimi qancha keng bo'lsa, u shuncha keng borlikni qamrab oladi, deb hisoblaydi.

Qadimgi dunyoning atomist olimi Demokrit borliq atomlar majmuasidan iborat, deb tushuntirgan. Uning fikricha, borliqning mohiyati uning mavjudligidadir. Mavjud bo'lmagan narsa yo'qlikdir.

Islom ta'limotida borliq ilohiy voqyelikdir. Ya'ni, u Olloh yaratgan mavjudlikdir. Bu borada vahdati vujud va vahdati mavjud ta'limotlari bo'lgan.

Islom diniga mansub mutafakkirlar borliq haqidagi ta'limotni har taraflama rivojlantirganlar. Masalan, Forobiy fikricha, ilk borlik azaliy Ollohning o'zidir. Beruniy fikricha, borlik, shunday umumiylikki, u hamma narsaning asosida yotadi, demak, borliq hamma narsaning asosidir. Yevropada o'tgan olimlar David Yum va Jorj Berkli borliqni sezgilarimiz majmuasi, deb talqin yetishgan.

Gegel yesa borliqni mavhumlik, mutlaq ruhning namoyon bo'lishi, deb ta'riflaydi. Ko'pgina naturfalsafiy qarashlarda borliqni hozirgi zamon bilan, ya'ni shu aktual olamga bog'lab tushuntirdilar.

Aslida, borliq keng falsafiy tushuncha bo'lib o'ziga butun mavjudlikni, uning o'tmishi, hozir va kelajagini ham qamrab oladi<sup>1</sup>. Faylasuflar borliqni tushuntirish uchun yo'qdik tushunchasini unga antipod qilib olishgan va shu asosda borliqning zaruriy mohiyatini ochishga intilganlar. Materialistik adabiyotlarda borliqni obyektiv reallik bilan, materiya bilan aynanlashtirib tushuntirishadi.

Borliq o'ziga obyektiv va subyektiv reallikni, mavjud bo'lgan va mavjud bo'ladigan olamlarni, moddiylik va ma'naviylikni, o'tmish va kelajakni, o'lim va hayotni, ruh va jismni qamrab oluvchi umumiy tushunchadir.

---

<sup>1</sup> Бучило Н.Ф., Чумаков А.Н. Философия. М.: 1998 г. 16-стр.

<sup>1</sup> Фалсафа асослари. Т.: 2005 й., 131-бет.

Atrofimizdagi odam, olam, tabiat, jamiyat, tafakkur, g'oyalar, ui-xayollarimiz barchasi birday mavjuddir, ular turli tarzda va shakllarda namoyon bo'lib, hammasi mavjudlik belgisi ostida umumlashib, borliq tushunchasiga kiradi.

Materialistik mazmundagi borliq tushunchasi ta'rifiga faqat obyektiv real olam, ongdan tashqaridagi, unga bog'liq bo'lmagan jismoniy mohiyatga yega bo'lgan narsalargina kiritiladi. Borliqning ideal, virtual, potensial, abstrakt, ma'naviy shakllari bu ta'rifdan tashqarida qoladi.

Aslida yesa, borliq kategoriyasi umumiy abstraksiya bo'lib, mavjudlik belgisi bilan barcha narsa va hodisalarni o'ziga qamrab oluvchi o'ta keng tushunchadir. U o'ziga nafaqat obyektiv reallikni, balki subyektiv reallikni ham qamrab oladi.

Borliq mavjudlik va reallik tushunchalariga qaraganda ham kengroq tushunchadir. Mavjudlik — borliqning hozirgi paytda namoyon bo'lib turgan qismi bo'lib, o'tgan va mavjud bo'ladigan narsa va hodisalar ham borliq tushunchasiga kiradi. Reallik yesa, mavjudlikning hammaga ayon bo'lgan, ular tomonidan tan olingan qismi.

Borliq o'ziga reallikni ham, mavjudlikni ham qamrab oladi. An'anaviy falsafiy karashlarda borliqning uchta sohasi ajratib ko'rsatiladi. Ularga: tabiat borlig'i, jamiyat borlig'i, ong borligi kiradi. Bular uchun yeng umumiy belgi, ularning mavjudligidir.

Shuningdek, falsafiy adabiyotlarda tabiat borlig'i va jamiyat borlig'ining qo'yidagi shakllari ham farqlanadi. Tabiat borlig'i odatda tabiatdagi narsalar (jismlar), jarayonlar, holatlar borlig'i sifatida tushuniladi. U ikkiga bo'linadi: azaliy tabiat borlig'i (yoki tabiiy tabiat borlig'i, u insondan ilgari va uning ishtirokisiz ham mavjud bo'lgan) va odam mehnati bilan ishlab chiqarilgan narsalar borligi ("ikkinchi tabiat" borlig'i, ya'ni madaniyat). Ikkinchi tabiat borlig'i yesa, o'z navbatida, qo'yidagi ko'rinishlarda uchraydi:

— inson borlig'i (insonning narsalar olamidagi borlig'i va odamning o'ziga xos bo'lgan insoniy borlig'i);

— ma'naviy borlik, (individuallashtirilgan va obyektivlashtirilgan ma'naviy borlik,);

— sosial borlik, (ayrim odamning tarixiy jarayondagi borlig'i va jamiyat borlig'i) ijtimoiy borliq deb ham ataladi.

Borliqning moddiy shakli materiya o'ziga barcha jismlarni, hodisalarni, jarayonlarni va ularning xususiyatlarini qamrab oladi. Bundan tashqari, u tafakkurni ham, olamda mavjud bo'lgan barcha aloqadorliklarni va munosabatlarni ham qamrab oluvchi umumiy falsafiy tushunchadir. Borliqning moddiy shakliga xos umumiylikni axtarishning bir yo'nalishi moddiy olamning asosida yotuv-



chi umumiy mohiyatni axtarish yo'li bo'lib, yuqorida qayd yetganimizdek, substansiyani aniqlash yo'lidir. Ikkinchi yo'l yesa — moddiy olamning asosiy tarkibiga kiruvchi "qurilish yelementlari"ni — substratni axtarish yo'li. Uchinchi yo'l — hamma narsani vujudga keltiruvchi bosh sababchisini, ota moddani, ya'ni pramateriyani axtarish yo'li. Mana shu yo'l haqida maxsus to'xtab o'taylik.

Olamning substansiyasini axtarishning bu usuli go'yoki meva iste'mol qilayotgan kishi, uning kelib chiqishini axtarib, dastlab daraxtga, so'ngra uning guliga, bargiga, kuchatiga va urug'iga nazar solganidek, atrofimizdagi moddiy olamning o'zagida dastlabki yaratuvchi modda sifatida nima yotishini, ya'ni ilk materiyani, azaliy materiyani "bobokoloni"ni, "pramateriya"ni axtarish usulidir.

Moddiy olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyatni axtarish falsafada materiya haqidagi tasavvurlarning maydonga kelishiga va rivojlanishiga sababchi bo'ldi. Materiya tushunchasi moddiy unsurga nisbatan ham, atomga nisbatan ham, pramateriyaga nisbatan ham umumiyroq bo'lgan tushunchadir. Materiya olamdagi barcha moddiy obyektlarni, butun obyektiv reallikni ifoda yetuvchi yeng umumiy tushunchadir. Faylasuflar "Tom ma'nodagi materiya faqat fikrning mahsuli va abstraksiyasidir", deb yozishadi. Faylasuflar barcha moddiy obyektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzda ifodalash uchun qo'llaydigan tushuncha materiya, deb ataladi. Demak, materiya moddiy obyektlarga xos yeng umumiy tushuncha, falsafiy kategoriyadir.

Albatta, bu ta'riflarni bir yoqlama mutlaqlashtirib tushunmaslik lozim. Bu ta'riflarda ko'proq sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir yetishi mumkin bo'lgan reallik nazarda tutilgan.

XX asrning o'rtalariga kelib, kvant mexanikasi, nisbiylik nazariyasi va hozirgi zamon kosmologiyasi sohalaridagi ilmiy yutuqlar kishilarning obyektiv olam haqidagi tasavvurlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Natijada, tabiashunos olimlar sezgilarimizga bevosita ta'sir yetishining imkoni bo'lmaydigan realliklar haqida ham tadkikrtlar olib bora boshlashdi.

Olamning klassik mexanika nuqtai nazaridan kelib chiqib, nisbatan kichik tezlikda harakatlanuvchi sistemalar haqidagi ilmiy manzarasi urnini yangicha ilmiy manzaralar yegallay boshladi. Bu yesa materiya haqidagi tasavvurlarning yanada rivojlanishiga sharoit tug'dirdi. Bu o'zgarishlarni hisobga olib, marksist-faylasuflar bu ta'rifga sezgilarimizga bevosita yoki bilvosita (ya'ni, turli asboblari, qurilmalar vositasida) ta'sir yetuvchi, degan qo'shimcha kiritishdi. Shunday qilib, bu ta'rif go'yo materiyani moddaviy va nomoddaviy shakllarini, ya'ni modda va antimodda ko'rinishlarini qamrab oluvchi ta'rifga aylandi.

Materialistlar materiyani obyektiv reallik, deb ta'riflashadi. Obyektiv reallik inson sezgilariga bog'liq bo'lmagan holda, undan tashqarida mavjud bo'lgan voqeyelikdir. Bu butun mavjudlikning subyektiv reallikdan tashqaridagi qismi hisoblanadi. Obyektiv reallikning mavjudligi qanday namoyon bo'ladi? Bu savolga javob topishda, borliqning ajralmas xususiyatlarini o'rganishga to'g'ri keladi. Har qanday jismning ajralmas xususiyati lotincha "atribut" so'zi bilan ataladi.

III. Muayyan jismning aynan shu jism yekanligini belgilovchi xususiyatlari uning atributlari bo'ladi. Borliqning ham bir qancha atributlari mavjuddir. Ular: harakat, fazo, vaqt, in'ikos, ong va boshqalar. Borliq o'zining xossalari, xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Yendi borliqning atributlari, ya'ni ajralmas tub xususiyatlari haqida tuxtab o'taylik.

Borliqning atributlari ichida uning asosiy mavjudlik usulini ifoda yetuvchi xususiyati harakat hisoblanadi. Chunki borliq harakatsiz o'zining strukturaviy yaxlitligini saqlay olmaydi.

Buni moddiy borliq misolida qarab chiqaylik. Faraz qiling, qarshimizda biror jism turibdi. Agar harakat bo'lmaganida yedi, yorug'lik nurlari shu jismga urilib bizga qaytmagan bo'lar yedi, ya'ni biz uni ko'rmagan bo'lar Yedik. Shuningdek, bu jismning yaxlitligini saqlab turgan molekulalar, atomlar, yelementar zarrachalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar ham bo'lmasdi. Natijada bu jismning strukturaviy birligiga putur yetgan bo'lar yedi. Tevarak atrofimizdagi predmetlar va hodisalar harakat tufayli o'zining muayyan tartibini va birligini saqlab turadi, shu tufayli, o'sish, ulg'ayish, ravnaq topish, rivojlanish mavjuddir.

Harakat, bir tomondan, moddiy jismlar o'rtasidagi va ularni tashkil yetuvchi yelementlar o'rtasidagi aloqadorliklarning natijasi, boshqa tomondan yesa, ulardagi o'zgarishlar sifatida sodir bo'ladi. Shu nuqtai nazardan ham falsafaning harakat — umuman har qanday o'zgarishdir, deyilgan ta'rifi juda o'rinlidir. Harakatning manbai haqida gap ketganda, ana shu o'zgarishlarning asosida yotuvchi o'zaro ta'sirlar va ular orasidagi munosabatlar nazarda tutiladi.

Demak, har qanday harakatning manbai shu sistemadagi ichki o'zaro ta'sirlar yekan, har qanday jismning mavjudligini, yeng avvalo, uning ichki aloqadorliklari ta'minlaydi.

Harakatning turlari haqidagi mulohaza, asosan, o'zgarishlarning xususiyatiga asoslangan. O'zgarishlar oddiy fazoviy siljishdan tortib, murakkab ijtimoiy o'zgarishlargacha takomillashib borgan. Shu tufayli harakatga faqatgina fazoziy siljish, deb qaramaslik lozim. Bunday qarash olamdagi barcha jarayonlarga mexanik harakat

nuqtai nazaridan yondashishni vujudga keltiradi. Aslida olamda o'zgarishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular bir-biridan sifatiy farq qiladi.

Mexanik, ximiyaviy, biologik, fizik o'zgarishlar bilan ijtimoiy o'zgarishlarni aslo taqqoslab bo'lmaydi. To'g'ri, bu o'zgarishlar uchun umumiy bo'lgan fazoviy siljishlar harakat shakllarining hammasida ham u yoki bu ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Lekin hamma o'zgarishni ham faqatgina fazoviy siljishdan iborat, deb bo'lmaydi. Masalan, Yerning Quyosh atrofidagi, Oyning yer atrofidagi harakatini fazoviy siljishning yaqqol ko'rinishi deyishimiz mumkin. Lekin yer bag'rida ro'y berayotgan murakkab geologik jarayonlarni, yer sirtidagi biosferaning yashash usulini birgina mexanik siljish bilan izohlab bo'lmaydi. Harakatning shakli qanchalik murakkab bo'lsa, u bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar ham

shu qadar murakkab bo'ladi. Materiyaning tashkiliy struktura darajasi qanchalik yuqori darajada bo'lsa, unda fazoviy siljish ham shu qayr kam seziladi.

O'zgarishlarning shunday bir shakli borki, uni falsafada rivojlanish deb ataladi. Rivojlanish — muayyan sistemaning muayyan vaqt va fazodagi yaxlit, kompleks, orqaga qaytmaydigan, ilgarilanma yo'nalishga yega bo'lgan, miqdoriy va sifatiy o'zgarishidir.

Shu jihatdan harakatning ikki xil turi bir-biridan farq qilinadi. Harakatning birinchi turi jismda uning sifati va turg'unligini saqlagan holda ro'y beradigan ichki o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Ya'ni, har qanday jismda betuxtov ichki o'zgarishlar ro'y berib turadi, lekin bu o'zgarishlar shu jismning tashqi sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Atrofimizni qurshab turgan har bir jism molekulalardan, molekulalar yesa atomlar va yelementar zarrachalardan tashkil topgan yekan, bu jismlarning molekulyar va atom tuzilish darajasida ham betuxtov o'zgarishlar ro'y berib turadi. Shuningdek, har bir jism o'zining atrofidagi boshqa jismlarning va ulardan tarqalayotgan nurlanishlarning ta'siriga ham uchrab turadi. Bunday tashqi ta'sirlarni o'zida in'ikos yettirish jarayonida ro'y beradigan o'zgarishlar ham bu jismning sifatiy o'zgarib ketishiga olib kelmasligi, uning turrunligi va asosii sifati saqlanib qolishi mumkinligi hakida xulosa chiqarish mumkin.

Biz yuqorida qayd yetgan ichki va tashqi ta'sirlar oqibatida ro'y beruvchi o'zgarishlar asta-sekin to'planib, keyinchalik jismda keskin sifatiy o'zgarishning vujudga kelishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Mana shunday o'zgarish, ya'ni jismning sifatini o'zgartiruvchi harakat ikkinchi turdagi harakatga kiradi va u rivojlanish deb ataladi.

Rivojlanish jarayoni ham ikki turda bo'ladi. Birinchi turdagi rivojlanish bo'yicha, jismda har qanday sifatiy o'zgarish ro'y berishiga qaramasdan, uni tashkil yetgan materiyaning sifatiy tuzilish darajasi o'zgarimasdan qolaveradi.

Masalan, notirik tabiatga mansub bo'lgan Quyoshdagi ravojlanishni olib qaraylik. Olimlarning taxminlariga ko'ra, hozir sirtida 6 ming, ichida yesa bir necha million darajali haroratga yega bo'lgan Quyosh borib-borib soviydi va qizil gigantga aylanadi, ya'ni Quyoshning markazidagi termoyadro yenergiyasi so'ngach, ichki zichligi pasayadi va markazdagi tortishish quvvati susayadi. Oqibatda Quyosh shisha boshlaydi va yer orbitasini ham o'z ichiga olgan ulkan qizil yulduz vujudga keladi, u asta-sekin sovib, qizil karlikka, so'ngra yesa "qora karlikka", keyin bo'lsa neytron yulduzga aylanadi. Bunday o'zgarishlar natijasida borlshning tashkiliy struktura darajasi o'zgarmaydi, ya'ni jonsiz tabiat shaklidagi darajasi saqlanadi.

Jonli tabiatning vujudga kelishi, o'simliklar va hayvonot olamining paydo bo'lishi, odamning shakllanishi, jamiyatning vujudga kelishi singari sifatiy o'zgarishlar yesa rivojlanishning ikkinchi turiga kiradi.

Falsafa fanida harakatning bir-biridan sifatiy farq qiluvchi bir qancha boshqa shakllari ham o'rganiladi.

Materialist bo'lgan faylasuflar harakat shakllarini turkumlaganida qo'yidagi muloxazalarga tayanib ish yuritadilar:

1) harakat shakllari bir-birlari bilan sifat jihatidan farq qilib, ularning har biri materiyaning tashkiliy tuzilishi darajalarining muayyan bosqichida namoyon bo'ladi;

2) materiyaning harakat shakllari bir-biri bilan genetik jihatidan, kelib chiqishi jihatidan ketma-ket bog'langan, ya'ni harakatning murakkabroq shakllari uning nisbatan soddaroq shakllaridan kelib chiqqandir;

3) harakatning yuqori shakllari tarkibidagi quyi shakllari uning yuqori shakllariga ham mansubdir, ammo harakatning yuqori shakli o'zidan quyi shakldagi harakatga mansub yemasdir. Shu muloxazalarga tayangan holda harakatning beshta shaklini ajratib olish mumkin. Ular — mexanik, fizik, ximiyaviy, biologik va ijtimoiy harakatlardir.

Falsafada harakat shakllarini turkumlashning bir qancha boshqa ko'rinishlari ham bor. Ayrim olimlar harakat shakllarini har bir fanning nomi bilan bog'lash kerak, deb hisoblashadi. Bunday qarashning xatoligi shundaki, fanlarning ko'pchiligi harakat shaklini yemas, balki miqdoriy munosabatlar va holatlarni aks yettiradi. Masalan, geodeziya yoki geometriya, trigonometriya yoki topografiya, chiziqli algebra qanday harakat shaklini o'rganadi? Kibernetika yesa ham tabiatda, ham jamiyatda amal qiluvchi boshqarish

jarayonlarini urganadi, ya'ni bu fan bitta yemas, balki bir kancha harakat shakllarini qamrab oladi.

Harakat shakllarini turlash bo'yicha quyidagi tabiiy-ilmiy konsepsiya ham diqqatga sazovordir. Mazkur konsepsiya bo'yicha harakat shakllari quyidagicha turlanadi: fizik harakat (yelementar zarrachalar, maydon va atomlarning harakati), ximiyaviy harakat (atomlar va molekularning harakati) va bunda harakatning rivojlanishi ikki yo'nalishga ajraladi: 1) harakat rivojlanishining yuqori yo'nalishida biologik harakat shakllanadi; 2) harakat rivojlanishining quyi yo'nalishida yesa geologik harakat shakllanadi, biologik harakatning taraqqiyoti ijtimoiy harakatga olib boradi.

Yana bir boshqa konsepsiyada yesa harakat borliqning tashkiliy tuzilish darajalariga mos ravishda turlangan. Bu konsepsiyada harakat shakllari uchta sinfga ajratiladi: notirik tabiatda — yelementar zarrachalar va maydon harakati, tirik tabiatda — hayotning namoyon bo'lishi, jamiyatda — odamning faoliyati.

Ijtimoiy harakat bizga ma'lum bo'lgan harakat shakllari ichida yeng murakkabi bo'lib, unda insonning ongli faoliyati, inson tafakkuri, ijtimoiy guruhlarning faoliyati, o'zaro munosabatlari, jamiyat miqyosidagi ijtimoiy fikr birgalikda harakatga keladi. Bu harakatni chiziqli, batartib harakatlar bilan mutlaqo taqqoslab bo'lmaydi. Uning kelajagini bashorat qilish ham o'ta murakkabdir.

Borliqning asosiy yashash shakllariga fazo va vaqt kiradi. Fazo narsalarning ko'lamini, hajmini, o'zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalasa, vaqt hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi.

Ma'lumki, har qanday moddiy jism joyga, ko'lamga, hajmga yega. Fazo — vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil yetgan nuqtalarning o'zaro joylashish tartibini aks yettirsas, vaqt yesa fazoning muayyan nuqtasida ro'y beruvchi hodisalar ketma-ketligi tartibini ifodalaydi.

Fazo va vaqt tushunchalari, ko'p hollarda, forsiy til ta'sirida yozilgan adabiyotlarda makon va zamon deb ham ataladi. Bu tushunchalar fazo va vaqtning tashqi, nisbiy xususiyatlarinigina aks yettiradi, xolos. Fazo narsalar joylashadigan joy ma'nosida, vaqt yesa hodisalar bo'lib o'tadigan muddat ma'nosida ishlatiladi.

Fazo va vaqtni tushunish bo'yicha substansial va relyasion yondashishlar mavjud. Substansial konsepsiya tarafdorlari fazoni narsalar joylashadigan idish, bo'shliq deb bilishadi. Ularning fikricha, hamma narsa fazo ichiga joylashtirilgan. Fazo o'ziga narsalarni sig'diruvchi substansiya. Hyech narsasi yo'q, ya'ni narsalar solinmagan fazo ham bo'lishi mumkin, deyiladi. Relyasion konsepsiya tarafdorlari yesa, narsalar fazoviy o'lchamga yega, deyishadi.

Hyech narsasiz fazoning bo'lishi mumkin yemas. Bu farqni relyativistik fizika asoschisi Albert Yeynshteyn shunday tushuntirgan yedi. Faraz qilib, bir kazarma soldatlarni ko'z oldingizga keltiring. Nyuton fizikasiga ko'ra, soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma bo'sh qoladi, ana shu substansial konsepsiyadagi fazodir. Yangi fizikaga ko'ra, soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma ham yo'qoladi. Bu relyasion konsepsiyadagi fazodir.

Fazo va vaqt borliq miqdoriy va sifatiy jihatlarni ifodalashiga qarab, metrik va topologik xususiyatlarga yega. Fazo va vaqtning metrik xususiyatlari borliqning miqdoriy munosabatlarini aks yettirib, o'lchanadigan, ko'zga tashlanadigan va nisbiy tabiatli xususiyatlaridir. Ularga ko'lam, bir jinlilik, izotropik (anizotropik) kabi xususiyatlar kiradi.

Fazo va vaqtning topologik xususiyatlari yesa borliqning tub sifatiy jihatlarni ifodalaydi. Bunday xususiyatlarga o'zluksizlik, bog'langanlik, o'lchamlilik, kompaktlik, tartiblanganlik singari xususiyatlar kiradi. Vaqtning topologik xususiyatlariga orqaga qaytmaslik, bir o'lchamlilik kabi xususiyatlar qo'shiladi.

Fazo (vaqt) ning metrik o'zgarishlari borliq strukturasi jiddiy o'zgartira olmaydi, topologik o'zgarishlar yesa borliqning sifatiy o'zgarishiga sababchi bo'ladi. Masalan, bir bog'langan sistemaning ko'p bog'langan sistemaga o'tishi fazo topologiyasini tubdan o'zgartiradi, ya'ni fazoning ikki nuqtasini tutashtiruvchi turlicha yo'llar paydo bo'ladi. Bunday fazoda katta idishning ichiga kichik idishni sig'dirish mumkin bo'ladi. O'lcham darajasi ko'p bo'lgan sistema o'lchov darajasi kam bo'lgan sistemaga nisbatan ko'rinmas va murakkab bo'ladi. Shuningdek, fazo va vaqtning metrik xususiyatlari kuchli o'zgarishi topologik xususiyatlarining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Masalan, fazoning yegrilik darajasi kuchli o'zgarsa, bir boglangan fazo ko'p bog'langan fazoga aylanishi mumkin.

Ijtimoiy makon va ijtimoiy zamon tushunchalari jamiyatga nisbatan ishlatiladi. Jamiyatning joylashgan o'rni, ijtimoiy hodisalarning ko'lami singari xususiyatlarni ijtimoiy makon tushunchasi ifodalasa, ijtimoiy zamon ijtimoiy hodisalar, jarayonlarning ketma-ketligi, davomiyligini ifodalaydi. Ijtimoiy makon va ijtimoiy zamon (vaqt) jamiyat (ijtimoiy borliq)ning ajralmas xususiyatlari (atributlari) hisoblanadi. Ijtimoiy makon va ijtimoiy zamon falsafada kam o'rganilgan. Shuning uchun o'zbek faylasuflari ularni o'rganishga keyingi yillarda jiddiy e'tibor bermoqdalar.

IV. Tabiat va jamiyat haqidagi konkret fanlar borliqning o'z predmetlariga mos keluvchi muayyan xususiyatlarinigina o'rganadi. Borliqning umumiy xossalari haqida yesa falsafa fani tadqiqot olib boradi.

Bizning tevarak-atrofimizni xilma-xil ko'rinisdagi, shakldagi turli-tuman moddiy obyektlar o'rab olgan. Ular turli xil xossalarga va xususiyatlarga yegadir. Bir paytlar hamma jismlar materiyaning bo'linmas shakli atomlardan tashkil topgandir, degan tasavvur hukmron yedi. Atomlarning murakkab tuzilganligi haqidagi farazlar bizning asrimizga kelib uzil-kesil tasdiqlandi.

Hozirgi zamon fanlarining xulosalariga ko'ra, atrofimizdagi har qanday jism molekulalardan tashkil topgan, molekulalar yesa atomlardan tuzilgan. Atomlar murakkab tuzilgan yadro va yelektron qobiqlardan iborat. Atomning yelektron qavatlarini bir-biridan va atom yadrosidan muayyan uzoqlikda joylashgan bo'ladi. Yeng sodda atom hisoblanuvchi vodorod atomining yadrosi bitta protondan, murakkabroq atomlarning yadrosi yesa proton va neytronlardan tashkil topadi, proton va neytronlar kvarklar va ularni tutashtirib turuvchi glyuonlar (glyuon-yopishtiruvchi degan ma'noni beradi)dan tashkil topgandir.

Proton va neytron nuklonlar (lot. nucleus — yadro, uzak) hisoblanadi, nuklonlar va hiperon (yun. hiper ustida, yuqoridan tashqari) lar, barionlar (yun. barys -og'ir) deyiladi. Bular og'ir zarrachalar sifatida kuchli o'zaro ta'sirlar maydonida bo'lib, adronlar (yun. ardos-kuchli) gruppasiga mansub.

Organik va anorganik moddalar molekula tuzilishi bilan bir-biridan farq qiladi. Jonli organizmlar organik moddalardan tashkil topgan bo'ladi. Jonli organizmlarning tarkibi asosida hujayralar va hujayra sistemalari yotadi. Yer shari atrofini qurshab turuvchi biosferani bir butun jonli sistema deb olish mumkin. Mikroorganizmlar, o'simlik dunyosi, hayvonot dunyosi va insonning uzaro aloqadorliklari bu biosferaning mavjudligini ta'minlab turadi.

Yer shari va o'z atrofida harakatlanuvchi Oy bilan birga yilda bir marta Quyosh atrofini aylanib chiqadi. Bu sistema ham biosferaga o'z ta'sirini o'tkazadi. Yer yuzida mintaqalarning farq qilishi, fasllarning almashinuvi ana shu sistema harakati bilan bog'langandir. Quyosh va uning atrofida harakatlanuvchi sayyoralar, ularning yo'ldoshlari, asteroidlar, meteoritlar, kometalar va kichik planetalar birgalikda Quyosh sistemasini tashkil yetadi. Quyoshdan yeng uzoqda joylashgan planeta Pluton uning atrofini 247 yarim yilda bir marta to'liq aylanib chiqadi, ya'ni Yer yili — 365,25 kunga teng bo'lsa — Pluton yili 247 ta Yer yiliga tengdir.

Quyosh sistemasi millionlab yulduzlarni o'z ichiga oluvchi Galaktika (Somon yo'li) tarkibiga kiradi. Uning diametri 94,6 mln. yoruqlik yiliga teng. Undan keyingi sistema galaktikalar to'pi bo'lib, uning diametri 1 megaparsekka teng, u 30 tagacha galaktikani o'z ichiga oladi (1 parsek 3,26 yo. y). Keyingi sistema — galaktikalarning mahalliy to'pi, unga 2 ta gipergalaktika va 27 ta mitti galaktikalar kiradi. Majmuada 500

tagacha galaktika bo'ladi, uning diametri — 5 megaparsek. Galaktikalar majmuasi galaktikalarning o'ta majmuasiga birlashadi, uning diametri 40 megaparsek bo'lib, o'zida 10 mingdan ziyod galaktikani birlashtiradi. O'ta yirik maj-mualar koinotning boshqa strukturaviy birliklariga kiradi. Koinotning radiusi yesa 15—20 mlrd. yo.y. tengdir.

Bu sistemalarni falsafiy jihatdan umumlashtirib, borliqning moddiy ko'rinishlarini turli xil struktura darajalariga ajratish mumkin.

Sifatiy jihatdan materiya ikki xil shaklda, ko'rinishda uchraydi: moddasimon va nomodda ko'rinishida. Materiyaning moddasimon ko'rinishdagi shakllari ikkiga, modda va antimoddaga ajraladi. Bular bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ular to'qnashganda keskin sifatiy o'zgarish ro'y beradi, ya'ni moddaning moddaviy ko'rinishi nomoddaviy ko'rinishga aylanadi. Materiyaning nomoddaviy ko'rinishi ham ikki xil shaklda uchraydi: maydon va nurlanish. Muayyan maydondagi nurlanishlar fizik vakuumda (fizik vakuum fizik jismlardan holi bo'lgan joy) moddiy zarrachalarning hosil bo'lishiga imkon beradi. Xullas, bular ham bir-biri bilan chambarchas bog'langandir. Materiyaning biz yuqorida qayd yetgan ko'rinishlaridan boshqacha ko'rinishdagi turlari ham bo'lishi mumkin. Ularning tabiati hali fanga ma'lum yemas. Agar biz borliqning moddiy ko'rinishlarini tuzilishi jihatidan turkumlashtirsak, borliqning struktura darajalari haqidagi xulosa hosil bo'ladi.

Biz tevarak-atrofimizga nazar tashlasak, umuman borliqqa yemas, balki, muayyan jismlarga, narsa va hodisalarga ko'zimiz tushadi. Siz bilan biz inson sifatida Yer sharida istiqomat qilamiz, o'zimizga mos keluvchi o'lchovlar bilan ish yuritimiz. Biz odatlangan o'lchovdagi kattaliklarni makroskopik kattaliklar, deb hisob-laymiz va bu makrodunyoni tashkil qiladi.

Shu nuqtai nazardan borlikning struktura darajalarini miqyosiy-struktura va tashkiliy-struktura darajalariga ajratamiz. Borliqdagi obyektlar miqyosi bilan farq qiluvchi uchta miqyosiy struktura darajalariga ajraladi. Ular: mikrodunyo, makrodunyo va megadunyo. Mikrodunyo atom miqyosidan kichik bo'lgan dunyodir. Bu dunyoga atom strukturasi va yelemantar zarrachalar, atom yadrosi, kvarklar, kernlar kiradi. Bu dunyoning yaxlitligini va turg'unligini saqlab turuvchi ikkita fundamental kuch mavjuddir, ular kuchli va kuchsiz yadroviy o'zaro ta'sirlardir.

Kuchli o'zaro ta'sirlar atom yadrosining strukturaviy yaxlitligini saqlab tursa, kuchsiz o'zaro ta'sirlar atom strukturasi yaxlitligini ta'minlaydi. Molekulalar tuzilishidan tortib, Yer sharining yaxlitligini saqlashgacha xizmat qiluvchi kuch yeletromagnit o'zaro ta'sirlaridir.



Yelektromagnit o'zaro ta'sirlari tufayli molekulali birikmalar va Yerdagi barcha hayotiy jarayonlar o'zining strukturaviy birliklarini saqlaydi. Agar yelektromagnit o'zaro ta'sirlari bo'lmaganda yedi — Quyosh nurlari (ya'ni, yelektromagnit nurlanishlari) Yerga yetib kelmagan va Yerda hayotiy jarayonlar shakllanmagan bular yedi.

Yer, uning tabiiy yo'ldoshi Oy va boshqa sayyoralar Quyosh atrofida harakatlanadi. Bu sistemaning va umuman butun Koinotning strukturaviy yaxlitligi yesa gravitasiyey o'zaro ta'sirlari tufayli saqlanadi. Gravitasion o'zaro ta'sirlari biriktirib turgan dunyo megadunyo deb ataladi.

Ular bir-biri bilan chambarchas bog'langandir, shuningdek, ular bir-biriga almashinishi ham mumkin. Hozir megadunyo hisoblangan koinotimiz bundan 15-20 mlrd. yil muqaddam o'ta kichik mikroskopik obyekt bo'lgan, degan taxminlar bor. Shuningdek, biz mikroobyekt deb hisoblayotgan yelemantar zarracha neytron o'zining ichida milliardlab yulduz va galaktikalariga yega bo'lgan butun boshli Koinot bo'lishi va aksincha, diametri bir necha milliard yorug'lik yiliga teng bo'lgan ulkan Koinotimiz ham chetdan kuzatayotgan kishiga o'ta kichik yelemantar zarracha hisoblanishi ham mumkin. Borliqning strukturaviy tuzilishini uning sifatiiy rivojlanishi nuqtai nazaridan olib karasak, moddiy olam bu holda ham uchta darajaga ajraladi. Uning tashkiliy struktura darajalarini: anorganik dunyo (notirik tabiat), organik dunyo (tirik tabiat) va ijtimoiy dunyo (jamiyat)ga ajratiladi. Ular bir-biridan xilma-xilligi, uyushganligi, nisbiy mustaqilligi va faolligi bilan farq qiladi.

Anorganik dunyo yoki notirik tabiatda fizikaviy va ximiyaviy aloqadorliklar hukmronlik qiladi, shu tufayli notirik tabiatdagi qonuniyatlar shu tabiat fanlari doirasida cheklangan bo'lib, tirik dunyoga nisbatan passiv va tashkiliy uyushganligi past darajada bo'ladi.

Tirik tabiatda, ya'ni organik dunyoda yesa biologik aloqadorliklar ham qatnashganligi sababli uning uyushganlik darajasi yuqoriroq, faolroq va murakkabroq tuzilgan bo'ladi.

Ijtimoiy dunyo darajasida yesa yuqorida aytilgan aloqadorliklardan tashqari, jamiyatga xos bo'lgan ijtimoiy aloqadorliklar ham ishtirok yetadi. Bunday dunyoning tuzilishi nihoyatda murakkab bo'lib, borliq bu darajada o'zining o'ta uyushganligini, nisbiy mustaqilligini va yuqori darajada faolligini namoyish qiladi. Bu dunyoning strukturaviy yelemanti bo'lgan har bir inson jamiyatga xos bo'lgan barcha aloqadorliklarni o'zida aks yettiradi va ijtimoiy munosabatlarda, aloqadorliklarda ongli ravishda, maqsadga binoan, muayyan mo'ljalarni oldindan belgilagan holda harakat qiladi.

Bu boroda oddiy bir misol keltiraylik. Masalan, qo'lingizdagi kitobni ham har xil, bir-biriga o'xshamaydigan, ammo bir kasbdagi mutaxassislar yozishgan. Agar siz, masalaga ijtimoiy dunyoning tuzilishi nuqtai nazaridan baho bermoqchi bo'lsangiz, unda mazkur kitobning qaysi qismi qanday yozilgani, kimning qanday fikrlashi, mavzuni sodda va xalqchil tushuntira olishi yoki murakkab tilda bayon qilishiga ye'tibor bering. Shunda masala bir oz oydinlashadi. Xuddi shunday holni sizga turli fanlardan dars berayotgan o'qituvchilar misolida ham kuzatishingiz mumkin. Keyin yesa, o'zingiz va o'rtoqlaringizning darslarga, kitoblarga, ularni o'zlashtirib, o'qib va o'qib olishga, hayotga munosabatingizga vijdonan baho bera olsangiz, bu boradagi murakkab jarayonlarni muayyan darajada to'g'ri anglab olishingiz mumkin. Holbuki, bu — bor-yo'g'i siz, o'qituvchilaringiz va mazkur kitobni yozgan kishilar hayotining kichik bir qismidagi jarayonlar, xolos. hayot yesa nihoyatda murakkab, unda bir vaqtning o'zida, birvarakayiga qanchadan-qancha voqyea va hodisalar kechadi. Masalan, siz hozir ana shu satrlarni o'qiyapsiz, jismingiz va hayolingizda, atrofingizda, siz bilan birga yashayotgan, siz biladigan va bilmaydigan odamlar jismi, ongi va qalbida ne-ne o'zgarishlar, jarayonlar kechmoqda... Demak, tabiat doimiy o'zgarishda va harakatda, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishda, rivojlanishda va taraqqiyotda. Siz va bizning umrimiz yesa ana shu cheksizlikning bir lahzasi, jismimiz va jonimiz ham azaliy va abadiy o'zgarishlar jarayonidagi olamning mu'jizasidir. Bu olamda aynan siz va bizning dunyoga kelganimiz ham ana shunday mu'jizadir. Biz yesa mana shu yorug' olamda o'tganlarning kelajakdagi avlodlar bilan bog'lanishida bir halqamiz, xolos va aynan ana shunday bo'lganligi uchun ham tabiat, jamiyat, rivojlanish va taraqqiyot qarshisida doimiy qarzdormiz. Bu qarzdorlik dunyoga bizgacha kelganlar va ketganlar, keladiganlar va kelmaydiganlar, kela olganlar va kela olmaganlar ro'hi qarshisidagi chuqur mas'uliyat hissidir.

Inson tomonidan nom quyilgan dunyolar hyech qachon bir-biridan ajralib, alohida holda mavjud bo'lmagan. Ular ham bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda bo'ladi va ularning biri ikkinchisidan kelib chiqadi. Odatda, kamroq aloqadorliklarga yega bo'lgan sistema unga nisbatan ko'proq aloqadorliklarga yega bo'lgan sistemaga qaraganda

murakkabroq va tashkiliy jihatdan uyushganroq bo'ladi. Bu yerda ham ana shu qoida amal qiladi.

Anorganik dunyoda in'ikosning yeng sodda va kuyi shakli — mexanik in'ikos faoliyat ko'rsasa, organik dunyoda unga nisbatan murakkabroq ko'rinishdagi biologik in'ikos namoyon bo'ladi. Bunday in'ikosning o'ziga xos bo'lgan tomoni tanlovchanlik, seskanuvchanlik va maqsadga muvofiq harakat qilishdir, jamiyatda yesa, in'ikosning yeng oliy shakli sosial in'ikos faoliyat ko'rsatadi. Bu in'ikos o'zida in'ikosning boshqa shakllarini ham qamrab olgan bo'ladi. Ongli va yuqori doirada uyushgan faol in'ikos, aloqadorlik, xatti-harakatlar ijtimoiy dunyoga xosdir.

Borliq shakliy struktura darajalarining balki biz hali bilmaydigan yanada murakkabroq turlari ham bordir, lekin ular hali bizning tushunchalarimiz doirasiga sig'maydi. Xullas, borlikning tashkiliy struktura darajalari bir-biridan aloqadorliklarining soni va sifati jihatidan, yenergiya va informasiya almashish xususiyati bilan, faolligi va uyushganligi darajasi bilan farq qiladi.

Borlikning yeng murakkab shakllaridan biri hayot va uning mohiyati haqida to'xtalaylik. Biz hayot yekanmiz, olamni bilamiz. Hayotning xilma-xil turlari, shakllari bor, ular borliqning moddii shaklini harakatga keltirishda, boshqarishda asosiy o'rin tutadi. Hayotning yeng murakkab shakli inson hayotidir. Bu inson ro'hiyati, ongi, tafakkuri bilan chambarchas bog'langan. Har bir odamga bir marotabagina hayot kechirish imkoniyati berilgan. Insonning qadr-qimmati shu hayotni qanday o'tkazganligi bilan o'lchanadi.

Odamning tabiati va hayoti u yashayotgan jamiyatdagi ijtimoiy muhitga ham bog'liq. Farovon jamiyatda insonlar ham farovon hayot kechirishadi. Qashshoq jamiyatda yesa qashshoqlik tomir otadi. Demak, jamiyatimizni qanchalik farovon qilsak, unda yashaydigan insonlarning, kelgusi avlodlarimizning hayoti ham shunchalik baxtli va farovon bo'ladi.

Hayotning vujudga kelishi va mohiyati haqida hanuzgacha olimlar bir nuqtai nazarga kelishmagan. Har bir insonning hayoti takrorlanmas va o'ziga xosdir. Balki stanokning bir detali o'rniga boshqa detalni qo'yish bilan natija o'zgarmas yoki bir ishchining o'rniga boshqa ishchini qo'yish bilan stanok to'xtab qolmas. Ammo bir ota-ning o'rnini boshqa ota, bir do'stning o'rnini boshqa do'st bosa olarmikin? Shunday yekan, har bir odam takrorlanmas va o'z o'rnida qadrli. Insonni, uning hayotini qadrlash muhim ijtimoiy vazifadir.

Insonning yaxshi hayot kechirishi, bir tomondan, u yashayotgan jamiyatga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, tabiiy muhitga bog'liq. Butun tarixiy taraqqiyot davomida inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabat takomillashib borgan. Inson tabiiy muhisiz, suv, havo, quyosh va tuproqsiz yashay olmaydi. Bu unsurlar uning tirikchiligi-ni ta'minlaydi. Bunday qulay sharoit inson uchun faqat Yer sharida mavjuddir.

Yerning hayot tarqalgan qismi biosfera deb ataladi. Biosfera tirik organizmlarning hayot kechirish muhitidir. Agar Yer shari Quyoshga yaqinroq joylashganida, yer yuzasidagi harorat ko'tarilib ketgan bo'lar yedi va oqibatda yerdagi namlik suv yo'qolar yedi. Agar u Quyoshdan uzoqda joylashganida, yer yuzasidagi harorat pasayib, hamma joy mangu muzlik bilan qoplanar yedi. Xullas, har ikkala holatda ham yer yuzasida hayotning paydo bo'lishiga imkoniyat yo'qolgan bo'lardi. Yana boshqa holni olaylik: Quyosh sistemasi Galaktika markaziga yanada yaqinroq joylashganda yedi, yer yuzasida

kuchli gravitasiya ta'sirida narsalarning vazni og'irlashib, insondek murakkab jonzodning, balki umuman hayotning paydo bo'lishiga sharoit bo'lmagan bular yedi. Aksincha, Quyosh sistemasi Galaktikamiz markazidan hozirgiga nisbatan chetda joylashganda ham, gravitasiya kuchining zaifligi ayrim ximiyaviy va biologik jarayonlarning ro'y berishiga halaqit bergan bo'lar yedi. Buning oqibatida yer yuzasida hayot paydo bo'lmas yedi. Demak, inson o'zi uchun yeng qulay bo'lgan joyda yashaydi va bunga shukur qilsa arziydi.

Insonning tabiiy muhitga ta'siri qadimgi davrlarda o'ta kuchsiz bo'lgan. Davrlar o'tishi bilan inson qo'lida qudratli kuch va quvvat manbalari to'plangach, uning tabiatga ta'siri sezilarli darajada o'zgarib boshladi. Inson atrof-muhitni ifloslantirib, biosferadagi tabiiy muvozanatni izdan chiqara boshladi.

Bu masalaning yechilishi insonning aql-idrok kuchi bilan bog'langandir. Inson aql-idrokining olamga ta'sir ko'rsatish chegarasi noosfera deb ataladi. Inson o'zligini anglamas yekan, uning sayyoramizga halokatli ta'siri kuchaygandan kuchayib, oxir-oqibatda uning o'zini ham halokatga olib borishi mumkin, degan ilmiy bashoratlar bor. Haqiqatan ham inson faoliyati aql-idrok bilan oqilona boshqarilmas yekan, u yer yuzining halokatini tezlashtirishi muqarrardir.

Hozirgi zamondagi yekologik muammolardan biri ham inson faoliyati tomonidan atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va bu halokatni to'xtatib qolishdan iborat. Bu olamni qay darajada yaxshi bilib olishimiz va uning hayotiga nisbatan mas'uliyatni anglashimizga bog'liqdir. Inson jamiyatda va tabiatda tutgan o'z o'rnini to'g'ri anglasa, atrof-muhitni ham avaylab-asraydi, yer yuzini gullatib-yashnatadi.

## **6-mavzu: Falsafada metod va metodologiya muammosi, falsafiy qonunlar va kategoriyalar**

### **Reja:**

1. Metod va metodologiya tushunchalari. O'zgarish, o'zaro aloqadorlik, harakat, taraqqiyot tushunchalarining nisbati.
2. Qonun va qonuniyat.
3. Mavjudlik, o'zgarish vai o'zaro bog'liqlikning asosiy shakllari. Falsafiy kategoriyalar. Alohidalik, xususiylik umumiylik. Struktura va element . O'zbekiston taraqqiyotida butun va qism.

4. Mohiyat va hodisa, mazmun va shakl, sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqyealik O'zbekiston taraqqayotida ushbu kategoriyalarning namoyon bo'lishi.

**Tayanch iboralar:** O'zgarish. O'zaro aloqadorlik. Harakat. Ijtimoiy harakat. Taraqqiyot. Dialektika. Metafizika. Sinergetika. Determinizm. Qonun. Qonuniyat. Ayniyat, tavofut. Qarama-qarshilik, miqdor. Sifat. Me'yor. Inkor. Inkorni-inkor. Falsafiy kategoriya. Bugun va bo'lak. Alohidalik, xususiylik, umumiylik. Struktura va element. Mohiyat. Hodisa. Mazmun. Shakl. Sabab. Oqibat. Zaruriyat. Tasodif. Imkoniyat. Voqyelik.

### **ADABIYO TLAR:**

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., 1997, 3-85, 137-157-betlar.
2. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. "Fidokor" gazetasi, 2000, 8-iyun.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI-asrga intilmoqda. T. 1999.
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.,2000.
5. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. T., 2002.
6. Karimov I.A. Bizning maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. T., 2005.
7. Raximov I. Falsafa. 1998. 95-103 - betlar.
8. Falsafa. T.,1999. 188-198-betlar.
9. Falsafa. T., 2000. 169-194-betlar.
10. Falsafa asoslari. T., 2005, 145-201 betlar.
11. Falsafa. Qomusiy lug'at. T., 2004.
12. Falsafa. Qisqacha izohli lug'at. T., 2004.

13. Shermuhamedov N. Falsafa va fan metodologiyasi. T., 2005.

14. Falsafa. Maftua Axmedova umumiy tahriri ostida. T., O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. 261-278 betlar.

Biz o'tgan 5-mavzuda olam, borliq, uning tuzilishi, shakllari atributiv xususiyatlari haqida fikr yuritgan edik. Falsafaning ushbu masalalari bilan shug'ullanadigan sohasi antologiya deb atalishi haqida to'xtalgan edik.

Falsafa borliqni bilishning sohasi gnoseologiya (yunoncha gnosis bilish, logos-ta'limot) deb ataladi. Bizning bugungi mavzumizning maqsadini ana shu masala, ya'ni bilish masalasi tashkil etadi. Falsafa borliqni o'z-o'zicha o'rganib qolmaydi, balki uning o'zgarishi, taraqqiyotining umumiy qonunyatlarini bilib olish yo'nalishida o'rganadi. Va bunda muayyan metodlar va metodologiyaga tayanadi.

Falsafada bilish masalasini qanday talqin qilishlariga ko'ra va bunda qanday metod va metodologiya tamoyillariga tayanganliklariga ko'ra faylasufalar turli oqim, yo'nalishlarga ajraladi.

Shu bois «metod» va «metodologiya» tushunchalari mazmuni xususida to'xtalamiz.

Metod (yunon. methods - usul) keng ma'noda ijodiy faoliyatning har qanday shakli ma'nosini ifodalaydi. Metod bilimdagi u yoki bu shaklda qoida, tartib, usul yig'indisidir.

Metodologiya tushunchasi ikki mazmunga ega:

1. Ijodiy faoliyatda qo'llaniladigan ma'lum usullar tizimi (fanda, siyosatda, san'atda va x).

2. Metodlar yig'indisi va faoliyat turi haqida ta'limotdir yoki metod haqidagi nazariya.

Fan metodologiyasi uning strukturasi, taraqqiyoti, ilmiy tadqiqot vositalari va usullari, uning natijalarini asoslash yo'llari, bilimni tajribaga tadbiiq qilish mexanizmi va shakllarini o'rganadi.

Falsafada metod, metodologiya masalasi insonning borliqni va o'z borlig'ini bilish masalasi hisoblanadi. shunga ko'ra mazkur masala falsafa tarixida bahs

mavzui bo'lib kelgan holda, u doimo faylasuflarning diqqat e'tiborida bo'lgan. Va bugungi kunda ham ushbu masala hozirgi zamon falsafiy yo'nalishlarida metodologiya bilishning muhim omili, vositasi bo'lib hisoblanadi. Masalan, falsafiy, xususan ijtimoiy metodologiya hozirgi zamon hermenevtikasida muammolar yechimini tahlil qilishda keng qo'llanilmoqda.

Har qanday metodlar muayyan ilmiy nazariyalar negizida yaratiladi va bilish quroli vazifasini bajaradi. Va mazkur bilishning natijasi o'z navbatida metodlar uchun xizmat qiluvchi nazariyalarning boyishi mukammallashishiga xizmat qiladi. Shu manoda har qanday metod real hayotiy bilish jarayonida shakllanadi. Metod haqiqiyliги tadqiqot predmeti (obyektning) va bilish subyektі mazmuni bilan bog'liq.

Shu bois metodning bilish usuli ekanligi nazariya , predmet(obyekt) va subyekt tushunchalarining mazmuni orqali anglashiladi. Darxaqiqat, metod subyekt va obyektning dialektik birligida amal qiladi, mukammallashib, rivojlanib boradi.

Metodlar turli asoslar-mezonlar bo'yicha tasniflanadi. Qaysi sohada qo'llanishiga ko'ra moddiy, ma'naviy, g'oyaviy turlarga , uslubiyatga ko'ra ilmiy-nazariy va amaliy faoliyat turlariga ajratiladi.

Metod metodikada konkretlashadi. Metodika doimiy materiallarni yig'ish va saralash vositasi, aniq faoliyat turidir.

Metodlar umumiylik darajasi va amal qilish doirasiga ko'ra bir necha guruhlariga bulinadi: eng umumiy metodlar, umumiy va xususiy metodlar. Eng umumiy metodlar falsafiy metodlardir, u barcha bilim sohalari, faoliyat uchun metodologiya bo'lib xizmat qiladi.

Falsafiy metodlar: dialektika, metafizika, sinergetika, sofistika.

Dialektika (yunon dialektika-bahs.) tabiat , jamiyat va bilish taraqqiyoti qonuniyatlari hamda ularning asosida shakllanadigan umumiy tafakkur uslubi va amaliy faoliyat haqidagi ta'limotdir.

Abadiy va azaliy uzluksiz, o'zoro aloqadorlik, vaqtning ortga qaytmasligi, rivojlanish va taraqqiyot, olamining birligi dealektikaning asosiy tamoyillaridir.

Falsafada ana shu tamoyillarga asoslangan tafakkurni- dialektik tafakkur, dunyoqarashni- dialektik dunyoqarash, metodni-dialektik metod deb yuritiladi.

Qadimgi davrda Geraklit ( eramizdan avvalgi 540-483) dialektikani bilish metodi sifatida talqin qilgan bo'lib, bu qarash keyinchalik Gegel tomonidan yanada chuqurroq tahlil qilinadi. U dialektikani falsafiy metod, ta'limot darajasida ishlab chiqadi.

Metafizika ( yunon meta Physic fizikadan keyin) dialektika kabi universal metoddir. Hozirgi zamon fanida metafizika uch asosiy ma'noni anglatadi. Bular:

1. Umumiy hodisalar haqidagi falsafiy fandır. Uning asosi Arastudir.
2. Umuman borliq haqidagi ta'limot bo'lib, nazariya bilish mantig'i va uning xususiy ko'rinishlaridan mustasnodir.
3. U bilish ( tafakkur) va harakatni falsafiy tushunish ma'nosida dialektikaga qarama-qarshi qo'yiladi. Uning eng asosiy xususiyatlaridan biri bir tomonlamalik bilish jarayonining faqat nisbiy xaqiqat darajasini mutlaqlashtirishdir. U turli tarixiy shakllarda, turli davrlarda o'zgarib borgan: metafizik matrializm, natur falsafa va x.

**«Sinergetika» (yunon. sinergeia «sinergeni») so'zi kelishuv, hamkorlik, o'zaro ta'sir degan ma'nolarni anglatadi. Sinergetika XX asrning 70- yillarida Ovro'pada yuzaga kelgan ilmiy- tadqiqot yo'nalishi bo'lib, unga ko'ra har qanday jarayonlar (fizik, ximik, biologik, ijtimoiy) tizimida o'z-o'zini tashkillashtirish tamoyili asosida yuz beradi. Bunda dialektik tamoyillarga qat'iy bo'ysunmaydigan makrasnotik tizimlarda yuzaga keladi.**

Sinergetikada taraqqiyotning evolyusion tamoyili asos qilib olinadi. Bunda evolyusiya borliqning umumiy qonuni sifatida, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning i fodasi deb qaraladi. Sinergetika taraqqiyot jarayonida beqaror holat bilan barqaror holat o'rtasidagi barqarorlikka aloxida e'tibor beradi. Belgiyalik fizik I. Prigojin «Barqarorlik falsafasi» asarida beqarorlikni borliqning muhim jihati sifatida talqin qiladi. Har qanday eski sistema yangisi bilan almashar ekan, avvalo beqarorlik, taribsiz yuz beradi. Bunday holatning ro'y berishida oddiy tasodif ham muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Agar dialektika ko'proq «chiziqlilik» (zaruriyatga asoslangan) tafakkurga asoslangan bo'lsa, sinergiteka chiziqsizlik (tasodifiylik) tamoyiliga tayanadi. Ushbu tamoyil harakat, taraqqiyot oldindan belgilab quyilgan yo'ldan ketmay, har bir narsaning ichki o'zgarishi barcha obyektlar mavjudligining eng umumiy xususiyati, u har qanday harakat, o'zaroloqadorlik, o'zaro ta'sirini va umumiy holatdan ikkinchisiga o'tishni ifodalaydi.

Yuqorida aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, barcha falsafiy metodlar borliqning o'zgarishi, o'zaro aloqadorligi, bog'liqligi, harakati, taraqqiyoti haqidagi bilish usullari bo'lib, ularning mohiyatini tushintirish, tadqiq qilishda



turlicha o'ziga xos tamoyillarga tayanadi. Va, aytish mumkinki, ular bir -birini to'ldiradi. Va borliqning qayd etilgan xususiyatlarini falsafiy metodlar xususan, dialektika, sinergitika metodlari tamoyillarining birligisiz chuqur anglab yetish mumkin emas. Va, falsafa ana shu metodlarga tayangan holda ilmiy bilishda metodologik ahamiyatga ega bo'ladi.

Borliq – bu megamiqyosdagi yaxlit tizim-sistema bo'lib uning tarkibiga kiruvchi barcha mikro va makro miqyosdagi kichik sistema-tarkibiy qismlar, o'zaro bog'liqlikda, o'zaro aloqadorlikdadirki, bu ularning doimiy harakatda, o'zgarishda taraqqiyotda bo'lishligini belgilaydi.

O'zgarish – barcha obyektlar mavjudligini umumiy xususiyati, u har qanday harakat, o'zaro ta'sirni va bir holatdan ikkinchisiga o'tishni ifodalaydi. Masalan, insoniyat tarixini olib qaraydigan bo'lsak, kishilik jamiyat doimo o'zgarishda (bir bosqich-sivilizasiyadan, yuqorisiga o'tish) bo'lganki, bu jarayon jamiyatdagi ijtimoiy kuchlarning bir –biriga ta'sir ko'rsatish asosida kechadi. Va tabiatdagi jarayonlarni ham shu nuqtai nazardan ko'zdan kechiradigan bo'lsak, ana shu holni kuzatishimiz mumkin.

Har qanday o'zgarish harakatdir, lekin har qanday harakat o'zgarish emas. Masalan, oddiy mexanik harakat narsa, xodisalarning fazodagi o'rin almashishidir. O'zgarishning sababi o'z o'zgarishlari emas. O'zgarish borliqdagi narsa – xodisalarning o'zgarishi o'zaro aloqadorligi va ularning o'zaro ta'sirida kechadi. O'zaro aloqadorlik olam mavjudligining eng muxim qonuniyati va bu qonuniyat narsa, xodisalarning universal o'zaro ta'siri orqali amal qiladi. O'zaro aloqadorlik bunday o'zaro ta'sirning barcha narsa, xodisalarning ichki strukturaviy birligi, ya'ni muayyan sistema (tizim) sifatida mavjudligi va ularning o'zaro munasabatlarini ifodalaydi.

Har qanday o'zgarishlar o'zaro aloqadorliklar asosida yuz beradi. O'zaro aloqadorlik-borliq, olam mavjudligining eng umumiy qonuniyati bo'lib, bu qonuniyat barcha narsa, xodisalarning universal o'zaro ta'sirining natijasi va yuz berishidan iborat. U har bir yaxlit tizimdagi barcha narsalar va xodisalarning universal o'zaro ta'sirining barcha elementlar va hodisalarning ichki strukturaviy birligini, shuningdek, o'sha tizimning qurshab turgan boshqa tizimlar yoki xodisalar bilan benixoya xilma-xil aloqa va munosabatlarini ifodaoaydi. Narsa, xodisalarning, universal o'zaro aloqadorligi mikro va makro miqyosdagi obyektlar tarzida mavjudligining sababidir. Masalan, atomning mavjudligi uning tarkibidagi yadro, elementar zarrachalarning o'zaro aloqadorligi, ta'siri bilan shartlangandir. Yoki bizning Quyosh sistemamiz uning tarkibiga kiruvchi planetalarning o'zaro aloqadorligi, o'zaro ta'siri natijasidir o'laroq mavjuddir. O'zaro aloqadorlik

qonuniyati insoniyat jamiyati soxasida, uning taraqqiyotida o'ziga xos tarzda amal qiladi. Unda sivilizasiyaning rivojlanishi bilan kishilar , butun – butun davlatlar o'rtasidagi aloqalar murakkablashadi va siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy va boshqa munosabatlar tobora xilma-xil bo'lib boradi.

Narsa, hodisalarning o'zaro aloqadorligiga konkeret sistema, obyektlar va ularning o'zaro xos xususiyatlarining mavjudligi sabab bo'ladi. Shu bois o'zaro aloqadorlik xilma-xil tur , ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bular konkret borliq tiplari hodisalari o'rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, borliqning umumiy xossalari bilan taraqqiyot yo'nalishlari o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra har qanday qonunlar o'zaro aloqadorlikning konkret ifodasidir. O'zaro aloqadagi xodisalarning yagona, universal qonuniyati olamiy harakat jarayonidir.

O'zaro aloqadorlik, eng umumiy sabab va oqibat bog'lanishda bo'ladiki, bu mohiyatan o'zaro ta'sir natijasidir. O'zaro aloqadorlik tushunchasi bilishda metadologik ahamiyatga ega.

O'zaro aloqadorlik borliqdagi barcha narsa, hodisalar o'rtasidagi sababiy bog'lanishlarini tadqiq qilish, ularning eng muhimlarini o'zaro ta'sir jarayonidan ajratib ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha fanlar ilmiy bilish tizimlari sifatida o'zaro aloqadorlik tamoyiliga tayanadilar. Fanlarning strukturasi va turkumlanishining o'zi o'zaro aloqadorlikning in'ikosidir.

Bugungi kunda fanlar integrasiyasi eng samarali bilish usuli vazifasini o'tamoqdaki , bu eng avvalo o'zaro aloqadorlik tamoyilining ilmiy bilishga tadbiq qilinishining natijasi xisoblanadi. Masalan bioximiya, astrofizika , sosiobiologiya va boshqa fan yo'nalishlari shular jumlasiga kiradi.

O'zaro aloqadorlik o'zaro ta'sirni keltirib chiqaradi va ayni paytda keyingisi o'zaro aloqadorlikning sabab va oqibat bog'lanishi tarzida amal qilinishini belgilaydi.

Masalan, Yerdagi hayotning mavjudligi (oqibat) ning sababi uning quyosh tizimidagi boshqa planetalar bilan o'zaro ta'siridir.

Harakat falsafada borliqning eng muhim umumiy atributiv xususiyati bo'lib, uni qisqacha o'zgarish deb ta'riflash mumkin. Mazkur tushuncha alohida – alohida mavzuda o'rganiladi, iga ko'ra hozircha shu bilan chegaraniladi.

O'zaro ta'sir falsafiy ma'noda harakat, o'zgarishning universal shaklidir. Faqat o'zaro ta'sir orqali narsalar sifat o'zgarishiga uchraydi, bir xolatdan boshqa xolatga o'tadi, rivojlanadi.

O'zaro ta'sir – narsa, hodisalarning bir-biriga ta'sir ko'rsatish va ularda ichki o'zgarishlarni yuzaga keltirish jarayoni bo'lib, harakat taraqqiyotning sababidir. Shu ma'noda har bir oqibat hodisa o'zaro ta'sirning yakunidir. Masalan, yerning o'z o'qi atrofida aylanishi, uning boshqa planetalar bilan o'zaro tortishishi va itarilishi yo'nalishidagi o'zaro ta'sirning oqibatidir. Har qanday yaxlit tizimda o'zaro ta'sir shunday bir sabab bilan o'rin almashib turadi va sabab –oqibat bolanishlari zanjirini hosil qiladi. Masalan, Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi fasllarning almashinishi keyingisi esa o'z navbatida boshqa xodisalar uchun sabab bo'lib xizmat qiladi.

Qonun va qonuniyat tushunchalari. Falsafiy qonun xususiyati. Narsa xodisalarning o'zaro aloqadorligi, o'zaro ta'siri umumiy yaxlitlikni, ya'ni tizimni ta'minlovchi ularning bog'lanishi jarayonida kechadi. ana shu jarayonda narsa, hodisalar ning o'zaro aloqadorligi, o'zaro ta'siri ularning o'zgarishi, taraqqiyotini keltirib chiqaradi.

Bog'lanishlar xususiyatiga ko'ra zaruriy, tasodifiy, ichki va tashqi, bevosita va bilvosita, muhim va nomuxim turlarga ajraladi.

Olamning yaxlit tizim tarzida mavjudligi narsa va hodisalarning ana shunday turli xildagi o'zaro bog'lanishda kechadigan o'zgarishi tarzida boradi. Ya'ni, olamning mavjudligi o'zgarishlarning abadiy takrorlanib turishidan iboratdir.

Bunday bog'lanishdagi takrorlanib turuvchi o'zgarishlar qonun va qonuniyat tarzida namoyon bo'ladi. Masalan, tun va kunning almashinishi va boshqalar.

Qonun bu narsa va hodisalarning zaruriy va muxim, umumiy va takrorlanib turuvchi bog'lanishdir.

Qonunni bilish narsa va hodisalarning mohiyatini, ularning sababini bilib olishdir.

Masalan, kishi yuridik qonunlarni qanchalik yaxshi bilsa, o'z faoliyatini unga moslab olib boradi, yoki tabiat qonunlarini bilgandan so'ngina unga ta'sir ko'rsatadi, o'z manfaati uchun xizmat qildiradi.

Borliqdagi barcha narsa, hodisalar o'ziga xos qonun, qonuniyatlariga ega, ular muayyan fanlar sohasida o'rganiladi. Falsafa borliqdagi narsa va hodisalarning o'zgarishi, rivojlanishining eng muxim qonunlarini o'rganadi. Shunga ko'ra falsafiy qonunlar universal qonunlar hisoblanadi. Mazkur qonunlarda barcha narsa, hodisalar uchun xos bo'lgan eng muhim zaruriy, nisbatan barqaror, doimiy takrorlanib turuvchi, ichki o'zaro bog'lanishlari ifodalanadi.

Kishi qonunlarni bilishni, ularga amal qilish doirasida erkindir. Erkinlik anglab, bilib olingan zaruriyat, ya'ni zaruriylikni bilib olish va unga amal qilishdan iborat faoliyatdir. Va kishi zaruriyatga bo'lgan munosabatida u erkin faoliyat ko'rsata boshlaydi.

Qonunlar amal qilish faoliyatiga ko'ra 3 xil bo'ladi:

1. Xususiy qonunlar.
2. Umumiy qonunlar.
3. Eng umumiy qonunlar.

Xususiy qonunlar narsa, hodisalarning o'rtasidagi nisbatan tor doiradagi aloqadorlikni funksional tarzda ifodalaydi. Masalan, Arximed qonuniqa suyuqlik va bosim orasidagi zaruriy bog'lanish ifodalaydi. Umumiy qonunlar narsa hodisa, tizimiga xos umumiy xossalari o'rtasidagi bog'lanishlarni ifodalaydi. Masalan, barcha jismlarning issiqligidagi kengayishi.

Eng muxim qonun tabiat, jamiyat tafakkurining o'zaro bog'lanishini, ular rivojining eng umumiy aloqadorliklarining tomonlarini ifodalaydi. Bular falsafiy qonunlar bo'lib, ayniyat va ziddiyat, qarama – qarshiliklar birligi, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi va o'z-o'zini etish qonunlari tarzida amal qiladi. Olamdagi har bir narsa va hodisa biri ikkinchisini taqazo etuvchi qarama-qarshi tomon, qutblarga egaki, ular doimo ayni bir paytda bir-birini istisno etadi. Bu o'zgarish taraqqiyotning sababi bo'lib xizmat qiladi.

Borliqdagi barcha narsa, hodisalar ayniyat, tafovut, qarama-qarshiliklar birligida mavjuddir.

Ayniyat – narsa va hodisa o'rtasidagi o'xshashlik. Tafovut – farq qiluvchi va ularning o'zgarish tomonlari. Ayni paytda ular bir-biridan farq qiladigan tomonlar, xususiyatlarga ham ega bo'ladi. Aniqroq qilib aytganda, narsa, hodisalar bir biriga o'xshash, umumiy belgi, xususiyatlarga ega bo'lish bilan bir-biridan farqlanadi, ya'ni tafovutlidir. Masalan, yog'ayotgan qor uchqunlari bir-

biriga o'xshash bo'lishligi bilan birga ularning hyech biri aynan bir xil holatga ega emas. Demak, har bir narsa, xodisa ayniyat va tafovut birligida mavjuddir. Qarama-qarshilik- deb bir-birini taqazo va ayni paytda istisno etuvchi tomonlar, kuchlarning munosabatiga aytiladi. Qarama-qarshi tomonlar o'rtasidagi munosabat ziddiyat. Taraqqiyot- ayniyat, tafovut va ziddiyatlarning paydo bo'lishi va xal qilinishidan iborat badiiy kechadigan jarayondir. Ziddiyatlarning xal qilinishi o'zgarish, bir sifatdan ikkinchisiga o'tishining sababidir.

Qarama-qarshiliklar birligi qonunga muvofiq taraqqiyotning asosi ziddiyatlardir. Lekin ziddiyatlar hamma vaqt ham to'qnashish bilan tugamaydi, balki alohida sharoitdagina shunday hol ro'y beradi. Chunki turli xil obyekt sistemalarda qarama-qarshiliklar birligi o'ziga xos tarzda mavjud bo'lib, ular o'rtasida ziddiyat tarixiy, evilyusion jarayon tarzida kechadi. Xususan, jamiyat sohasida.

Hozirgi zamon tabiatshunosligi «har qanday mavjud evolyusiya (yun. avj oldirish) natijasidir», degan g'oyaga asoslanadi. Hozirgi zamon fanlararo tadqiqotlari dunyoning manzarasi evolyusiyaning umumiy haritasiga ega ekanligini isbotlamoqda.

Evolyusiyaning muqobili bo'lgan inqilob (revolyusiya) jamiyat soxasida moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yo'q qiladigan, vayrongarchilikka asoslanadi. Buni insoniyat tarixida ko'rish mumkin.

Ijtimoiy inqilob –bu mavjud siyosiy tizimni kuch, zo'rlik bilan o'zgartirishdir. Jamiyatdagi qarama-qarshiliklar (ziddiyatlar)inqirozlar islohatlar orqali xal etishni talab etadi.

Evolyusion (tarixiy) taraqqiyot hozirgi davrda texnologik o'zgarishlar va boshqa tadbir, vositalar orqali jamiyatning barcha soxalarini isloh qilish orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, u taraqqiyotning shu yo'lini tanladi. Islom Karimov o'z asarlarida dialektikaning ana shu umumiy tamoyilini rivojlantirgan holda, jamiyatimiz taraqqiyotini o'zbek modelini ishlab chiqdi. Miqdoriy o'zgarishlarning sifat o'zgarishi o'tish qonunining mohiyati shundan iboratki, narsa, hodisalarda miqdoriy o'zgarishlari asta sekinlik bilan to'plana borib, nihoyat ma'lum bir bosqichda o'zgarish me'yori buziladi va sakrash yo'li bilan tub sifat o'zgarishiga olib keladi. Masalan, suvni 100e isitilsa, buqqa aylanadi va x.k.

Bugungi o'tish davrida ro'y berayotgan jarayonlarning mohiyatini anglab olishda, strategik maqsadimiz – erkin, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni qaror toptirish yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. I.A.Karimov: o'zining « Yangisini qurmasdan eskisini buzmay». degan asarida ana shu

miqdor o'zgarishlarini sifat o'zgarishlari qonuniyatiga asoslangan holda jamiyatimizning o'tish davri haqidagi fikrlarini ilgari suradi.

Har bir narsa o'z sifati miqdoriga ega tarzda mavjud.

Sifat - narsa, hodisaning muayan tarzdagi makon va zamondagi mavjudligi bo'lib, bu ularning bir qator xossa, belgi, xususiyatlari birligi bilan belgilanadi. Sifatlarning o'zgarishi bilan xossa o'zgaradi; lekin xossa o'zgarishi sifat o'zgarishini keltirib chiqaradi.

Miqdor – predmet va hodisaning hajmi, o'lchovi, og'irligi, harakat tezligi va ularning makon va zamonda mavjudligini ta'minlaydigan shu kabi jihatlaridir. Masalan, har bir kimyoviy moddaning o'z solishtirma og'irligi va boshqa agregat darajalari bor. Miqdor predmetning muayan holatda mavjudligi bo'lib, u doimo o'zgarishda bo'ladiki, bu qo'yidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

1. asta – sekin tadrijiy o'zgarish ekanligi;
2. mazkur o'zgarish ma'lum vaqtgacha narsalarning sifatiga ta'sir ko'rsatmaydi.
3. miqdor o'zgarishlari ichki va tashqi ta'sir, ziddiyatlar asosida yuzaga keladi.

Miqdor bilan sifat o'zaro birlikda bo'lib, bu bu falsafada me'yor tushunchasida ifodalanadi. Me'yorning buzilishi sifat o'zgarishiga olib keladi. Masalan, kishi tanasida haroratning 36<sup>o</sup> dan oshishi xastalikka olib keladi.

Sakrash- miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishidagi uzliksiz jarayonning uzilishidir. Portlash yo'li bilan kechadigan va tarijiy yo'li bilan bo'ladigan sakrashlar mavjud.

Taraqqiyot eskining inkori va yangilikning yuzaga kelishi, shakllanishi yo'nalishida kechadi.

Inkorni dialetik tushunish yangilanish eski bilan oddiy (mexanistik) almashuvi bo'lmasdan, balki u eskining negizida yuzaga kelib. Uning eng ijobiy tomonlari o'zida saqlab qolishga asoslanishini e'tirof etishdir. Vorisiylik mazkur qonunning qo'sh inkor tarzida atalishi shu bilan izoxlanadiki, har bir narsa va hodisa o'zigacha bo'lgan sifat va miqdorning inkor etilishi mahsuli bo'lsa, bu yangi sifat va miqdorga ega bo'lgan narsa, hodisa ham ma'lum vaqt o'tishi bilan, albatta, inkor etiladi. Masalan, don (bo'g'doy) ning o'sib boshq bo'lishi. Bunda taraqqiyot yo'nalishi to'g'ri chiziq emas (spiral')doira shaklida kechadi. Bu qonun orqali bugungi o'tish davrida ro'y berayotgan jarayonlarning moxiyatini anglab olishda, strategik maqsadimiz bo'lgan demokratik davlat va fuqarovilik jamiyatni qaror toptirishda muhim ahamiyatga ega. I.A.Karimov:

«Yangisini qurmasdan eskisini buzmag» degan asarida ilgari surilgan g'oyalar inkorni inkor tamoyiliga asoslanadi.

Jamiyatimiz yangicha o'ziga xos modelda rivojlanishida Prezidentimiz o'zligimizni anglash, ma'naviy qadriyatlarni qayta tiklashni va buni hal etish yo'llarini va inkorni inkor tamoyillari tayangan holda ko'rsatib beradi.

«Bir asrdan ziyod davom etgan totalitar qarshiliklardan keyin bu jarayon(qadriyatlar, an'analarni tiklash, o'zlikni anglash)dastlabki paytlarda mutlaqo tabiiy ravishda o'ziga xos «inkoni-inkor» sifatida kechdi»: deb ko'rsatadi Prezidentimiz.

Shu bilan birga o'tmish qadriyatlariga, an'analariga va turmush tarziga betartib ravishda, orqa-ketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka –hozirgi davrni qabul qilmaslikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin (I.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida»75-bet).

Mavjudlik, o'zgarish va o'zaro bog'liqlikning asosiy shakllari. Falsafiy kategoriyalar va ularning xususiyatlari.

Aloxidalik,xususiylik,umumiylik. Butun va bo'lak (qism). Struktura va element

Agar falsafiy qonunlarda borliqdagi narsa, hodisalarning o'zaro bog'lanishi, bog'liqliklari, harakat, taraqqiyoti ifodalansa, falsafiy kategoriyalarda ularning mavjudligi, o'zaro bog'likliklari, o'zgarishining shakllari aks etadi.

Har bir fan tushunchalar (kategoriyalar) bilan o'zining obyektini tadqiq qiladi, bilib olidi. Shu ma'noda kategoriyalar bilish bosqichlari va ayni paytda bilishning natijasidir."Kategoriya" atmasi grekcha so'z izohlash, tushuntirish, ko'rsatib berish degan ma'nolarni ifodalaydi.

Falsafiy kategoriyalar boshqa fanlarning tushunchalaridan farqli ravishda borliqda barcha narsa, hodisalarning mavjudligi, ularning muxim va umumiy xususiyatlarni, bog'lanishlarini aks ettiradi. Shunga ko'ra ular eng universal tushunchalardir. Bunday kategoriyalar 2 turda: 1)olamning mavjudligi va ularning xossalari, o'zgarishini ifodalovchi kategoriyalar;bular: alohidalik, xususiyatlik va umumiylik, sitema, butun va bo'lak (qism), struktura, element, moxiyat va xodisa, mazmun va shakl, sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif. Olamdagi barcha hodisalar o'ziga xos belgi, xususiyatlarga egaki, bu falsafada aloxidalik kategoriyasida ifodalanadi.

Aloxidalik – bu muayan sifat va miqdor ega bo'lgan, makon va zamonda cheklangan (chegaralangan) yakka, alohida tarzda mavjud bo'lgan ob'ektlarni ifodalaydigan kategoriyadir.

Alohidalik chegaralangan makon va zamonda mavjud bo'lgan narsa, hodisani ifodalaydi. Har qanday alohida mavjud bo'lgan narsa ayrimlik (yagonalik) belgi, xossasiga ega. Masalan, Yer yuzidagi 6 miliarddan ziyod kishilar bir-biriga o'xshamaydigan xususiyatlarga ayni paytda umumiylik xususiyat belgilariga ega.

Umumiylik borliqdagi alohida, individual tarzda namoyon bo'ladigan narsa, hodisalarning xilma-xil umumlashtiruvchi belgi, xususiyatlarining mushtaraklashtirilgan holda namoyon bo'lishidir. Borliqdagi narsa, xodisalar, garchi aloxida tarzda mavjud bo'lmasin, ular muayan sinf, jinsni tashkil etadi. Masalan, daraxt, mevali daraxt, suv xayvonlari, quruqlikda yashovchi xayvonlar.

Umumiylik narsa, hodisalar tizimidagi qism, elementlarining, ya'ni alohidaligining o'xshashligini ifoda etadi. Umumiylik kategoriyasi narsa, hodisa jarayonlarga xos doimiy takrorlanib turadigan xususiyat, belgilar majmuini ifodalaydi va narsa, hodisaning umumiylik, umumiy sinf, jinsga xosligi bir xil qonuniyatga ega ekanligini anglatadi.

Masalan atom, molekula, jism, biosfera, planeta, koinot (tovush, so'z, gap, tekst).

Alohidalik, umumiylik, xususiylik o'zaro dealektik birlikda mavjud, ya'ni har bir predmet, hodisa ayni vaqtda ham ayrilik, ham umumiylik jihatlariga ega. Va, shu bilan birga birga bir-birlariga o'tib turadilar.

Ushbu tamoyilni hisobga olish bilishda muhim metodologik ahamiyatga egadir, aks holda dogmatik, eklektik qarashlar yuzaga keladi.

«Osiyosentrizm», «Yevropasentrizm » kabi oqimlar umuminsoniy va milliylik masalasini ana shunday bir yoqlama, ya'ni umumiylikni alohida oikdan ajratib qarashi natijasida yuzaga kelgandir.

O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiga o'tishida va uning shu yo'nalishdagi taraqqiyoti umumiylik va alohidalikning dialektikasi asosida kechmoqda. Bunda Prezedentimizning mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan keyin mamlakatimiz taraqqiyotining strategik yo'nalishini belgilab berish masalasiga oid asarlari muhim lasturil ahamiyatga ega bo'ldi. Bu o'rinda uning «O'zbekiston XXI asr busag'asida» kitobi muhim o'rin tutadi. Unda O'zbekistonning o'z taraqqiyot



yo'li, uning jahon hamjamiyati bilan hamkorlik yo'llari ana shu dialektik tamoyil – alohidalik, xususiylik birligida ko'rsatib beriladi. Xususan, bunda O'zbekistonning tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarini shakllantirishda qo'yidagi tamoyillarga aml qilishi ta'kidlanadi:

1. O'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligi.

2. Mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umum insoniy qadriyatlarga sodiqlik. (O'sha asar. 1997,296-297-betlar.)

Xususiylik alohida va umumiyini muayan tizim (sistema)da birlashtiruvchi, bog'lovchi xususiyatlarni ifodalovchi kategoriyadir.

Bir xil turukmga kirgan narsa, hodisalar guruhi xususiylik xislatiga ega bo'ladi. Ayrimlik xususiyatiga ega bo'lgan alohida predmet muayan tizimga birlashsa, unda ana shu tizimga xos bo'lgan belgi, xususiyatlar yuzaga keladiki, bu xususiylikni tashkil etadi. Masalan: «Jamiyat»- umumiylik, «fuqarolik jamiyati»- xususiylik, «O'zbekiston Respublikasi»-alohidalik, «gaz»-xususiylik, «vodorod»-alohidalik «ximiyaviy modda» - umumliqlik.

Butun, bo'lak, struktura, element kategoriyalari umumiylik birligidagi narsa, hodisalarning tizimlilik (sistemali) tarzda mavjudligini ifodalaydi.

Mazkur kategoriyalar umumiylik, alohidalik, xususiylik munosabatlardagi narsa, hodisalarning makon va zamondagi o'zaro tizimli sistemali bog'lanish munosabatlarini jarayon tarzidagi mavjudligini ifodalaydi.

Sistema (tizim) butunlik, yaxlitlik, qism (element) lardan tashkil topgan brikma yaxlitlikdir. Tizim (sistema) tushunchasining mohiyati butun, bo'lak, struktura, element tushunchalari orqali anglashiladi.

Qism va butun kategoriyalar borliqning barcha sohalarining tartiblanganligi, qo'yidan yuqoriga tomon darajalanganligi, bir ikkinchi bosqichga o'tishda, yangi xossaning paydo bo'lish xususiyatini ifodalaydi.

Qism – bu o'zining funksiyasi va ta'siri bilan bir butunlikni taqazo etuvchi xossani vujudga keltiradigan alohidalik (narsa, hodisa) dir. Masalan, til aloqa vositasi sifatidagi bir butunligini gramatik qism (shakl) lar,(so'z,gap)larning o'zaro birligi yuzaga keltiradi.

Suv molekulasining butunligini vodorod va kislorod atomlarining qismlar sifatidmgi o'zaro ta'siri tashkil etadi. Quyosh – sistemasi - bu planetalar (qismlar) ning bir butun tarzidagi yaxlitligidir.

Butunning o'zgarishi qism va aksincha qismni o'zgarish bilan butun ham o'zgaradi.

Butunning mavjudligi qismning o'zaro ta'sirini taminlaydi.

Element (lotincha-unsur) dastlabki modda har qanday sistema tizimining birlamchi asosidir. Elementning muhim xususiyati shundaki, uning konkret xossasi ichki murakkabligi, harakati, qanday holatga bo'ysunishi sistema va uning strukturasi tabiatiga ta'sir ko'rsatadi. Struktura tizimni tashkil etuvchi elementlarning nisbatan turg'un bog'lanishi aloqasi va munosabatdir. U tizimning bir butunligini, uning o'ziga aylanganligini ta'minlaydigan tuzilishdir. Masalan, barcha kimyoviy moddalar molekular tarkibidagi atom tuzilishi ularning sifat muayanligini ta'minlaydi. Yoki hokimiyat funksiyalarini turli ijtimoiy institutlar, tashkilotlar kabi elementlaran tashkil topgan davlat strukturasi ijtimoiy tizimning tipini va uning bir butunligini ta'minlaydi. Struktura konservativ, ya'ni eski holatni muntazam saqlovchilik tabiatiga ega. Sistema, struktura, element nisbiy harakterga ega, chunki elementning o'zi muayan tizim hisoblanadi. Masalan, jamiyat tizimidagi ma'naviyat element sifatida olibqaralishi va uning ayni paytda ichki elementlardan tashkil topgan mustaqil sistema tizim ekanligini ko'ramiz.

Yuqorida ko'rib chiqilgan kategoriyalar mazmuni bir qator juft kategoriyalar mazmuni orqali anglashiladi va ayni paytda keyingilarining bilish usullari sifatidagi tabiati alohidalik, umumiylik, xususiylik, butun, qism, tuzum, element, struktura kategoriyalarning mazmuni orqali namoyon bo'ladi. Narsa, hodisalarning mohiyati, asosan, ularning umumiyligida ifodalanadi. Mohiyat va hodisa.

Mohiyat predmetning ichki, barqaror, takrorlanib turuvchi, zaruriy bog'lanuvchi jihatini bildiradi. Predmetning bir butunligi, xossa va xususiyatlarining muayyanligi mohiyatning muhim jihatidir. Elementar zararchalarning to'liqlik va korpuskulyar xossalarning bir-biri bilan uzviy bog'langanligi, kuchlar, maydonlar, zaryadlarning ta'siri ularning (elm. zararchalarining) mohiyatini belgilaydi. Mohiyat har qanday sistema taraqqiyotining asosiy belgilari va tendensiyalarini belgilaydigan ichki zaruriy bog'lanishlar, ya'ni qonunlarning majmuidir. Mohiyatni bilan sistemalarning qonunlarini bilish demakdir. Mohiyatni bilish hodisani bilishdan boshlanadi, chunki hodisani muayyan sistemalar mohiyatining namoyon bo'lishining shakli hisoblanadi.

Badiiy asarning mohiyatini uning syujetiga sindirilgan g'oya ifodalaydi.

Mohiyat hodisada namoyon bo'ladi. Hodisa predmetga zid bo'lgan harakat, o'zgarish holatidir. Masalan, jamiyatning taraqqiyoti yoki unga oid tanazzuli uning

ijtimoiy munosabatlari sohasidagi o'zgarishlarda (iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ma'naviy) namoyon bo'ladi.

Sabab va oqibat kategoriyalari- borliqdagi narsa, hodisalarning aloqadorligi, bog'liqligi, o'zaro ta'sirini ifodalaydi. Hyech bir xodisa sababsiz yuz bermaydi.

Sabab- muayyan o'zgarish, bu qonunyat jarayonida boshqa bir natija, narsa, xodisani keltirib chiqaruvchi hodisaldardir. Oqibat sababning ta'sirida yuzaga kelgan yangi bir hodisadir.

Masalan, yer yuzida suv havzalarining bug'lanishi bulutlarning hosil qilinishi (oqibat)ning sababidir. Hozirgi ekologik muammodarning sababi jamiyat va tabiat o'rtasidagi ziddiyatdir va boshqalar. Sabab bilan oqibatning o'zaro aloqadorligi sababiyat deb ataladi. Tabiat va jamiyatdagi sabab- oqibat bog'lanishlarining kishilar fikridagi ifodasi sababiyat kategoriyasining shaklanishiga olib kelgan.

Sababiyat borliqda umumiy, universal harakterga ega, shu bois u obyektiv harakterga ega.

Borliqda doim ma'lum vaqt shart –sharoit mavjud bo'lgan taqdirda sabab oqibatni keltirib chiqaradi. Shuningdek, bahonalar ham oqibatni keltirib chiqarishga turtki bo'lishi mumkin.

Bahona sababga tashqi turtkidir. Sabab esa narsa- hodisa ichki munosabatini ifodalaydi. I jahon urushining boshlanishi Avstriya gersogi Ferdinandning o'ldirilishiga bahona bo'lgan. Determinizm – olamdagi barcha hodisalar, ularning taraqqiyoti sababiy bog'lanishda deb tushuntiruvchi oqim. Indeterminizm olamdagi sababiy bog'lanishlari inkor etuvchi yoki u faqat tafakkurga xos hodisa deb tushuntiruvchi oqimdir (D. Djine, G. Fayxinger).

Mazmun va shakl olamdagi barcha narsa hodisalar muayan miqdor va sifat borligiga ega ekanligini ifodalaydigan kategoriyada. Mazmun bu muayan narsa, hodisa, jarayonlarning o'ziga xos sifatiy xususiyatlari, muhim belgilari va elementlarining yig'indisini, shakl mazmunining mavjudlik usuli, narsa, hodisalarning miqdoriy ko'lami, tuzilishi, makondagi holatlarini ifodalaydilar.

Masalan, insonning mazmunini uning ongi (tafakkur), tili, mehnati tashkil etadi. Atomning mazmuni bu- uning tarkibiga kiruvchi manfiy va musbat zaryadli elementlar zarrachalarining muayan maydonlari orqali bir- biriga ta'sir va aks ta'siridir. Atomning shakli uning tarkibiga kiruvchi element zarrachalar joylashuv tartibi, aloqalari kiradi. Badiiy asarning mazmuni unda aks ettirilgan voqeya orqali

g'oya va obrazlar tizimini bildirsa, shakli shu asarning tuzilishi, tili hamda kompozitsiyasi va badiiy janrlar tarzida ifodalaydi.

Mazmun va shakl dialektik birlikda bo'lib, bu rivojlanish jarayonining yo'nalishini ifodalaydi. Zotan Mazmunning o'zgarishi unga mos keladigan Shning o'zgarishiga olib keladi. Bunda mazmun shaklga nisbatan tez o'zgaruvchan bo'ladi va ko'pincha shakl bunga to'siq bo'lib xizmat qilishi mo'mkin. Sh va Mning uyg'unligi taraqqiyotning omili hisoblanadi.

Borliqdagi barcha narsa, hodisalarlarning mavjudligi, o'zgarishi zaruriyat va tasodif birligida kechadigan jarayondir (yetarli sharoit).

Zaruriyat narsa, hodisalarning paydo bo'lishi, yuzaga kelishi, o'zgarishini ta'minlaydigan shart-sharoit, omillari majmuidir. Tasodif – zaruriyat ning amal qilish, namoyon bo'lish shaklidir. Shart, sharoit, omillarni o'z ichiga olgan sababiy asos zaruriyat tusini oladi.

Narsa, hodisalarning o'zgarishi, taraqqiyotini qonuniy, zaruriy bog'lanishlar belgilaydi. Zaruriyat negizida narsa, hodisada muqarrar yangi sifat o'zgarishi yuz beradi. Masalan, jismning qizdirilishi, shak - shubhasiz uning kengashishiga olib keladi. Yoki bozor iqtisodi munosabatlariga o'tish albatta erkin raqobatni keltirib chiqaradi va h .k.

Tasodif zaruriyatga nisbatan qarama –qarshi xislatga ega. Tasodif – bu sabab va oqibat o'rtasidagi shunday bog'lanishki, unda sababiy asosdan hodisaning yo unisi yoki boshqasi kelib chiqadi.

Tangani yuqoriga otganda uning yerga qaytib tushushining sababiy asosi tortish kuchidirki, bu zaruriyat hisoblanadi. Lekin tanganing qanday tomoni bilan tushushi tasodifdir, chunki bunda sababiy asos nomuayan, bir- biriga nisbatan mustaqil bo'lgan boshqa ko'pgina sabab hodisalarini (tanganing qanday otilishi, uning qanday shaklda yasalganligi va b.). Ziddiyat va tasodif dialektik tarzda o'zaro bog'liqdir: voqeya bir jihatdan zaruriyat bo'lsa, boshqa jihatdan tasodif ham bo'ladi.

Zaruriyat va tasodif dialektikasi shundaki, bunda a) birinchisi ikkinchisi orqali namoyon bo'ladi. Bir sifatning ikkinchisiga qonuniyatli jarayon tarzda o'tishi, tasodiflar (tashqi omillar, bahonalar) orqali kechadi. Masalan, yoki taraqqiyoti SSSR ning barham topishi-zaruriyati, Gorbachyovning hokimiyat tepasiga kelishi-tasodif. Ziddiyat va tasodif bir- biriga aylanishi mo'mkin. Bir sharoitda zaruriyat bo'lgan narsa o'zgargan boshqa bir sharoitda tasodif bo'lishi mo'mkin va aksincha. Masalan, Xusayn Boqaroning mast holda o'z nevarasi

Mo'min Mirzoni o'ldirishga bergan farmoni tasodif bo'lgan bo'lsa, bu voqea keyinchalik temuriylar sulolasining yemirilishi uchun zaruriyat bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi paytda tasodifiy hodisalar qo'rg'oqchilik, suv toshqinlari bilan bog'liq tabiiy hodisalar ayni paytda ijtimoiy hayotdagi zaruriyatli hodisalarni keltirib chiqarishi mo'mkin.

Ilmiy va amaliy faoliyatda ziddiyat va tasodifning obyektiv dialektikasini inobatga olish metodologik ahamiyatga egadir. Chunki mohiyat tasodifiy voqyealar orasida yashiringan bo'ladi va bilish tasodiflardagi zaruriyatni qaratilgan bo'lishini talab etadi.

Imkoniyat - narsa, hodisalarning va voqyelik borliqdagi narsa, hodisalarning kelib chiqishi bir sifatidan ikkinchisiga o'tishini shart – sharoiti, ketma – ketligini ifodalaydi. Imkoniyat narsa, hodisalarning muayan va zamondagi o'zgarishi jarayonidagi zarur shart – sharoitidir.

Voqyeilik – zaruriyat asosida yuzaga kelgan, oqibat yani imkoniyatning ro'yobga chiqqan holatidir.

Imkoniyatning voqyelikka aylanishi qonuniy jarayonlarki, bunda real va mavhum imkoniyatlar bir biridan farqlanadi. Real imkoniyat muayan tendensiyaning voqyelikka aylanishi uchun shart sharoitning mavjudligini ifodalaydi. Mavhum imkoniyat esa bunday shart-sharoitning real asosga ega emasligini ko'rsatadi va u hodisalarning kelib chiqishini ifodalovchi muayan shart –sharoit va vaziyatlar majmuasidir. Imkoniyat narsa, hodisalarning ichki tabiatiga ko'ra zaruriy ravishda reallashishi lozim bo'lgan, biroq hali yuzaga chiqmagan reallikdir.

Voqyeilik – bu zaruriyat asosida yuzaga kelgan oqibat, ya'ni imkoniyatning ro'yobga chiqqan holatidir. Voqyeilik tushunchasi o'z mazmuniga ko'ra falsafada ikki ma'noni anglatadi: 1) olamdagi barcha mavjud narsalar reallikdan iborat; ayrim narsa, hodisalarning ro'yobga chiqishini anglatuvchi imkoniyatning yuzaga chiqqanligi ma'nosini anglatadi. 2) olamning bir bo'lagi sifatida konkret narsa, hodisalar tarzida namoyon bo'lish bilan birga inson ongidagi ifodasi hamdir.

Imkoniyat va voqyeilik o'zaro bir – birini istisno va taqazo etadigan tamonlar bo'lib ular o'zaro dialektik birlikda bo'ladi.

Bu imkoniyatning voqyelikka aylanishini va voqyelikning o'zi ayni paytda boshqa reallik uchun imkoniyat bo'lib xizmat qiladi. Masalan mustaqilligimizning

qo'lga kiritilganligi mamlakatimizda o'ziga xos modeldagi huquqiy – demokratik davlatning barpo etilishiga olib keldiki, bu o'z navbatida fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish uchun imkoniyat bo'lib izmat qilmoqda.

Imkoniyatning voqyeilikka aylanishi qonuniy jarayondirki, bunda real va mavhum imkoniyatlar bir –biridan farqlanadi. Real imkoniyat muayan tendensiyaning voqyeilikka aylanishi uchun shart –sharoitlarni real asosiga ega emas ekanligini ko'rsatadi. Shunday qilib, fiklsafiy kategoriyalar borliqdagi narsa, hodisalarning mavjudligi, o'zaro ta'siri bog'lanishlarini o'zida ifodalaydigan eng umumiy tushunchadir. Shunga ko'ra ular bilishning bosqichlari va ayni paytda uning uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Falsafaning metod va metodologi sifatidagi vazifasi ham uning borliqni qonun va kategoriyalar ya'ni o'zgarish, harakatda, o'zaro aloqadorlikdagi jihatlarini aks ettirishligi bilan belgilanadi.

### **7-mavzu: Ong va ruhiyat.**

Bilish, uning shakllari va uslublari.

#### **Reja:**

1. Falsafada ong va ruhiyat muammosi. Inson ongining tabiiy-ijtimoiy jihatlarini. Ong va in'ikos.
2. Iroda. O'zini-o'zi anglash. Ong va til. Ong va xotira. Ong, axborot va bashorat. Ijtimoiy va individual ong.
3. Bilim va bilish. Falsafiy tahlil mavzu sifatida bilish obyektini va subyektini. Inson bilishning asosiy bosqichlari. Hissiy va aqliy bilish.
4. Ilmiy bilishning mohiyati, usullari va shakllari. Falsafada haqiqat tushunchasi. Mutlaq, nisbiy va sarob haqiqatlar.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. O'zbek xalqi hych kimga qaram bo'lmaydi. – T., 2005.
2. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurası – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T., 2000.
3. Karimov I.A. Imlliy mafkura – kelajak poydevori. – «Xalq so'zi» gazetasi, 2000, 7 aprel.
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayet – pirovard maqsadimiz. – T., 2000.
5. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. – T., 1999.
6. Karimov I.A. Husherlikka da'vat. – T., 1999.
7. Karimov I.A. «Jamiyatimiz mafkurası xalqni-xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin». – T., 1998.
8. Karimov I.A. «Egali yurt erkini bermas». – T., 2000 («Xalq so'zi» gazetasi, 31 avgust, 2000 yil).
9. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyetining poydevori. – T., 1997.
10. Barkamol avlod orzusi. – T., 1999.
11. Falsafa o'quv qo'llanma. – T., 1999. 162-187, 235-246 betlar.
12. Raximov I. Falsafa. – T., 1998. 95-103 betlar.
13. Falsafa. – T., 2000. 221-229 betlar.
14. Falsafa asoslari. – T., 2005. 202-271 betlar.
15. Falsafa. Qomusiy lug'at. – T., 2004.
16. Falsafa. Qisqacha izohli lug'at. – T., 2004.
17. Bilish falsafasi (gnosiology). – T., 2005.
18. N. Shermuxammedova. Falsafa va fan metodologiyasi. – T., 2005.
19. O. Fayzullayev. Falsafa va fanlar metodologiyasi. – T., «Falsafa va huquq» nashriyeti, 2006.

1. Biz avvalgi ma'ruzalarimizda taraqqiyet tamoyillari o'zgarish, o'zaro aloqadorlik, harakat, taraqqiyet tushunchalarining nisbati, dialektika, sinergetika va ularning asosiy g'oyalari, determinizm va uning mohiyati masalalarini yoritishga qaratilgan. Shu bilan birgalikda qonun va qonuniyat tushunchalari, hamda falsafiy qonunlar va kategoriyalar xususida fikr yuritgan edik. Yangi ma'ruzada ong, uning mohiyati, hamda bilish, bilishning bosqichlari va haqiqat, uning turlari xususida tuhtalamiz.

Inson azal-azaldan o'zigagina xos bo'lgan ongning nima ekanligi to'g'risida o'ylab, bahslashib keladi. Bu bahslarning bir jihati, ong tabiat chahsulimi yeki inson ongi ilohiy yaratilganmi, – degan masaladan iborat. Ikkinchi jihati esa, inson duneni doimo bir xil anglaganmi? Ya'ni, asrlar davomida inson ongi takomillashib kelganmi yeki hamon o'sha-o'shami, – degan muammo bilan bog'liq.

«O'zingni bilsang, olamni bilasan», – degan edi Suqrot. Aforizmga aylanib ketgan bu fikr ortida olam kabi inson ham siru sinoatlarga boy, u o'zini bilish orqali olam mohiyatini anglashga yo'l ochishi mumkin, – degan g'oya yetibdi. Shu ma'noda, inson o'zini tashqi olamdan ajratib, alohida bir mo'jiza va tadqiqot mavzui sifatida o'rganishga harakat qila boshlagan paytdan buyen uni o'yantirib kelayetgan muammolardan biriongning mohiyati, uning kelib chiqishi masalasidir.

Shuning uchun ham, ong – falsafadagi markaziy kategoriyalardan biridir. Ong ko'p qirrali va murakkab bo'lganligi tufayli, falsafa, psixologiya, kibernetika kabi fanlarning o'rganish obyekti hisoblanadi. Falsafa tarixida ongni turlicha tushuniqlar mavjud. Masalan, ongni diniy tushunish uchun uni ilohiy hodisa, Xudo yaratgan mo'jiza tarzida talqin qilishga asoslanadi.

Ko'pgina dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqlning mittigina aks etishi, uning namoyen bo'lishi shakli tarzida tavsiflanadi. Inson tanasidagi ruh bizning istak va fikrlarimizning tashuvchisidir. Jon o'limi bilan ong ham o'ladi. Bunday qarashlarning ildizi juda qadimiy bo'lsada, ular o'amon o'zining ko'plab tarafdorlariga ega. Zero, u olam va odamning yaratilganligi masalasi bilan bevosita bog'liq. Kimda kim olam va odam yaratilganligi tan olar ekan, ong ham yaratganning qudrati ekanligini tan olishi tabiiy. Ong moddiylikning miyada inson tanasi faoliyati bilan bog'lab talqin qilinadi. Bunday qarashlar ham qadimiy ildizlarga ega. XVIII-asrga kelib ongni bevosita inson miyasi faoliyati bilan bog'lanmaga harakat qilgan qarashlar ham shakllandi. Ayni paytda materialistik yo'nalish nomini olgan bunday yendashuvlar doirasida ongning mohiyatini buzib talqin qilish hollari ham paydo bo'lgan. Falsafa tarixida «Vulgar materializm» deb nom olgan oqim namoyendalarining qarashlari bunga misol bo'la oladi. Ularning fikricha, xudi jigar safro ishlab chiqarganidek, miya ham ongni ishlab chiqaradi. Bunday yendashuv natijasida ong ideal emas, balki moddiy hodisa, degan xulosa chiqadi. Vaholanki, safroni ko'rish mumkin, ammo ongni ko'rib ham, ushlab ham bo'lmaydi, o'lchab ham bo'lmaydi. Ong tirixi insonning inson bo'lib shakllana boshlashi tarixi bilan bog'liq. Uzoq vaqt davomida inson ongi planetar, ya'ni yer shari darajasidagi hodisa sifatida qarab kelindi. Hozirgi zamon Fani masalasiga kengroq doirada yendashish zarurligi ko'rsatmoqda. Chunki, fan dalillari inson paydo bo'lishini faqat yerda kechgan jarayenlar bilan cheklab qo'yish to'g'ri emasligini, u koinot evolyusiyasining tabiiy hosilasi ekanligini tobora chuqurroq isbotlamoqda. Inson biologik va ijtimoiy harakatning tashuvchisi ekan, harakat shakllari o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni, uning yuqori shakllari quyi shakllariga bog'liqligini, tayanishini, ulardan o'sib chiqishini unutmazlik lozim. Boshqacha aytganda, ular o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Ong tarixi quyesh tizimi va unda millionlab yillar davomida sodir bo'lgan o'zgarishlardan ham ayricha olib



qaralishi mumkin emas. Ayni manna shu jihatdan olib qaralganda, ongning shakllanishini kosmik hodisa deb, qarash ham mumkin.

Ong in'ikosning oliy shaklidir. In'ikos muayyan ta'sir natijasida paydo bo'ladi. Buning uchun esa, hech bo'lmasa, ikkita obyekt va ular o'rtasida o'zaro ta'sir bo'lishi lozim. Bunda funksional faoliyat ko'rsatuvchi miya sohibi ijtimoiy munosabatlarga tortilgan bo'lishi shart. Ong psixika in'ikosining o'ziga xos, yuksak shaklidir. Ammo, bu psixika va ong tushunchalarini aynanlashtirish uchu nasos bo'la olmaydi. Negaki, psixika hayvonlarga ham xosdir. Inson psixikasi haqida gap ketganda ham, u ong tushunchasiga nisbatan keng qamrovlik, kast etishini unutmaslik lozim. Z. Freyd fikricha, psixika ongsiz, ong osti hodisalarini va ongning o'zidan iborat uch atlamdan tashkil topgan. Inson hayati va faoliyatida ong bilan bir qatorda ongsizlik va ong osti hodisalari ham muhim ahamiyatga ega. Psixologlar fikricha, inson farzandining kamol topa borishi bilan bir qatorda ko'plab funksiyalar ong nazorati ostidan chiqib avtomatik xarakter kasb etishi ham xarakterlidir. Aytaylik, birinchi marta mashinaga o'tirganimizda, birinchi marta so'rat olayetganimizda deyarli barcha harakatlarimiz ongning qattiq nazorati ostida bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan esa ko'pgina harakatlarni ongsiz tarzda, anglamagan holda bajara boshlaymiz. Bunday holat inson faoliyatining xilma xil sohalariga, yo'nalishlariga ongning faol tarzda aralashishini, ya'ni qayta holatni o'z nazoratiga olishi mumkinligini inkor etmaydi. Xatti-xarakatlarning ongsizlik sohasiga ko'chishi bir tomondan ong «yukining» yengillashiga xizmat qilsa, boshqa tomondan, ongning asosiy kuch-quvvatini, «diqqati»ni, inson hayati uchun muhim bo'lgan harakat, jarayenlarga qaratilishiga imkoniyat yaratadi. Ongsizlik doirasiga ong nazoratidan tashqarida qolgan sezgi, tasavvur, instinkt va intuisiya kabi hodisalar ham kiradi. Anna shu xususiyatlarni inobatga oladigan bo'lsak, ongsizlik ong mavjudligi va rivojlanishinig tabiiy sharti deyish mumkin. Ong osti hodisalari ham psixik jarayenlarning muhim bo'g'inidir. Z. Freyd fikricha, ular ongsizlik bilan ong o'rtasidagi chegaraviy sohadir. «Gap tagida gap bor, kosa tagida – nim kosa» naqlida ong ostiga xos bo'ulgan xususiyatlar ifodalangan, deyish mumkin. Negaki, har qanday faoliyatimizda ayni vaqtda biz uchun ahamiyati bo'lmagan holatlar bo'ladi. Ammo, bu ular kuzatishdan, nazoratdan chetda qoladi, degani emas. Biz uchun ahamiyatli xarakter kasb etganda, ular ong ostidan ong sferasiga ko'chish mumkin. Masalan, biror joyga borayetganda, asosan, maqsadga tomon harakat qilinadi, ammo yo'lda uchragan boshqa narsa va hodisalar ham kuzatiladi, esda qoladi. Anna shulardan kelib chiqqan holda, ong osti inson ongli faoliyatining o'ziga xos kuzatuvchisi, zarur bo'lgan hollarda senzori sifatida chiqishdek sifatlarga ega, deyish mumkin. Ong ontologik ma'noda, yuqori darajada uyushgan (rivojlangan) materiyaning xossasi subyektiv borliq sifatida, gnoseologik ma'noda

ideal shakl sifatida tushuniladi. Agar obyektiv rayellik moddiy tizimlarning turli iyerarxik, ya'ni oddiy mayda bo'laklardan tortib, to biosfera va metagalaktika darajalardagi voqyelik sanalsa, unda subyektiv reallik-ideal tizimlarning turli iyerarxik darajalari, ya'ni sezgi, idrok, tasavvur, tushuncha, hukm, xulosa, gipoteza, konsepsiya, nazariya, fan, san'at, falsafa, din, mifologiya kabilardan iborat reallikdir.

Falsafada ong va ruhiyat muammosi falsafa tarixida g'oyatda muhim muammo hisoblanadi. Ruhiyat masalasini turli faylasuflar har xil tushuntirishganlar.

Ruhiyat (ruh, ruhiylik, ma'naviylik) muammosi olimlar va mutafakkirlarni, qolaversa, har bir kishini ko'p asrlardan beri qiziqtirib kelgan. Shu bilan birga bu muammo har bir zamonda o'zining Yangi qirralari va mazmuni bilan boyib, murakkablashib borgan.

Ruhiyat muammosi ustida fikr yuritish kishiga o'zligini, imonini, ma'naviy qadriyatlarni mazmunini va mavjud bo'lish sabablarini, madaniyat va sivilizasiyani rivojlanishida ma'naviy omilni ahamiyatini tushunishga yerdam beradi.

Ruhiyat masalasiga falsafiy yendashish shunday muammoli vaziyatni tug'diradiki, unda ruhiyatning mohiyati, inson va jamiyat hayetida ruhning o'rni va qo'lam, moddiy va ma'naviy predmetlarni, tomonlarni o'zaro munosabati, ruh, jon va tananing aloqadorligi kabi borliq va duneqarashga oid savollar vujudga keladi. Bu masalani ko'rib chiqishni uning qisqacha tarixi bilan tanishib chiqishdan boshlash lozim.

Ruhiyat muammosini ildizi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Ibtidoiy jamitda kishilar tevarak-atrofdagi predmetlar jonga, ruhga ega bo'ladi de o'ylaganlar. Tumorlarga, butlarga sajda qilish yoki qurbonlik keltirish orqali ruhlarga ta'sir ko'rsatib, odamlar o'zlarini ma'lum maqsadlariga erishishga harakat qilganlar. Animistik tasavvurlar ko'ra jon, ruh va xayvonni tanasida mavjud bo'lgan alohida bir kuch bo'lib, u uyqu vaqtida yoki o'lim hodisasidan keyin tanadan chiqib ketadi. Manna shunday tasavvurlar zaminila keyinchalik ruhlarni bir tanadan ikkinchi tanaga o'tishi haqidagi qarashlar vujudga kelgan.

Falsafa vujudga kelgandan keyin ruhiyat haqida nazariy tasavvurlar shakllanib borgan. Qadimgi Xindistonda paydo bo'lgan ko'pchilik falsafiy sistemalarda (lokeyata – chorvak maktabi bundan istisno) ruh olamni vujudga keltirgan birlamchi g'ayritabiiy borlik degan fikr ta'qidlangan. Qadimgi Yunonistonda jon, ruh qoinotga tartib bag'ishlaydigan qonuniyat, predmetlar va olamdagi sistemalarni

harakatlantiruvchi birlamchi kuch ma'nosida tushunilgan. Shu bilan birga yunon faylasuf-materialistlari ruhni birlamchi moddiy elementlardan, ya'ni, atomlarning birikishi va o'zaro ta'siridan kelib chiqqan xossa deb ta'qidlaganlar. Demokritning fikricha kishini joni, ruhi mangu emas. Tana o'lgandan keyin ruhiy xossalarni hosil qilgan atomlar undan chiqib ketib makonda tarqalib ketishadi.

Pifagor va Platon o'lmas, bir tanadan ikkinchi tanaga kuchib yuruvchi jon haqidagi tasavvurlarni ishlab chiqishgan. Platonni ta'limotiga ko'ra Yaratuvchi-aql kamolotga erishgan maxluqot qiyefasini olgan olamiy ruhni, alohida ko'rinishga ega bo'lgan xudolar, odamlar va hayvonlarning ruh-jonlarni bunedga keltirgan.

Aristotel falsafasida barcha predmetlarning maqsadi-sababini o'zida mujassamlantirgan, har daqiqada predmetlarni imkoniyatdan vokelikka o'tkazadigan, demak, yaratuvchi kuchga ega bo'lgan birlamchi aql, ruh haqidagi tasavvurlar rivojlantirilgan. Insonda esa ruh, jon tana bilan o'zviy bog'langan. Mutafakkirni ta'qidlashicha jon uch xil ko'rinishda mavjud – o'simliklarning joni, hayvonlarning joni va insonning ruhi, aqli. Shu bilan birga, Aristotel jondan ajralib chiqish xislatiga ega bo'lgan va o'lmas, mangu bo'lgan ruh-faol aql haqida ham fikr yuritgan.

O'rta asr musulmon Sharqi falsafasida ruhiyat muammosiga kata e'tibor berilgan. Markaziy Osiyeda yunon falsafasini ijodiy o'zlashtirib, falsafiy fakr taraqqiyatini yuqori bosqichga ko'tarishgan mashshaiyun /peripatetizm/ falsafasi namoyendalari ruhiy borliq haqida sermazmun tasavvurlarni ishlab chiqdilar. Bu tasavvurlarga ko'ra ruhiy borliq-birlamchi mohiyat (tan), Faol aql, universaliylar (Faol aql va inson aqlida mavjud bo'lgan umumiy tushunchalar) va inson aqlidan tashkil topgan. Forobiyning fikricha Faol aql va universaliylar olamga, undagi maxluqotlarga qonuniyatli harakat, tartibot va kamolot bag'ishlaydi. Inson bilimni, imoni va e'tiqodini rivojlantirish orqali o'zini ruhiyatini Faol aql darajasiga ko'taradi.

Forobiy inson ruhini o'lmas mohiyat, ya'ni, u vujud (kafasi)dan qutulib saodatga erishishi mumkin deb hisoblagan. Tiriklik paytida amaliy va nazariy faoliyati tufayli kamolotga erishgan kishini ruhi u duneda huzur-halovatda bo'ladi. Ruhlarning bir-biriga cheksiz qo'shilaverishi imkoni bo'lgani uchun har bir ruhning boshqalari bilan cheksiz qo'shilaverishidan oladigan huzur-halovati ham cheksiz ortib boraveradi.

Yangi zamonda ruhiyat muammosi ilmiy bilish uslublari asosida o'rganilib, bu muammo falsafa bilan bir qatorda psixologiya fanini ham predmetiga aylandi. Lekin psixologiya inson va insoniyatning ruhiy faoliyatini barcha tomonlarini

qamrab olib o'rgana olmaydi. Bu fan insonni bili shva amal qilish faoliyatida namoyen bo'ladigan juz'iy ruhiy jarayenlarni (idrok qilish, ichki kechinmalar, xulq-atvor va hokazolarni) o'rganadi. Ruhiyatning boshqa xislatlarini va qonuniyatlarini falsafa, san'atshunoslik, nafosatshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa bilim tarmoqlari doirasida tadqiqot qilinadi.

Ruh, ruhiyat muammosini o'rganishda falsafani roli va ahamiyati nimadan iborat? Falsafa ruhiyatning tub mohiyatini, uning ong, e'tiqod va imon shaklida namoyen bo'lish xususiyatlarini, borliq, jamiyat va inson hayetida tutgan o'rnini tahlil qiladi, boshqa fan va bilim tarmoqlarini ruhiyatni biron-bir xislatini tadqiqot qilishlari jarayenida qo'lga kiritgan natijalarni, ishlab chiqilgan yangi g'oya va tasavvurlarni nazariy tahlil qilish yo'li bilan umumlashtirib beradi.

Ruhiyat maummosiga doir falsafiy-tarixiy tasavvurlarni ko'rib chiqqandan keyin «ruh» tushunchasini tahlil qilishga o'tish mumkin. Bundan maqsad, «ruh» tushunchasini mazmunini, bu tushunchani «ong» tushunchasi bilan o'zaro munosabatini aniqlashdir.

Shu narsani ti'qidlab o'tish lozimki, fan, falsafa va ilohiyet «ruh» tushunchasiga turlicha izoh beradilar. Falsafani o'zida ham mavjud bo'lgan xilma-xil oqimlar va yo'nalishlar bu tushunchani bir-biridan farq qiladigan yeinki bir-biriga zid keladigan mazmunda tahlil qilib kelganlar.

Ilohiyetda ishlab chiqilgan ta'limotda aytishicha ruh imon, qalb orqali namoyen bo'ladigan g'ayri-tabiiy mohiyatdir, tangrini muruvvati va xislatidir, odam yaratilganda unga berilgan in'omdir.

Faylasuf-idealist Gegelni fikricha, ruh – borlikning negizini tashkil qilgan mutlaq g'oyani taraqqiy qilib oliy bosqichga o'tish holatidir. Bu bosqichda ruh o'zining aql-zakovat kuchi bilan tabiat va hissiyet qo'ygan tusuklardan o'tib ong va o'z-o'zini anglash darajasiga yetadi, o'zida amaliy va nazariy faoliyat birligini hosil qiladi.

Materialistik falsafada ruh tibatga nisbatan ikkilamchi narsa, materiya taraqqiyetining ma'lum pogonasida vujudga kelgan hossa deb tushuntiriladi. Marksistik dialektik materializm ruhning mohiyatini onson faoliyati, ijtimoiy taraqqiyet va ma'naviy (ruhiy) ishlab chiqarish jarayenlari bilan bog'lab tahlil qiladi. Bu falsafani namoyendalari tomonidan ruhni psixika yeki tafakkur sifatida

olib qarash hollarini ham uchraydi. Ayrim adabiyetlarda «ruh» tushunchasi «ong», «tafakkur», «aql» tushunchalari bilan aynandir degan fikr ham uchraydi. Lekin, bunday fikrga qo'shilish qiyin. Ruh, ong yeki tafakkurga nisbatan keng va murakkab bo'lgan integral (ko'p xislatlarni qo'shilishdan kelib chiqqan tizimli) ma'naviy hodisasidir. Kelib chiqishi va namoyen bo'lishi jihatdan ruh ijtimoiy taraqqiyet va insonning ijodiy faoliyatini mahsuloti bo'lib, u yaratilayotgan va mavjud bo'lgan madaniy va an'anaviy qadriyatlar, e'tiqod, imon, aql-zakovat, ilm-fan va his-tuyg'ularda mujassamlangan. Xulosa qilib «ruh» tushunchasini qo'yidagi ta'rifini berish mumkin: ruh – kishining ichki dunesi va jamiyatning ma'naviy hayetini yuzaga keltiradigan ong, bilish, imon, e'tiqod va his-tuyg'ular orqali voqyelikni o'rganish va o'zlashtirish jarayenini hosil qiladigan, jamiyat taraqqiyetiga insoniy meyer va hislat bag'ishlaydigan ma'naviy hodisa va borliqdir. Ta'rifdan ma'lum bo'lib turibdiki, ruh insonni ichki ma'naviy olamni, jamiyat miqyesida va beradigan voqyelikni bilish va o'zgartirish faoliyatini, turli xildagi qadriyatlarni yaratish, ulardan foydalanish jarayenlarini o'z ichiga oladi.

Bu savolni yoritishda asosan ruhiyat va ongning o'zaro munosabatiga, ongning hususiyati va mohiyatiga e'tibor berish lozim.

Ruhiyat muammosini ko'rib chiqishda shu narsa ayen bo'ldiki, ruh murakkab sistemali ma'naviy hodisa ekan. Ruhning tarkibiy qismiga ong, imon, his-tuyg'u, e'tiqod, tafakkur, ijodiy xayel, iroda kabi ma'naviy elementlar (bo'laklar) kiradi. Shu elementlar ichida ong o'zining funksiyasi va ahamiyati bilan ajralib turadi. Ong orqali inson voqyelikni ma'lum aniqlik bilan in'ikos etish, o'z faoliyatini rejalashtirish va nazorat ostiga olish, bo'lajak voqyealarni bashorat qilish imkoniyatiga egadir. Manna shu hislatlar ongni ruhiyat sistemasida markaziy o'rinni egallashini belgilab beradi.

Ong masalasi ustida fikr yuritganimizda, eng avval u insonga xos bo'lgan in'ikos etish, voqyelikni bili shva o'zgartirishga qaratilgan faoliyatni boshqarishdan iborat bo'lgan ruhiy hodisa ekanligiga e'tibor berishimiz kerak. Shu nuqtai nazarda turib, ongning qo'yidagi ta'rifini berishimiz mumkin: ong voqyelikni hissiy va aqliy in'ikos etish shakli, ruhiy (ma'naviy) o'zlashtirish vositasi bo'lib u inson faoliyatni rejalashtirish, yo'naltirish va boshqarish funksiyasini bajaradi.

Inson ruhining ko'rinishi va taraqqiy etish bosqichi sifatida ong bir qancha muhim hossalarga ega: faol holatda bo'ladi; ongning faolligi ma'lum predmetga (bilish, reja tuzish shaklida) yo'nalgan bo'lishi; o'z-o'zini anglashi; ong tomonidan o'zining elementlarini (obrazlarni, tasavvurlarni, tushunchalarni) ijodiy tarzda shakllantirishi; mavjud bo'lgan idtimoiy, ma'naviy va ilmiy qadriyatlarni tanqidiy

tahlil qilishi, ularni qayta ko'rib chiqish asosida yangi qadriyatlarni vujudga keltirishi (refleksiya hodisasi) va boshqalardir. Shu bilan birga, ong butunday mustaqil, obyektiv holda mavjud bo'lish hislatiga ega emas. Ongning foallidagi inson miyasi va kishilarning aloqa bog'lash vositasi bo'lgan til orqali namoyen bo'ladi. Demak, ong nomoddiy ruhiy hodisa vsifatida o'z funksiyalarini moddiy – biologik, fiziologik va ijtimoiy jarayenlarga asoslanib ruyebga chiqaradi. Bu yerda yana bir muhim narsaga e'tibor berish lozim: ijod qilish funksiyasi, hislati onga (ruhga), yaratish, buned qilish kuchi va faoliyati esa insonga xosdir. O'z navbatida ruh, uning ijod qilish qobiliyati, hamda, yaratish faoliyati birgalikda insonning eng qimmatli fazilatlariga qatoriga kiradi.

Ongning muhim hislatlaridan biri – bu voqyelikning in'ikos ekanligidir. Shunday ekan, ong va in'ikos hossasi o'rtasidagi munosabatga doir savolni to'g'ilishi tabiiydir. Ongning mohiyatini chuqurroq tushunish uchun in'ikos tushunchasini tahlil qilish lozimdir.

Xo'sh, in'ikos? In'ikos – bu ta'sir etayotgan obyektning belgilarini, tomonlarini ta'sirlanuvchi predmetda «izlar» /qiyefa, struktura va hokazo/ shaklida qoldirish, qayta tiklanish jarayenidir. In'ikos hossasi predmet va hodisalarning o'zaro aloqadorligi, o'zaro ta'siri natijasida namoyen bo'ladi.

Ongning o'zi in'ikosning rivojlangan, oliy shaklidir. Uning kelib chiqishi zaminida esa jonsiz va jonli tabiatda moddiy jaren sifatida namoyen bo'lgan in'ikos hossasining taraqqiyoti yetadi.

Jonsiz tabiatda mavjud bo'lgan in'ikos hossasi mustaqil, faol rol o'ynamaydi. Ya'ni iz yeki belgi sifatida hosil bo'lgan in'ikos shu hossaga ega bo'lgan predmetga aks ta'sir ko'rsatmaydi, biron-bir funktsiya tarzida «ishlatilmaydi». Bundan farqliroq, jonli tabiatda in'ikos tirik mavjudotlarning yashashi va faoliyatida aktiv, faol rol o'ynaydi, turli xil biologik jarayenlarda qatnashadi.

Jonli tabiatla in'ikos hossasining tobora murakkablashib borishi inson ongiga taalluqli bo'lgan belgilarni /his-tuyg'u, axborotni qabullash va qayta ishlab chiqish, tahlil, vaziyatni idrok etish va hokazolarda/ vujudga kelishida namoyen bo'ladi.

Ongning kelib chiqishi masalasini tahlil qilishda ong shunchaki jonli tabiat evolyusiyasining bevosita davomi, natidasi bo'lmasdan, balki biogeosenoz /moda va energiya almashinuvi asosida tirik organizmlarning hayot sharoitini tarkibiy qismiga kiruvchi notirik elementlar va qatlamlar bilan birlashishlaridan kelib chiqqan murakkab sistema/ taraqqiyoti jarayenida biologik tizimdan ijtimoiy

tizimga o'tishda sodir bo'lgan sifat o'zgarishi ekanligiga e'tibor berish lozim. Shu bilan birga, biologik in'ikosning rivojlanishi ongning vujudga kelishi uchun zarur shart-sharoit, zamin yetkazib berganligini ta'qidlash joizdir.

Arxeologiya va antropologiya fanlari bergan ma'lumotlarga qaraganda ongning kelib chiqishi mehnat va ijtimoiy munosabatlarning taraqqiyoti bilan belgilangan. Olimlarning aniqlashlaricha, inson yuqori darajad takomillashgan, tuzilishi bo'yicha maymun va olamga yaqin turgan progomenidlardan kelib chiqqan.

Paydo bo'layotgan yangi sosial munosabatlar, o'zaro aloqalar, narsa va hodisalarning barkaror hossalarni idrok qilish qadimgi ibtidoiy odamlarda ularni ma'lum signal sistemasi orqali ifoda etish ehtiyejini to'g'diradi. Semantik /ma'noli/ mazmunga ega bo'lgan tovushlar chiqarish qobiliyati asosida asta-sekin ifoda etuvchi belgilar tizimi bo'lgan til vujudga kelgan.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi, jamoalarda mehnat taqsimotining yuzaga kelishi ongning mazmunini boyitishga, bilimlarni ko'payib borishiga, inson aqlini ijodiy hislatlarini ortib borishiga, ijtimoiy ongning turli shakllarini /san'at, axloq, din va hokozolar/ paydo bo'lishiga olib kelgan.

2. Biz bilamizki ong o'zaro aloqada bo'lgan turli unsurlardan tashkil topgan murakkab ma'naviy tuzilishga ega. Ong in'ikosining o'ziga xos shakli ekan, avvalo, unda aks ettiriladigan obyekt haqidagi muayyan bilimlar hissiy va rasional shaklda o'z ifodasini topadi. Demak, bilim ham ong tuzilishining asosiy unsuridir. Shuning uchun ham bilimlarning boyib borishi ong rivojlanishini harakterlaydigan muhim belgi sifatida yuzaga chiqadi. Ong tuzilishining yana bir unsuri xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan kechilmalardir, ularda in'ikos obyektiga munosabat gavdalanadi. Bilimlarimizning chuqurligi va ko'lamligi hissiyotlarimizning namoyon bo'lishi yoki bo'lmasligi intilishimiz-irodamizga bog'liq. Iroda kuchi olamni anglash jarayonida yuzaga keladigan, har qanday to'siqlarni yengib o'tishga, ko'zlangan maqsad yo'lida tinmay harakat qilishga yo'l ochadi. Endi iroda nima, uning ong bilan bog'liqlik tomoni nimada ekanligini tushunishimiz kerak.

Iroda-(arabcha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, hohish, istak, maqsad degan ma'noni anglatadi). Iroda-insonning ma'lum maqsad yo'lidagi o'z hatti- hrakatini ongli yo'naltirilib turishi, shu yo'lda qat'iyatliliigi, mavjud to'siqlarni yenga olishga qodir bo'lgan ruhiy-ma'naviy salohiyati. Iroda inson faoliyatining muhim xususiyati, uning hayot mazmunini belgilaydigan muhim omil hisoblanadi. Irodali odamda maqsad va faoliyat izchilligi kuzatiladi. Oldinga qo'yilgan maqsadga

irishishga bo'lgan ishonch irodaning muhim kuchi, bosh mezonidir. Zero, qat'iy ishonch maqsad yo'lidagi qiyinchiliklarni yengishga ruhiy asos yaratadi. Ilohiyotchilar irodani ollohga va shaxsga bog'liq deb talqin qiladilar. Shu ma'noda olloh iroda va bandaning irodasi degan tushunchalar vujudga kelgan. Olloh irodasi inson irodasiga nisbatan ancha keng, undan ustun tushunchadir. Olloh irodasi tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarining o'ziga xos me'yorini, muvozanatini belgilovchi kuch sifatida qaraladi. Har bir jamiyatning taraqqiyoti, uning ilg'or g'oyalarining amalga oshishi, mazkur jamiyat a'zolarining irodasiga bog'liq holda amalga oshadi. Shu ma'noda, xalq va millat irodasini shakillantirishga iroda tarbiyasiga ajdodlarimiz azaldan alohida e'tibor berib kelgan. Irodali bo'lish e'tiqodli bo'lish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ma'lum qarashlar, ta'limotlar, e'tiqodlarning g'oyaviy asosini yaratib beradi. E'tiqodning zaif yoki mustahkamligi, umuminsoniy va milliy manfaatlarga mos kelishi yoki kelmasligi ham irodaning mustahkam bo'lib shakillanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Alohida e'tiborga loyiq bo'lgan masala insonga xos o'z-o'zini anglash qobiliyatidir. Bunday qobiliyat tufayli kishi o'zligini taniydi, qaysi ijtimoiy guruhga, jamoaga, xalqqa mansub ekanligini belgilaydi, ma'naviy va amaliy faoliyatini yo'nalishini aniqlab, reja tuzadi. O'z-o'zini anglash, jamiyatda ishlab chiqilgan mezonlarga tayanib o'z shaxsiyatiga baho berish insonni shakillanishida, uning kamolatga yetishida muhim rol o'ynaydi.

O'z-o'zini anglash – bu insonning o'ziga oid u yoki bu darajada anglangan tasavvurlar, tushunchalar va g'oyalar sistemasi bo'lib, shu sistema / tizim / asosida boshqa kishilar bilan muloqatda bo'ladi, uzligini bilib oladi o'zi ishlab chiqqan tushuncha va tasavvurlarga, amaliy faoliyatiga baho beradi. O'z-o'zini anglashning yuqori bosqichini refleksiya tashkil qiladi.

Refleksiya (lot.refleksio – orqaga yoki utmishga qaratish, murojat qilish)- insonga xos bo'lgan o'z-o'zini anglash, fikr yuritish shaklining, bilimi va ruhiy xolatining asoslarini tahlil qilishga moyilligini bildiradi. Refleksiya jarayonida kishi o'zining ma'naviy qadriyatlarini mohiyati va zaminini, o'z faoliyatining prinsiplarini, hamda, iymoni va e'tiqodining asosini tashkil qilgan tasavvurlarni, ideallarni / oliy maqsad, yuksak orzu / qaytadan tanqidiy ko'rib chiqadi, yangi ma'naviy / mafkuraviy, falsafiy, axloqiy va hokazalar, qadriyatlarning ishlab chiqadi. Refleksiyali tarzda anglashning turli shakllari va ko'rinishlari mavjuddir.

Xususan, sodda / kundalik hayotga oid, ta'lim-tarbiyaviy, uslubiy, ilmiy, falsafiy ko'rinishdagi refleksiya / yoki refleksiv tarzda / fikr yuritishning shakillarini ajratib ko'rish mumkin. Jamiyat, ijtimoiy tuzim bir tuzimdan ikkinchi tuzimga o'tish davrida refleksiya tarzda fikrlashga ehtiyoj kuchayib ketadi. Bu ayniqsa O'zbekistonning milliy istiqloq mafkurasini ishlab chiqish va hayotga



tadbiq etishda ko'rinib turibdi. Ongning tabiiy-tarixiy zamini, kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi tasovvurlar hosil bo'lganidan keyin uning til orqali ruyobga chiqish va faol ko'rsatish mehanizmini ko'rib chiqish lozimdir.

Til o'zida ma'lum ma'no va axboratlarni mujassamlashtirgan belgilar / signallar / tizimi bo'lib, bu tizim ijtimoiy aloqalarni amalga oshirishga yordam beradi, bilish jarayonini natijalarini bildirish, ma'naviy qadriyatlarni yaratish, saqlash va tarqatish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Til ruhiy faoliyatning, ongning belgilash va axboratlash qobig'ini tashkil qiladi.

Moddiy va ma'naviy ishlab-chiqarishni, ijtimoiy hayotni tarmoqlanishi jamiyatda tilning ko'rinishlari va tizimlarini turlicha / tabiiy va sun'iy, kundalik hayot va fan-texnikaga oid tillarni / bulishini belgilaydi. Til tufayli ruhiy faoliyatni, bilish jarayonining natijalari bunyodga keladi, saqlanadi, bir avloddan ikkinchi avlodga o'tadi, ruhiyat muammosining muhim tomoni onglilik va g'ayrishauriylikni / ongsiz ravishda, o'zi bilmagan holda, beihitoy xususiyati, ularning o'zaro munosabati masalasidir. Bu masalani tahlil qilish inson ruhini ong bilan bevosita bog'lanmagan, rsatadigan ta'sirini tushunishga yordam beradi.

Inson o'z ongi, tafakkuri tufayli tabiat, jamiyat va ruhiyatni mohiyati va rivojlanishi qonunlarini tadqiqot qiladi. Onglilik – bu inson tomonidan aqliy bilish shakillari va uslublari yordamida tabiiy, ijtimoiy va ruhiy hodisa va qonuniyatlarni bilish, o'zlashtirish va boshqarish faoliyatini bildiradi. Lekin insonning faoliyati, xatti-harakati har doim ongli ravishda yuz bermaydi. Kishining ruhiy olamida ong, aql-zakovat maskaniga yetib bormasdan o'zini namoyon qiladigan g'ayrishauriy jarayonlar ham mavjuddir. Ongning bevosita ishtirokisiz yuz beradigan, mantiqiy qonuniyatga ega bo'lmagan ruhiy jarayonlar «g'ayrishauriylik» so'zi bilan ifodalanadi. G'ayrishauriylik voqyelikdagi hodisalarga javoban sodir bo'ladigan shunday jonli ruhiy jarayonki, qaysiki inson uni anglamasdan, beixitoy amalga oshiradi. Gipnoz, xavsirash, intuisiya g'ayriixitoyiy xis, ijodiy ilhom, psixoterapevtning muolajasidan olingan ta'sir kabi ruhiy jarayonlar, g'ayrishauriylikning namoyon bo'lishi shakillarini tashkil qiladilar.

G'ayrishauriylikning mohiyati, uning inson hayotida tutgan o'rni masalasida ko'p munozaralar olib borilmoqda, turli hil ta'limotlar ishlab chiqilgan. Nisshe, Freyd, Bernshteyn va boshqalar. G'ayrishauriylikning inson uchun ahamiyati shundan iboratki, bu ruhiy xossa kishiga tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan va tobora murakkablashib borayotgan hodisalarga nisbatan muhim moslashuv, muammolarini noan'anaviy yo'l bilan hal etish, ma'lum vaziyatga ta'sir ko'rsatish quroli sifatida xizmat qiladi. Ong xotira bilan alaqadorlikda rivojlanadi.

Xotira tasavvur va tushunchalarni hissiyotdan so'ng saqlanib qolishi, boshqacha aytganda, bu tasavvurlar, obrazlar saqlanadigan joydir. Fikrlash jarayonida xotira bo'lmaganda edi, inson xulosa hukm chiqara olmas edi, empirik hayotdan boshqani bilmas edi. Xotira psixalogiyada individning olam bilan o'zaro ta'siri natijalarini saqlab qolishi mazkur natijalarni keyingi faoliyatda qayta hosil qilish va ulardan foydalanish, ularni qayta ishlab, tizimlarga birlashtirish imkoniyatini beradi, u voqeyelikning muayyan individ tomonidan tuzilgan psixik modellari ruhiy namunalarning majmuidir. Xotiraning fiziologik mexanizmlari hozirgi vaqtda jadal ilmiy tadqiqotlar mavzui bo'lib qoldi.

Xotira tafakkur va undan hosil bo'lgan faoliyat turlari bilan mahsulning jarayon bilan aloqasi kabi bog'liq bo'ladi. Individ bilan muhitning bevosita munosabatlaridan tarkib topadigan, voqeyelikning psixik modellari g'ayrinutqiy, oddiy xotiraning mazmunini tashkil etadi. Bu modellarning tuzilishi ma'lum vaqt ichida obyektlar ta'sirining tulaligicha va o'zaro ta'siri tabiatini belgilovchi ehtiyojning qaysi hilda ekanligiga bog'liqdir. Oddiy xotira ustida vujudga keluvchi oliy, nutqiy xotirada narsalar obyektiv munosabatlarning modellari mustahkamlanib qoladi.

Nutq tufayli inson modellashtiruvchi obyektlarning bevosita ta'sirsiz, anglab olingan maqsad ta'siri ostida xotiraning mazkur shakli tuzilishining qayta hosil qilishga qodirdir, bu esa pirovardida xotiraning narsalarning obyektiv mantig'iga bo'ysinishiga olib keladi, ya'ni mazmunni esda qoldiradigan va qayta hosil qiladigan bo'ladi.

Keyingi yillarda « Informasion portlash » tushunchasi tez-tez ishlatilmoqda. XX asrning eng muhim yutuqlaridan biri kompyuterlarining yaratilganligidir. Ularning yaratilishi, bir tomondan, inson ongi, afakkuri, kuch-qudratining, ikkinchi tomondan, ana shu kuchga tushadigan yukning yengillashishiga xizmat qiladigan vositani yaratish yo'lidagi urinishlarning natijasi bo'ldi. XX asrning o'rtalarida paydo bo'lgan bu vosita shiddatli rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Dastlab sekundiga minglab operatsiyalar bajara oladigan kompyuterlar bo'lgan bo'lsa, ularning bugungi avlodi 10 millionlab murakkab operatsiyalarni bajara oladi. Kompyuter qanchalik murakkab operatsiyalarni bajarmasinlar, inson tomonidan pragrammashtirilgan jarayonlarnigina amalga oshiradilar, undan tashqariga chiqa olmaydilar. Insonning fikrlash jarayoni ongsizlik, onglilik, kechinmalar ijod kabi hodisalarni qamrab oladi.

Kompyuter esa bunday xususiyatlarga ega emas shunday ekan, kompyuterlar insonni muayyan yo'nalishlardagi aqliy faoliyatini yengillashtirishga xizmat qiladi va o'zining yaratuvchisi ustidan hukmron bo'la olmaydi. Kompyuter texnologiyasi

qanchalik rivojlanmasin, baribir inson ongining mahsulidir. Ongning rivojlanishi bashorat bilan ham bog'liqdir. Bashorat — tabiat va jamiyat hodisalarining kelajakdagi holati yoki hozirgi kundagi noma'lum mohiyatini aniqlashga qaratilgan taxmindir. Bashorat ilmiy va noilmiyga bo'linadi. Ilmiy bashorat tabiat va jamiyat qonunlari va faktlariga asoslangan intuitiv asosda, insonning oldindan sezishi kundalik asosda – hayotiy tajribasini umumlashtirishdan kelib chiqadi.

Bashorat umuman olganda, turli shakllarda namoyon bo'ladi: masalan, tirik organizmlarga xos bo'lgan oldindan payqash – ya'ni inson intellektual faoliyatida o'z tajribalariga asoslangan holda kelajak haqida fikrlash, pragnozlash: hodisalar, jarayonlarning kelajagi haqidagi maxsus ilmiy tadqiqotlik bo'lib, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlari asosidagi xulosalardan kelib chiqqan ilmiy bashorat, vaqtda cheklangan muayyan oldindan ko'rish orqali oldindan aytib berish hisoblanadi. O'tmish va bugunni noma'lum hodisalarini bashorat qilishni bir necha shakllari bor, masalan, ba'zi bashorat kelajak hodisalariga munosabatni o'rnatish bo'lsa, rekonstruktiv — o'tmish hodisalaridan uning ba'zi, saqlanib qolgan uning bo'laklari asosida bashorat qilish; reversiv bashorat – hozirgi tendensiyalarni o'tmishga qarab mantiqiy davom ettirish, prezentiv bashorat-raqib tomonidan oshirilgan yoki ayni paytda amalga oshirilayotgan harakatning bashorati, bu bashorat harakat subyektiga ham ma'lum bo'lmasligi mumkin; imitasion bashoratlar u yoki bu metodning ishonchliligini aniqlash maqsadida hodisaning uzoq o'tmishdan yaqin o'tmishgacha rivojlanishi haqidagi bashorat va hakoza shakllarda uchraydi.

Ilmiy bashoratning falsafiy masalalariga bashorat mantig'i va bashorat gnasalogiyasi hamda bashorat va gipotezaning o'zaro munosabati, voqyelikni inson ongida oldindan aks ettirish masalalari kiradi. Hozirga qadar jamiyat hayotining barcha jabhalaridan keyingi rivoji ilmiy mulohazalarsiz va uning asosida kelajakni ilmiy bashorat qilish asosida oldindan ko'ra bilishsiz mumkin bo'lmaydi. Voqyealar davomiyligini oldindan ko'ra bilishlik ularni mulohaza etish, hodisalar o'zaro aloqadorligini ochish fan mavjudligini zaruriyati bo'lib, ular amaliy faoliyat uchun xizmat qiladilar. Zero, ilmiy bilishning asosiy vazifasi – tabiiy va ijtimoiy muhitni o'zgartirishida insonning asosiy quroliga aylanadi. Ilmiy bashorat turli fanlarda turlicha namoyon bo'ladi va ilmiy bilishning asosiy alohida uslubi bo'lib ham hisoblanadi.

Har qanday fan ilmiy bashoratlarsiz o'z ma'nosini yo'qotishi mumkin. Har qanday nazariyaning qiymati uning ilmiy bashorat qilish imkoniyatlari, hodisalar haqiqatiga muvofiqligi va o'z natijalarini qayta ko'rish, ularni o'zgarishlar jarayoniga tatbiq etish bilan belgilanadi. Jamiyat, ijtimoiy borliq moddiy va

ma'naviy jabhalardan iboratdir. Jamiyatning ma'naviy tomoni kishilarning turli hil faoliyatlari jarayonida namoyon bo'ladigan kundalik / odatdagi, har kungi / ong, estetik xis – tuyg'u, axloqiy ong, siyosiy qarashlar, fan, falsafa, jamoatchilik fikri va boshqa ruhiy xosilalardan tashkil topgan.

Jamiyatda ruhiy xosilalarining turkumlanishi ruhiy faoliyatni amalga oshiradigan subyektni / kishilarni, guruhlarni, ijtimoiy tabaqalarni / kulami va miqyosidan, inikos etilayotgan perdm et va sohalarni sifat jihatidan turlicha bulishidan, har bir ong shakli uchun o'ziga xos aks etish uslubi va aniqlik darajasi mavjud bo'lishidan, hamda, ruhiy, ma'naviy qadriyatlar yaratilayotgan jabhalarda mehnat taqsimoti sodir bo'lishidan kelib chiqadi.

Ruhiy faoliyatning mazmuni va subyektiga qarab ong ikki turga individual shaxsga oid, individual va ijtimoiy ongga bo'linadi. Ong alohida insonga mansub bo'lgan kundalik tasavvurlar, ilmiy bilim, dunyoqarash, iymon, e'tiqod va xis – tuyg'ulardan iborat bo'lgan ruhiy mahsulot bo'lib, u kishining xissiyoti, kechinmalari, ijodiy izlanishlari tufayli qaytarilmas belgi va xususiyatlarga ega bo'ladi. Shaxsiy ongning eng muhim xislati – uning ijodiy kuchga, yangi bilim va ma'naviy qadriyatlar ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishdir, individual ongning belgilari va xususiyatlarini tahlil qilganda, uning ijtimoiy ongga bo'lgan munosabatini ko'rib chiqish lozim.

Individual ong tarkibida ijtimoiy ongga xos bo'lgan qarashlar, ga voqyelikni, ijtimoiy borliqni anglash va o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy ongda ijtimoiy guruhlarning / fuqarolar jamoasi, tabaqalar, millatlar va hakoazalar / umumiy manfaatlari, voqyelikka bo'lgan munosabatlari aks etilgan bo'lib, u tegishli tasovvurlardan, ta'limotlardan va g'oyalardan tashkil topgan. Ijtimoiy ongning manbai – bu birinchidan, ijtimoiy borliq, kishilarning hayoti, ikkinchidan, shaxs va ommaning ijodiy faoliyatidir.

Ijtimoiy ong bilan shaxsiy ongni o'zaro munosabati ziddiyatli belgiga egadir, shaxsiy ong ijtimoiy ongga qaraganda rang – barang, tez o'zgaruvchan, ijodiy quvvati katta bo'lgan ruhiy xosiladir. Ijtimoiy ong esa insoniyatning borliqqa bo'lgan munosabatini tushuntirishga, ayni paytda, mavjud holatni saqlashga qaratilgan xislatga ega bo'lgan ruhiy hodisadir, ikkinchi savolni tahlil qilishda ijtimoiy ongni tuzilishi va inikos etish darajasiga etibor berish kerak. Ijtimoiy ong borliqni inikos etishi xususiyati va sifatiga, kishilarning o'z oldilariga quygan maqsadlari va intilishlari u yoki bu xilda ifoda etishga qarab darajalarga va shakillarga bo'linadi. Tahlilni kundalik / odatdagi, har kungi / ong va nazariy ong darajalarini farq qilishdan boshlash kerak. Kundalik ong amaliy faoliyat bilan

bog'langan ijtimoiy va shaxsiy hayot jarayonlarini aks ettiradigan, nazariy tizimga solinadigan, lekin yaxlit shaklga ega bo'lgan ruhiy xosiladir.

Nazariy ong ijodiy ravishda ishlab chiqilgan, mantiqiy tizimga solingan tushunchalar, prinsiplar / nazariy va amaliy faoliyat uchun asos qilib olinadigan qonun – qoidalar / va ta'limotlar majmuidir. Nazariy ong bosqichida olam, tabiat va jamiyatda amal qiladigan qonuniyatlar, aloqadorliklar ochiladi va tahlil qilinadi. Jamiyatni, davlatni va ijtimoiy guruhlarning manfaatini aks ettiradigan ijtimoiy g'oyalar, qarashlar va ta'limotlar tizimi mafkurani tashkil qiladi, mafkura orqali ijtimoiy guruhlar, xalq ommasi o'z oldilarida turgan vazifa va maqsadlarini anglaydilar, ijtimoiy va ma'naviy jarayonlarga baho beradilar.

Yangi mafkura shakillanayotgan bir paytda, unga muvofiq keladigan ijtimoiy iqtisodiy dastur va ma'naviy faoliyat tizimi shlab chiqiladi. Hozirgi vaqtda yurtimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri O'zbekistonning milliy istiqloq mafkurasini ishlab chiqish, rivojlantirish va hayotga tadbiiq qilishdir.

Respublikamiz prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, milliy istiqloq mafkurasi xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabir-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirish lozim. Kundalik hayot bilan bog'langan va amaliy ongga yaqin turgan ijtimoiy ong- ommaviy ruhiyatdir. Ommaviy ruhiyat kishilarning xistuyg'ulari, tizimga solingan yoki solinmagan tasavvurlar, axloqiy va estetik qarashlar, hayolii obrazlar, an'anaviy bilimlar majmuidan iboratdir. Ommaviy ruhiyat kishilarning faoliyati va hatti harakatiga, davlat va pvtiyalar qabul qilgan qarorlarga ma'lum munosabatni bildirishga, jamoa bo'lib faol choralar ko'rish jarayonlariga ta'sir qiladi. Ijtimoiy ruhiyatning ko'rinishlaridan biri jamoatchilik fikridir.

Jamoatchilik fikri — bu umumii manfaatlar orqali o'zaro bog'langan guruhlarni ijtimoiy hodisalarga bo'lgan munosabatlarini ifoda qilgan fikrlar va tasavvurlar yig'indisidir. Jamoatchilik fikri ijtimoiy maqsadlar, tavsiyalar, talablar va jamiyatda bo'layotgan hodisalarga o'z munosabatlarini bildirishda namoyon bo'ladi. Jamoatchilik fikrining mazmuni, yo'nalishi va ta'sirchanligi ko'p jihatdan oshkoralik darajasi bilan belgilanadi. Oshkoralikning mohiyati shundan iboratki, har bir fuqaro o'z fikrini ochii ravishda, turli axborot vositalari, anjumanlar va majlislar orqali bildirish huquqiga egadir. Oshkoralikni bug'ish yoki cheklash rasmiy kishilar, bironbir guruh tomonidan o'zlarining shaxsiy / juziy / manfaatlar foydasiga amal- mansabdan foydalanish uchun qulay sharoit yaratadi.

Ijtimoiy ongni asosiy shakllarini, ularga xos bo'lgan belgilarni tahlil qilib berish lozim. Bunda ijtimoiy ong nafaqat sifat va darajasi bilan, balki borliqni qaysi sohalarini, qanday uslub bilan inikos etishga qarab farqlanishiga, alohida shakllarga bo'linishi mumkinligiga e'tibor berish kerak. Ijtimoiy ong shakllari kundalik ong va jamoatchilik fikridan farqliroq, voqyelikni mantiqiy, nazariy, qonun-qoidali / normativ / an'anaviy va badiiy-obrazli inikosni berish orqali yaxlit, tartiblashtirilgan ong tarzda vujudga keladilar. Ijtimoiy ong shakllari bir-biridan inikos etish obyekti va shakli, ijtimoiy funksiyalari / vazifalari / va o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari mavjudligi bilan farq qiladilar.

Tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanib, talabalar ijtimoiy ong shakllari bo'lgan siyosiy ongni, huquqiy ongni, axloqiy, estetik, diniy ongni, hamda fan va falsafano'zlariga xos xususiyatlarini, ijtimoiy taraqqiyotga ko'rsatadigan ta'sirlarini tahlil qilib berishlari lozimdir.

3. Bilim va bilish, bilishning bosqichlarini yoritishimiz kerak. Bilim – ijtimoiy-tarixiy, amaliyotda tekshirilgan va mantiqan tasdiqlangan, voqyelikning bilish jarayonida erishilgan natijasi; shu voqyelikni inson ongida tasavvurlar, tushunchalar, muhokama va nazariyalar orqali ifodalangan in'ikosi. Kishilarning tabiat va jamiat hodisalari haqida hosil qilgan ma'lumotlari; voqyelikning inson tafakkurida aks etishi. Kundalik tasavvurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va ishonchimiz biz odatlangan voqyea va hodisalarga (qoidalarga) zid kelmasa, bunday ishonch bilim hisoblanadi. Voqyelik haqidagi bilgan ma'lumotlarimiz bilim darajasiga ko'tarilishi uchun qo'yidagi shartlarni qanoatlantirishi lozim: birinchidan, bu ma'lumotlarning voqyelikka mutanosibliigi; ikkinchidan, yetarli darajada ishonarli bo'lishi; uchinchidan, bu ma'lumotlar dalillar bilan asoslangan bo'lishi kerak. Uchala shart birgalikda mavjud ma'lumotlarni bilim darajasiga olib chiqadi. Inson ijtimoiy taraqqiyot jarayonida bilmasilikdan bilishga, mavhum bilimlardan mukammal va aniq bilimlar hosil qilish tomon beradi. Kishining moddiy dunyo to'g'risidagi bilimi nisbiydir, u doim rivojlanib boradi. Bilim kundalik tajriba, kuzatish orqali to'planadi. Bilimlarni tadqiq etuvchi ta'limot – epistemologiyada persetiv (hissiy), hayotiy-kundalik (sog'lom aql) va ilmiy bilim shakllari ajratib ko'rsatiladi. Ilmiy adabiyotlarda bilimlarning ilmiy va ilmdan tashqari shakllari ham farq qilinadi. Ilmdan tashqari bilimlarga madaniyat, adabiyot, san'at, mifologiya, din va sh.k. sohalarga oid bilimlar kiradi. Odatdagi fan sohalarida tadqiq etiladigan bilimlar ekzoterik (ko'zga tashlanuvchan) bilimlar deb atalsa, astrologiya va sh.k. sohalarga oid bilimlar ezoterik (pinhoni) bilimlar deyiladi. Ekzoterik bilimlar ilm-fan qoidalariga zid kelmaydigan bo'lsa, ezoterik bilimlar bunday qoidalarga zid kelishi mumkin.

Bilishning mohiyati, mazmuni bilan bog'liq masalalarning tahlili uzoq o'tmishiga ega. Odamlar qadim zamonlardayoq o'zlarini o'rab turgan olam, undagi narsa va hodisalarning mazmun-mohiyatini o'rganganlar, ularning qadri to'g'risida fikr yuritganlar. Zamonlar o'tishi, jamiyat rivoji davomida bu boradagi masalalar ko'lami kengaygan, ularni ham qilishning ahamiyati ortavergan.

Inson, uning ongi va bilimi to'g'risidagi fanlar orasida gnoseologiya va epistemologiya alohida ajralib turadi. Ularning birinchisini umumiy bilish nazariyasi yoki bilish falsafasi deyish mumkin. U tirik jonzotlardan faqatgina odamzotga xos xususiyat – bilishning tabiati va imkoniyatlari, inson bilimining voqyelikka munosabatini o'rganuvchi, bilimning haqiqiyliги va ishonchliligini aniqlash yo'llari, usullari to'g'risidagi falsafiy fandır. «Gnoseologiya» grekcha so'z bo'lib, «*gnosis*»-bilish, «*logos*»-nazriya, ya'ni bilish nazariyasi, bilish to'g'risidagi ta'limot ma'nolarini anglatadi. «Gnoseologiya» atamasi falsafaga nisbatan yaqinda (1854 yilda) shotland faylasufi D. Ferar tomonidan kiritilgan bo'lsada, biroq u Zardusht, Suqrot, Platon, Aristotel davrlaridayoq shakllana boshlagan edi. «Olam va odam» tizimida dunyoni anglash, subyekt va obyekt o'rtasidagi munosabatlar dialektikasi gnoseologiya shug'ullanadigan masalalar ko'lamini belgilaydi. Bu masalalar insonning bilish faoliyatidan iborat eng umumiy mavzuni tashkil qiladi. Gnoseologiya kundalik yoki maxsus, ilmiy yoki badiiy faoliyatligidan qat'iy nazar, insonning bilish faoliyatidagi umumiylikni o'rganadi. Shu bilan birgalikda «epistemologiya» atamasi ham uchraydi. Agar gnoseologiya umuman bilish haqidagi ilm bo'lsa, epistemologiya esa, asosan, ilmiy bilish to'g'risidagi fandır. Epistemologiya gnoseologiyadan farq qiladi. Epistemologiya asosan ilmiy bilish tahlili bilan shug'ullanadi, dunyoni ilmiy bilish esa kundalik, badiiy, diniy va boshqaturlardagi bilishda uchraydigan bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, ilmiy faoliyatda amalga oshiriladigan bilish prosedura va operasiyalari, abstraksiyalarning paydo bo'lish mezonlari va ilmiy usullari bilish nazariyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Gnoseologiyada esa nafaqat ilmiy bilish, balki umuman onsonga xos bilish bilan bog'liq barcha masalalar tahlil qilinadi.

Falsafaga bilim va bilish tasnifi uchun qulay bo'lgan «subyekt» va «obyekt» tushunchalari kiritilgan. Umumfalsafiy jihatdan «obyekt» tushunchasi tashqi olam, borliq, voqyelik va, xususan, moddiylikni ifodalaydi, «subyekt» esa insonni, shaxs, individni anglatadi, degan qarashga mutaxassislar e'tiroz bildirishmaydi. Ammo sof bilish jarayoni tahlil etilayotganda obyekt va subyekt munosabatlari nihoyatda serqirra ekanligi ko'zga tashlanadi. Tabiatshunoslikda borliq, obyektiv reallik, moddiy obyektlar inson bo'lmasa ham yashayveradi, degan fikrga hych kim

e'tiroz bildirmasligi mumkin. Bilish nuqtai nazaridan subyektsiz hech qanday gnoseologik jarayon ro'y bermaydi.

«Subyekt» «ong»ning o'zi emas, lekin shu vaqtning o'zida, odatiy bo'lgan «individ ongi»dan butunlay boshqa narsa emas.

«Bilish subyekti»ning o'ziga xosligi nimada? Ushbu tushunchaga umumiy ta'rif qo'yidagicha: subyekt maqsadga muvofiq faollik, inson amaliy faoliyatining baholashi va bilishining ruhiy-psixologik jihatini ifodalaydigan tushunchadir.

Subyekt, avvalo, individdir. Aynan, u ong, sezgi, idrok, tuyg'u obrazlar orqali aks ettirish, eng umumiy abstraksiyalar sohibi, amaliyot jarayonida real, o'zgaruvchan moddiy kuch bo'lib harakatlanadi. Biroq, subyekt individual emas, balki u kollektiv, sosial guruh, sinf, umuman jamiyat hamdir. Jamiyat miqyosida turli eksperimental tarkib-qoidalar, priborlar, kompyuterlar va boshqalar garchand o'z-o'zicha bo'lmasada, subyuyekt tizimining bir qismi, elementi hisoblanadi. Individ yoki olimlar hamjamiyati darajasida priborlarning o'zi subyektlar faoliyatining vositalari, sharoitlari hisoblanadi. Shu ma'noda jamiyat universal subyekt hisoblanadi, chunki unda boshqa barcha darajadagi subyektlar, avlodlarning hayoti jamlangan, jamiyatdan tashqarida hech qanday bilish yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Ayni paytda, jamiyat subyekt sifatida o'zining bilish imkoniyatlarini individual subyektlarning bilish faoliyati orqali amalga oshiradi.

Obyekt tushunchasi subyektga qarashma-qarshi bo'lgan, subyektning amaliy, baholovchi va bilish faoliyati yo'naltirilgan narsa, voqeya, hodisa va boshqalarni ifodalaydi.

L. Feyerbax ayganidek, «Men» o'zi uchun subyektdir, boshqalar uchun esa obyekt, ya'ni xulosa shuki, «men» subyekt ham, obyekt ham bo'lishi mumkin.

Moddiy hodisalar birga ma'naviy hodisalar ham obyekt bo'lishi mumkin, masalan, individ ongi uning psixikasi uchun bilish obyektidir. Har bir kishi o'z-o'zini, o'z xulq-atvori, hislari, sezgi va fikrlarini bilish obyektini qilishga qodir. Bunday hollarda individ sifatidagi subyekt tushunchasi faol tafakkur sifatidagi, sof «men» gacha torayishi mumkin. Bunday hollarda subyekt maqsadga yo'naltirilgan faollikning manbai sifatida maydonga chiqadi. Umumiy tarzda «obyekt» va «subyekt» tushunchalarini mazmuni ana shundan iborat. Bu tushunchalar turli va, ayni paytda, bir-biriga o'ta olishi ma'nosida o'zaro bog'liq hamdir. Ularning o'zaro farqli qirralari mutlaq qarama-qarshi emas.

Gnoseologiyada obyekt deganda voqyelikning istagan qismini emas, balki subyekt e'tibori qaratilgan fragmenti tushuniladi. U subyekt faoliyatiga jalb



qilinadi va subyektning nazariy yoki amaliy faoliyatining predmetiga aylanadi. Bu faoliyatda faol tomon subyekt bo'lganligi uchun, u ma'lum ma'noda «obyektни vujudga keltiradi» yoki aniqrog'i, predmetni o'z faoliyatining obyektiga aylantiradi. Obyektsiz subyekt yo'q, zero subyektning har qanday faoliyati hamma vaqt predmetlidir. Subyekt va obyekt terminlarida bilish – subyekt tomonidan obyektни faol o'zlashtirish jarayoni ekanligi ifodalangan, paydo bo'ladigan bilim esa bu jarayonning natijasidir. O'zaro aloqadorlik jarayonida obyekt singari subyekt faoliyati ham o'zgaradi, amaliy faoliyat evolyusiyasi jarayonida inson va jamiyat progressi sodir bo'ladi.

Yaqin o'tmishda bilish ikki bosqichdan iborat, deb hisoblanar edi: voqyelikni hissiy aks ettirish va aqliy in'ikos. Keyin esa insonda, ba'zi hollarda, hissiylik aqliylik bilan bog'lanib ketishi aniqlangach, bilim bosqichlari empirik va nazariy ekanligi to'g'risidagi fikrga kela boshlandi, hissiy va aqliy bosqichlar esa empirik va nazariy bilim shakllanadigan zamin, deya hisoblasha boshlashdi. Insonning bilish qobiliyatlari, avvalo, hissiyot a'zolari bilan bog'liq.

Lotinchada «*sensitiv*» – «sezgi bilan idrok qilinadigan» degan ma'noni anglatadi. Falsafa tarixida biz sensualizm deb ataladigan bilishning mohiyatini sezgi a'zolarining ma'lumotlaridan keltirib chiqarishga urinuvchi, o'ziga xos oqimni uchratganmiz. Olam to'g'risidagi axborotni sezgi a'zolari yordamida seza olishdan iborat inson qobiliyati ham hissiy-sensitiv qobiliyat yoki hissiy bilish, deb ataladi.

Inson sezgi a'zolari taraqqiyoti, bir tomondan, organik olam evolyusiyasi, boshqa tomondan esa, ijtimoiy taraqqiyot natijasi hisoblanadi.

O'z davrida L. Feyerbax ta'kidlashicha, «Bizda agar inson ko'proq sezgi va a'zolariga ega bo'lganida tabiat va narsalarni yanada ko'proq xossa va xususiyatlarini bilgan bo'lar edi, deb tasavvur qilishga hych qanday asos yo'q. Ular tashqi dunyodagi organik va noorganik tabiatdagidan ko'p emas. Insonda dunyoni bir butun va yagona holda tasavvur qilish uchun qancha sezgi zarur bo'lsa, o'shancha sezgi bor»<sup>12</sup>, deb ifodalaydi.

Hissiy in'ikosning uchta shakli mavjud: sezgi, idrok, tasavvur. Sezgi predmetning alohida xususiyatiga mos keladi. Idrok predmetning bir butun xususiyatlari sistemasiga mos keladi. Masalan, biron bir meva ta'mini sezish va boshqa tomondan, uning shaklini, hidini, rangini sezish bir butunlikda idrok etishga olib keladi. Sezgilar idrokdan tashqarida bo'lishi mumkin (masalan, sovuqni, qorong'ulikni sezish), biroq idrok sezgilersiz bo'lishi mumkin emas.

<sup>12</sup> Фейербах Л. Избран. филос. произведения. – М., 1955. Т. II. С. 632-633.

Idrokning gnoseologik zamini bo'lgan va mustaqil holda namoyon bo'lishga qodir sezgilar baribir bir butun idrokning bir bo'lagi, qismi sifatida mavjud bo'ladi. Shuning uchun idrok tashqi perdmnetning obrazi bo'lsa, sezgilarga obrazlilikning u yoki bu darajasi xos bo'lishi zarur, To'liqroq obraz, tabiiyki, idrokda bo'ladi, chikni idrok insonning tashqi muhitga faol munosabatining natijasidir.

Sezgilar va idrok tashqi dunyoni hissiy aks ettirish shakllaridir, ularning bilish imkoniyatlari turlicha. Ularning qayd etilgan barcha tomonlari va xususiyatlari hissiy in'ikosning uchinchi shakli – tasavvurga ham tegishlidir, zero tasavvur ularga asoslanadi.

Tasavvurdagi asosiy o'ziga xoslik unda in'ikos ettirilayotgan narsa yoki hodisa bilan bevosita bog'liqlikning yo'qligidir.

Tasavvurdagi o'ziga xoslik unda in'ikos ettirilayotgan narsa yoki hodisa bilan bevosita bog'liqlikning yo'qligidir. Tasavvur mohiya tan idrok orqali, narsaning yaxlit obrazi tarzida, mavjud vaziyatdan uzilgan, biroz umumlashgan, idrokka nisbatan o'ziga xos, ko'proq umumiy belgi va jihatlar ifodalanadigan in'ikos shaklidir. U orqali ilgari idrok etilgan obrazlarning tiklanishi sodir bo'ladi, ya'ni insonning xotirasi, ayni paytda, insonga ta'sir etmayotgan narsa obrazini qayta tiklash qobiliyati ishga solinadi.

Tasavvur orqali subyekt ayni vaziyat bilan bevosita aloqasi yo'q bo'lgan va xotirada saqlangan obrazlarni, ularning elementlarini tiklashga imkon topadi, his-tuyg'ular qayta idrok etishga jalb etiladi. Bunda kelajakni bashorat qilish, fantastik obrazlar, turli kombinasiyalarni amalga oshirish mumkin. Subyektning obyekt bilan bevosita aloqadorligiga bog'liq bo'lmagan tasavvurlar muayyan hodisa doirasidan tashqariga chiqishga, nafaqat hozirgi davr obrazini, balki o'tmishni ham, kelajakni ham tasavvur qilishga imkon beradi. Biron bir narsaning modeli va obrazi, rejalar va simvolik timsollar singari tasavvurdagi obrazlari ham vujudga keladi.

Demak, tasavvur ongimizda narsa va hodisalarning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etmagan holda qayta hosil qilinadigan va saqlanadigan hissiy obrazdir. Yana boshqacharoq ta'rifi ham bor: tasavvur ilgari idrok qilingan narsa yoki hodisaning takroriy obrazidir, hissiy aks ettirishning yaqqol va obrazli ko'rinishdagi shaklidir.

Bilishda hissiy bilishdan yuqoriroq shakli aqliy bilishdir. Aqliy bilishning uchta shakli bor. Kishilarda voqyelikni abstrakt-fikriy aks ettira oladigan qobiliyat

asosida paydo bo'ladigan hamda rivojlanadigan in'ikosning dastlabki va yetakchi shakli tushunchadir. Bilish jarayonida tushunchaning asosiy vazifalaridan biri shuki, u ma'lum guruhdagi narsalarni ba'zan ma'lum, umumiy, muhim belgilariga ko'ra umumlashgan holda ajratib aks ettiradi. Unga quyidagi ta'rif berish mumkin: tushuncha abstrakt tafakkur shakli (yoki turi) sifatida ba'zi narsalarni umulashtirish va shu narsalar uchun umumiy bo'lgan belgilar yig'indisini fikran ajrtish natijasidir. Insonning abstrakt-fikrlash qobiliyati tushunchalar bilan birga voqeyelikni aqliy o'zlashtirishning boshqa shakllarini ham o'z ichiga oladi.

Hukm – fikrning shunday shakli, uning yordamida tushunchalarning haqiqatga mosligi tasdiqlanadi yoki inkor etiladi. Hukmlarni aytayotib, biz tushunchalardan foydalanamiz. Ular hukmlarning elementlari hisoblanadi. Narsalarning mohiyatini bilish asosida ular to'g'risidagi tushunchalar paydo bo'ladi, yagona hukmga birlashishi mumkin bo'lgan yakka hukm yoki hukmlar majmuasi shakllanadi. Narsalarni anglashda erishilgan bu hukm ham tushuncha o'rnida qabul qilinadi. Bilimlar chuqurlashib borishi bilan ularni umulashtirish asoslari ham o'zgaradi. Tushunchalar va hukmlar asosida xulosa shakllanadi. Xulosa chiqarish shunday muhokama yuritishki, uning yordamida mantiqan yangi hukm hosil qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, bir yoki bir necha muhokama olish imkonini beradigan tafakkur shakli aqliy xulosa deb ataladi. Bunday usul bilan mavjud bilimlarga hosil qilinadi.

4. Inson tafakkuri bilishning ko'plab usullari, uslub va shakllarini qamrab olgan murakkab bilish jarayonidir. Ular orasidagi farq shartli bo'lib, bu atamalar ko'pincha sinonim sifatida qo'llaniladi. Shunday bo'lsada, ular orasida tafovutlar bor.

Tafakkur va ilmiy bilim usullari deganda, inson fikr yuritish jarayonida ilmiy bilishning barcha sohalari va istagan bosqichida foydalaniladigan umumiy va gnoseologik operatsiyalar tushuniladi. Ular kundalik, odatdagi hamda ilmiy tafakkurni bir xil tarzda xarakterlaydi. Ilmiy tafakkurda aniq va tartibga solingan tuzilma ko'rinishda bo'lsa ham, tafakkur usullari bilan faoliyati u yoki bu bosqichida fikrni umumiy, gnoseologik yo'nalishini ko'rsatadi. Masalan, butundan bo'lakka, bo'lakdan umumiylikka, konkretlikdan abstraktlikka va boshqa tamonga harakatlarni ifodalaydi.

Uslublar deb, tadqiqotning turli xil jihatlarini o'zida qamrab olgan murakkab bilim jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan tamoyil, usul, qoida va talablar tizimiga aytiladi. Ushbu ta'rif mazmuni shundaki, unda tadqiqot obyekti to'g'risidagi bili

aks etgan. Uslub bilimga, qisman uslub bilan obyekt munosabatini muvofiqlashtiruvchi nazariyaga tayanadi. Uslub–obyektning keng o'rganish maqsadida nazariyadan kelib chiqadigan shartli qoidalar tizimidan iborat. Uslub mazmuni unda obyektiv asos mavjudligini aks ettiradi. Tahliliy asosiy uslubning obyektidan ko'ra subyektga ko'proq bog'liqligini namoyon qiladi. Uslubda tafakkur kuchi, fahimlash imkoniyati mavjudligi yangi usullarni ishlab chiqish va tanlashga ta'sir qiladi. Ko'pincha biron bir nazariyaning asosida faqat subyektiv jihatlarga bog'liq bo'lgan uslub yangilanishi ro'y beradi.

Bu ma'noda uslub subyektlidir yoki Ushbu jihatdan u subyektiv xususiyatga egadir, ilmiy bilish uslubining asosiy jihatlari obyektiv mazmunli, tahliliy va aksialogik jihatlarga ega. Ilmiy bilish uslublarini uch guruhga bo'lish mumkin: xususiy, umumilmiy, universal, xususiy uslublar faqat alohida fanlar doirasida qo'llaniladi, bunday uslublarning obyektiv asosi maxsus ilmiy qonunlar va nazariyalar hisoblanadi. Bu uslublarga, masalan, fizika va kimyoda siyektrol analiz uslubi, murakkab tizimlarni urganishdagi statistik modellashtirish uslubi kabilarni ko'rsatish mumkin umum ilmiy uslublar barcha fanlarda bilish jarayonini xarakterlaydi. Ularning obyektiv asosi o'z tarkibiga gnassologik tamoyillarni ham qamrab olgan umumiy bilish qonuniyatlaridan iborat. Ularga eksperimentiv va kuzatish, modellashtirish, deduktiv va induktiv uslub, abstraktlikdan konkretlikka ko'tarilish kabi uslublar kiradi.

Universal uslublar, umuman, inson tafakkurini tavsiflaydi va inson bilish faoliyati barcha sohalarida foydalanish obyektiv asos bo'lib hisoblanadi. Bu uslublar bizni o'rab olgan tashqi dunyoni, insoniyatning o'zini, uning tafakkuri va insonning olamni bili shva qayta o'zgartirish fikri tushunishning umumfalsafiy qonuniyatlari hisoblanadi. Bu uslublarga tafakkurning falsafiy uslublari va tamoyillari, jumladan, dialektik qarama–qarshilik tamoyili, tarixiylik, an'anaviylik, vorislik, inkorni inkor tamoyili va boshqalar kiradi.

Haqiqat bilish falsafasining eng muhim muammosidir. Falsafa tarixda, umuman falsafada haqiqatni tushunishda turli xil yondashuvlar mavjud. Ya'ni, haqiqat–bilimlarning voqyelikka mosligi».«Haqiqat–bilimlarning tajribada isbotlanganligi». «Haqiqat – bilimning foydaliligi, uning samaradorligi» va hakazo.

Haqiqat bilimning voqyelikka muvofiqligidir, deganda dastlabki xulosa haqiqatning klassik konsepsiyasiga xos asosiy fikrdir. Bizningcha, bu haqiqatning konsepsiyalari orasida eng qadimiysi bo'lib, haqiqatni nazariy tadqiq etish aynan boshlangan deyish mumkin. Haqiqat subyekt tasavvurlarining obyektga (reallikka) mosligidir.

Haqiqat inson tasavvurlarining shunday mazmunidirki, uning qadir–qimmatini o'z subyektiga bog'liq emas. Haqiqat, ma'mum ma'noda, bilimlarning foydaliligi bilan ham bog'liq. U vaqt o'tish bilan moddiy narsalar, ijtimoiy va ma'naviy jarayonlar mohiyati va ularning namoyon bo'lishini to'liqroq aks ettirish bilan o'zgarib, boyib boradi. Haqiqatning turli shakllari mavjud. Ular in'ikos ittirilayotgan obyektning xarakteriga, voqyelik turlariga, obyektning to'liq o'zlashtirish darajasiga va boshqalarga ko'ra xilma–xil shakllarga bo'linadi. Bilish nazariyasida nisbiy va mutloq haqiqat shakllari muhim o'rin tutadi.

Mutloq haqiqat deganda o'z obyektiga aynan mos bo'lgan va bilishning keyingi taraqqiyoti davomida inkor etilmaydigan bilim, xulosa va hukmlar tushuniladi. Bunday haqiqat: 1) O'rganilayotgan obyektlarning umumiy va alohida tamonlarini aniq-ravshan bilish natijasidir; 2) Voqyelikning muayyan jihat va xususiyatlarini tugal bilishdir;

3) Nisbiy haqiqatning keyingi bilish jarayonida ham saqlanib qoladigan mazmunidir;

4) Olam, undagi eng murakkab sistemalar to'g'risida hech qachon inkor qilinmaydigan to'liq bilimdir. Ilmiy nazariy bilimga nisbatan absolyut haqiqat–bu narsa, murakkab tashkil topgan sistema yoki umuman olam to'g'risidagi to'liq, mukammal bilim bo'lsa, nisbiy haqiqat esa ushbu obyekt to'g'risidagi to'liq bo'lmagan bilimdir. Bunday nisbiy haqiqatlarga misol–klassik mexanik nazariyasi va nisbiylik nazariyasidir.

Falsafada absolyut haqiqat nisbiy haqiqatlardan tarkib topadi, deb hisoblanadi. Agar absolyut haqiqatni nisbatan to'liq bo'lmagan bilimlardan iborat cheksiz xudud deb hisoblasak, unda bu xudud ichidagi chekli maydonlar nisbiy haqiqatlarni anglatadi. Shu bilan birga, nisbiy haqiqatlar absolyut haqiqatning qismlari hisoblanadi, demak bir paytda ular ham muayyan darajada absolyut haqiqat hamdir. Nisbiy haqiqat ayni paytda oddiy absolyut haqiqatga olib boruvchi emas, balki absolyut haqiqat tarkibidagi invariant mazmunga ega, ajralmas tarkibiy qismdir.

Haqiqat bu jarayondir. Obyektiv haqiqatning jarayon bo'lish xususiyati ikki xil tarzda namoyon bo'ladi. 1-chidan, bu obyektning to'liqroq in'ikos ettirishga tamon qaratilgan o'zgarishlar jarayonidir, 2-chidan, konsepsiyalar, ta'limotlar strukturasi xatolik va yanglishilganlarga barham berish jarayoni hamdir. unchalik to'liq bo'lmagan haqiqatdan yanada to'liqroq haqiqatga tamon harakat, ya'ni uning taraqqiyoti jarayonida har qanday harakat singari barqarorlik va o'zgaruvchanlik mamentlaridan iboratdir. Bu mamentlar birgalikda ularning bilimning

haqiqiylik mazmuni o'sishini ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda yolg'on haqiqatlar ham mavjud. Haqiqatda noto'g'ri tasavvurlarni oldindan anglangan holda haqiqat o'rnida qo'llashga urinish tushuniladi. Yolg'on kundalik va sosal hayotda chuqur ildiz otgan, insonlar o'zaro aloqa qiladigan barcha joyda uchraydi. Yolg'on–manmanlik, irodasizlik, muvoffaqiyatga berilish, foyda ketidan quvish, hokimiyatga intilish kabi ko'plab sabablar negizida avj oladi.

Yolg'on ko'p hollarda zgalar hisobiga yoki zarariga ustunlikka ega bo'lish bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shunday kishilar borki, yolg'on ular uchun hayot tamoyili va mazmuni hisoblanadi. Bilishda «buhton» tushunchasi ham uchraydi. Buhton–yolg'on bilimni haqiqat sifatida yoki haqiqat bo'lgan bilimni yolg'on sifatida uzatishga urinishdir. Amaliyot haqiqatning mezoni sifatida doimo taraqqiy etadi. Eksperiment, ishlab chiqarish va fanning muayyan muhim darajasidan ko'ra, ularning doimiy harakati, ya'ni amaliyot takomillashuvining uzluksiz jarayoni fandagi u yoki bu xulosalar va nazariyalarning haqiqatligini oxir–oqibat isbotlaydi.

Shunday qilib, haqiqatning asosiy mezoni o'z taraqqiyot va harakati jarayonida olingan amaliyot hisoblanadi. Taraqqiyot jarayonida olingan amaliyot fan xulosalarining haqiqatligini isbotlaydi.

## **8-mavzu: Jamiyat va inson falsafasi.**

### **Reja:**

1. Jamiyat tushunchasi. Jamiyatning taraqqiyot qonunlari. Jamiyat haqidagi turli xil nazariyalar. Jamiyat hayotida barqarorlik va beqarorlik. O'zbekistonning barqaror va tadrijiy rivojlanishidagi xususiyatlar.
2. Taraqqiyotning o'zbek modeli. Jamiyat tadrijiy rivojlanish konsepsiyasi. O'zbek modeli tizimida oilaning o'zni. Jamiyat taraqqiyoti va jamoa, tashkilotlar, davlat va oila munosabatlari.
3. «Odam», «inson», «individ», «shaxs» tushunchalari. Inson tarixning yaratuvchisi va eng ulug' ijtimoiy qadriyat. Insonda tabiiylik, biologik, ijtimoiylik va ma'naviylik uyg'unligi.
4. Ehtiyoj, maqsad va manfaatlar inson borlig'ining tamoyillari. O'zbekistonda o'tkazilayotgan islohotlar inson manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilayotgan jarayon. Demokratik jamiyat qurish va inson qadri hamda erkinliklari.

**Tayanch iboralar:** Jamiyat. Beqarorlik. Barqarorlik. Tadrijiylik. Vorislik. Taraqqiyot. O'zbek modeli. Jamiyat va oila. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi. Odam. Inson. Shaxs. Ijtimoiy o'rin. Inson manfaatlari. Ijtimoiy ehtiyojlar. Demokratik ehtiyojlar. Islohotlar va inson.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. T., 2005.
2. Karimov I.A. Inson Manfaatlari ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamizdir. T., 2007.
3. Karimov I.A. Bizning buyuk maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. T., 2005.
4. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. T., 2002.
5. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot –pirovard maqsadimiz. T., 2000.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., 1999, 3-18-betlar.
7. Karimov I.A. Buyuk kelajak sari. T., 1998, 3-82, 100-122-betlar.
8. Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. T., 1998, 3-65-betlar.
9. Karimov I.A. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari. T., 1998.
10. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., 1997, 137-151, 211-227, 252-279-betlar.
11. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. T., 1993, 126-174-bet.
12. Mustaqillik izohli ommabop lug'at. T., 2006.
13. Raximov I. Falsafa. 1998, 83-86, 103-113-betlar.
14. Falsafa. Qomusiy lug'at. T., 2004.
15. Falsafa asoslari. T., 2005, 272-290-betlar.
16. Falsafa (M.Axmedova tahriri ostida). T., 2006.
17. Shermuxammedov S. Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot. T., 2005.

1. Insoniyat azal-azaldan jamoa bo'lib yashaydi. Yer sayyorasi uning abadiy makoni, umumiy Vatanidir. Quyosh tizimidagi ana shu mitti sayyorada

yashayotgan odamlar oilasini jamiyat deb atash odat tusiga kirgan. Demak, umumbashariy ma'noda jamiyat odamzodning umri, hayoti o'tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog'liq barcha o'zgarish va jarayonlarni ifoda etadi. Shu bilan birga, biror davlat xududidagi odamlar hayoti, sivilizasiyaning muayyan davrlaridagi turmushga nisbatan ham ushbu tushuncha qo'llanadi. Har qanday holda ham, u umumiy tushuncha bo'lib, ayrim odam va alohida shaxs jamiyat a'zosi deb ataladi.

Tilimizdagi jam, jamoat va jamiyat degan so'zlar bor. Barchasining o'zaro yig'ilgan, to'plangan degan ma'noni bildiruvchi jam iborasidir. Masalan: jamoat jam. Odamlar jam bo'lishdi. Jami – o'n nafar. Shuningdek, jam so'zi qo'shuv ma'nosida ham ishlatiladi. Jamoa iborasi biror mahalla yoki qishloq aholisini, biror muassasa, tashkilot yoki korxonahlini bildiradi, ya'ni bir joyning bir guruh kishilari deganidir.

Jamoa atamasi ma'nosi jihatidan jamoatdan farqlanadi. Jamoatda turli qarashdagi kishilar bo'lsa, jamoada esa bir maqsad, bir xil manfaat yo'lida jam bo'lgan kishilar tushuniladi. Masalan, jamoat deganda bir masjidda namoz o'quvchi hammahalla, hamqishloq kishilar nazarda tutiladi. Jamoat so'zining jamoatchilik, adabiy jamoatchilik, talabalar jamoatchiligi va hokazo.

Jamiyat insoniyat tarixiy taraqqiyotining ma'lum bosqichida shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar majmuidir. Ijtimoiy munosabatlar ichida eng asosiysi, siyosiy va huquqiy ustqurma uchun haqiqiy bazis bo'ladigan, ijtimoiy ong shakllarini belgilaydigan munosabatlar – iqtisodiy munosabatlardir. To'g'ri, jamiyat taraqqiyoti tabiiy-tarixiy, qonuniy taraqqiyotdir.<sup>13</sup>

Jamiyat ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida shuurga-ongga til va nutqqa ega bo'lgan, bir-birlarining ijtimoiy yordami, ko'magiga ehtiyoj sezuvchi insonlar ijtimoiy uyushmasining eng umumiy ilmiy-falsafiy atamasidir.

Jamiyat – tabiatning bir qismi, ya'ni ijtimoiy borliqg' bo'lib, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan juda ko'plab munosabatlar yig'indisi, degan turlicha ta'riflar ham bor. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Har bir yangi davrda jamiyat mohiyatini bilish zarurati vujudga keldadi. Milliy mustaqillik tufayli jamiyat mohiyatini yangicha idrok etish ehtiyoji paydo bo'ldi. Prezident Islom Karimovning qator asarlarida jamiyat mohiyatini yangicha tushunishning uslubiy asoslari yaratildi. Jamiyat moddiy va ma'naviy omillar birligidan iborat. Hozirga qadar adabiyotlarda moddiy va ma'naviy hayot bir-biridan keskin farqlanar edi.

<sup>13</sup> Љбаранг: Иброкимов А., Султонов Х., Жънраев Н. Ватан туйђуси. Т., 1996 й., 94-бет.



Holbuki, jamiyatning tub mohiyati uni tashkil etuvchi inson mohiyati bilan uzviy bog'liq. Xuddi inson tanasini uning ruhidan ajratib bo'lmagani singari, jamiyatning moddiy va ma'naviy jihatlarini ham bir-biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo'yish mantiqqa ziddir. Insonning moddiy ehtiyojlari oziq-ovqatlar, kiyim-kechak, uy-joy, transport vositalari, o'zini himoyalash, zurriyot qoldirish kabilardan iboratdir. Ma'naviy ehtiyojlarga olamni bilish, o'zini angalsh, dunyoqarash, donishmandlikka intilish, bilim, san'at, g'oya, mafkura, go'zallik bilan, ma'naviy kamolot yo'lidagi intilishlar kiradi. Insonning asl mohiyati moddiy ehtiyojlarni madaniy shakllarda qondirishida yaqqol namoyon bo'ladi. Inson aqlli mavjudot sifatida moddiy ehtiyojlarini madaniy shakllarda qondirish uchun tabiat va jamiyat mohiyatini bilishga, moddiy va ma'naviy olamni uyg'unlashtirishga, tabiat va jamiyatni o'z maqsadlariga mos ravishda o'zgartirishga harakat qiladi. Ilm – fan va texnika insonning ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish quroli, muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Inson yuksak ma'naviyat tufayligina o'z ehtiyojlarini madaniy shakllarda oqilona va to'liqona qondirish imkoniga ega bo'ladi.

Mamlakatimizda ma'naviyat masalalariga alohida e'tibor berilayotganining sababi ham ana shunda. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq holda vujudga keldi.

Jamiyat ham makro va mikro jismlar kabi o'z-o'zini tashkillovchi va boshqaruvchi tizimdir. Binobarin, bu tizim muayyan qonunlar asosida mavjud bo'ladi va takomillashib boradi.

Ikki jins yakkanikohlikka asoslangan oila shaklida yashashga o'tishi, urug', qabila, elat (xalq, millatlarning vujudga kelishi va shu birliklarda o'z moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishlari qonuniy jarayonlardir. Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida davlatlarning kelib chiqishi, mulkiy munosabatlar, ishlab chiqarish munosabatlari, har bir jamiyatning o'z bazis va ustqurmasi bo'lishi, bozor iqtisodi munosabatlari, (bularning iqtisod nazariyasi va sosiologiya fanlari batafsil o'rganadi) – ana shu ijtimoiy hodisalar albatta ijtimoiy qonunlar ta'sirida tarixan o'z-o'zidan shakllangan.

Jamiyat qonunlarining amal qilishi odamlar va ular uyushmalarining ongli faoliyati bilan bog'lanib ketadi. Jamiyat qonunlarini ham eng umumiy, umumiy va xususiy (juz'iy) qonunlar tipologiyasiga ajratish mumkin. Falsafa qonunlar va kategoriyalarida o'z ifodasini topgan o'zaro aloqadorliklar, bog'lanishlar ijtimoiy hayotda ham namoyon bo'ladi. Binobarin, bu eng umumiy qonunlar, kategoriyalar, tamoyillarni bilish jamiyatni ilmiy boshqarish imkoniyatini tug'diradi. Insoniyat tarixiy takomilida, sosial, ealtnlar, millatlar hayotida o'xshash shart-sharoitlarda

birdek amal qiladigan qonunlarni umumiy qonunlar deb atash mumkin. Masalan, moddiy ishlab chiqarish bilan ma'naviy boyliklar yaratish o'rtasidagi mutanosiblik qonuni bozor munosabatlarning ikki tomni o'rtasidagi yoki ehtiyojlar bilan manfaatlar o'rtasidagi munosabatlarni anglatadi.

Muayyan jamiyat taraqqiyoti va tanazzulining aniq bir bosqichlari, holati to'g'risida ravshan tasavvurga ega bo'lish uchun xususiy (juz'iy) ijtimoiy qonunlarni ham anglab olish zarur. Bunday qonunlarning amal qilish darajasi malum bir makon va zamonda cheklanganligi va ular jamiyat taraqqiyotining faqat ayrim bosqichlarigagina xos aloqadorliklarni ifodasi bilan farqlanadi. Masalan, sobiq Sho'rolar davrida amal qilgan planli proporsional deb atalgan qonunning harakati yo'li shu davlat tugashi bilan to'sib qo'yildi. Yoki talab va taklif o'rtasidagi mutanosiblik qonuni, raqobatga asoslangan munosabatlar kabi umumiy qonunlar O'zbekiston sharoitida o'ziga xos, betakror amal qilishi u qonunlarga xususiylik baxsh etadi. Prezident Islom Karimov asos solgan O'zbekistonda bozor iqtisodiga o'tishning besh tamoyili barcha qonunlarning amal qilishiga o'ziga xoslik baxsh etadi. Umuman olganda, eng umumiy, umumiy, xususiy qonunlar bir-biri bilan dialektik aloqadorlikda bo'lib, ular bir-birini ham iqror qiladi, ham istisno etadi.<sup>14</sup>

Falsafiy tafakkur tarixida jamiyatning mohiyati va rivojlanishiga oid turli nazariyalar mavjud. Bizlarga ma'lumki, jamiyat hayotidagi qarashlar juda qadimgi davrlardayoq maydonga kelgan qadimgi Markaziy Osiyoda zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» da, Mazdakning qarashlarida mu'tadil jamiyatni barpo etishni olg'a surgan, shunday jamiyatdagi davlat ideal davlat deb ta'kidlangan. Qadimgi turk mifologiyasida ham adolatli, faravon jamiyat va davlat haqida e'tiborga sazavor qarashlar mavjud. Qadimgi yunon faylasufi Aflotun takomillashgan kishilik jamiyatini, ideal davlatni barpo qilish, lozim deb hisoblagan. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan Abu Nasr Forobiy o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida jamiyatning vujudga kelishi, maqsadi va vazifalari haqida ta'limot yaratgan. Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino kabi mutafakkirlar kishilik jamiyati paydo bo'lishi sabablarini insonning boshqa mavjudotlarga nisbatan o'zligi birdamlik hissining rivojlanganligi bilan izohlaganlar.

Falsafiy tafakkur tarixida jamiyatning mohiyati va rivojlanishiga oid turli nazariyalar mavjud. Xususan, nemis faylasufi I.Kant jamiyatning vujudga kelishini axloqning shakllanishi bilan izohlagan. G.Gegel esa jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi sabablarini mutlaq ruhning rivojlanishi bilan, L.Feserbax din bilan

---

<sup>14</sup> Ўбаранг: Каримов И. Фалсафа фанидан ваъз (лекция) матнлари. Тошкент, 2003 йил, 115-116-бетлар.

bog'langan, ijtimoiy taraqqiyot sabablarini diniy ong taraqqiyotidan izlagan. Fransuz mutafakkiri O.Kant jamiyatning rivojlanish sabablarini insoniyat ma'naviy taraqqiyotining uch bosqichi (geologiya, metafizik, pozitiv bosqichlar) bilan izohlagan. K.Markas jamiyatning rivojlanish sabablarini sinfiy kurash va inqilobiy o'zgarishlar bilan bog'lagan, barcha ijtimoiy hodisa va jarayonlarni sinfiy nuqtai nazardan tushuntirgan. Ijtimoiy ziddiyatlarni sun'iy ravishda mutlaqlashtirgan va ziddiyatlarni hal etishning asosiy usuli sifatida ijtimoiy inqilobni amalga oshirishni, mulkdorlar sinfini tugatishni taklif etgan. Ijtimoiy amaliyot bunday nazariyaning bir yoqlama ekanini ko'rsatadi.

Jamiyat taraqqiyoti ko'p bosqichli jarayon ekani to'g'risidagi qarashlar AQSh faylasufi O.Toftler tomonidan ilgari surilgan. Bunday qarashga ko'ra, jamiyatlar taraqqiyotiga binoan agrar jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyatga ajratilgan. Adabiyotlarda jamiyat taraqqiyoti borasida sivilizatsiyali yondashuv g'oyasi ilgari surilmoqda. Bunday yondashuvga ko'ra, har bir xalq o'zining betakror, noyob, o'ziga xos va o'ziga mos turmush tarzini saqlab qolgan holda, boshqa xalqlar tajribalaridan ijodiy foydalanish orqali ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos modelini yaratadi.

Jamiyat hayotiga barqarorlik va beqarorlik ham xos. Har bir inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun osoyishtalik va tinchlikka muhtoj bo'lgani kabi jamiyat ham o'z oldiga qo'ygan vazifalarni ado etishi uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ehtiyoj sezadi. Barqarorlik – jamiyat taraqqiyotining tadrijiy rivojlanishi, ijtimoiy tizimning muayyan darajadagi bir tekis faoliyat ko'rsatish imkoniyatidir. U turg'unlik tushunchasidan keskin farqlanadi. Ijtimoiy-siyosiy turg'unlik tushunchasi jamiyatdagi mavjud siyosiy, ma'naviy tizimning tanazzuli alomatidir.

Jamiyatda barqarorlik beqarorlik bilan, inqiroz gullab-yashnash bilan almashib turishi ham mumkin. Jamiyatning ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalarida muayyan yutuqlarga erishilgach, ijtimoiy imkoniyatlar ro'yobga chiqarilib bo'lgach bundan keyingi taraqqiyoti yo'lida yangi muammolar tug'iladi va ularni hal etish vazifasi paydo bo'ladi.

Beqarorlik ichki va tashqi jarayon va tahdidlar natijasida vujudga keladi. Beqarorlik bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqa ijtimoiy-siyosiy tuzumga o'tish davrida keskinlashish mumkin. Jamiyat beqarorlikning izdan chiqishi kishilar psixologiyasidagi salbiy o'zgarishlarda, qonunlarning ishlamasligida, ijtimoiy burchning ado etilmasligida, ijtimoiy ideallarning yo'qolishida, g'oya va mafkuraga loqaydlikning kuchayishida, turli jinoiy guruhlarning paydo bo'lishida, ijtimoiy adolat mezonlarining buzulishida, davlat idoralarining aholini boshqarish

qobiliyati kuchsizlanishida, turli ziddiyatlarning keskinlashuvida o'z ifodasini topadi.

2. Jamhon tajribasi har bir mamlakat va xalqning o'z taraqqiyot yo'lini tanlash huquqiga ega bo'lishi umumiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash garovi ekanini ko'rsatdi. O'zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan keyin o'z milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lini tanlash, rivojlantirishning o'zbek modelini yaratish imkoniga ega bo'ldi.

Demokratik jamiyat uchun inson manfaatlari, erkinligi va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadi. Har qanday jamiyat hayoti uchun davomiylik, vorisiylik va uzluksizlik xosdir. Bu qonuniyatlar buzilsa, jamiyatning tabiiy hayotida yo'qotishlar ro'y beradi. Bu holat, ayniqsa, bir tizimdan boshqa tizimga o'tish, jamiyat rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarish jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Mavjud tizimdan sifat jihatdan yangi tizimga o'tish jarayonida islohotlarni ijtimoiy larzalarsiz amalga, odamlarning tafakkurini o'zgartirish, yangi qonun va normalar ishlab eskizidan foydalanish jamiyat rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy rivojlanishning o'zbek modeli insoniyatning rivojlanish borasidagi ilg'or tajribasiga, milliy davlatchilik tajribalarimizga va xalqimiz mentalitetiga tayanadi.

Ijtimoiy rivojlanish borasida odatda ikki yo'ldan – inqilobiy va tadrijiy yo'ldan borgan. Insoniyat tajribasi ijtimoiy rivojlanishning keskin inqilobiy o'zgarishlar yo'li nomaqbul va yaroqsiz ekanini, jamiyatning tadrijiy (evolyusion) taraqqiyoti barqaror – tabiiy rivojlanish yo'li ekanini ko'rsatadi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy yo'li mohiyatini shunday izohlaydi: «Soxta inqilobiy sakrashlarsiz, - evolyusion yo'li bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish – tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir. .. Bozor iqtisodi sari buyuk sakrashlar, inqilobiy qayta o'zgarishlar yo'li bilan emas, balki sobitqadamlik va izchillik bilan – bosqichma-bosqich harakat qilish kerak. Har bir bosqichning qancha davom etishi hal qilish lozim bo'lgan muammolar doirasiga, tashqi omillar qanchalik qulay bo'lishiga, aholining mehnat faoliyatiga bog'liqdir».<sup>15</sup>

O'zbek modelining asosiy tamoyillari quyidagilardir:

---

<sup>15</sup> Islom Karimov. Ўзбекистон: миллий истиљлол, иљтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. Т., 1996 й. җ 40-41, 64-бетлар.

- iqtisodning siyosatdan ustuvorligi;
- davlatning bosh islohotchi ekanligi;
- qonun ustuvorligi;
- kuchli ijtimoiy himoyalash;
- bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich, tadrijiy yo'l bilan o'tish;

o'zbek modelining o'ziga xos xususiyatlari davlatchilik asoslarining, milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, o'zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, milliy mentalitetimizga xos xususiyatlarning tiklanishi va rivojlanishi, demokratik qadriyatlarning rivojlantirilishi hamda inson huquqlarining kafolatlanishi va boshqalarda o'z ifodasini topmoqda.

O'zbek modelining hayotiyligi jahon jaoatchiligi tomonidan e'tirof qilindi. O'zbekiston tajribasi qator mamlakatlar uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda va uni o'rganishga bo'lgan qizikish ortib bormoqda. O'zbekona taraqqiyot yo'li ma'naviy hayot va iqtisodiy rivojlanishni bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshirishda, ma'naviyat, ma'rvat, madaniyatga bo'lgan e'tiborning kuchayishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ma'naviy salohiyatning kuchayishi insoni intellektual va axloqiy qobiliyatlarining rivojlanishi iqtisodiy rivojlanish uchun puxta zamin yaratadi. Kishilarda yangicha iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiya asoslarini egallash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat va oila mohiyatan bir-biri bilan uzviy bog'liq. Oilada jamiyatning tub mohiyati o'z aksini topadi. Shu ma'noda, oilani kichik jamiyat deyish mumkin. Har bir jamiyat a'zosi oila bag'rida voyaga yetadi, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtiradi va insoniy fazilatlarini namoyon etadi. Barkamol insonni shakllantirish, yni hayotga, mehnatga tayyorlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining muhim sharoitidir. Shu boisdan ham davlat oilani o'z himoyasiga oladi.

Jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy muhitning sog'lomligi ko'p jihatdan oilaviy madaniyatga bog'liq. Oila qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi. Oilada er va xotinning mavqeyi, oilaviy munosabatlar xarakteri turli xalqlarda turlichadir. Mamlakatimizda milliy mustaqillik yillarida ma'naviyatimiz sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo oila qadriyatlarini, eng ilg'or an'analarni tiklashga qaratilgandir. Ona va ayol muqaddasligi o'zbekona qadriyatdir. Hadisi sharifda ona va ayolning muqaddasligi to'g'risidagi g'oyalar oilaviy munosabatlarni

takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ulug' mutafakkirlar jamiyatning madaniy darajasi ayol va oiladagi ahvol, mavqeyi bilan belgilanishini alohida ta'kidlaganlar. Sog'lom, barkamol avlod tarbiyasi jihatdan ayolning ma'anviy salohiyati, bilimi, uddaburonligi va erkinligiga bog'liqdir. Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan qator tadbirlar ayolning oila va jamiyatdagi mavqeyi va rolini kuchaytirishga qaratilgandir.

Oila muammolari ilmiy asosda o'rganilganligi va ularni oqilona hal etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazining tashkil etilganligi ham davlatimizning oilaviy munosabatlarini takomillashtirishga alohida e'tibor berayotganidan dalolat beradi.

Davlat – jamiyatni boshqarish, tartibga solish ,ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan alohida bir muassasadir. Davlat umuminsoniy qadriyat, insoniyat ma'naviy taraqqiyotining muhim yutug'idir.

Jamiyat ma'naviy salohiyatining yuksalib borishi bilan siyosiy boshqarish shakllari va usullari ham takomillashib boradi. O'zgargan tarixiy sharoitda davlatning mohiyati, mazmuni va vazifalariga yangicha yondashish zarurati vujudga keladi. Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik an'analarining tiklanishi bilan davlatning tashkilotchilik, bosh islohotchilik faoliyati yangicha mazmun va ahamiyat kasb etdi.

Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning o'zbek modeli konsepsiyasining amalga oshirilishida davlat hal qiluvchi o'rin tutadi. Mamlakatimizning siyosiy, huquqiy hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar siyosiy boshqaruvni yanada takomillashtirishga, yurtimizda huquqiy demokratik jamiyat barpo etishga, kuchli davlatdan kuchli javmiyatga o'tishga qaratilgandir.

Jamiyat hayotida turli jamoalar, tashkilot va uyushmalar ham faoliyat ko'rsatadi. Ularni shartli ravishda davlat va nodavlat tashkilotlariga ajratish mumkin. Ularga siyosiy partiyalar, siyosiy harakatlar, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, turli jang'armalar, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar uyushmasi, mahalla o'mitalari av boshqalar kiradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson salohiyatini yanada yuksaltirishga, yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgandir.

Demokratik jamiyatni barpo etish – O'zbekiston taraqqiyotining bosh maqsadi. Bu jamiyat kishilarning yuksak axloqiy-siyosiy va huquqiy madaniyatiga asoslanadigan demokratik taraqqiyotning yuqori bosqichidir. Bunday jamiyat erkin uyushmalarning ko'p qirrali aloqasi bo'lib, davlat qonunlarini hurmat qilib

bajaruvchi jamiyat tarkibiga kiruvchi elementlarning nisbiy mustaqilligiga asoslanuvchi, turli ziddiyat va ixtiloflarni qonun doirasida o'zaro kelishuv, sabr-toqat va muzokaralar orqali hal etishga asoslanuvchi jamiyatdir. Demokratik jamiyat umuminsoniy tamoyillar, milliy davlatchilik xususiyatlari, o'ziga xos turmush tarzi va hayot falsafasi negizida qaror topadi. O'zbekiston milliy mustaqilligining dastlabki yillaridanoq shunday jamiyat asoslarini barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Demokratik jamiyatda davlatning qator vazifalari fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari qo'lga o'ta boshladi, mahalliy hokimiyat organlarining vakolati kengayadi. Bunday jamiyat asoslarini barpo etish kishilarning yuksak siyosiy va huquqiy madaniyati, ijtimoiy-siyosiy faolligiga tayanadi. Mamlakatimizda mahalla hokimiyat organlarining tashkil etilishi, ular vakolatining kuchaytirilishi xalqimizning o'z-o'zini boshqarish, idora etish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3-masala. Insonning yaralishi, mohiyati va jamiyatda tutgan o'rni falsafiy muammolar tizimida muhim o'rin tutadi. Turli falsafiy ta'limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. Shunday bo'lishi tabiiy ham edi, chunki inson mohiyatan ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy sharoitda o'zligini chuqurroq anglashga, insoniy mohiyatini ro'yobga chiqarishga intilaveradi.

Suqrotning «O'zligingni bil» degan hikmatli so'zi har bir tarixiy davrda yangicha ahamiyat kasb etadi. Sharq falsafasi tarixida ham inson bosh mavzulardan biridir. Masalan, Forobiy falsafasida inson butun borliq taraqqiyotining mahsuli sifatida talqin qilinadi. Mutafakkir insonning barcha olijanob fazilatlari ilm tufayli ekanligini, inson hayotining mazmuni – baxtli bo'lishi va baxtli qilishga intilish, bunga esa faqat ilm va ma'rifat orqali erishish mumkinligini ko'rsatadi. Beruniy va Ibn Sino insonning boshqa mavjudotlardan ustunligi aql va tafakkur tufayli ekanligini isbotlashga harakat qildilar. Bundan farqli o'laroq, Abu Homid G'azzoliy bu ustunlikni aqlda emas, balki inson qalbida ekanligini ko'rsatadi; aql imkoniyatlari cheklanganligini isbotlashga harakat qilgan tasavvuf ta'limotida komil inson asosiy g'oyalardan biri edi. Bu komillik, asosan, ma'naviy barkamollik, ruhiy yuksalish, jismoniy orzu-istaklarni idora qila bilishda namoyon bo'lishini uqtirganlar. Sharq falsafasida inson to'g'risidagi qarashlar islom dini g'oyalari, sharqona tafakkur va turmush tarzi bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan edi.

Sharq mutafakkirlarni insonga umumfalsafiy muammolarning bir qismi sifatida qarardilar. Bundan farqli o'laroq, G'arb falsafasida insonga, asosan,

biologik mavjudot, tabiatdagi evolyusion o'zgarishlarning mahsuli deb qaraldi. Rus tabiatshunosi V.A.Vernadskiyning ta'limotiga ko'ra, inson aqli buyuk geologik omil sifatida tabiatdagi taraqqiyotni tezlashtirgan, butun hayotning taqdiri insonning aql-zakovati va axloqiga bog'liqdir. Hozirgi zamon falsafasining yirik vakillaridan biri bo'lgan E.Fromm insonga bo'lgan sof va samimiy muhabbatni butun yer yuzi xalqlari o'rtasida tinchlik, totuvlik, hamkorlik munosabatlarini qaror toptirishning muhim omili deb hisobladi; insonning eng muhim qobiliyati sifatida sevish qobiliyati, san'atlar ichida eng muhimi sevish san'ati ekanligini ko'rsatadi. Faylasufning ta'kidlashicha, insonga boshqalarning sevish qobiliyatini tarbiyalashi, takomillashtirishi mumkin.

Hozirgi zamon antropologik falsafasining inson mohiyati to'g'risidagi xulosadan quyidagicha:

1. Inson tabiatda noyob va universaldir. U tabiat rivojining buyuk mahsuli, noyob qobiliyat sohibidir. Inson uchun instinkt ham, nozik did ham, ulug'vorlik va yaratuvchanlik ham xosdir.
2. Insonda ichki va tashqi olam mujassamlashgan. Insonning ichki olami faoliyatining turli shakllarida – mehnat, muloqot, badiiy ijod, xulq-atvor va shu kabilarda namoyon bo'ladi.
3. Inson juda ko'p qismlardan tashkil topgan yaxlit birlikdir. Har bir insonda tabiiylik, ijtimoiylik, aqllilik, hissiylik, axloqiylik mujassamlashgan.
4. Inson tarixiy mavjudotdir. U o'zining ana shu xususiyati bilan kelajagini yaratadi. Inson ertangi kuniga doimo tashvish bilan qaraydi, chunki uni har doim inqirozlar, omadsizliklar ta'qib etadi.
5. Inson ma'suliyat hissidan qochib qutulmaydi. U gumanistik pozisiya va individuallikni uyg'unlashtirish orqaligina shunday vaziyatdan chiqa oladi.

Inson nihoyatda murakkab, ko'p qirrali va ko'p o'lchamli mavjudot

bo'lib, uning mohiyatini anglash uzoq davom etadigan jarayondir. Insonda butun olam va jamiyatning mohiyati mujassamlashgandir. Ulug' mutasavvuf Abduholiq G'ijduvoni insonni «kichik olam» deb hisoblagan. Falsafada bahs yuritiladigan barcha masalalar inson muammosiga bevosita daxldordir. Umuman olganda, insonga daxldor bo'lmasa, unga foyda keltirmasa, jamiyatning og'irini yengil qilmasa, unday fanning keragi bormikan? Shu ma'noda, inson, avvalo, o'zi uchun zarur bo'lgan fanlarni, ilmlar va bilimlar tizimini yaratgan.

Falsafa insonni olamning tarkibiy qismi sifatida o'rganadi. Inson shunday murakkab va ko'p qirrali mavjudotki, uning mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida



odam, inson, shaxs, individ, individuallik tushunchalari orqali ifodalanadi. Biz bu tushunchalarni o'zaro munosabati, o'xshash va farqlari xususida to'xtalamiz.

Odam tushunchasida sut emizuvchi mavjudotlarning bir turi anglashiladi. Shu ma'noda hamma odamlar, aql-idrokka ega bo'lgan mavjudotdir. Inson tushunchasida muayyan tarixiy davrdagi muayyan jamiyat va madaniyat qabul qilgan odob-axloq maromlari, tartib-intizom qonun-qoidalariga ixtiyoriy ravishda rioya qilib, shu asosda harakat yo'nalishi belgilash qobiliyati va irodasiga ega bo'lgan, moboda bu doiradan beixtiyor chiqib qolsa, vijdon azobiga tushib, o'zini-o'zi kechirmaydigan oliy bir zot, ya'ni ijtimoiylashgan odam tushuniladi. Demak, biz boshimizdan kechirayotgan tarixiy davr odamning insonga aylanishi uchun juda kuchli ijtimoiy zaruriyat paydo bo'lganligi bilan e'tiborni o'ziga tortadi.

Albatta, odamning barkamol insonga aylanishi uchun bir qator obyektiv shatr-sharoitlar va subyektiv omillar kerak. Moddiy faravonlikni ta'minlash asosida bu muammoni hal qilish mumkin degan mayllar tobora kuchayib borayotgan zamonamizda umuminsoniy muammoga bunday qarashlar o'zining biryoqlamaligi bilan xavfsizdir. Chunki ma'naviy olami qashshoq bo'lgan, ya'ni iymonsiz, e'tiqodsiz odam ehtiyojini har qanday to'kin-sochinlik, ko'rkas kiyimlar, bezaklar, shinam binova ashyolar bilan qanoatlantirib bo'lmaydi. Odam tabiatidagi bu holatni e'tibordan soqit qilish katta xatolikka yo'l qo'yish bo'ladi. Faqat ma'naviy olami boy, axloqan pok kishilargina mavjud moddiy sharoitlarga shukronalar keltirib yashagan holda, yanada yaxshiroq hayot uchun sharoit yaratish yo'lida astoydil mehnat qiladilar, ijtimoiy faollik ko'rsatadilar, boshqalarga taqlid obyekti, ibrat va namuna bo'ladilar.

Inson – ijtimoiy-tarixiy jarayonning, moddiy va ma'naviy madaniyat rivojlanishining subyekti, hayotning boshqa shakllari bilan genetik jihatdan bog'langan, ammo ulardan mehnat qurollari ishlab chiqarishi, burro-burro qilib so'zlashi va ongi, axloqiy sifatlari bilan ajralib turadigan bioijtimoiy mavjudotdir.

Inson – kishi, uning ongi, odob-axloqi, ma'naviyati, dunyoqarashi, talab-ehtiyojlarining qondirilishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va tabiatiga bevosita bog'liqdir. Jamiyat qanday bo'lsa, ijtimoiy munosabatlar majmui bo'lgan inson ham unga mos bo'ladi. Inson dunyoda eng murakkab, oliy mavjudot, tabiatning yuksak mahsuloti, hayot gulidir. Insonning bebaholigi–uning aql-ijrok va tafakkuriga egaligida. U aql-idrok sohibi bo'lganligi

uchun real dunyodagi voqyealarni biladi, ilmu tafakkuri, mehnati, salohiyati bilan dunyoni boshqaradi.<sup>16</sup>

Odam va inson tushunchalarida umumiylik bilan birga jiddiy tafovutlar ham borligini anglash ta'lim-tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega. Odamdagi biologik omil ahamiyatini aslo kamsitmagan holda, uning tabiati va ruhiy lamida ijtimoiylikning muqimlashib borishi natijasida odam zotining insonga aylanib borishi mumkinligini tarixiy haqiqatlar tasdiqlaydi. Odamda biologik omil yetakchi bo'lsa, insonda ijtimoiylik (ma'naviy) omillar birinchi o'ringa chiqib oladi.

Shaxs har bir davrda yetilgan ijtimoiy ehtiyojlar va manfaatlarni ilg'ab olib, muayyan odamlar guruhi manfaatlarini o'zida gavdalantiradigan va u sosial guruhga xos sifat va qusurlarga ega bo'lgan individuallikdir. Bunday shaxslar o'zi mansub bo'lgan ijtimoiy guruh manfaatlarini faol himoya qila oladi va buning uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga dadil ola biladi. Ijtimoiy muhit inson shaxsini qay darajada shakllantirsa, shaxslar ham o'sha muhit qanday holatda bo'lishini kafolatlaydi. Shaxs o'z shaxsiy sifatlari bilan muayyan ijtimoiy harakatga ta'sir ko'rsatishi darajasiga qarab qadrlanadi va qadrsizlanadi. Individ – alohida bir kishi, inson zotining bir vakilidir. Individ ham ijtimoiy mavjudotdir. Individni o'ziga xoslik, betakrorlik sifatlasa, shaxsni shu bilan birga erkin, mustaqil, ijodiy fikrlash va muayyan vaziyatda ma'suliyatni o'z zimmasiga olib, mustaqil harakat uchun yo'nalish olish qobiliyati kabi sifatlar belgilaydi.<sup>17</sup>

Individuallik – tabiiy xislatlarda va insonning psixik xususiyatlarida – xotira, tasavvur, temperament, xulq hamda qiyofasi uning hayotiy faoliyatidagi barcha xilma-xilliklarda o'z ifodasini topadi.

Inson tarixning yaratuvchisi sifatida tabiat taraqqiyotidagi uzluksizlikni ta'minlaydi. U o'z bilimi, tajribasi va yutuqlarini kelgusi avlodlarga meros qilib qoldiradi; tabiat va jamiyatni qayta quradi va takomillashtiradi. Inson o'z aqliy salohiyati tufayli butun koinot, tabiat taraqqiyotida buyuk yaratuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi; o'z tarixini yaratadi, uni avaylab – asraydi. Inson faoliyati va tajribalari jamiyatning takomillashuvi va kishilarning har tomonlama kamol topishi uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Tabiat va jamiyatdagi o'rni, ahamiyati, yaratuvchilik mohiyati, oliy mavjudot ekani, vorislikning davomiyligini ta'minlashi barcha ijobiy hamda foydali yutuqlarni saqlash, targ'ib etishi kabi xususiyati, qobiliyati tufayli inson

---

<sup>16</sup> Ўбаранг: Фалсафа: љисъача изокли луђат. Т., 2004 йил, 161-бет.

<sup>17</sup> Ўбаранг: Каримов И. Фалсафа фанидан ваъз (лекция) матнлари. Т., 2003 йил, 104-бет.

muqaddas va tabarrk qadriyat hisoblanadi. O'z navbatida tarix ham insonni tarbiyalaydi. Tarixni anglash orqali hayotni anglash, insonning insonligini anglash qobiliyati shakllanadi. O'zlikni anglash, eng avvalo, o'tmishni o'rganishdan, tarixni bilishga ehtiyoj sezishdan boshlanadi. Aslini olganda tarix faqat o'tmish haqidagi ma'lumotlar yoki tushunchalarni ifodalash bilan cheklanmaydi. Uning buyuk qudrati, tarbiyaviy kuchi, murabbiylik mohiyati o'tmishni o'rganish, tadqiq etish orqali bugunni baholash, bugunni anglash, bugungi odamlarni tushunish va ularni yo'lga solish borasidagi fikrlarni, g'oyalarni o'zida mujassam etganida namoyon bo'ladi.

Insondagi tabiiylik, biologik va ijtimoiylikning birligi muammosini anglab olish o'ta muhim masaladir. Odam avvalo biologik mavjudot sifatida barcha biologik turlar kabi tabiiy, tur belgilariga ega. Moddiy tana bo'lmasa odam ham yo'q, uning ko'p tomonlari biologik jihatdan belgilangan. Odamning tug'ilishi, hayotining davomiyligi, biologik va yetuklik davrlari, balog'atga yetilishi vaqti, ayolning homilador bo'lish imkoniyatlari, oziq-ovqatlarni iste'mol qilish qobiliyatlari ilk yoshlardan oq tillarni o'zlashtirib olish imkoniyatlari va qobiliyatlari biologik asosga ega. Tabiiylik vaqt jihatidan birlamchi bo'lib, ijtimoiylik sharoit va muhit bilan belgilanadi. Odamning shakllanishida ijtimoiylikni qaror topishi biologik omillarni tartibga solish, chegaralash hisobiga amalga oshadi.

Insonning ijtimoiy mohiyati, individual xususiyatini biologik omillardan ajralgan holda tasavvur qilish mumkin emas. Odamni tizimli suratda o'rganish biologik va ijtimoiy omillarning o'zaro dialektik birligiga asoslanadi. Odam organizmida modda almashinuvining uzluksiz davom etishi, nerv tizimi va boshqa murakkab, yaxlit tizimlar ham biologik omillarga kiradi.

Umuman olganda, odam tabiatidagi tabiiylik va ijtimoiylikning o'zaro nisbati haqida gap borganda, ulardan birini ideallashtirish yomon salbiy oqibatlariga olib kelishini e'tiborga olish kerak. Sosial darvinistlar odam naslini o'zgartirish orqali odamni insonga aylanish jarayonini tezlashtirish mumkin desalar, marksistlar ijtimoiylikni birinchi o'ringa qo'yib, undagi biologik omillar rolini pasaytirishga urinadilar. Har ikki qarash ham ijtimoiy taraqqiyot va inson kamoloti uchun zavol bo'lishini tarixiy jarayonlar tasdiqlaydi. Shuningdek, insonda ma'naviylik ham alohida o'rin tutadi, chunki inson yuksak ma'naviyat sohibi ekanligini biz yaxshi bilamiz.

4-masala. Ehtiyoj – biologik va ijtimoiy yashash va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan narsalarga munosabat sobiq ittifoq davrida chop etilgan falsafiy lug'at, qomus va qomusiy lug'atlarda ehtiyoj, inson organizmi va shaxsiyatining

yashashi uchun kerak bo'lgan narsalarga zarurat deb talqin qilingan. Ehtiyoj faqat inson organizmi uchun emas, balki o'simliklar dunyosi, korxonalar, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va boshqa har qanday tabiiy ijtimoiy tizimlar uchun ham xos bo'lgan xususiyat hisoblangan. Bundan tashqari, organizm yoki tizim hayoti uchun zarur bo'lgan narsani ham ehtiyoj deb ta'riflab bo'lmaydi. Chunki shu narsa bilan tizim yetarli ta'minlanganda unga nisbatan zarurat yo'qoladi.

Jahon falsafa va psixologiya fanida ehtiyojlar mohiyati ikki yo'sinda izohlanadi. Bir guruh faylasuf va psixologlar ehtiyojni organizm yoki individning holati deb baholaydilar. Masalan, ochiqqan odam ovqatga ehtiyoj sezadi. Demak, shu ehtiyoj individholati tufayli yuzaga keladi deyдилar ular. Boshqa guruh olimlar esa ehtiyojni individning atrof-muhitdagi anrsa va hodisalarga munosabati deb tushuntiradilar.

Bozor iqtisodiyoti inson ehtiyojlarini to'laroq qondirish, uning qobiliyati, ijtimoiy faolligini yanada kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bular quyidagilardir:

- mehnatni tashkil etish usuli va shakllarining o'zgarganligi;
- mehnatga yangicha munosabatni rag'batlantirishga yordam beruvchi omillar;
- o'z qobiliyati, qiziqishlariga mos bo'lgan faoliyat turlarini tanlash imkoniyatining yaratilganligi;
- shaxs tadbirkorligi va ishbilarmonligining qo'llab-quvvatlanishi;
- turli mulk shakllarining vujudga kelganligi;
- shaxs erki va huquqlarining kengayganligi;
- davlat va jamoat ishlarida qatnashish imkoniyatlarining yaratilganligi;
- demokratik qadriyatlar rivoji;
- ma'naviy meros va madaniyat yutuqlaridani erkin foydalanish imkoniyatining yaratilganligi kabilardir.

Ular shaxsning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda uning komil inson sifatida rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson manfaatlari, uning ezgu maqsadlari ro'yobga chiqishini ta'minlashga, uning barkamol sifatlar kasb etishiga qaratilganidir. Shaxs islohot natijalaridan bahramand bo'luvchigina emas, balki

ularni sobitqadamlik bilan amalga oshiruvchi kuch sifatida ham yangilanish jarayonida o'zgaradi, yuksaladi, qadr-qimmat topadi va e'zozlanadi.

Insonning jamiyatdagi o'rni, qadr-qimmatini borasida milliy istiqlol o'z oldiga quyidagilarni maqsad va vazifa qilib qo'yadi:

- insonning qadr-qimmatini joyiga qo'yish;
- inson uchun baxtli hayot sharoitlarini yaratish;

- insonning o'ziligini anglashi, ijtimoiy burch va vazifalarini ado etishi, sog'lom avlodlar uzluksizligini ta'minlashi, kelgusi avlodlarga yaxshi xotiralar qoldirishi va iymon-e'tiqodi butun bo'lishi uchun qulay sharoitlar yaratish. Bunday imkoniyatlarni amalga oshirishga xalaqit beradigan nuqsonlar ham inson tabiati bilan bog'liqdir. Hozirgi qadar inson to'g'risidagi falsafiy ta'limot va qarashlarda, asosan, uning ijobiy xususiyatlariga, yaratuvchanligiga ko'proq e'tibor berib kelindi. Keyingi vaqtlarda inson borlig'ining salbiy jihatlari ham tahlil qilina boshlandi.

Mustaqillik yillarida inson tabiatini chuqurroq o'rganish va undagi salbiy mayillarni bartaraf etishga yordam beradigan falsafiy qarashlarga ehtiyoj vujudga keldi. Shuni ta'kidlash joizki, ayrim kishilar millat, Vatan, xalq manfaatlariga zid ravishda jamiyatdagi mavjud qonun-qoida va me'yorlarni paymol etib, ko'proq g'arazli maqsadlarini amalga oshirishga va turli ixtiloflarni keltirib chiqarishga harakat qiladi. Shunday niyatlar yo'lida hatto jinoiy guruhlarga birlashadilar, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan davlat dasturlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiladilar. Shuningdek, ular milliy totuvlik, tinchlik va barqarorlikka raxna soladi, ma'naviy-axloqiy muhitni buzadi, kishilarning ijtimoiy adolatga bo'lgan ishonchini susaytiradi, barkamol insonni voyaga yetkazishga qarshilik ko'rsatadi.

O'zbekistonda o'tkazilayotgan islohotlar inson manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilayotganligi xususida Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deb ta'kidlaydi: «Davlat qurulishi va uning taraqqiyoti, jamiyatning demokratik yangilanishi, iqtisodiyotimizni rivojlantirish va erkinlashtirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bilan bog'liq bo'lgan, qisqacha aytganda, oldimizda turgan barcha muammo va vazifalarni yechishda «Islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun, inson manfaatlarini ta'minlash uchun» degan teran ma'noni aslo unutmasligimiz kerak».<sup>18</sup>

---

<sup>18</sup> Каримов И.А. Инсон, унинг қўлуви ва эркинликлари қамда манфаатлари – энг олий ўадрият. Т., 2005 йил, 6-бет.

Haqiqatdan ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning markazida inson manfaatlari yotadi. Odat tusiga kirib qolgan bir an'ana, ya'ni har qaysi yilga nom berishda, avvalo, inson va uning manfaatlarini ta'minlashni, mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalik, mehr-oqibat, insonparvarlik muhitini mustahkamlashni, ko'pchilikni o'ylantirayotgan dolzarb muammolarni halqilishni va amalga oshirishni jamiyatimiz uchun ustuvor vazifa qilib belgilab olinganligi ham diqqatga sazovordir.

Shaxs erkinligi demokratik qadriyatlar tizimida alohida o'rin tutadi. Erkinlik–insonning intellektual-ma'naviy kamolotga erishuvining zarur sharti, anglanganligidir. Erkinlik tufayligina inson yaratuvchilik qobiliyatini namoyon etadi, shaxsiy ma'suliyat va insoniy burchini to'la his etadi. Shaxs erkinligi avvalo, axloqiy, so'z, vijdon, matbuot erkinligida ro'yobga chiqadi. Demokratik jamiyat shaxs erkinligini ta'minlashning huquqiy asoslarini yaratish bilan cheklanib qolmay, ilm-fan, san'at, din, huquq va h.k. larni rivojlantirishga alohida e'tibor beradi.

Shu o'rinda Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirmoqchimiz: «Bugun inson huquqlari va manfaatlari, ularni har tomonlama himoyalash va ta'minlash, jamiyatni demokratlashtirish va erkinlashtirish yo'llari haqida gapirar ekanmiz, bu mavzu dunyoda har doim, ayniqsa, so'nggi paytlarda eng o'tkir va dolzarb masalaga aylanib borayotganini yaqqol kuzatish mumkin va buni tabiiy hol, deb qabul qilishimiz kerak».<sup>19</sup> Buni tushunib olish bugungi kunda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash o'ta dolzarb masala bo'lib kelayotganligini hayotni o'zi taqozo etmoqda. «Erkinlik» tushunchasi har qanday shaxsga nisbatan emas, balki o'z xatti-harakati, xulq – atvori va faoliyati uchun javobgarlikni his etadigan, ma'naviy jihatdan barkamol insonga nisbatan qo'llaniladi: Jamiyatning ma'naviy salohiyati yusalib borgan sari, kishilar erkinlikka o'z boshimchalik, nimani xoxlasa shuni qilish deb emas, balki ma'naviy – intellektual rivojlanish imkoniyati deb qaraydilar. Bozor munosabatlari sharoitida kishilarning xulq-atvori va faoliyatini boshqarishda huquqiy normalar muhim rol o'ynay boshlaydi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida inson qobiliyatlari to'laroq namoyon bo'ladi. Ijtimoiy tabaqalanish jarayonida kishilarning boy va qshshoq guruhlarga ajralishi tabiiy qonuniy jarayondir. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim xususiyati – aholining muayyan qismining ijtimoiy himoyalanihida, ko'p bolali oilalar, nafaqaxo'rlar, talabalar va nogironlarning davlat tomonidan himoyalanihida, ijtimoiy adolatning qaror topishida yaqqol namoyon bo'layapti.

<sup>19</sup> Каримов И.А. Инсон, унинг қўлуль ва эркинликлари қамда манфаатлари – энг олий ўадрият. Т., 2005 йил, 11-бет.

Kishilarning boqimandalik kayfiyati, tafakkur turg'unligidan ozod bo'lishlari, o'zgargan yangi iqtisodiy sharoitga moslashishlari, o'z bilimi va mahoratini oshirishlari uchun g'amxo'rlik qilish iqtisodiy islohotlarning insonparvarlik yo'nalishiga ega ekanligidan dalolat beradi. Iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholini kuchli ijtimoiy himoyalash tamoyili Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan o'zbek modelining muhim jihatlaridan biridir. Inson mohiyatini falsafiy bilish ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Inson falsafasi har bir yangi tarixiy davrda inson mohiyati, uning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Insonga xos xususiyat va fazilatlarni bilish orqali talaba o'zida shunday sifatlarni shakllantirishga intiladi.

Bunday fazilatlar falsafa va boshqa ijtimoiy fanlarni o'rganish va umuman, ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. Zamonaviy bilim va yuksak insoniy fazilatlarni egallash orqali O'zbekistonda ozod obod jamiyat qurish vazifalari uyg'unligini ta'minlashga erishish butun ta'lim-tarbiya ishimizning bosh mezonini va uning oldida turgan muhim vazifadir.

### **9-mavzu: G'oyalar falsafasi.**

#### **Reja:**

1. G'oya tushunchasi. Diniy, dunyoviy, ilmiy va g'ayri ilmiy g'oyalar. Milliy va umuminsoniy g'oyalar. Aqidaparastlik g'oyalari, ularning mohiyati, xavf-xatari.
2. G'oya va mafkura. Hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi. Markaziy Osiyodagi mafkuraviy jarayonlar.
3. Istiqlool mafkurasining asosiy g'oyalari, tamoyillari, xususiyatlari, maqsadlari.

**Tayanch iboralari:** G'oya, ilmiy g'oya. Milliy g'oya. Diniy g'oya. Umuminsoniy g'oya. Aqidaparastlik g'oyasi. G'oya va mafkura. Mafkuraviy maydon. Mafkuraviy bo'shliq. Mafkuraviy paligon. Mafkuraviy immunitet. Istiqlol mafkurasi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. O'zbek xalqi hych qachon hych kimga qaram bo'lmaydi. T., 2005 yil
2. Karimov I.A. Vatanimiz tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. T., 2004 yil.
3. Karimov I.A. «Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir». T., 2000 yil.
4. Karimov I.A. Egali yurt erkini bilmas. T., 2000 yil.
5. Karimov I.A. «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq millatni millat qilishga xizmat etsin». T., 1998 yil.
6. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida». T., 1997 yil.
7. Mustaqillik: Izohli ommabop lug'at. T., 2006 yil.
8. Falsafa qomusiy lug'at. T., 2004 yil.
9. Falsafa asoslari. T., 2005 yil, 365-376 betlar.
10. Falsafa. T., 2000 yil, 211-220 betlar.

1. Inson hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham g'oyalar muhim o'rin tutadi. Shuning uchun I. A. Karimov ta'kidlaganidek, «birorta jamiyat, davlat, inson mafkurasiz, g'oyasiz bo'lishi mumkin emas. G'oyasiz, mafkurasiz jamiyat ham, davlat ham, inson ham o'zining yo'lini yo'qotadi» deb ifodalaydi. Shu ma'noda, insoniyat tarixiy-g'oyalar tarixidir.



G'oya —inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr. Inson ongining mahsuli sifatida g'oyalar tushuncha va fikrlar yordamida ifoda etiladi. Ammo har qanday fikr va qarash ham g'oya bo'la olmaydi. G'oyalar, garchi tafakkurda paydo bo'lsada, inson va jamiyat ruhiyatiga, hatto g'ayri shuuriy qatlailarga ham singib boradi. G'oya shunday quvvatga egaki, u odamning ichki dunyosiga kirib borib, uni harakatga keltiruvchi, maqsad sari yetaklovchi ruhiy-aqliy kuchga aylanadi. Ma'lumki, har qanday millat va xalq, har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o'z manfaatlarini, maqsad-muddaolarini, orzu-intilishlarini ko'zlab harakat qiladi. Binobarin, ular hayotdagi ma'lum bir mafkuraga tayanadi.

Inson tafakkuri voqyelikni idrok etish maboynida turli fikrlar, qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar yaratadi. Binobarin, g'oyalar ham inson tafakkurining mahsulidir. Zero, turli diniy aqidalar, falsafiy ta'limotlar, ilmiy qarashlar, badiiy asarlarning negizida muayyan g'oyalar yotadi. Ijtimoiy siyosiy harakatlarning maqsadlari ham g'oyalarda aks etadi. Tafakkur yaratgan har qanday fikr yoki qarash, mulohaza yoki nuqtai nazar g'oya bo'la olmaydi. Faqat eng kuchli, ta'sirchan, zalvarli fikrlargina g'oya bo'la olishi mumkin.

G'oyaning falsafiy talqinini quyidagicha izohlash mumkin: G'oya-voqyelik va hayot ta'sirida vujudga keladigan, uni aks ettirish asosida shakllanadigan dunyoni bilishning o'ziga xos shakillaridan biridir. U shaxs, jamiyat, ijtimoiy guruh, partiya va boshqalarning muayyan maqsadlarini ifodalaydi, ularni bu yo'lda birlashtiradi, uyushtiradi, faoliyatga undaydi, safarbar qiladi.

G'oya ijtimoiy fikr sifatida shakllanadi va muayyan tarizda namoyon bo'ladi. Shu bilan birgalikda, g'oya biron-bir maqsadni ifodalaydi va amaliy harakatga undaydi, hamda muayyan mafkuraning asosi bo'ladi. Eng muhimi g'oya mohiyatan ijtimoiy xarakterga ega. Muayyan g'oya odatda alohida olingan shaxs ongida shakllanadi, keyinchalik esa jamiyatning turli qatlamlariga tarqaladi, turli elat va millatlar orasida yoyiladi. Mutaqil hayotga qadam qo'yayotgan yangi avlod jamiyatda mavjud g'oyalar ta'sirida tarbiyalanadilar, muayyan qarashlar va g'oyalarni o'z e'tiqodiga singdiradi o'z navbatida yangi g'oyalarni yaratadi va targ'ib etadi.

G'oyalarning turlari ko'p. Tafakkurning mahsuli sifatida g'oya tevarak olamni o'rganish, bilish jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari ilm-fan, din, falsafa, san'at va badiiy adabiyot, axloq, siyosat va huquq

muayyan g'oyalarni yaratadi, ularga tayanadi va ularni rivojlantiradi. Ma'lum ma'noda aytish mumkinki, har bir ong sohasining o'z g'oyalari mavjud bo'ladi.

Mazmuni va namoyon bo'lish shakliga qarab, g'oyalarni bir qancha turlarga ajratish mumkin:

- Ilmiy g'oyalar;
- Falsafiy g'oyalar;
- Diniy g'oyalar;
- Badiiy g'oyalar;
- Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar;
- Milliy g'oyalar;
- Umuminsoniy g'oyalar va hakazo.

Shu bilan birga, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi bilan bog'liq partiyaviy, sinfiy, etnik g'oyalar hamda ko'lamiga ko'ra farqlanadigan umumbashariy, mintaqaviy va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan g'oya shakllari ham bor. Diniy g'oyalar deb, har bir diniy ta'limot va oqimning asosini, diniy iymon-e'tiqodning negizini tashkil etuvchi hoyalarga aytiladi. Masalan, ilohlarning ko'pligi haqidagi fikrga tayanadigan politeizm dinlari vaqti kelib monoteistik-yakkaxudolik hoyasi asosidagi dinlarga o'z o'rnini bo'shatib bergan. Yakkaxudolik g'oyasi milliy dinlarda(masalan,iudaizmda), ayniqsa jahon dinlari-xristianlik va islomda o'z ifodasini yaqqol topgan. Xususan, islom dinida Allohning yagonaligi g'oyasi asosida uning barcha aqidalari, ruknlari, talab va majburiyatlari shakllangan. Biz dinda g'oyaning mohiyatini ko'rdik, endi dunyoviy g'oyaning nima ekanligini bilishimiz kerak.

Dunyoviy g'oya 1). Muayyan g'oyalarni ifodalash uchun qo'llaniladigan g'oya; 2). Jamiyat va insonni ezgu maqsadlar sari yetaklaydigan sog'lom fikrlar majmui.

Dunyoviy g'oyalar ma'lum bir millat, davlat, xalq va jamiyat ehtiyojlari, maqsad muddalari, manfaatlarini amalga oshirish tamoyilini ham o'zida mujassamlashtiradi, Dune mamlakatlarining rivojlanish yo'lini belgilab olishga doir dolzarb g'oyalarni tashkil etadi. Dunyoviy g'oyalar adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik ruhini, taraqqiyot yo'lidagi olijanob maqsad muddalarini ifoda etib, Vatan ravnaqi, yurt-tinchligi va xalq farovonligi uchun xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda dunyoviy g'oyalar ezgulik yo'lida butun jamiyat a'zolarining

hamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu bilan birgalikda dunyoviy g'oyadan ilmiy g'oyalarning farqini ham anglashimiz kerak.

Ilmiy g'oyalar — fan taraqqiyotining samarasi ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida paydo bo'ladigan, turli fan sohalarining asosiy tamoyillari, ustuvor qoidalarini tashkil qiladigan ilmiy fikrlardir. G'oyalarning «hayoti», ularning paydo bo'lishi, rivojlanishi, boshqa g'oyalar bilan o'zaro munosabati, kurashi va nihoyat, eskirgan g'oyalarning yangilari bilan almashinishi, ayniqsa ilmiy g'oyalar misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Fan taraqqiyoti uzluksiz va cheksizdir. Bu jarayonda amaliyotda tasdiqlanmagan, eskirgan qarashlar yangi g'oyalar bilan o'rin almashaveradi.

G'ayri-ilmiy g'oyalar— jamiyat taraqqiyotiga, kishilarning manfaati, maqsadiga zid keladigan g'oyalar tizimidir. G'ayri ilmiy g'oyalar sohta qarashlar, ta'limotlarga asoslaniladi. Bu g'oyalar taraqqiyotning yuksaltirish emas, balki odamlarni to'g'ri yo'ldan chalg'itadi, chunki bu g'oyalar soxta qarashlarga asoslanilgan bo'ladi. Bu g'oyalar ijtimoiy hayotni to'g'ri aks ettirmaydi.

Yuqorida bir necha g'oyaning turlarini tahlil qildik, endi milliy g'oyaning o'zi nimaligini bilishimiz kerak.

Milliy g'oya — millatning o'tmishi, bugun va istiqbolini o'zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oya shakli.

Milliy g'oya o'z mohiyatiga ko'ra, xalq, millat taqdiriga daxldor bo'lgan, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo'lgan vazifalar va mo'ljallarni ham aks ettiradi. U yoki bu g'oyaning milliy g'oya sifatida maydonga chiqishi millatning o'tmishi, mavjud holati bilan bevosita bog'liqdir, ana shu ikki negizga tayangan holdagina u millatning qisqa yoki uzoq vaqtda erishishi lozim bo'lgan maqsad-muddalari va mo'ljallarini to'g'ri ifodalay olishi mumkin.

Milliy g'oya, oxir-oqibatda, azmi-ko'pmi insonning taqdiriga ta'sir qiladi. Shu ma'noda, har qanday milliy g'oyada umuminsoniy mohiyat mavjud bo'ladi. Ammo aniq bir millat yoki umuman insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan g'oyalar ham bor. Masalan, «Milliy yarash» g'oyasi fuqarolar urushi ketayotgan paytda davlat uchun hayotiy mazmunga ega bo'lsa, «Manfaatli hamkorlik» g'oyasi dunyoning barcha mamlakatlari uchun birdek ahamiyatlidir.

Mamlakatimiz uchun milliy g'oya haqidagi masalaning bugungi amaliy ahamiyati shundaki, biz o'tish davrini boshdan kechirmoqdamiz. Aynan shunday

paytda aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qiluvchi mafkuralarning shakllanishiga sharoit tug'ilishi mumkin. Shunday ekan, millat, jamiyatning parokanda bo'lib ketishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Endi taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi g'oya, aqidaparastlikning mohiyatini ham bilib olishimiz zarur. Insoniyat hayotida milliy g'oyalardan tashqari umuminsoniy g'oyalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuminsoniylik g'oyalar — o'z mohiyati va miqyosiga ko'ra, bashariyatning ongi va qalbini egallagan, dunyodagi barcha odamlar va har bir xalq uchun eng yuksak ahamiyatga ega bo'lgan, butun insoniyatning ezgu maqsadlariga xizmat qiladigan g'oyalar majmui. Hozirgi zamonda demakratiya va gumanizm, tinchlik va barqarorlik, mustaqillik va ozodlik, qonunning ustuvorligi va inson erkinliklari kabi qadriyatlar umuminsoniy ahamiyatga ega. Shuningdek, yaxshilik, adolat, millatlarning teng huquqligi, vijdon erkinligi, tabiatni asrash va shu kabilar umuminsoniy g'oyalarga misol bo'la oladi. Jamiyat rivojida ular xilma xil tarzda, turli-tuman shakllarda namoyon bo'lib, inson hayotining ma'naviy mezoni bo'lib xizmat qiladi.

Umuminsoniy g'oyalarning har bir xalq mafkurasida ustuvor bo'lishi shu xalqning jahon hamjamiyatiga teng huquqli a'zo sifatida barcha bilan tinchlik va hamkorlik aloqalarini o'rnatishi, erkin va farovon hayot barpo etishining muhim shartidir. O'zbekiston xalqining milliy istiqloq mafkurasida umuminsoniy g'oyalarga tayanadi. Ana shu sababdan u boy tarix merosimizni tiklash, milliy qadriyatlarni jahonga tanitish, fuqarolarimizni umumbashariy an'analarga sodiqlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Aqidaparastlik — muayyan sharoitda, biror-bir g'oya yoki tamoyilga qat'iy ishonch va uni mutloqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni, boshqa sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qo'llashga urinish hisoblanadi. Bu atama faqat salbiy ma'noda qo'llanib, muayyan omil yoxud oqim tomonidan bayon etilgan qonun va qoidalar ta'sir doirasini sun'iy ravishda kengaytirishga urinishni anglatadi. Masalan, XVII-XVIII asrlarda mexanika Fani rivojlangan. Mexanikada qo'lga kiritilgan yutuqlar ba'zi olimlarda amaldagi barcha hodisalarni ham mexanika fani yutuqlari asosida izohlash mumkin, degan noto'g'ri xulosaga olib kelgan.

Ayrimlar hatto odamni ham oddiy bir mexanizm sifatida tafsiflay boshlagan. Bunday yondashuv fanda «mexanizm» nomini olgan bo'lsada, asli u ham aqidaparastlikning o'ziga xos ko'rinishi edi deyish mumkin. Demak, u yoki bu hodisa, qoida, tamoyilni mutloqlashtirishga asoslangan yondashuvni ijtimoiy hayotning istagan sohasidan topish mumkin.

Diniy aqidaparastlik dindagi muayyan aqida yoki qoidalarni, o'rinli yoki o'rinsizligidan qat'iy nazar, ko'r-ko'rona qo'llash va mutloqlashtirishga intilishdir. Aqidaparastlik barcha dinlarda turli mazhab va yo'nalishlar orasida keskinlik, nizov a to'qnashuvlar keltirib chiqarishga sababchi bo'lgan.

Aqidaparast guruhlar haqiqatni tushuntirish, ishontirish kabi usullar orqali targ'ib etishni tan olmaydi. Ular o'z g'oyalari bid'atli, g'ayriinsoniy bo'lishgacha qaramasdan, jahil va boshqalarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'ladi. O'zini shak-shubhasiz haq deb bilish, haqiqatni faqat men bilaman, degan qarashga asoslangan manmanlik esa, zo'rovonlikni yuzaga keltiradi. Ya'ni aqidaparastlik ekstremizmning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Ekstremizm turli ko'rinishlarda bo'lib, terrorchilikni ham o'z ichiga oladi. Ekstremistlar qayerda faoliyat ko'rsatmasin, o'zaro nizolar, ixtiloflar, qurolli to'qnashuvlar orqali, ya'ni qon to'kish va zo'rovonlik yo'li bilan o'z maqsadiga erishishni ko'zlaydilar.

2. Yuqoridagi savolda g'oya tushunchasi, uning mohiyati va turlarini yoritgan edik.

G'oya va mafkura o'zaro bog'liqlikda bo'ladi. G'oya mafkuraning asosini tashkil qiladi. Lekin har qanday g'oya mafkuraning asosi bo'lavermaydi. Odamlar, ijtimoiy sinf va qatlamlarning millat va davlatlarning manfaatlari maqsadlari ham g'oyalarda ifoda etiladi. O'z oldiga qo'ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi ekani, bunga qanday yo'llar bilan erishmoqchi bo'layotgani haqidagi g'oyalar tizimi har bir millat, xalq va jamiyatning milliy mafkurasining asosini tashkil etadi.

Mafkura — muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir.

Jamiyatning, jamiyat ahlining mustahkam mafkurasini bo'lmasa, o'z oldiga qo'ygan aniq bir maqsad, muddaosi bo'lmasa, u muqarrar ravishda inqirozga yuz tutadi. Maqsad esa-xalqni, millatni birlashtiruvchi, unga kuch qudrat bag'ishlovchi, ruhiy ozuqa beruvchi, istiqbolga boshlovchi bayroqdir. Yurtboshimiz so'zlari bilan aytadigan bo'lsak: «Bu bayroq butun O'zbekiston xalqining ruhini, g'urur—iftixorini, kerak bo'lsa, qudratini, orzu—intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug' kuchdir. Davlatimizning, xalqimizning, yurtimizning maqsadi o'zining ulug'vorligi, hayotiyli va haqqoniyli bilan hammamizni jalb

etadigan bo'lmog'i lozim. toki bu maqsad xalqni-xalq, millatni-millat qila bilsin, qo'limizda yengilmas bir kuchga aylansin».<sup>20</sup>

Insonlar, xalqlar, jamiyatlar hayotida mafkura muhim rol o'ynaydi. Yurtboshimiz so'zi bilan aytadigan bo'lsak: Mafkura bo'lmasa, odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Mafkuraning hayotbaxsh kuchi, avvalo insonning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini qanday tushunish va uni qanday maqomda tasavvur etishiga bog'liq. Chunki insonning ijtimoiy harakat va faoliyatga undash va shu tariqa ko'zlangan muayyan maqsad-vazifalarga erishishi dunyodagi barcha mafkuralarning ma'no-mohiyatini tashkil etadi. Shu ma'noda, milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillar tizimida insonning jamiyatdagi o'rni va maqomi aniq belgilanganligi diqqatga sazovardir. Ya'ni bu tizim insonni bunyodkor kuch sifatida ta'riflaydi va shunga da'vat etadi.

Istiqlolning bosh g'oyasi ham, asosiy g'oya va tushunchalari ham bunyodkorlik falsafasi bilan yug'rilgan. Chunki bunyodkorlik-xalqimizning olijanob fazilati. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, o'zbek tom ma'noda bunyodkordir, do'ppisida suv tashib bo'lsa ham daraxt ko'kartiradi.

Bunyodkor g'oya deb, insonni ulug'laydigan, uning kuch g'ayrati va salohiyatini oshirib xalqi, vatani, butun insoniyat uchun foydali ishlar qilishga safarbar etadigan, o'zida taraqqiyot, do'stlik, tinchlik, adolat, halollik, poklik kabi ezgu maqsadlarni mujassam etadigan g'oyaga aytiladi.

Insoniyat tarixi xilma-xil g'oya va mafkuralarning vujudga kelishi, amaliyoti, bir-biri bilan munosabatidan iborat uzluksiz jarayonda turli g'oyalar u yoki bu kuchga xizmat qilishi, o'ziga ishongan kishilarni qanday maqsadlar tamon yetaklashiga qarab bir-biridan farqlanadi. Ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan mafkuralarga bunyodkor g'oya asos bo'lsa, vayronkor g'oyalarga tayangan mafkuralar xalqlar va davlatlarni tanazzulga yetaklaydi, odamlar uchun son-sanoqsiz kulfatlar keltiradi. Bu esa o'z navbatida, g'oyaviy jarayonlar tarixini o'rganish, ular zamiridagi mazmun-mohiyatini bilib olishni zaruratga aylantiradi. Chunki, insonning mafkuralarga tabiiy ehtiyoj sifatida vujudga keladi va rivojlanib boradi. Bunyodkor g'oyalar bilan qurollangan kishilar farovon hayot, erkin jamiyat qurish uchun, kurash olib borganligi tarixdan ma'lum. Bunday jarayon ijobiy g'oyalarning tug'ilishiga, ular esa o'z navbatida elatlar, xalqlar, millatlar manfaatlarini ifodalovchi hayot tarzining shakllanishi va takomili misolida ko'rish mumkin. Bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek

---

<sup>20</sup> И.А Каримов. Жамиятимиз мафқураси халъни-халъ, миллатни-миллат љилишга хизмат этсин,1998.

olijanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat sivilizasiyasiga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining eng ezgu g'oyalari sifatida yashab kelmoqda.

Prezident I.A.Karimovning «o'zbek tom ma'noda bunyodkordir», degan so'zlarida ham ana shu boqiy g'oyalarning ma'no-mazmuni o'z ifodasini topgan. Bunday bunyodkorlik xalqimizga ota-bobolaridan merosdir. Insoniyat tarixida odamlar ongi va shuuriga adolat, haqiqat, ezgulik, mehnatsevarlik kabi yuksak g'oyalar urug'ini sepgan zot, payg'ambar zot yaratgan «Avesto» kitobida quyidagi satrlar mavjud: «Ezgu fikr, ezgu so'zlar (aytish)ga, ezgu ishlar amaliga baxshida qilaman, barcha yomon fikrlardan, yomon so'zu yomon ishlardan yuz o'giraman». Bu yuksak g'oyalar bundan 2700 yil ilgari yashab o'tgan vatandoshimiz Zardo'shtning o'lmas mafkurasi edi.

Insoniyat tarixida ezgulik va bunyodkor g'oyalar bilan yovuzlik va buzg'unchilik g'oyalar o'rtasida hamisha kurash bo'lganligini bilamiz. «Ezgulik», taraqqiyotga intiluvchi kuchlarni, insonparvarlik va yuksak axloq falsafasini, ijtimoiy adolat prinsiplari yoki «Avestoda»da bayon qilingan «ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ish»ning negizini tashkil etadigan qadriyatlarni o'zida mujassam etadi.«Yovuz»lik esa tarixda reaksiya, taraqqiyot g'ildiragini orqaga burish, qora kuchlar faoliyati va hukmronligini ifodalaydi.

Insoniyatning, jumladan, O'zbekistonning bir necha yuz yillik tarixida ham turli bosqinchiliklar, oqibatida zulm, zo'ravonlik, kulfat urug'larini sochi shva qon to'kilishga sabab bo'lgan buzg'unchi g'oyalar va mafkuralarning halokatli ta'siri bilan bog'liq qayg'uli sahifalar juda ko'p.

XXI asrga kelib dunyoning siyosiy manzarasi tubdan o'zgardi, ikki qutbli dunyo barham topdi, nisbiy muvozanat buzildi. Dunyodagi ikki qutbning biri bo'lgan sobiq socialistik lager tarqalib ketdi. Uning eng kata va tatalitar tuzumi hukmron bo'lgan asosiy davlati-sobiq ittifoq o'tmishga aylandi. Bu davlatning o'rnida mustaqil davlatlar yuzaga keldi. Mustabid mafkura g'oyalaridan xalos bo'lgan xalqlar o'z milliy davlatchilik an'analarini tikladi. «Bugungi kunda aksariyat rivojlangan davlatlarning mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslanadi. Ularda tinchlik va taraqqiyot, inson haquqlari va erkinligi, milliy va diniy totuvlik g'oyalari ustuvordir».<sup>21</sup> Bu tamoyillarga asoslangan ezgu g'oyalar umuminsoniy manfaatlar bashariyatning asriy orzusi bo'lgan yorug' kelajak uchun xizmat qiladi. Lekin, ming afsuski, hozirgi vaqtda dunyoning mafkuraviy manzarasida turli vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan tajavuzkor millatchilik, shovinizm,

---

<sup>21</sup>Миллий истиъллол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар.Т.,«Ўзбекистон»,2000 йил,22-бет.

neofashizm, irqchilik, diniy ekstremizm kabi siyosiy kuchlar va oqimlar ham bor. Bunday g'ayriinsoniy, buzg'unchi g'oyalar xalqlar boshiga so'ngsiz kulfatlar keltirib, insoniyatning tinchligi, osoyishtaligini buzub, odamlar boshiga turli bolalar yog'dirmoqda.

Masalan, 2005 yil 13-May oyida Andijon shahrida bo'lgan voqyealarni eslash kifoya qiladi. Bugungi kunda nafaqat inson ongini, balki qalbini egallash mafkuraviy kurashning bosh maqsadidir. Shuning uchun ham yer yuzining turli mintaqalari xalqlarning aloqalari va qalbi turli g'oyalarni sinash maydoniga, mafkuraviy, paligonga aylantirilmoqda. Ana shunday sharoitda xalqning barcha qatlamlariga berilayotgan bilimlar obyektiv, voqyelikni to'liq va to'g'ri aks ettirishi, jamiyat taraqqiyotiga, vatan va xalq manfaatlariga, qadriyatlarini saqlashga xizmat qilishi lozim. Hozirgi davr-dunyodagi g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tu solgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir.

Insoniyat XXI asrga kelib bir qator chegara bilmaydigan muammolarga duch keldi. Urush va tinchlik, ekalogik falokatlar, ma'naviy qashshoqlik, narko-biznes, terrorizm kabi muammolar ana shular jumlasidandir. Shu bilan birga dunyoda glaballashuv, axborat oqimining tezlashuvi va intensivlashuvi, universal tehnologiyalar bilan bog'liq umumbashariy jarayonlar ham bormoqda. Bugungi kunda yozuv kuchlar yer yuzidagi tinchlik va totuvlik, hamkorlik hamda hamjihatlikka va oxir-oqibatda insoniyatning yagona birlik sifatida erkin taraqqiy qilishga katta xavf tug'dirmoqda. Bugun dunyoning mafkuraviy manzarasini o'z maqsadlari yo'lida o'zgartirmoqchi bo'layotgan mafkura shakllari barqarorlik va taraqqiyotga daxl solmoqda.

I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida:....» nomli asarida ko'rsatib berilganidek, taraqqiyotga nisbatan xavf-xatarlardan biri davlatchilik shovinizmidir. Buyuk davlatchilik shovinizmini, I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Muayyan kuchlar va davlatlar tomonidan bo'ladigan siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy hukmronlik deb yoki millatlararo va davlatlararo, mintaqaviy munosabatlarda unga intilish deb ta'riflash mumkin. Shovinizm ba'zi ko'p sonli millatlarning nafaqat ko'p millatli imperiya doirasida, balki uni o'rab turgan jug'rofiy-siyosiy makonda ham o'zining mutloq hukmronligini o'rnatish uchun kurashda namoyon bo'ladi».<sup>22</sup> Ko'rinib turibdiki, buyuk davlatchilik shovinizmi g'ayriinsoniy xarakterga ega. Zero o'z mohiyatiga ko'ra milliy tengsizlikni oqlash, targ'ib-tashviq qilish hamda himoya qilishning o'ziga xos shakllaridir.

---

<sup>22</sup> И.А.Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида.....Т., Ўзбекистон, 2. ўша жойда.1997, 52-53 бетлар.



Bizning o'lkamiz ham buyuk davlatchilik shovinizmining falokatli ta'siridan chetda qolmadi.«U ham uzoq vaqt davomida hukmron shovinistik va agressiv millatchilik g'oyalarning butun jafolarini tortib keldi, -deb yozadi I.Karimov.- O'zbekiston Rassiya imperiyasi, so'ngra esa sobiq sovet imperiyasi tarkibida majburan ushlab turilgan murakkab daverni boshdan kechirdi».

Buyuk davlatchilik shovinizmi bugungi kunda pansovetizmi, bilan o'ziga xos tarzda qo'shib ketmoqda. Pansovetizm o'z umrini yashab bo'lgan g'oyalarni hayotimizga qaytadan tiqishtirishga, shu yo'l bilan yana eski tuzumni tiklashga, bir so'z bilan aytganda, milliy o'zligimizni yo'qotishga qaratilgan intilish yotganligini yoddan chiqarmaslik zarur. Bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olayotgan, xilma-xil qarashlarning mafkura maydonida hukmronlik qilishga intilishi tabiiy, albatta. Bunga e'tiqod umumiylikiga asoslangan holda yakka mafkura hukmronligini ta'minlash orqali jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan o'ziga qaram qilishga bo'layotgan xatti-xarakatlarni misol keltirish mumkin. Diniy aqidaparastlik shular jumlasidandir. Masalan, islom dinidagi hozirgi aqidaparastlar ijtimoiy, milliy xususiyati, qaysi davlatga mansubligidan qat'iy nazar, barcha musulmonlarning ma'naviy birligi haqidagi tasavvurlarga tayanib ularning yagona xalifalik ostida siyosiy birlashuv g'oyasini asoslashga harakat qiladi.

Ikkinchidan, xalifalikni tiklashga, uning to'g'ri ekanini asoslashga urinuvchilar, bu ham aynan millat sifatida o'zligimizni anglashga yo'l qo'ymaslikka yashiradilar. Bu g'oyani tiqishtirishda ular bizning islom diniga e'tiqod qilishimizga alohida urg'u beradilar. Bundan tashqari, bu oqim tarafdorlari xalifalik bayrog'i ostida birlashishni noislomiy dunyoga qarshi turish maqsadi bilan bog'lashlarini ham ta'kidlash zarur.

Shuni unutmasligimiz kerakki, bugungi kunda xalqlarning lisoniy birligiga tayangan holda ularning ma'naviy-ma'rifiy birligini ta'minlash bayrog'i ostida taqdim etilayotgan g'oyalar ortida ham aslida g'arazli maqsadlar yashiringanligini unutmaslik lozim. shu bilan birgalikda o'zlarining g'arazli geosiyosiy maqsadlarga erishish yo'lidagi mafkuraviy ta'sir o'tkazishga eng avvalo bo'lib tashla va hukmronlik qil degan qadimiy tamoyilga amal qilishga urinishni ham ta'kidlash zarur. Shu bilan birgalikda imtiyozli hamkorni belgilash muayyan mintaqada geostrategik manfaatlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan yana bir tamoyildir.

«Imtiyozli hamkor»dan mintaqa davlatlari o'rtasida ayirmachilikni shakllantirish, «nomaqbul» davlatlar imkoniyatlarini cheklash yo'lida foydalanish, shu bilan birga «hamkor» davlatning mintaqadagi boshqa davlatlardan qaysidir jihatdan ustunligini ta'minlashga qaratilgan intilishlar haqida bo'lmoqda. Ularning

bosh maqsadi –mintaqaga ta’sir o’tkazish plandorligiga ega bo’lishdir. Teng huquqli va o’zaro foydali hamkorlik tamoyiliga amal qilish-geostrategik manfaatlarni ro’yobga chiqarish va davlatlararo aloqalarni mustahkamlashning eng oqilona va to’g’ri yo’lidir.

3. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g’oyalari xalqimiz mustaqil taraqqiyot yo’lidagi bosh g’oyasidan kelib chiqadi. O’zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo’lidagi bosh g’oyasi-mustaqillikni mustahkamlash, ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g’oyalari o’zining ma’no-mohiyati, falsafasi, jozibasini bilan bosh g’oyani xalqimizning qalbi va ongiga yanada chuqurroq singdirishga xizmat qiladi.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g’oyalari qo’yidagi elementlarni o’z ichiga qamrab oladi:

1. Vatan ravnaqi
2. Yurt tinchligi
3. Xalq farovonligi
4. Kamil inson
5. Ijtimoiy hamkorlik
6. Millatlararo totuvlik
7. Diniy bag’rikenglik (talerantlik)

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillarini milliy istiqlol g’oyasi fanidan alohida maxsus tarzda o’tiladi. Shu bilan birgalikda milliy istiqlol mafkurasini quyidagi tamoyillarga ega:

- Mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish;
- Odamlar, ayniqsa yoshlarning irodasini baquvvat qilish, iymon-e’tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladigan ma’naviy muhit yaratish;
- Xalqimizga xos iymon-e’tiqod, insof-diyonat, sahovat, halollik, mehr-oqibat, sharmu hayo kabi fazilatlarni yanada yuksaltirish;
- Hur fikrli, jur’atsizlikdan xoli insonni tarbiyalash;

- Vatandoshlarimiz tafakkurida o'zlikni anglash, tarixiy xotiraga sadoqat, muqaddas qadriyatlarni asrash, vatanparvarlik kabi tuyg'ularni kamol toptirish;
- Mamlakatning ko'p millatli xalqi ongi va qalbida O'zbekiston-yagona vatan degan tushunchani shakllantirishni ham ichiga oladi. Shu bilan birgalikda, mafkuramiz tom ma'nodagi milliy mafkuraga aylanishi uchun quyidagi talablarga javob berishi zarur:
- Millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch-e'tiqod manbai bo'lishi, ya'ni u tom ma'noda so'z bilan shani, nazariya bilan hayotni birlashtira olishi, O'zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam va din vakillariga birday taalluqli bo'lishi kerak;
- Har qanday ilg'or g'oyani o'ziga singdirishi va har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olishi, ya'ni ikki yuzlamachilikdan holi va jamoatchilikning obyektiv fikriga tayanuvchi mafkura bo'lishi;
- Zamon va davr o'zgarishlariga qarab, o'zi ifodalaydigan manfaat, maqsad-muddalarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalarini tavsiya eta olish, ya'ni yangicha vaziyatga tez moslasha oladigan hozirjavob va ijodiy bo'lishi.

Har qanday mafkura singari milliy istiqlool mafkurasi ham o'ziga xos amal qilish tamoyillariga ega. Bu tamoyillar, umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligi, xalqaro andoza va talablarga moslik, xalqning barcha qatlamlari maqsad—muddolarini o'zida ifoda etish bilan tavsiflanadi. Ular bir—birini taqozo etadi, o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Milliy istiqlool mafkurasi asosida amalga oshiriladigan barcha vazifalar oxir—oqibatda yagona maqsadga—Vatanimizning mustaqilligini mustahkamlash yurtimizni ozod va odob etish, farovon jamiyat qurish uchun xizmat qiladi. Bu mafkuraning quyidagi muhim xususiyatini ajratib ko'rsatish kerak.

1. O'zbekiston xalqining tub manfaatlarini ifoda etishi. Milliy mafkura xalqning maqsad va intilishlarini ifoda etadi, xalq ruhini ko'taradi, uni ezgulik va

bunyodkorlik ishlariga da'vat etadi, jamiyat duch kelgan muammolar yechimini topishga yordam beradi.

2. O'tmishni kelajak bilan bog'lovchi ma'naviy ko'prik ekanligi. Milliy mafkura bir necha avlodlarning aql—zakovati bilan yaratiladi. U keyingi avlodlar tomonidan yangi mazmun bilan boyitilib beriladi.

3. Milliy mafkuraning yana bir muhim xususiyati kishilarni buyuk maqsadlar sari birlashtiruvchi va safarbar etuvchi kuch ekanligidir.

4. Milliy istiqloq mafkurasi jamiyat a'zolari bunyodkorlik faoliyatining o'ziga xos mezonidir.

Xalqning intellektual—ma'naviy salohiyati milliy istiqloq g'oyalarini qay darajada hayotga tatbiq eta olishida, ajdodlar orzu—umidini qay darajada ro'yobga chiqara bilishda yaqqol namoyon bo'ladi.

5. Milliy istiqloq mafkurasining yana bir xususiyati kishilarni yaratuvchin faoliyatga safarbar etish, g'oyaviy himoya vositasi ekanligi bilan belgilanadi.

6. Milliy istiqloq mafkurasi yosh avlodni tarbiyalashning beqiyos omilidir. Chunki, u «xalqning millatning o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan o'lmas e'tiqodidir». (I.Karimov). Shu bilan birgalikda istiqloq mafkurasining bo'lishi tabiiy. Chunki, Har qanday mafkura o'z oldiga muayyan maqsadlarni qo'yadi.

Bu maqsadlar pirovard natijaga erishishning yo'llari, vosita va usullarini belgilaydi. Mafkuraning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Odamlarni muayyan g'oyaga ishontrish;
- Shu g'oya atrofida ulashtirish;
- G'oyani amalga oshirish uchun safarbar etish;
- Kishilarni ma'naviy-ruhiy jihatdan rag'batlantirish;
- G'oyaviy tarbiyalash;
- G'oyaviy immunitetni shakllantirish;
- Harakat dasturi bo'lishi qamrab oladi.

Quyidagi milliy istiqloq g'oyasi nuqtai nazaridan mafkuraning ana shu xususiyatlarining mohiyati va mazmuni bilan qisqacha tanishamiz.

1. Odamlarni muayyan g'oyaga ishontirish.— Mafkura g'oyalar sistemasi sifatida biror bir g'oyani targ'ib qilish, kishilarni shu g'oyaning to'g'ri, hayotiy va ilg'or ekanligiga ishontirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Demokratik jamiyatda amal qiladigan plyuralizm kishilarga o'z hayotiy manfaatlari, maqsad va intilishlarini aks ettiradigan ilg'or g'oyani tanlash, himoya qilish va rivojlantirish imkonini beradi.

2. G'oya asosida kishilarni uyushtirish. Jamiyat faqat o'z shaxsiy manfaatini ko'zlaydigan odamlar yig'indisidan iborat emas. Umumiy manfaatlarni teran anglash kishilarning jamiyat bo'lib uyushishlariga, ijtimoiy talab va normalarni e'tirof etib, ularga amal qilishlariga sabab bo'ladi. Bu ayniqsa, hozirgi o'tish davrida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ham jamiyat a'zolarini umumiy maqsad va manfaatlari yo'lida birlashtirish mafkuraning asosiy vazifalaridan biridir.

3. G'oyani amalga oshirish uchun safarbar etish. Mafkuraning bunyodkorlik funksiyalaridan biri ilg'or g'oyani amalga oshirish uchun kishilarni safarbar etishdir. Mafkura ifoda etilgan g'oya va maqsad jamiyatdagi ko'plab partiyalar, ijtimoiy harakat va tashkilotlarning faoliyat dasturiga asos bo'ladi, ijtimoiy rivojlanishga kuchli turtki beradi. U jamiyatda ro'y beradigan tub o'zgarishlarga zamin yaratadi, unga keng xalq ommasini ma'naviy-ruhiy jihatdan tayyorlaydi, so'ngra bunyodkorlik ishlariga safarbar etadi.

4. Kishilarni ma'naviy-ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash. Mafkura taraqqiyotning eng og'ir, murakkab davrida, ayniqsa, bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan yangisiga o'tish jarayonida keng xalq ommasini ma'naviy-ruhiy jihatdan qo'llab-qo'vatlaydi, ularda kelajakka ishonch tuyg'ularini uyg'otishga xizmat qiladi. Ana shu sababdan ham chinakam milliy mafkura bo'lgan istiqlol g'oyasi o'zining jozibasi bilan kishilarni o'z kuchiga ishonishga, istiqbolga umid bilan qarashga da'vat etadi.

5. G'oyaviy tarbiyalash. Jamiyatdagi mavjud g'oyalarga faol munosabat, faol hayotiy pozitsiyani tarbiyalash mafkuraning yana bir muhim maqsadidir. G'oyaviy tarbiya axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Har qanday axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiya muayyan g'oyani himoya qilish, targ'ib etish va rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Inson faoliyati aniq bir g'oyaviy maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, bu niyat ko'pincha ko'zga tashlanmaydi. G'oyaviy tarbiyaning asosiy maqsadi kishilarda xushyorlik, sezgirlik hissini shakllantirish, yot va zararli g'oyalarga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir.

6. G'oyaviy immunitetni shakllantirish. G'oyaviy tarbiya jarayonida kishilarda yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Bu uzoq davom etadigan jarayondir.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongiga bir xil g'oyani zo'r berib tiqishtirish emas, balki odamlarda oq-qorani ajratish, zararli g'oyalarga qarshi hushyor va ochiq bo'lish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir.

7. Harakat dasturi ekanligi. Mafkura jamiyatda ijtimoiy-siyosiy harakatning o'ziga xos dasturilamali bo'lib xizmat qiladi. Chunki u bugungi kun muammolarini hal etish uchun odamlarni jipslashtirish va safarbar etish zaruriyatidan vujudga kelsada, ayni vaqtda uzoq istiqbolni ko'zlaydi. Milliy mafkura jamiyatdagi barcha qatlamlarning umumiy harakat dasturi, ularni faollikka da'vat etuvchi vosita hisoblanadi. Mafkuraviy maqsad-g'oyaviy faoliyatni amalga oshirishdan kutiladigan ideal natijadir.

Milliy istiqbol mafkurasining oliy maqsadi — Vatanimiz ravnaqi, yurtimiz tinchligi va xalq farovonligi g'oyalariga tayangan holda xalqimizni mustaqillikni mustahkamlash, O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etishdir.

## **10-mavzu: Qadriyatlar falsafasi.**

### **Reja:**

1. Qadriyatlar kategoriyasi, uning mohiyati. Qadriyatlar tizimi.
2. Qadriyatlarining namoyon bo'lish shakllari. Aksiologiya qadriyatlar haqidagi fan. Qadriyatlar va tarix.
3. Mustaqillik va qadriyatlar. O'zbekistonda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va umuminsoniy qadriyatlarining jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati.

**Tayanch iboralar:** Qadriyat. Moddiy va ma'naviy qadriyatlar. Ma'naviy qadriyatlar tizimi. Qadriyatlar va o'tmish. Aksiologiya. Qadrlash va baho. Qadriyat va tarbiya. Inson qadri.

## ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida». T., 1997 y., 137-151-betlar.
2. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasi ishonaman. «Fidokor» gazetasi, 2000 y., 8 iyun.
3. Mustaqillik izohli ilmiy-ommaboi lug'at. T., 2000 y.
4. Falsafa qomusiy lug'at. T., 2004 y.
5. Falsafa qisqacha izohli lug'at. T., 2004 y.
6. Falsafa asoslari. T., 2005 y, 318-327-betlar.
7. Falsafa o'quv qo'llanma. T., 1999, 301-338-betlar.
8. Falsafa, Ma'ruza matnlari. T., 2000, 246-288-betlar.
9. Nazarov Q. Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi. T., 1998 y.

1. Uzoq yillar davomida falsafiy adabiyotlarda, falsafa darsliklarida qadriyat tushunchasiga umuman e'tibor beriladi. Hozirgi davrda kundalik hayotimizda kirib kelayotgan, inson ma'naviy kamoloti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan, hamda yangi ma'no, mazmun kasb etayotgan falsafiy tushunchalardan biri, qadriyatlar muammosidir.

Qadriyat arabcha so'z bo'lib, qadr-andozi, o'lchov, me'yor degan ma'noni anglatadi. Falsafiy ma'noda qadriyat – tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan, odamlar tomonidan qadrlanadigan, ular uchun foydali, ahamiyatli, moddiy iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, mavkuraviy, siyosiy, huquqiy, diniy, milliy, ijtimoiy omillar yig'indisi bo'lib hisoblanadi. Qadriyatlar tushunchasi qadr-qimmat degan ma'noni anglatadi. Oddiy qilib shuni aytish kerraki, «qadriyat» iborasining mazmuni juda sodda bo'lib, uning etimologik mazmuniga vobastadir. Qadriyatlar – odamlar qadrlaydigan narsalardir. Bular atrofimizdagi predmetlar, narsa va hodisalar, voqyealar bo'lib, odamlarning kundalik hayotiy ehtiyojlari va talablarini qondira oladigan yoki qondirishi mumkin bo'lgan narsalardir.

Umuman olganda qadriyatlar deyilganda faqat o'tmish davr uchun muhiy ahamiyat kasb etib qolmasdan, hozirgi kun va kelajakdagi taraqqiyotga ham ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar majmuasi tushuniladi.

Har qanday qadriyat inson faoliyatining mahsuli, uning obyektiv olamga bo'lgan munosabatining ifodasidir. Qadriyatlar jamiyat ijtimoiy va ma'naviy

taraqqiyotining mahsulidir. Har bir qadriyat muayan bir davr, sharoit va ehtiyojning mahsulidir.

Qadriyatlar falsafiy nazariyasining ba'zi masalalari, o'tgan 19-chi asrning ikkinchi yarmida Yevropada yangi kantchilik maktabiga mansub V. Vindelband, G. Rikart va boshqalar tomonidan ishlab chiqildi. Qadriyat nazariyasini o'rganish yunoncha – qimmatbaho ma'nosini anglatuvchi aksiologiya degan ilm sohasini vujudga keltiradi. 19-chi asrning 20-50 yillarida M. Sheler, N. Gartman, R.B. Perri, S.P. Popper kabi nemis va amerika faylasuflarining asarlarida bu fanning asoslari shakllantirildi.

Sharqda avlod va ajdodlarimiz tomonidan yaratgan qadrlash mezonlarining tarixi eng qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat dostonlarga, ya'ni xalq og'zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Spitamen, Mukanna va Jaloliddin Manguberdi to'g'risidagi asarlarda, alpomish, To'maris va Shiroq to'g'risidagi afsona va dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoyillik kabi ko'plab umuminsoniy qadriyatlar tasvirlangan. Ma'naviy merosimizning yorqin namunasi – «Avesto» zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lganligidan unda bu dinning qadriyatlar tizimi, qadrlash mezonlari, o'sha davrdagi milliy g'oyalar yorqin ifodalangan.

Qadrlash to'g'risidagi qarashlar VIII-XII asrlarda Qur'on va xadislarda ta'riflab berilgan ilohiy qadriyat va qadrlash masalalari xalqimiz tarixi va madaniyatiga ta'sir ko'rsatgan.

Sivilizasiyamiz qadriyatlari va xalqimizga xos qadrlash me'yorlari musulmon sharqi va arablar dunyosi madaniyatining rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Tarixda nomlari saqlangan allomalarimiz o'z navbatida butun jahon, sharq madaniyatiga hissa qo'shganlar Abu Hanifa, Al Buxoriy, At Termiziy, kubro, Ahmad Yassaviy, Naqshband kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari to'g'risida ham aytish joiz. Bundan tashqari atoqli qomumiy olimlar – Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, al Farg'oniyy kabi sivilizasiyamizning zabardast namoyondalari ijodi va merosi ko'zguisida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, umuinsoniy madaniyatning durdonalarini yaratgan Ulug'bek, Lutfiy, Navoiy, Bobur kabi zotlarning jahon sivilizasiyasiga qo'shgan xizmatlari muhimdir.

Afsuski, sivilizasiyamizga xos bo'lgan Temuriylar saltanati parchalanib, uning o'rniga Xiva xonligi va Buxoro amirlini, so'ngra Qo'qon xonligi vujudga keldi. XIX asrning o'rtalariga kelib, Turkiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olindi. Mustamlakachilarning qadriyatlari va qadrlash mezonlari xalqimiz orasiga



zo'rlik bilan singdirila boshlandi. XIX asrning oxirlarida «jadidchi»lar M. Behbudiy, So'fizoda, Avloniy, Cho'lpon, Fitrat va boshqalar vujudga keldi. Ularning asarlarida qadriyatlarga boy g'oyalarga duch kelamiz. Lekin, bolsheviklar boshlagan siyosiy jarayonlar bu avlodning boy merosini o'z domiga tortdi, ularning taqdiri ayanchli kechdi.

Sobiq SSSR davrida qadriyat nazariyasi uzoq davr mobaynida umuman ishlanmadi. Rasmiy mafkura va siyosat sovet xalqining yaxlitligi, birligi, xalqlarning bir-biriga yaqinlashishi va qo'shib ketishi g'oyasini ilgari surganligidan keyin, xalqlarning o'ziga xosligi, tarixiy merosi, o'tmishi, urf-odat, rasm-rusumlarini, dinini, umuman xalq uchun qadr bo'lgan barcha narsalarni ifodalash mumkin bo'lgan falsafiy tushuncha muomilaga kiritilmadi. Qatag'on yillarida avj olgan dinga, tarixiy merosga eskilik sarqiti sifatida mahalliy urf-odatlar va marosimlarga qarshi kurash edi.

Xalq va millatlarni asoratda saqlashlarining eng oson yo'li, ularni qadriyatlaridan ajratish edi. Imperiya yemirilib, xalqlarning mustaqillikka bo'lgan harakatlari kuchaygan sari odamlar qadriyatlar masalasiga tez-tez murojaat qila boshladilar.

Har qanday jamoat, ijtimoiy-tarixiy birliklar (urug', qabila, elat, halq, millat) ijtimoiy subyektlar va boshqalar o'ziga xos qadriyatlar tizimiga ega bo'ladi. Bu qadriyatlar tizimida asosiy bo'lmagan qadriyatlar muayyan qatorni tashkil qiladi, turli holatlarda namoyon bo'ladi. Jamiyat rivojining muayyan davri yoki biror davlatda ham ana shunday qadriyatlar tizimi mavjud bo'ladiki, u o'sha davr, jamiyat va davlat kishilari, ularning faoliyati uchun umumiy mezon vazifasini o'taydi. Har bir ijtimoiy tarixiy birlik, sinf va partiyalar ham ana shunday qadriyatlar tizimi asosida faoliyat ko'rsatadilar, ulardan foydalanadilar yoki ularga erishishning turli usullarini qo'llaydilar.

2. Mohiyat va mazmuniga ko'ra qadriyatlarni qo'yidagi shakl va gurug'larga bo'lish mumkin.

1. Tabiiy qadriyatlar. Tabiiy qadriyatlar insonni o'rab turgan, insonning paydo bo'lishi, rivojlanishi va yashashi uchun zarur bo'lgan tabiiy muhit va sharoitlar majmuasidan iborat. Bularga yer, suv, havo, foydali qazilmalar, quyosh, koinotdagi sayyora va yulduzlar, o'simliklar, hayvonot va parrandalar, qisqacha jonli va jonsiz tabiat kiradi.

2. Ijtimoiy qadriyatlar. Jamiyatning hayotiy faoliyati uchun zarur bo'lgan va insoniyatning taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan ijtimoiy soha va tuzilmalarning

majmui (ishlab-chiqarish, korxonalar, tashkilot, muassasalar, oila, mullat, sinf va h.k.).

3. Qadriyatlar sistemasi ichida eng ahamiyatlisi va oiliyi bu insondir. Inson o'z hayot faoliyati jarayonida jamiyatda yashaydi, tabiat orqali esa o'z ehtiyojlarini qondiradi.

Qadriyat tushunchasining o'zi narsa va hodisalarning insonga aloqadorligi, inson uchun ahamiyatliligi, inson uchun qadrliligi tufayli kelib chiqqan va inson tomonidan ishlab chiqilgan. Chunki, inson tabiat va jamiyatdagi hamma narsalarning mezoni, tabiat va jamiyatning oliy darajadagi mahsuli bo'lgan biologik, psixologik va ijtimoiy sistemadir. Inson onga, tafakkurga ega bo'lgan oliy mavjudotdir.

Shuning uchun inson o'zining har bir harakati, faoliyatini ma'lum normalar, me'yorlar yordamida nazorat qilib turadi. Narsa va hodisalar mavjudligining o'zi qadriyat bo'la olmaydi. Ular insonning faoliyatini jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan taqdiridagina qadriyatga aylanadi. Narsa va hodisalardan tashqari insoniy munosabatlar ham shaxs va jamiyat hayoti uchun zaruriyatga aylanib qadriyat bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda tinchlik, farovonlik, tenglik, adolat, insonparvarlik, olijanoblik singari insoniy fazilatlar va hodisalarham qadriyat hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda qadriyatlar ikki turga bo'linadi.

1. Moddiy qadriyatlar ikki turga bo'linadi.

1) Moddiy qadriyatlar.

2) Ma'naviy qadriyatlar.

1. Moddiy qadriyatlarga insonni o'rab turgan moddiy dunyo, insoniyatning mavjudligi uchun zarur bo'lgan tabiiy imkoniyatlar, uning mehnat faoliyati mobaynida yaratilgan barcha moddiy narsalar kiradi.

2. Ma'naviy qadriyatlar. Insoniyatning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan ilmiy bilimlarning falsafiy, axloqiy, huquqiy, siyosiy, estetik, badiiy, diniy g'oya va ideallar yig'indisi ma'naviy hayot qadriyatlari deb ataladi.

Insoniyatning madaniy taraqqiyoti darajasini o'zida aks ettirib, inson faoliyati qadriyatlari qo'yidagi guruhlariga bo'linadi.

1. Umuminsoniy qadriyatlar. Butun insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat, ilmiy, falsafiy, axloqiy, estetik, huquqiy, siyosiy, badiiy,

ekologik qarashlar butun insoniyatning mulki bo'lgan boshqa qadriyatlardan iboratdir. Insoniyatning kelajagi masalasi umuminsoniy qadriyatlardagi dolzarb masaladir.

2. Milliy qadriyatlar – milliy qadriyatlar alohida olingan xalq, millat va elatlarning o'z tarixiy taraqqiyoti davomida yaratadigan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, urf-odatlari, merosimlari, bayramlari va millatning o'zligini belgilaydigan boshqa o'ziga xos tomonlari yig'indisidan iboratdir. Bu o'ziga xoslik moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, oilaviy hayot, turmush tarzida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari millatga taalluqli xalq amaliy san'ati, xalqo'yinlari, rasm-rusumlari, urf-odatlari, marosimlari milliy qadriyatga kiradi. Milliy qadriyatlarning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri, bu diniy qadriyatlardir.

Diniy qadriyatlar milliy qadriyatlar doirasidan ancha keng bo'lib, u ko'plab millatlar elatlar xalqlariga taaluqli bo'lgan, ularni, ularni g'oyaviy jihatdan birlashtiradigan diniy talablar, g'oyalar, rivoyatlar, amaliy marosimchilik, bayramlar majmuasidan iboratdir. Islom dini misolida ko'rib o'tadigan bo'lsak, yer yuzida bir milliarddan ortiq kishining islom diniga e'tiqod qilishini, islom yer yuzidagi 120 davlatda tarqalganligini 30-dan ortiq davlatda islom davlat dini deb e'lon qilinganligini va bu kishilarning hammasini din asoslari (arkon iddin) deb hisoblangan.

Imon, islom va ehson talablari asosidagi birligini ko'rishimiz mumkin. Imon talablari 7-ta aqidani, islom talablari 5-ta amaliy marosimchilik talablarini, ehson-sidqidildan aqidalarga ishonish va marosimlarni ado etishni tashkil qiladi.

4. Oilaviy qadriyatlar. Oilaviy qadriyatlar oila sharoitidagi moddiy va ma'naviy, axloqiy tarbiyaviy munosabatlarga asoslanadi. Oilaviy qadriyatlarga oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat, g'amxo'rlik, bir-birini tushunish, har qanday sharoitda oila sha'nini himoya qilish kabi fazilatlar kiradi.

Oilaviy qadriyatlarning shakllanishida oila a'zolarining shaxsiy xususiyatlari, xush muomalalik, rostgo'ylik, mordlik, insoniylik, chevorlik, pazandalik, sodiqlik singarilar qadrlanadi. Oilaviy qadriyatlar ijtimoiy qadriyatlarning bir elementi bo'lib, qadriyatlar sistemasida muhim o'rin tutadi.

5. Shaxsiy qadriyatlar. Har bir subyektning umuminsoniy v milliy qadriyatlar asosida shakllangan o'ziga xosligi, fazilatlar majmuasidan iboratdir.

Shaxsiy qadriyatlarga insonning rostgo'yligi, kamtaligi, insoniligi, mehribonligi, odobligi, qobiliyatligi va boshqa sifatleri kiradi.

Yuqorida aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, qadriyatlar insonning kundalik hayot faoliyati, shaxsiy sifatlari va ehtiyojlari borliqqa munosabati bilan belgilanganligi uchun ham u insoniyatning ilk davrida paydo bo'ldi va jamiyat taraqqiyoti davomida shakllanib bordi. Shuning uchun bugungi kunda O'zbekiston o'z rivojlanish va taraqqiyot yo'lini belgilayotgan davrda o'zbek xalq o'z milliy o'zligini angalayotgan o'adriyatlar masalasi eng dolzarb masala bo'lib kun tartibi chiqdi va xalqimiz ongida shakllangan mutelik psixologiyasidan qutilishda asosiy rol o'ynaydi.

Har bir fanning o'rganish obyekti uning asosiy maqsadi – asosiy masalasini keltirib chiqaradi. Demak, fanning asosiy masalasini belgilash aslo subyektiv intilishlardan emas, balki uning obyektini o'rganishdan kelib chiqadi. Madaniyat tarixining asosiy masalasi esa madaniy qadriyatlarni aniqlashdan iborat.

«Qadriyat» aksiologik tushuncha bo'lib, inson, insonlar guruhi va umuan insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan narsa, hodisa, norma jarayon va munosabatlarni ifoda etadi. «Ahamiyatlilik» va «foydalilik» qadriyatlarning darajasini belgilovchi nisbiy tomonlaridir. Narsa va hodisalar, shu jumladan sosial hodisalarning qadriyatli yoki qadriyatsizligini aniqlash muayyan davrga inson va insonlar guruhi manfaatlar doirasida amalga oshadi. Demak, o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, qadriyatlar inson va biron-bir ijtimoiy tuzum, kshilarning muayyan birligi uchun nisbiy xarakterga egadir. Qadriyatlar ontologik xarakteriga ko'a tabiiy va sosial qadriyatlarga ham bo'linadi. Suv yoki toza havo inson uchun tabiiy qadriyatdir. Ular inson tomonidan ishlov berilib yaratilmagan. Sosial qadriyatlarning jamiyat ichida uning taraqqiyoti davomida yuzaga keladi va amal qiladi. Madaniy qadriyatlar sosial qadriyatlarning tarkibiy qismi sifatida faqatgina inson tomonidan ishlov berilgan sosial buyum, hodisa va munosabatlarni o'z ichiga oladi. Biron o'simlik yoki qo'y biologik hodisa sifatida tabiatniki. Lekin ular inson tomonidan ishlov berilgandan so'ng madaniy hodisalarga – madaniy o'simlik va uy hayvoniga, shu jumladan madaniy qadriyatlarga aylanadi. Bu jarayon saqlash voqyelikka xosdir. Demak, insonning o'zi ham ishlov berish mahsuli sifatida madaniy qadriyatdir. Sosial qadriyatlar ichida shunday tamon, element iva munosabatlar ham borki, ular inson tamonidan bevosita ishlov berish natijalari emas.

Ularning yuzaga kelishi insonga nisbatan olsak, bevosita shartlangandir. O'z-o'zidan ravshanki sosial qadriyatlar madaniy va madaniy bo'lmagan qadriyatlarga ham bo'linadi. Yuqorida qadriyatlarni belgilash nisbiy xarakterga ega, degan fikr madaniy qadriyatlarga ham tegishlidir. Chunki ayni vaqtda biron-bir xalq uchun qadriyatli bo'lgan urf-odat boshqa xalqlar uchun ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Yoki har bir xalqning uzoq o'tmishda qadrlil bo'lgan sosial

norma hozirgi davrga kelib shunchaki madaniy yodgorlik, hatto konservativ xarakterda bo'lishi mumkin. Shuningdek uzoq o'tmishda yuzaga kelib, hozirda ham nafaqat doimiy milliy, balki doimiy umuminsoniy qadriyatlar ham mavjuddir. Har qanday qadriyatlar singari madaniy qadriyatlarni bilishning yo'li-ularning sifatini aniqlashdir.

Marksistik adabiyotlarda narsa va hodisalari yig'indisi orqali bilinadi, deb tavsif berilgan. Bunda gap shunchaki mexanik tarzdagi xossalar yig'indisi ustida emas, balki bir-biri bilan dialektik tarzda bog'langan xossalar haqida bormoqda. Xossalar sifatning muayyan tamonlari tariqasida obyektning boshqa obyektga o'zaro munosabatida namoyon bo'ladi. Ushbu masalada M.Xasanovning fikrlari qimmatlidir. Strukturaning murakkablashishi uning funksiyalarining murakkablashishiga olib keladi. Demak, madaniy voqyelikni funksiyanal aspektda o'rganish, ularning xossalariga oid jarayonlarni bilishga asoslanadi. Madaniy borliqning xossalarini aniqlash esa uning tarkibiy qismi madaniy qadriyatlarni aniqlash-madaniyat nazariyasi va tarixining asosiy masalasidir. Bu siz ushbu fan amaliyotdan ajralgan, quruq nazariyaga aylanib qoladi.

3. O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'liga o'tganligi, unda umumiy qadriyatlar tizimining shakllanishi va barqarorligini ta'minlaydigan asosiy omillardan biridir. Mustaqillik tufayli respublikamizda yangi demokratik qadriyatlar tizimini shakllantirish imkoni ochildi. Mustaqillik bugungi O'zbekistonda ideal qadriyatdan amaliyotga aylanib bormoqda. Bunda siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy sohalarda tub o'zgarishlarni amalga oshirish, xalq tinchligi, erkinligi va faravonligini ta'minlash, demokratik qonunlarga asoslangan hayot tarzini vujudga keltirish, har bir shaxsning kamolati, qobiliyati va iste'dodini namoyon qilish uchun to'liq imkoniyatlarni yaratish borasida bajarilishi lozim bo'lgan ma'suliyatli vazifalar paydo bo'ldi.

Yangi qadriyatlar tizimining vujudga kelishi, jamiyatdagi asosiy ijtimoiy subyektlarning o'zaro hamjihatligi, kelishuvi, hamkorligi asosidagi faoliyatining mezoniga aylanishi bir qancha vaqtni talab qiladigan o'zgarishlarni amalga oshirish davrini qamrab oladi. Istiqlool yillarida O'zbekistonda bu mavzuga umuminsoniy tamoyillar asosida yondashish shakllandi. Bunday qarashning vujudga kelishi, qadriyatlarning ijtimoiy va ma'naviy yangilanishi, jamiyat a'zolarining kamolati hamda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati masalalariga davlat miqyosida yuksak e'tibor ko'rsatilayotganligi mazkur soha rivojining bosh yo'nalishidir. Qadriyatlar mustaqillikni mustahkamlashning biri sifatida qadirlanishi borasidagi ijobiy jarayonlar tadqiqotlarni ko'paytirish, ularga nisbatan mas'uliyatini yanada oshirishni taqoza qilmoqda. Istiqlool asrlar davomida

shakllangan o'ziga xos sharqona va o'zbekona qadrlash masalalari va me'yorlarini qayta tiklash hamda zamonaviy talablar darajasida takomillashtirishni kun tartibiga qo'ydi.

Zero, mustaqil bo'lmagan mamlakatning qadriyatlari tizimi hech qachon to'kis bo'lmaydi. Mustamlaka mamlakatning ma'naviy hayotida mustamlakachilarning qadriyatlari ustuvor bo'lishi aniq. Faqat mustaqillikkina ushbu xolatni tubdan o'zgartiradi, mamlakatning qadriyatlar majmuasini jahon tizimining teng huquqli va haqiqiy qismiga aylantiradi. Shu sababdan ham istiqloq yangi qadriyatlar tizimini shakllantirishni taqozo qildi. Bu zaruriyat esa qadriyatlarni qayta baholash, yurtimizda sharqona, azaliy va umuminsoniy qadrlash mezonlari ustuvor bo'lgan hayot tarzini shakllantirish jarayoni bilan uyg'unlashib ketdi. Qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlarga e'tibor va bu borada yangi tamoyillardan ta'lim-tarbiyada foydalanish ehtiyoji oshayotganligining sababi ham ana shunda. Shu bilan birgalikda har bir millat o'z qadriyatlarining emas, balki uni asrab-avaylovchi va kelajakka yetkazuvchisi hamdir. Milliy qadriyatlarining saqlanishi uchun har bir millatning o'zi mas'uldir. Bu esa mas'ullikning faqat alohida shaxslarga emas, balki butun millatga ham xos namoyon bo'lishini anglatadi. Millat ozod bo'lmasligi, siyosiy jarayonlar natijasida biror imperiya yoki davlatga qaram bo'lishi mumkin, ammo unda o'z milliy qadriyatlarini saqlash yo'qolib ketmaydi. Har bir millatning o'zi qadrlaydigan madaniyati, tili, an'nalari, urf-odatlari, marosimlari va odob normalari bor. Milliy qadriyatlar millatning tabiiy tarixiy rivoji, ijtimoiy turmushi, yashash tarzi, o'tmishi, kelajagi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlari, an'analari, tili, u vujudga kelgan hudud va boshqalar bilan o'zviy bog'langan. Ular xilma-xil shakllarda, bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo'ladi, o'ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qiladi.

Milliy qadriyatlar va ularning aloqadorligini ifodasi bo'lgan qadriyatlar tizimi, millatning o'zi bilan birga tarix silsilalari zamona zayllari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar orasidan o'tmishdan kelajakka qarab o'tib turadi. Bu qadriyatlar ko'proq millatning etnik xususiyatlari va etnik makoni bilan bog'liq. Xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti esa ularning milliy-etnik qadriyatlari ravnaqi bilan uzviy aloqadorlikda davom etadi. Har bir xalq yoki millat, o'ziga xos rang-barang qadriyatlarni shakllantirib borishi natijasida, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib, uning turli qirralarini rivojlantirib boradi.

Umuminsoniy qadriyatlar kategoriyasining mazmunini o'rganish uchun, avvalo, «umuminsoniylik» tushunchasining ma'nosini tahlil qilmoq lozim. Bu tushuncha jamiyatning asosiy jihatlari, turli ijtimoiy sifatlar, xususiyatlar va

boshqalarning umuminsoniy xarakterga ega ekanligini anglatadi. «umuminsoniylik» tushunchasida qadriyatlarni tirik tabiatning bir qismi bo'lgan odam zotining hayoti va kamolati hamdatarixiy, siyosiy va boshqa birliklar (ijtimoiy subyektlar) uchun ahamiyati ham o'z aksini topadi. Shu bilan birga umuminsoniylikda umumijtimoiy munosabatlar, ta'lim-tarbiya va ma'naviy-axloqiy jihatlar, ijtimoiy muhitning eng umumiy tamonlari bog'liq sifatlar ham aks etadi. Bir so'z bilan aytganda umuminsoniylik odamlar uchun umumiy bo'lgan mezonlar, obyektiv, subyektiv holatlar, xususiyatlar, shart-sharoitlar va boshqalarni o'zida aks ettiradigan tushuncha sifatida ishlatiladi.

Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida umuminsoniylikning ustuvorligi talablari har bir tarixiy birlikning tarixiy rivojlanish mahsuli, ekanligini, bunda tirik insonlarning taqdiri, orzu umidlari borligini hisobga olish taqoza qiladi. Bu talablarga ko'ra har bir kishi sog'-omon yashash, umr kechirish, o'z vujudini omon saqlash kabi huquqlari bilan birga dunyoga keladi, bu huquqlarni unga tabiat ato etgan, biror maqsadlardan kelib chiqib insonni bu huquqlaridan mahrum qilish mumkin emas. Qanday sinf, tabaqa, qatlam vakili bo'lmasin, uning boshqalar kabi yashash huquqi borligi, mutloq haqiqat, odam zoti esa bu huquq nuqtai nazaridan tengdir.

Umuminsoniylikning bu boradagi talablari, ya'ni insonning tabiiy –tarixi. Haq-huquqlari, uning yashash va umr kechirish huquqining tabiiyligi va hatto muqaddasligini to'la-to'kis e'tirof qilishdir. Xalq og'zaki ijodida ham, qadimgi va zamonaviy dinlarda ham, davlatlarning konstitutsiyalarida va boshqa hujjatlarda ham buni yaqqol kuzatish mumkin. Buyuk Fransuz revolyusiyasi (1789 yilda) qabul qilgan «Inson va grajdan huquqlari Deklaratsiyasi»da ham, 1948 yilning 10-dekabrida BMT Bosh Assambleyasi tasdiqlagan «Inson huquqlarining eng umumiy Deklaratsiyasi»da ham kishilarning tabiiy-tarixiy haq-huquqlari jamiyatdagi asosiy umuminsoniy qadriyatlar ekanligi alohida ta'kidlanganligi bejiz emas. Olamdagi insonlarning yashash joylari, o'tmish avlodlarining xoki yashiringan zamin, o'zi to'g'ilgan yurti bilan bog'liq umuminsoniyatga xos bokira tuyg'ulari bor. Bu tuyg'ular tug'ilgan uydan, mahalla, qishloq, shahar ko'chasidan tarbiyalana boshlaydi, kishi mansub bo'lgan tarixiy birlik,uning o'tmishi bilan bog'langan ijtimoiy xududga nisbatan munosabatda namoyon bo'ladi. Kishi yer sayyorasining farzandi ekanini, o'zi uchun suyuqli xudud sayyoraning tarkibiy qismi bo'lgan Vatan ekanligini anglaganida, undagi bu tuyg'u umuminsoniylik talabiga mos keladigan darajaga ko'tariladi. Sayyoramiz kishilari uchun undagi tiriklikning vujudga kelishi, rivojlanishi, odam zotining ongli faoliyati, mehnati, madaniy va ma'naviy kamolati erishish bosqichlari, tabiat va jamiyatda amalga oshirgan ishlari bilan bog'liq jarayonlarni ifodalaydigan tarix ham o'z ahamiyati va qadriga ega.

Tarix-odam zotining ilk vujudga kelgan davridan, bizning kunlarimizgacha yaratgan moddiy boyliklarini, insoniyat hayotida ro'y bergan o'zgarishlarni kelajakka yetkazib beradigan «Qadriyatlar sondig'i»dir.

Tarix-zamin vujudlarini yashirib turgan avlodlar ruhi oiladagi qarizdorlik tuyg'usini qo'zg'agan, o'tmishdagi voqyealarni o'rganish zaruriyati tug'ilgan va kelajakning rejalarini tuzish jarayonida rivojlanishning aniq yo'l va usullari tanlab olinayotgan davrlarda qadriyatga umuminsoniy qadriyatlar va ularning asosiy shakllari xilma-xil tarzda, rang-barang holat va turli darajalarda namoyon bo'ladigan g'oyat murakkab, mazmunan nihoyatda boy va serqirra ijtimoiy tushuncha sifatida bu boradagi masalalarning hammasini bu ma'ruzada qamrab olish qiyin hisoblanadi. Biz bu ma'ruzada qadriyatlar muammosining eng muhim, ayrim jihatlarini yoritdik.

### **11-mavzu: Fan falsafasi.**

#### **Reja:**

1. Fan tushunchasi. Fanning paydo bo'lishi va turli sivilizasiya va davrlardagi taraqqiyoti. Yevroposentrizm va Osiyo sentrizm.
2. Hozirgi zamon fanining umumiy tavsifi. Fanning jamiyatdagi o'rni. Fanda ijod muammosi. Fanning ma'naviy-axloqiy tamoyillari
3. Ilmiy-texnik inqilob va XXI asrda O'zbekistonda fan va jamiyatni insonparvarlashtirish hamda demokratlashtirish jarayoni. Fan va ma'naviyat.

*Tayanch iboralar:* Fan. Yevroposentrizm. Osiyosentrizm. Fan tarixi. Hozirgi zamon fanlari tizimi. Fan va jamiyat. Ijod. Olim mas'ulligi. Ilmiy-texnik inqilob. O'zbekiston fani. Ilm-fan va ma'naviyat

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI-asr bo'sag'asida". T., 1997 y.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997
3. Mustaqillik: izohli, ilmiy-ommabop lug'at. T., 2006 y.



4. Falsafa. Qomusiy lug'at. T., 2004
5. Falsafa. Qisqacha izohli lug'at. T., 2004
6. Falsafa asoslari. T., 2005, 328-337-betlar
7. Falsafa. T., 1999, 279-288-betlar
8. Shermuxammedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. T., 2005 y., 1,2-boblar.
9. Falsafa. Matluba Ahmedovanning umumiy tahriri ostida. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2006 yil.
1. Fan tushunchasi. Fanning paydo bo'lishi va turli sivilizasiya va davrlardagi taraqqiyoti. Yevroposentrizm va Osiyosentrizm.

Fan – dunyo xaqidagi obyektiv ilmiy bilimlar tizimi bo'lib, u o'zining ilmiy tushuncha uslublari va metodologiyasiga ega bo'lgan, olamni bilish va o'zlashtirishning maxsus usuli xamdir. Shuningdek, fan ijtimoiy ong shakli bo'lib, u uziga xos ijtimoiy institutni tashkil etadi va qadriyatlar tizimida o'ziga xos urin egallaydi. Fan katta ilmiy salohiyatni, ijodiy kuch-quvvatni birlashtiradi, millat dunyokarashini shakllantiradi, ta'lim tarbiya, axlok me'yorlarini vujudga keltiradi, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalaydi, mamlakatda quddratli ilmiy potensialni yaratishga xizmat kiladi.

Fanning mohiyatini, inson va jamiyat hayotidagi o'rnini bilishda uning quyidagi xususiyatlarini e'tiborga olish muhim xisoblanadi:

- inson faoliyatining o'ziga xos turi;
- alohida ijtimoiy institut sifatida fan ilmiy bilimlar yig'indisi;
- insoniyatning ma'naviy salohiyati, olam, tabiat, jamiyat va inson to'g'risidagi tasavvur va qarashlarni shakllantiradi;
- olamni o'zlashtirish va o'zgartirish vositasi hisoblanadi.

Fan o'z oldiga ilmiy bilimlar yaratishni maqsad qilib qo'yadi xamda ilmiy faoliyat moddiy ne'matlar ishlab chiqarish faoliyatidan keskin farq qiladi. Kishilar mehnat faoliyati, siyosat, san'at, din va hokazo sohalardagi faoliyatlari jarayonida ham bilim orttiradi. Lekin ilmiy bilimlar izchilligi, tizimliliigi va haqiqiyliigi bilan ajralib turadi.

Ilmiy bilimlar hosil qilish usullariga qarab, fanlar eksperimental va fundamental fanlarga ajratildi. Shuningdek, ular o'rganish obyektiga qarab, tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnik fanlarga xam bo'lindi. Tadqiqot predmetini chuqurroq o'rganish jarayonida fanning yangi soha va tarmoqlari vujudga keldi. Masalan, tabiatshunoslik fanlarining botanika, zoologiya, kimyo, matematika, fizika kabi

sohalari; ijtimoiy-gumanitar fanlarning tarix qadimshunoslik (arxeologiya), etnografiya, sosiologiya, siyosatshunoslik, falsafa, etika, pedagogika, psixologiya, madaniyatshunoslik kabi sohalari vujudga keldi. Ularning har biri yana qator tarmoqlardan iboratdir. Masalan, tarix fani qadimgi dunyo tarixi, o'rta asrlar tarixi, yangi zamon tarixi; falsafa ontologiya, gnoseologiya, aksiologiya, falsafa tarixi kabi tarmoqlarga ega.

Insoniyatning keyingi ikki yuz yillik tarixi davomida tabiatni o'zlashtirish, inson mohiyatini bilish, jamiyatni takomillashtirish borasida erishgan yutuqlari fan taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Inson tabiiy va ijtimoiy muhitga yaxshiroq moslashish, tabiatning stixiyali kuchlari oldida ojiz va chorasiz bo'lib qolmaslik uchun fanga murojaat qiladi. Shuningdek, u fan tufayli ijtimoiy munosabatlarni o'z maqsad va manfaatlariga mos ravishda takomillashtiradi.

Fanning ilmiy bilimlar tizimi sifatida vujudga kelishi inson ehtiyojlari bilan bog'liq bo'ldi. Fanning paydo bo'lishi va turli sivilizasiya va davrlardagi taraqqiyoti to'g'risida turlicha qarashlar, mavjud bo'lib, uning rivojlanishida G'arb va Sharq mamlakatlarining qo'shgan xissalarni bir yoqlama tavsiflash, ularning bir-biriga ko'rsatgan o'zaro ta'sirini inkor etish ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivojida yevropasentrizm va osiyosentrizm oqimlarini vujudga keltirdi. Qadimgi Sharq jahon madaniyati va sivilizasiyasining beshigi bo'lgani, dastlabki ilmiy bilimlar Sharq mamlakatlarida vujudga kelgani jahon olimlari tomonidan e'tirof qilingan. Qadimgi Sharq mamlakatlarida (Hindiston, Xitoy, Misr, Xorazm, Baktriya, Sug'diyona, Shosh, Afrosiyob) astronomiya, matematika, tabobat, falsafaga oid ilmiy bilimlarning vujudga kelishi kundalik hayotiy ehtiyoj, dehqonchilik rivoji, inson salomatligini muhofaza qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Yil fasllarining almashuvini bilish zarurati astronomiyaga oid ilmiy bilimlarni rivojlantirishga olib kelgan.

Osiyosentrizm okimidagi fikrlarga kura Qadimgi Sharq va Markaziy Osiyoda ilmiy bilimlarning shakllanishi, rivojlanishi bilan tabiat va borliqqa ongli munosabat, tabiat hamda insonni qadrlash hissi shakllangan. Ilmiy va falsafiy tafakkur insonning tabiat va jamiyatga bir yoqlama qaramlikdan ozod bo'lishiga, mehnat tufayli borliqda faol munosabatda bo'lishiga imkon bergan. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan mutafakkirlarning olam, odam va tabiatga bo'lgan falsafiy qarashlari "Avesto"da, hikmat, maqol va rivoyatlarda o'z ifodasini topgan.

Qadimgi yunonlarning Sharq mamlakatlari bilan savdo munosabatlari ilmiy-madaniy sohalardagi aloqalari uchun keng yo'l ochgan. Qadimgi Yunonistondagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar ilmiy bilimlarning rivojlanishi uchun qo'layliklar yaratgan. Qadimgi yunonlar eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda ilmiy bilimlarni

tizimlashtirganlar va tasnif qilganlar. Masalan Evklid, Arximed, Fales, Arestotelning ilmiy bilimlar rivojidadagi xizmatlarini alohida ta'kidlash joiz.

Qadimgi yunon olimlari ko'proq tabiat va koinot sirlarini bilishga, kuzatish va mantiqiy fikrlash vositasida olamning sodda, biroq diniy- mifologik qarashlardan farqli manzarasini yaratishga, borliqqa ozod va erkin inson ko'zi bilan qarashga intilgan. Qadimgi yunonlarga xos izlanuvchanlik hurfikrlilik turli falsafiy oqim va maktablarning shakllanishiga olib kelgan.

Antik dunyo yaratgan fan va falsafa o'rtasidagi hamkorlik bir-biriga ko'rsatgan barakali ta'sir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy faoliyatida yangi bosqichga ko'tarildi. Ularning ilmiy qarashlari hozirgi zamon fanining taraqqiyotida muhim aqamiyatga ega bo'ldi.

Qadimgi Rim imperiyasining qulashi nafaqat siyosiy, balki ilmiy-madaniy sohada ham tanazzulni kuchaytirdi. Biroq ilmiy-falsafiy tafakkur butunlay to'xtab qolmadi. Qadimgi yunonlarning ilg'or falsafiy va ilmiy an'analari Markaziy Osiyoda yanada rivojlandi va fan sohasiga yangi kashfiyotlar berdi.

IX—XII asrlarda arab xalifalari Xorun ar-Rashid, uning o'g'li Ma'mun va Xorazmshoh Ma'munning homiyligida o'sha davrning o'ziga xos fanlar akademiyalari vujudga keldi. Xususan, IX asr o'rtalarida Bag'dodda "Bayt-ul-hikma" (Donishmandlar uyi), Xorazmda Ma'mun akademiyasi vujudga keldi. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi allomalar matematika, astronomiya, tibbiyot, jamiyatshunoslik va siyosatga oid fanlarni rivojlantirdilar.

Sharqda ilmiy bilimlar rivoji diniy aqidalarni inkor etmagani holda insonni yanada kamol toptirishga, borliq mohiyatini aql va tafakkur vositasida bilishga asoslandi. Sharqlik olimlar qadimgi yunon olimlarining ilg'or an'alarini davom ettirdilar, ilmiy bilishning yangi usullarini taklif etdilar. Sharq ilmiy tafakkuri barkamol insonni shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarni yanada takomillashtirish, tabiat sirlarini bilish va undan oqilona foydalanishga qaratildi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilg'or ilmiy qarashlari va asarlari Yevropada ilm-fan rivojida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Yevropaliklar Albaron (Al Beruniy), Avisenna (ibn Sino), Al Fraganus (Al-Farg'oniy), Ulug'bek va boshqalarning ilmiy merosini chuqur o'rganib, ularning an'alarini davom ettirdilar. Buyuk italyan mutafakkiri Dante Aligyeri "Ilohiy komediya" (XVI asr) asarida Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan mutafakkirlarni jahonning buyuk allomalari sifatida ulug'ladi.

Markaziy Osiyo olimlarining jahon fani rivojiga qo'shgan hissalarini matematika, algebra, astronomiya, minerologiya, geodeziya, geografiya, tabobat, tarix tilshunoslik, mantiq, falsafa rivojida yaqqol ko'zga tashlanadi. Muso Xorazmiy matematikaning yangi sohasi bo'lgan algebraga asos soldi. Ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" asari bilan tabobatni ilmiy asosda rivojlantirdi va uning asarlari Yevropada ko'p asrlar davomida muhim qo'llanma bo'lib keldi. Mirzo Ulug'bekning astronomiyaga oid "Zichi jadidi Ko'ragoniy" asari fanga qo'shilgan muhim hissa bo'ldi. U hozirda ham o'z ahamiyatini yukotgan emas.

Mavjud adabiyotlarda ta'kidlanishicha, Yevropada fanning alohida faoliyat shakli sifatida rivojlanishi XU1-XU11 asrlarga to'g'ri keladi. Bu klassik fan davri bo'lib, unda I. Kepler, G. Galiley, J. Bruno, I. Nyutonning asarlari vujudga keldi. Buyuk ingliz mutafakkiri F.Bekon, fransuz olimi R.Dekart ilmiy bilish uslublarini ishlab chiqdilar. Ular fanning tabiatni o'zlashtirish va jamiyatni takomillashtirishdagi ahamiyatiga yuksak baho berdilar, "Bilim — kuchdir" shiorini ilgari surdilar. Bu davrda fan va falsafa bir-biridan keskin ajralmagan edi. Olimlar o'z asarlarini "pozitiv eksperimental falsafa" deb atab, Yevropada ilm-fan rivoji kishilarning olam to'g'risidagi qarashlarini tubdan o'zgartirdi. Olamga dunyoviy fanlar nuqtai nazaridan qarash imkoniyati vujudga keldi, ya'ni olamga bir yoqlama diniy qarashdan keskin farq qiladigan ilmiy qarashlar shakllandi va kaysidir ma'noda yevropasentrizm okimiga asos solindi. Yevropa olimlarining tabiatshunoslik fanlari sohasida erishgan yutuqlari yangi falsafiy ta'limotlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Xususan, I. Nyuton tomonidan fizika sohasida qilingan kashfiyotlar tabiat va jamiyatning mexanistik manzarasini yaratishga, Ch.Darvinning ilmiy kashfiyotlari esa, butun olam evolyusiyasi, olamning yaxlit birligi, organik va noorganik tabiat hamda jamiyatning o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi falsafiy qarashlarning shakllanishiga olib keldi. O'z vaqtida ham tabiatshunos, ham faylasuf bo'lgan R. Dekart, F.Bekon tomonidan ilmiy bilish metodlarining, fanning buyuk o'zgartuvchilik va yaratuvchilik qudratining falsafiy asoslanishi keyingi davrlarda fan va falsafa metodologiyasi uchun mustahkam zamin bo'ldi.

Jahon fanining vujudga kelishi va rivojlanishiga Sharq olimlari o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum bir davrlarida Sharq jahon fani rivojida yetakchi mavqeyeni egallagan bo'lsa, taraqqiyotning keyingi bosqichlarida boshqa mamlakatlar yetakchi bo'ldi.

Osiyo va Yevropa mamlakatlari xalqlarining jahon fani rivojidagi o'rni va nufuzini bir yoqlama bo'rttirish yoki kamsitish nazariy jihatdan xatodir. Fan o'z mohiyati bilan umumbashariydir. Yer yuzidagi har bir xalq katta-kichikligidan qat'i nazar, unga o'z hissasini qo'shib keldi.

XIX asrning o'rtalarida tabiatshunoslik fanlarida qilingan buyuk kashfiyotlar (evolyusion nazariya, hujayra nazariyasi, energiyaning saqlanishi va o'zgarishi qonuni) falsafiy dunyoqarashning o'zgarishiga, jamiyat to'g'risidagi ilmiy nazariyalarning vujudga kelishiga turtki berdi.

XIX asrning oxirlariga kelib, fanning muhim sohalarida erishilgan yutuqlar ilm taraqqiyotida yangi, noklassik fan davri boshlanganidan dalolat berdi. Fizika sohasida optika, termodinamika, elektr va magnetizmning o'rganilishi, kimyo sohasida kimyoviy birikmalar xossalariining o'rganilishi, Mendeleev elementlar davriy tizimining yaratilishi, matematikada analitik geometriya va matematik analiz kabilarda yaqqol ko'rindi. Bu davrda ijtimoiy gumanitar fanlar, xususan sosiologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanishi ijtimoiy jarayonlarni o'rganish va jamiyat istiqbollariini belgilash imkonini berdi.

Ilmiy bilimlarning vujudga kelishi juda qadimiy tarixga ega bo'lsa ham, bu bilimlarni sistemalashtirish, ilmiy bilish usullarini yaratishga asoslangan fan tarixi XIX asr o'rtalarida ijtimoiy munosabatlarning takomillashuvi bilan uzviy bog'liq holda shakllandi.

Fanning jamiyat va shaxs hayotidagi ahamiyati ortib borishi bilan fan tarixini o'rganish, uning rivojlanish xususiyatlarini taxlil qilish bilan shug'ullanadigan alohida soha — fanshunoslik vujudga keldi. XX asr boshlarida fan va texnika inqilobining ro'y berishi natijasida fanning ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan ustunligini himoya qiluvchi alohida falsafiy yo'nalish — ssiyentizm va unga butunlay zid bo'lgan antissiyentizm vujudga keldi.

Fanni olam va odamning mohiyatini bilishning yagona vositasi deb bilish, uni ijtimoiy ongning boshqa shakllariga qarshi qo'yish butunlay xam to'g'ri emas va fan qancha taraqqiy etmasin, sirli olamning mohiyatini u to'liq bilishga xozircha ojiz.

2. Hozirgi zamon fanining umumiy tavsifi. Fanning jamiyatdagi o'rni. Fanda ijod muammosi. Fanning ma'naviy-axloqiy tamoyillari

XX asr boshlariga kelib, fanning har tomonlama rivojlanishi uning ijtimoiy ong tizimidagi o'rnini va ahamiyatini yangicha tushunishni taqozo etdi. Hozirgi zamon, ya'ni postnoklassik fanga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni ko'rsatish mumkin:

— fan o'zining o'rganish sohalarini kengaytirib, mikroolam, makroolam muammolarini o'rganish bilan shug'ullana boshladi. Mikro va makroolamni

o'rganish uchun fan an'anaviy usullardan tashqari, yangi usullardan, maxsus asboblardan, matematik modellashtirish usulidan foydalana boshladi;

— ilmiy bilishning subyektiv jihatlariga alohida e'tibor berila boshlandi. Bu esa mutaxassisning o'rganayotgan sohasini chuqurroq va kengroq bilishini taqozo etdi;

— falsafa va fanda olamdagi narsa-hodisa, jarayonlarning qonuniyat hamda tartib asosida ro'y berishi to'g'risidagi qarashlardan farqli ravishda rivojlanish tartib va tartibsizlik birligidan iborat ekani e'tirof kilina boshlandi;

— fan taraqqiyoti milliy doiradan chiqib, tobora baynalmilal xarakter kasb eta boshladi. Uning yutuqlari butun insoniyatning mulki sifatida anglana boshladi;

— fanning insonparvarlik va taraqqiyparvarlik mohiyati to'laroq namoyon bo'ldi;

— fanning rivoji olimlarning qadriyatlarni e'zozlash va barqarorlashishida yangicha mezonlarni ishlab chiqishni taqozo etdi. Bu olimlarning biror-bir fan sohasini yakka hukmronlik bilan egallab olmasligi, ilmiy yangiliklarni boshqalardan yashirmasligi. ko'chirmachilik qilmasligi, o'z qadr-qimmatini toptamasligi kabilarda namoyon bo'ldi;

— jahon miqyosida ilmiy salohiyatni, ilm-fan yutuqlarini boshqa mamlakatlarga chiqarish moddiy ne'matlar chiqarishdan ko'ra foydaliroq bo'lib qoldi. Bu esa jahon miqyosida informasion jamiyatni, insoniyatning bir butun hamjamiyati shakllanishining muhim omillaridan biri bo'lib qoldi;

— tabiiy va ijtimoiy fanlarning o'zaro uzviy bog'liqligi, ta'siri kuchaydi. Tabiatshunos olimlarning ijtimoiy fan yutuqlaridan foydalanishi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni insoniylashtirishda, tabiatni muhofaza etishda muhim ahamiyat kasb etdi;

— fan umumbashariy va umuminsoniy muammolarni hal etish bilan jiddii shug'ullana boshladi;

— fan insoniyat hayotidagi qator muammolarni hal etibgina qolmay, uning hayotiga jiddiy tahdid soladigan muammolarni ham keltirib chiqardi. Olimning o'z ilmiy faoliyati uchun javobgarligini oshirish, insoniyat hayoti, tinchligi uchun tahdid soladigan ilmiy izlanishlarni taqiqlash, nazorat qilish hozirgi zamon fanining muhim muammolaridan biriga aylandi.

Xozirgi davrda fan taraqqiyoti insoniyatga faqat farovonlik, yaxshilik keltiribgina qolmay, cheksiz musibat va mahrumliklar ham keltirishi mumkin. Fan

va texnika yutuqlaridan tabiat va kishilik jamiyati manfaatlariga qarshi foydalanish oqibatida insoniyat oldida yadroviy urush, ekologik muammolar vujudga keldi. Terrorizm butun insoniyat hayotiga jiddiy tahdid sola boshladi. Ilmiy kashfiyotlarning salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun ijtimoiy-falsafiy tafakkurga «fan etikasi» tushunchasi kirib keldi. Fan insoniyatning farovonligi, baxt-saodati, ijtimoiy taraqqiyoti uchun xizmat qilishi kerak. Buning uchun olimlar va tadqiqotchilar ilmiy kashfiyot oqibatlari uchun mas'uliyatni xis etishi, fan taraqqiyotining falsafiy muammolarini oqilona hal etishga intilishi hozirgi davrning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Taniqli ingliz olimi Tomas Kun o'zining "Fan va texnika inqilobi" asarida fan tarixi paradigmalarni almashinuvi tarixidan iboratdir, degan g'oyani ilgari surdi. Paradigma, T.Kunning ta'kidlashicha, ma'lum bir tarixiy davrda ilmiy tadqiqotlar yo'nalishini belgilaydigan muayyan bir ilmiy nazariyadir. Masalan, Ch.Darvinning evolyusion nazariyasi, E.Dyurkgeymning sosiologizm nazariyasi, Eynshteynning ehtimollik nazariyasi fan rivojida katta burilish yasagan paradigmalardandir.

Mustabid tuzum xalqimizning ilm-fan va zamonaviy texnika sirlarini egallashi uchun ma'lum shart-sharoit yaratgan bo'lsa ham, uning boy ma'naviy merosidan bahramand bo'lishi, ajdodlarning ilg'or ilmiy-madaniy an'analarini rivojlantirishga imkon bermadi.

Mustaqillik tufayli xalqimizning ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan ma'naviy-intellektual merosini o'rganish, jahon ilm-fani va texnikasi yutuqlaridan bahramand bo'lish, dunyoning mashhur ilm dargohlarida o'qish-o'rganish imkoniyati vujudga keldi. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish, zamonaviy ishlab chiqarishni rivojlantirish, barkamol insonni shakllantirishda ilm-fan yutuqlariga tayanish hayotiy zaruratga aylandi. Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov "Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q " kabi asarlarida ilm-fanni rivojlantirish islohotlar muvaffaqiyatining garovi, moddiy farovonlik asosi ekanini har tomonlama isbotlab berdi. O'zbekistonning jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, taraqqiy etishi, shubhasiz, uning ilm-fan salohiyatiga bevosita bog'liqdir. Mamlakatimizda sobitqadamlik bilan amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun mamlakatimiz ilmiy salohiyatini yuksaltirish, jahon andozalari talablariga javob bera oladigan mutaxassis qadrlar tayyorlash vazifasini ko'ydi.

3. Ilmiy-texnik inqilob va XXI asrda O'zbekistonda fan va jamiyatni insonparvarlashtirish hamda demokratlashtirish jarayoni. Fan va ma'naviyat.

XX asr fan-texnika inqilobi insoniyatning moddiy va ma'naviy hayotida tub o'zgarishlarni vujudga keltirdi. Insonning tabiat taqdiri uchun javobgarlik hissini yanada oshirdi. Fan inson hayotining istisnosiz barcha sohalariga kirib keldi, inson va jamiyat borligining muhim tarkibiy qismiga, bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi. Shu boisdan ham hozirgi zamon fanini "katta fan" deb atash odat bo'ldi.

Keyingi yuz yil davomida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi olimlar soni beqiyos darajada usdi. Agar XX asr boshlarida butun yer yuzidagi olimlar yuz ming atrofida bo'lgan bo'lsa, hozirgi paytda ularning soni besh milliondan ortib ketdi.

Fan va texnika sohasidagi inqilobiy o'zgarishlarni olimlar sonining o'sib borishidagina emas, balki ilmiy kashfiyotlar salmog'i va sifatining muttasil ortayotganida ham ko'rish mumkin. Butun insoniyat tarixida qilingan ilmiy kashfiyotlarni yuz foiz deb oladigan bo'lsak, uning to'qson foizi XX asrga to'g'ri keldi. Ilmiy informasiyalar har o'n-o'n besh yilda ikki martaga ortib bormoqda.

Shu jumladan O'zbekistonda xam mustaqillik sharoitida mamlakatning ilmiy-intellektual salohiyatini yanada kuchaytirishga alohida e'tibor berila boshlandi. O'zbekiston fani rivojlanishi oldida turgan asosiy yo'nalishlar I.A. Karimovning qator asarlarida belgilab berildi. Masalan, "O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asari hamda kator nutqlarida mamlakatimiz ilm-fanini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Ayniqsa, jahon ilm-fani rivojiga katta hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimizning ilmiy merosini chuqur o'rganish va ularning an'analarini rivojlantirish maqsadida Xorazmda Ma'mun akademiyasining qaytadan tiklanishi madaniy hayotimizdagi o'lkan voqeya bo'ldi. Shuningdek, ilmiy tadqiqot muassasalarining tarkibiy tuzilishida muhim o'zgarishlar qilindi, zamon talablariga javob beradigan yangi oliy ukuv yurtlari, ilmiy tadqiqot institutlari, Oliy Attestasiya Komissiyasi tashkil etildi. Talabalarni oliy o'quv yurtlariga qabul qilishning ilg'or usullari, yangi pedagogik texnologiyalar joriy etildi. O'zbekistonda ilm-fan kishilarining malakasi, bilimni oshirishga ko'maklashadigan jamg'armalar tashkil etildi. Fan rivojining hukuqiy asoslari yaratildi, ilm-fan xodimlarini ijtimoiy himoyalashga e'tibor kuchaytirildi.

Fan tarakqiyotida an'anaviylik va yangilanish jarayoni dialektikasini bilish, bu jarayonni O'zbekiston sharoitida yanada rivojlantirish davr talabiga aylandi. Fandagi an'anaviylik, bir tomondan, uni tarixiy ildizlaridan o'zilib qolishdan saqlasa, ikkinchi tomondan, mamlakat taraqqiyoti yo'lida paydo bo'lgan muammolarni an'anaviy usullar bilan hal etish uning hayotdan ajralib qolishiga



olib keladi. Shu sabab fan taraqqiyotida an'anaviylik va yangilikni (novatorlik) uzviy bog'lash masalasi kuyilib, u uzining yechimini topib bormokda.

O'zbekiston faniga kirib kelgan yangiliklar uning tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlardan tashqari yana quyidagilarda namoyon bo'lmokda:

— fanning kompyuterlashtirilishida;

— jahonning global muammolarini hal etishda o'zbek olimlarining faol ishtirok etayotganida;

— ilmiy tadqiqotlarda eng zamonaviy texnika, asbob-uskunalaridan va ilg'or metodlardan foydalanilayotganida;

— olimlarimizning jahon tillarini o'rganishga rag'batlantirilishida;

— jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari oliy o'quv yurtlarida mutaxassis-kadrlar tayyorlash yo'lga quyilganligida;

— ta'lim-tarbiya tizimining tubdan isloh qilinayotganida.

O'zbekistonda demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy vazifalarni hal etishda fanning asosiy vazifalari Prezident I.A.Karimovning asarlarida batafsil tavsiflab berildi. Fanning siyosat, madaniyat bilan bog'liqligi, demokratik jamiyatda uning tayanch qadriyat ekanligi har tomonlama asoslandi.

Hozirgi davrda fanning rivoji o'z oldiga qo'ygan muammolarni hal etishda ilmiy metodlardan oqilona foydalanishni taqozo etmoqda va amaliy va nazariy tadqiqotlar o'tkazishda quyidagi usullardan keng foydalanilmoqda: kuzatish, qiyoslash, tavsiflash, formallashtirish, modellashtirish va boshqalar.

O'zbekistonda keyingi yillarda fanning turli sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan olimlar, ilmiy xodimlar salmog'i yanada ortdi. Biz uylaymizki ular Ulug' ajdodlarimizning ilmiy an'analarini davom ettirib, hozirgi zamon fani va texnikasi yutuqlarini puxta egallab mamlakatimizning yangi asrda jahonning ilg'or mamlakatlari qatoridan munosib o'rin egallashi uchun mustahkam zamin yaratadilar.

**12–mavzu:** Global muammolar falsafasi. Jahon sivilizasiyasi va taraqqiyotning o'zbek modeli.

**Reja:**

- 1.Global (umumbashariy) muammolar, ularni hal qilish yo'llari va imkoniyatlari.
- 2.Jahon sivilizasiyasining hozirgi davri va rivojlangan mamlakatlar taraqqiyoti. O'zbekistonning mustaqilligi va erkin taraqqiyoti-jahon sivilizasiyasiga qo'shilish yo'li. Taraqqiyotning o'zbek modeli jahon sivilizasiyasining tarkibiy qismi ekanligi. O'zbekistonning jahon sivilizasiyasiga qo'shiluvining asosiy yo'nalishlari
- 3.O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar va Respublikaning jahon sivilizasiyasi tarkibiy qismiga aylanish imkoniyati va istiqbollari. Iqtisodiy plyuralizm va bozor munosabatlari-sivilizasiya belgisi.
- 4.O'zbekistonda bunyod etilayotgan jamiyat va uning XXI – asrdagi ustuvor yo'nalishlari, asosiy tamoyillari. Ma'naviy barkamol avlod - buyuk kelajak poydevori.

***Tayanch iboralar:*** Global muammolar. Ularni qal qilish yo'llari, namoyon bo'lish xususiyatlari. O'zbekistondagi ekologik muammolar. Jaqon sivilizasiyasi. O'zbekistonda sivilizasiya rivojlanishining xususiyatlari. Iqtisodiy isloqotlar. Iqtisodiy plyuralizm. Bozor munosabatlari. O'zbekiston rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari. Ma'naviy barkamol avlod.

**ADABIYO TLAR:**

1. Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida.T., 2005 y.

2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. T., 2005
3. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. T., 2002
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T., 2000
5. Karimov I. «O'zbekiston XXI-asrga intilmoqda». T., 1999. 3-18-betlar
6. Karimov I.A. Vatan ozodligi-oliy saodat. T., 1999 y.
7. Karimov I.A. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari. T., 1998 y.
8. Karimov I.A. Buyuk kelajak sari. T., 1998. 3-66, 82-122-betlar
9. Barkamol avlod orzusi. T., 1999 y.
10. Mustaqillik: izohli, ilmiy-ommabop lug'at. T., 2006 y.
11. Falsafa. T., 1999 "Sharq" nashriyoti, 446-492-betlar
12. Falsafa. Ma'ruzalar matni. T., 2000, 289-312 betlar
13. Falsafa asoslari. T., 2005, 337-376-betlar
14. Falsafa. Qomusiy lug'at. T., 2004
15. Falsafa. Qisqacha izohli lug'at. T., 2004
16. Falsafa. Matluba Ahmedovanning umumiy tahriri ostida. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2006 yil.

1. Global (umumbashariy) muammolar, ularni hal qilish yo'llari va imkoniyatlari

Insoniyat XX asrda bir kator muammolarga duch keldiki, xozirda ulardan qutulib ketish yoki ketmaslik bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylandi. Agar XX asrning birinchi yarmi oxirlarida insoniyat qarshisida asosan bitta umumbashariy muammo — yadro halokatining oldini olish kundalang bo'lib turgan bo'lsa, xozirda ularning soni birmuncha ortdi. Aholining tabiiy o'sishi, fan-texnika yutuqlaridan tor manfaatlar yo'lida foydalanish, bir qator mintaqalarda murakkab ekologik vaziyatni vujudga keltirdi. Oqibatda insoniyatning kelajagi xavf ostida kolayotganligi muammosi kelib chikdi. Ushbu muammo umumbashariy muammo bo'lib, uni jahon xalqlarining ishtirokisiz hal qilib bo'lmaydi. Umumbashariy muammolar deganda biz insoniyatga xavf solib turgan, butun dunyo, barcha davlatlar va xalqlarning ishtirokisiz yechish mumkin bo'lmagan muammolarni tushunamiz

Tabiatga kishilarning zug'umi kuchaya borgan sari tabiiy muvozanatning buzilishi oqibatida kishilarning yashash tarzi, sog'ligi, ijtimoiy muqitga bo'lgan aks ta'siri tobora halokatli tus ola boshladi. Insoniyat bunday tahlikali holatdan faqatgina har qanday siyosiy, mintaqaviy, irqiy, milliy, diniy va boshqa manfaatlarini keyinga surib, mushtarak umuminsoniy manfaatlar tevaragida jiplashish, zudlik bilan ta'sirli choralari

qo'llash orqaligina qutulishi mumkin. I.A.Karimov "Butun dunyo yagona va o'zaro bog'liqdir. Bizning mushtarak burchimiz yer yuzini bolalarimiz va nabiralarimizga obod va baxtiyor yashashlari uchun munosib qilib qoldirishdir"<sup>23</sup>. -deb takidlagan edilar.

Bugungi kunda quyidagi muammolar insoniyatga xavf solmoqda:

- termoyadro urushi xavfining oldini olish va qurollanishni bartaraf etish;
- jaqon iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotning o'sishi uchun qulay shart-sharoit yaratish;
- iqtisodiy qoloqlikni tugatish; yer yuzida qashshoqlik va ochlikka barham berish;
- tabiiy boyliklardan oqilona va kompleks yondashgan holda foydalanish;
- insoniyatning baxt-saodati yo'lida fan-texnika yutuqlaridan foydalanish uchun xalqaro hamkorlikni yanada faollashtirish (eng xavfli kasalliklarga qarshi kurash, koinotni o'zlashtirish);
- dunyo okean boyliklari va imkoniyatlaridan unumliroq foydalanish; azon qatlami yo'qolishi xavfining oldini olish va h.k.;
- insoniyat va uning kelajagi to'g'risidagi o'zaro hamkorlikda jiddiy tadqiqotlar olib borish; kishi organizmining tobora tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan sun'iy va tabiiy muhitga moslashish jarayonini ilmiy taxlil qilish.

Insoniyat oldida ana shu xildagi muammolarning kundalang turib qolishining o'ziyoq kishilik sivilizasiyasi o'ta murakkab, o'ta qaltis bir jarayonni boshidan kechirayotganligidan darak beradi. Umumbashariy muammolarning ba'zi bir guruhlar mavjudki, ularni hal qilishning o'zidayoq butun planetamizdagi ijtimoiy hayotning keyingi ming yillikdagi aniq manzarasini chizib berish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Bunday muammolar shartli ravishda uch guruhga ajratiladi:

Birinchi, hozirgi paytdagi mavjud ijtimoiy kuchlar o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar (ijtimoiy-iqtisodiy sistemalar o'rtasidagi, mintaqaviy ziddiyatlar, davlatlar, milliy va diniy nizolar va h.k) bo'lib, bular shartli ravishda "intersosial" muammolar deb hisoblanadi. Ular urush va tinchlik, mehnat resurslaridan foydalanish darajasi va shu kabilarni ham uz ichiga oladi.

---

<sup>23</sup> *Ислам Каримов. Узбекистон XXI аср бусагасида: хавфсизликка таъдид, бар-карорлик шартлари ва таралъ иёт кафолатлари. — Т.: «Узбекистон», 1997, 4-бет.*

Ikkinchidan, "inson va jamiyat" o'rtasidagi munosabat bilan bog'liq muammolar bo'lib, bularga ilmiy-texnika tarakqiyoti (ITT); maorif va madaniyat; aqli ko'payishining tez sur'atlar bilan ildam ketishi — "demografik portlash", kishilar salomatligini saqlash, kishi organizmining nihoyatda tez o'zgarib borayotgan ijtimoiy muhitga moslashishi, shuningdek, insoniyatning kelajagi kabi masalalarni kiritish mumkin.

Uchinchidan, "inson — tabiat" munosabatlarida xom ashyo resurslarini tejash, aholini oziq-ovqat va ichimlik suvi bilan ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish kabi muammolar kiradi. Bu guruh muammolar ijtimoiy omillar ta'sirida vujudga keladi, ularni hal qilishda esa ijtimoiy omillarning o'rnini va ahamiyatini tug'ri anglagan holdagina masalaning tub mohiyatini tushunish mumkin.

Xozirgi kunda ham ijtimoiy, ham tabiiy omillar asosida yuzaga chiqadigan umumbashariy (global) muammolar bir butunlikni tashkil etib, ularga har tomonlama (kompleks) yondashish kerakligini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, falsafa fani zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Insoniyat kelajagi to'g'risida tarixda turli-tuman bashoratlar mavjud bo'lib, ulardan birinchisi, muqaddas "Avesto" yozma yodgorligida yozib koldirilgan. Undagi bashoratlar diniy mazmunga asoslangan bo'lib, o'z davri uchun katta ahamiyat kasb etgan. ("Avesto"da Zardo'sht o'limidan so'ng 3000 yil o'tgandan keyin, erkin farovonlik zamoni keladi, Axura Mazda qudrati Axriman yovuzligi ustidan to'la g'alaba qozonadi, deya ishonch bildirilgan)

Ikkinchi xil bashoratlar o'rta asrlarda keng tarqalgan, hozirda ham G'arb futurologiyasida mavjud. Uning mashhur namoyandalaridan Fon Karman, Ye.Shervin, G.Kan va boshqalar insoniyatning kelgusi istiqbolini, asosan, yadro halokati yoki boshqa bir umumbashariy muammolar bilan bog'lab pessimistik manzaralarni chizib ko'rsatishga o'rinadilar.

insoniyatning kelgusi istiqboli to'g'risida jiddiy ilmiy bashoratlar orasida 1968 yilda A. Pechchei tomonidan asos solingan "Rim klubi" a'zolari bo'lgan J. Forrester, D. Medouz, Ya. Tinbergan, A.King va boshqalar tayyorlagan hisobotlarning ilmiy ahamiyati nihoyatda katta. Ularda insoniyatning kelgusi istiqbolini shubha ostida qoldirayotgan umumbashariy muammolar ko'lamining kengayib borishi, kishilar tomonidan tabiatga kilinayotgan zug'umning mudhish oqibatlarini qanday bo'lishi to'g'risida jiddiy mulohazalar yuritiladi. "Rim klubi" a'zolari tomonidan qilingan bashoratlar ilmiy-falsafiy mazmunga ega bo'lib, unda asosan tajriba sinovidan o'tgan bilimlar va mantiq qonunlari va kategoriyalariga suyangan holda insoniyatning kelajagi to'g'risida muhim ilmiy xulosalar bayon qilingan.

Demak, insoniyat taraqqiyotining kelgusi istiqbolini belgilashdagi eng muhim belgilar sirasiga umumbashariy muammolar tabiatini chuqur anglash, bu muammolarning yechimi umuminsoniy mushtarak manfaatlar yo'lida hamjihatlikda qilingan sa'y harakatlar ekanini alohida ta'kidlash lozim. Ana shunday misollar anchagina. Masalan, 1955 yil 31 yanvarda Frederiko Julio Kyuri (u shu paytda jaqon ilmiy xodimlari federaniyasi tashkilotining prezidenti edi) Nobel mukofoti sovrindori Bertran Rasselga xat orqali murojaat qilib, yadro qurolining juda xavfli tus olayotganligini, bu falokatning oldini olish uchun fan arboblari birgalikda harakat qilishi lozimligini bildiradi. B. Rassel F. Kyuri taklifini qo'llab-quvvatlab, bu murojaatga imzo chekuvchi vakillar bir xil siyosiy oqim tarafdorlari bo'lib qolmasligi, bunda jahondagi barcha kuchlar, har bir xalq, jamiyat vakillari ishtiroki zarurligini ta'kidlaydi. Masalaga bo'nday yondashish falsafiy tafakkur taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergan edi. Bu esa ilmiy-siyosiy adabiyotlarda "yangicha tafakkur uslubi" deb atalgan va jahonning eng atoqli olimlari A. Eynshteyn, F. Julio Kyuri, M. Born, L. Poling va boshqalar tomonidan imzo quyilgan manifestga asos qilib olingan edi. Natijada 1955 yil 9 iyul kuni B. Rassel tomonidan o'tkazilgan matbuot konferensiyada "Rassel-Eynshteyn manifesta" nomi bilan shuhrat qozongan, butun yer yuzi aholisiga, siyosat va davlat arboblari qaratilgan mashhur chaqiriq e'lon qilingandi. U qozirgi paytda tinchlik va qurolsizlanish uchun kurashuvchi Paguosh harakatini boshlab bergan edi. Manifestda: "Biz yangicha fikr qilishga odatlanishimiz kerak. Biz o'z-o'zimizdan u yoki bu guruh mamlakatlarining harbiy g'alabasini ta'minlash uchun nimalar qilish zarur, deb emas, balki yadro halokati va uning dahshatli oqibatlarini qanday bo'lishi mumkinligi to'g'risida insoniyatni ogohlantirish uchun nimalar qilding, deb so'rashimiz kerak", — degan so'zlar bor edi.

"Rassel-Eynshteyn manifest" chop etilganiga ham mana 45 yil bo'ldi. Bu vaqt mobaynida yadro qurollarini ishlab chiqish va sinab kurish ko'lami bir necha barobar ko'paydi. Ikkinchi jaqon urushidan keyingi o'tgan yarim asr mobaynida qurollanishga 16—18 trln. dollar mablag' sarflandi. Hozirgi kunda harbiy sohalar uchun har yiliga 1 trln. dollar miqdorida mablag' ajratilmoqda. Bir kunda qurol-yaroqqa ajratiladigan mablag' 3,4—3,5 mlrd. dollarni tashkil etmoqda. Taqqoslash uchun quyidagi raqamlarga murojaat qilamiz. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining bezgakka qarshi kurash tadbirlari uchun bir yilda 28—30 mln. dollar ajratishini, xalqaro nufuzli tashkilot YuNESKOning bir yillik byudjeta 950—980 mln. dollar miqdorida ekanligini hisobga olsak, masala oydinlashadi.

Harbiy sanoat o'z domiga tabiatning shunday noyob boyliklarini tortayaptiki, bu sarf-harajatlar o'sish sur'atining tezligiga qarab beixtiyor o'z kelajagimiz to'g'risida xomush xayollar og'ushida qolmasdan iloj yo'q. Bu soha faqat tabiiy resurslar bilan cheklanib qolmasdan, balki, o'ta kamyob aql egalari, talantli kishilarning aqliy

faoliyatini ham o'z izmiga solib, oqibatda, ilmiy-texnika taraqqiyotining insoniyat manfaatiga qaratilgan yo'nalishiga asosiy to'siq bo'lib qolmokda. Energiya va yoqilg'i resurslaridan foydalanish muammosi xam juda tashvishlidir. Agar jahon iqtisodiyoti hozirgi sur'atda davom etadigan bo'lsa, u vaqtda sanoat va xalq xo'jaligining energiyaga bo'lgan ehtiyoji uchun yaqin yillar ichida yiliga 20 mlrd. tonna yoqilgi talab qilinadi. Bu ko'rsatkich 2025 yilda 35—40 mlrd., XXI asr oxiriga borib 80—85 mlrd. tonnani tashkil etishi taxmin etilmoqda.

Vujudga kelayotgan holatdan chiqib ketishning yo'li esa bitta, u ham bo'lsa, yoqilg'ining organik moddalar (neft, ko'mir, gaz va h.k.) dan olinadigan energiya salmog'ini kamaytirib, noorganik yoqilg'i manbalar (GESlar, AES, shamol elektrostansiyalari, Quyosh energiyasi, vodorod, geliy va h.k.) dan olinadigan energiya miqdorini muttasil oshirib borish lozimdir. Quyosh energiyasi, GES va shamol elektrostansiyalari 2025 yilda bu ehtiyojning 60%ini qondirishi mumkin.

Insoniyat oldida jaqon iqtisodini o'stirish uchun energiyaga bo'lgan ehtiyojni qondirishdan o'zga chora yo'q. Biroq bugungi kunda elektr energiyasini ishlab chiqarish jarayonida mavjud tabiiy muhitga ta'sir darajasini kamaytirgan holda energiyani ko'proq ishlab chiqarish masalasi kundalang bo'lib turibdi. Shuning uchun ham bu muammoni ijtimoiy taraqqiyotning kelajagini belgilab beradigan eng muhim omillardan biri sifatida jahonshumul ahamiyatga molik muammolar sirasiga kiritilishini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Xom ashyo resurslaridan foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash muammosi jaxon statistik axborot markazlari bergan ma'lumotlarga qaraganda, XX asrning boshidan to hozirgi kungacha ishlab chiqarilgan ko'mirning 45%, temir rudasining 57%, neftning 76%, tabiiy gazning 80% keyingi 25 yilga to'g'ri kelar ekan. Ana shunday holatni xom ashyoning boshqa turlari to'g'risida ham gapirish mumkin. Taxlillarga qaraganda, o'tgan asrning 90-yillarida ishlab chiqarilgan xom ashyo miqdori 60—70-yillardagiga qaraganda 1,5—2 barobar ko'paygan.

Bu holat hosildor yerlar va ichimlik suvi, xom ashyo zaxiralarining kamayib ketishi kabi bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Natijada vujudga kelgan ekologik vaziyat inson organizmiga va uning ishlab chiqarish faoliyatiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Mazkur muammoni ijobiy hal qilish uchun, iqtisodchilarning taqlillariga ko'ra, jaqon mamlakatlarining har biri o'zi ishlab chiqargan yalpi milliy maxsulotning 3—5% miqdorida mablag' ajratishi zarur. Demak, har yili o'rta hisob bilan 650—850 mlrd. dollar hajmida mablag' ajratilishi kerak..

Juda ko'p rivojlangan mamlakatlarda ichimlik suvining tanqisligi yuzaga keldi. Shu mamlakatlarda 42—45% km<sup>3</sup> hajmida sanoatdan chikqan iflos oqova suvlar suv

havzalari, ko'l, dengiz, okean suvini o'zining zaharli tarkibi bilan bo'lg'amoqda. XXI asr boshlariga kelib, toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyoj dunyo miqyosida o'tgan asrimizning 90-yillariga nisbatan yana 2,3—2,5 barobar oshdi.

Har yili okeanlarga 12—15 mln. tonnaga yaqin neft va neft mahsulotlari to'kilmogda, shaharlarning kengayishi, sanoat korxonalarini qurish uchun ming-minglab gektar yer maydonlari ajratib berilmogda, urmonlar kesilib, yashil yerlar kamaymogda. Bu tendensiya, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda xavfli tus olmogda. Dunyoda qar yili 0,8% tropik o'rmonlar yo'qolib bormogda, 200 ming km<sup>2</sup> territoriyadagi tropik o'rmonlar kesilib, qayta tiklanmay qolmogda. Hozirgi paytda yiliga 8,3 mln. gektar yoki minutiga 16 gektar urmon yuqotilmogda.

Davrimizning yana bir muammosi shundaki, inson faoliyati ko'lamining miqyosi tobora biosferani to'la egallab, endilikda koinotga ham ta'sir eta boshladi.

Xozirgi kunda nihoyatda tez o'sib borayotgan dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammosi jahonning bir qancha mintaqalarida ancha keskinlashdi. Mavjud ma'lumotlarga asosan, dunyo xalqlarining 2/3 qismi doim oziq-ovqat taqchilligi hukm surayotgan mamlakat xalqlari hissasiga to'g'ri kelmogda. Bu mintaqalarda ekiladigan yer maydonlari aholi jon boshiga nisbatan kamayib, 0,2 ga ni tashkil etmogda. Xolbuki, 1950 yilda bu ko'rsatkich 0,5 ga ni tashkil etgan edi.

Oziq-ovqat zaxiralarining o'sishini yer maydonlarini kengaytirish hisobiga, ekilayotgan maydonlarning xosildorligini oshirish hisobiga ta'minlash mumkin. Keyingi paytlarda xosildorlikni ko'paytirish ustida juda ko'p ishlar qilinib, o'tgan asrning 80-yillari oxirlariga kelib dunyo miqyosida yetishtirilgan mahsulot o'sishining 90% hosildorlikni ko'tarish hisobiga to'g'ri keldi. Ammo, bizga ma'lumki, bunday muvaffaqiyatlarga tabiatga haddan ziyod qilingan qattiq zug'um natijasida erishildi.

Rivojlangan va kam taraqqiy etgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovutni yo'qotish ham davrimizning eng chigal jahonshumul muammolari qatoridan o'rin oldi. Rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy texnologiya, ilg'or ishlab chiqarish malakasi va insoniyatning ilmiy-texnika yutuqlari sistemalashtirilgan bilimlar zaxirasi to'planib, shu bilan birga aholining tabiiy o'sish darajasining pastligi boshqa mamlakatlarga nisbatan o'z mamlakati aholisining iqtisodiy yashash tarzining beqiyos darajada yaxshilanishiga olib keldi. Bu mamlakatlarda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning o'ziga xos tomonlari shundaki, mazkur mamlakatlarda industrlashtirish jarayoni o'tgan asrimizning 70-yillari boshidayoq tugallanib, eng avval AQSh, keyinchalik Germaniya, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarish taraqqiyotining yanada yuqoriroq bosqichiga o'ta boshladi. Bunda ular ilmiy-texnika yutuqlarini talabga mos va



yuqori texnologiyani rivojlantirishga ko'p e'tibor berdi va oqibatda juda katta foyda oldilar.

Bunda iqtisodiy taraqqiyot darajasi tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarilgan maqsulotlar bilan emas, balki ilmiy-bilim, texnologiya, murakkab mashina va uskunalar bilan o'lchanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar bu darajaga yetishish uchun bir qator jarayonlardan o'tgan.

Birinchi, bu mamlakatlar tabiiy boyliklari hisobiga orttirilgan milliy daromad miqdorining mamlakat aholisi jon boshiga tushadigan salmog'i keskin darajada ko'paydi.

Ikkinchi, mamlakat aholisining tug'ilishini chegaralash, ularga sarflanadigan mablag'ni yuqori texnologiyani egallashda zarur bo'lgan mutaxassislar yetkazish uchun sarflash ko'zda tutildi.

Uchinchi, ilmiy tadqiqot, oliy o'quv yurtlari va maorifga taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy manba sifatida qarab, birinchi darajali ahamiyat berildi. Chunki yuqori texnologiyani egallash yuqori malakali ilm egalarini talab qiladi. Ijtimoiy taraqqiyot darajasini belgilovchi eng asosiy omil — ilmiy tafakkur esa jamiyat a'zolarining ma'rifatlilik darajasini belgilab beradi. Bu sohada, butun jahon miqyosida fan va ta'limga 3-4% yalpi milliy maxsulotning miqdorida mablag' ajratilayotgan bir paytda, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 8,3% miqdorda ekanligi kelajakka katta umid bilan qarashga imkon tug'diradi.

XX asrning so'nggi o'n yilligida ba'zi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy ko'rsatkich orasidagi tafovut tobora kuchayib bordi. Agar XX asrning 60-yillarida Hindistonda ishlab chiqariladigan yalpi ijtimoiy mahsulot jon boshiga 50-70 dollarni tashkil etgan bo'lsa, Afg'onistonda 60-70 dollar, Turkiyada 243 dollar, Yaponiyada 1400 dollar, AQShda 3600-3800 dollar bo'lgan. 1994 yilgi ma'lumotlarga muvofiq, yalpi milliy maqsulot jon boshiga Hindistonda 370 dollar, Afg'onistonda 80 dollar, Turkiyada 3900 dollar, Bangladeshda 125 dollar, Germaniyada 22 ming dollar, Italiyada 14,8 ming dollar, AQShda 26 ming dollar, Janubiy Koreyada 8,7 ming dollar, Yaponiyada 37000 dollar bo'lgan.

XX asr o'zining Demografik muammolari bilan xam oldingi barcha davrlardan keskin farq qiladi. Xususan, XX asrni "demografik portlash" davridir, degan qarashlar ham keng tarqaldi. Bunda qolgan barcha jahonshumul muammolarni keltirib chiqaruvchi bosh sabablardan biri ham aynan yer yuzida aholining tez sur'atlar bilan ko'payishi bilan bevosita bog'liq ekanligi nazarda tutiladi. "Demografik portlash" tushunchasi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning qiska bir davrida, muayyan mintaka yoki

mamlakatda va shuningdek, butun yer yuzida tabiiy tug'ilish hisobiga aholi miqdorining nihoyatda tez ko'payishini anglatadi.

Insoniyatning oldida ana shunday xavf borligi to'g'risida dastlab ingliz iqtisodchisi Tomas Robert Maltus (1766—1834 i.) ogohlantirgan edi. U o'zining "Aholishunoslikning qonuniyati to'g'risida tajribalar" nomli kitobida aholining geometrik professiya bo'yicha ko'payishini, uning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarning ko'payishi arifmetik professiya bo'yicha ro'y berishini aytgan edi. Maltus bu jarayonning oldi olinmasa, yaqin kelajakda, planetar masshtabda, tabiiy muhit berishi mumkin bo'lgan moddiy ne'matlar miqdori bilan juda tez sur'atlarda ko'payayotgan dunyo aholisi ehtiyoji o'rtasida ziddiyat vujudga kelishini bashorat qilgan edi.

Darhaqiqat, bundan 6—8 ming yillar oldin yer yuzida 5 mln. atrofida odamlar istiqomat qilishgan, deb taxmin qilinadi. Bu ko'rsatkich eramizning boshlarida 230 mln., 1 ming yillikning oxiri 2 ming yillik boshlarida, ya'ni Beruniy zamonida 305 mln., 1500 yilda 440 mln., 1800 yilda 952 mln., 1900 yilda 1656 mil-lionni tashkil etgan. XVI asr boshidan XIX asr boshigacha, ya'ni uch asr mobaynida bu ko'rsatkich 174 foizga oshganligini; 1900 yildan to 1999 yilgacha esa bu nisbat salkam 4 barobar oshganligini kuzatamiz.

XX asrning ikkinchi yarmida yer yuzi mintaqalarida aqolining tabiiy ko'payish sur'atlari turlicha bo'lib, bu o'z navbatida, Yer yuzida mintaqalar, mamlakatlar, xalqlar salmogining keskin o'zgarishiga olib kelmoqda. Masalan, 1800 yilda (Napoleon zamonida) Fransiya aqolisi 27 mln. kishi — Yer yuzi aholisining 3 foizini tashkil etgan bo'lsa, Filippin orollarida yashayotgan aholi 1,6 mln. kishi miqdorida bo'lib, planeta aholisining umumiy salmogiga nisbatan 0,16 foizni tashkil etardi. 1999 yil 13 oktyabr kuni yer yuzi aholisi olti milliardlik dovonni bosib o'tdi. Fransiya aholisi 56,2 mln. ni, yer yuzi aholisi salmog'ining 0,94 foizini. Filippin aholisi ham 65 mln. kishini tashkil etib, jahon aholisidagi salmog'i (1,05%) bo'yicha Fransiyadan o'zib ketdi. Bu borada milliarddan ko'p aholi yashaydigan Xitoy va shu ko'rsatkich tomon borayotgan Hindiston alohida o'rin tutadi. Xullas, bu masala bir mamlakat doirasidan chiqib, jahon muammosiga aylandi. O'zbekistonda umumbashariy muammolardan biri Orol fojiasi ekanligini bilamiz. Bu borada respublikamiz mintaqadagi davlatlar orasida ko'pdan-ko'p tashabbuslarni o'rtaga tashlab kelmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimiz aholisi ham muttasil o'sib bormoqda. O'zbekiston o'z aholisi o'sishi bilan bog'liq masalalarni muvaffaqiyatli hal qilishga kirishdi. Prezidentimizning bozor munosabatlariga o'tishda aholini kuchli ijtimoiy muhofaza qilish siyosati, respublikamizda bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy tengsizlikning oldini olishga xizmat qilmokda.

Keyingi paytlarda respublika hukumati inson sog'ligini muhofaza qilish, tug'ilgan har bir chaqoloq oldida ota va onaning, qolaversa, jamiyatning javobgarlik hissini oshirish borasida, shuningdek, farzandning ota-ona va Vatan hamda xalqi oldidagi burchlarini chuqur anglashlari uchun juda katta ma'naviy rag'batlantiruvchi tadbirlar ishlab chiqqanligi o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda "Sog'lom avlod" jamg'armasining tuzilishi, "Sog'lom avlod uchun" ordenining ta'sis etilishi va boshkalar fikrimizning dalilidir.

2. Jahon sivilizasiyasining hozirgi davri va rivojlangan mamlakatlar taraqqiyoti. O'zbekistonning mustaqilligi va erkin taraqqiyoti-jahon sivilizasiyasiga qo'shilish yo'li. Taraqqiyotning o'zbek modeli jahon sivilizasiyasining tarkibiy qismi ekanligi. O'zbekistonning jahon sivilizasiyasiga qo'shiluvining asosiy yo'nalishlari

Ma'lumki jahon sivilizasiyasi deganda biz Sharq va G'arb sivilizasiyalari, mintaqaviy va hududiy sivilizasiyalarning yaxlit, bir butun ijtimoiy tizimi bo'lgan umuminsoniyat, sayyoramizdagi jamiyatni tushunamiz. Bu tushuncha, umumiy ma'noda, zaminimizda yashagan barcha odamlarning umumiy makoni bo'lgan Yer yuzidagi hayot, tarixning hamma davrlarida mavjud bo'lgan davlat, jamiyat, xalq va millatlarning umrguzaronlik qilishi bilan bog'liq jarayonlar majmuasini o'zida aks ettiradi.

Bugungi tahlikali dunyoda insoniyatning eson-omon yashab qolishi va kelajakda baxtiyor bo'lishi jahon sivilizasiyasining asosiy maqsadi va yo'nalishiga aylandi. Respublikamizda bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar butun dunyo hamjamiyati faoliyati bilan hamoxang kechmoqda. Zero, jahon sivilizasiyasi xalqlar va millatlar, davlatlar va turli hududiy sivilizasiyalarning umumiy tizimidir.

Ayrimlik, o'ziga xoslik va umumiylik o'rtasidagi munosabatni teran anglash hozirgi zamon jahon sivilizasiyasining shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini falsafiy idrok etishga imkon beradi.

Yer yuzidagi har bir mamlakat jahon sivilizasiyasi deb ataladigan yaxlit tizimning turli tarkiblari bo'lib, ularning o'zaro ta'siri, hamkorligi sivilizasiyaning takomillashuvi, barqaror yashashiga imkon beradi.

To'g'ri, bu tizim tarkibida Amerika, Rossiya, Xitoy, Yaponiya kabi salmoqli tarkiblar ham bor. Ular ko'p jihatdan jahon tizimi taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi, muayyan jarayonlarning yo'nalishlarini belgilaydi. Ammo bu tizimda har bir davlatning, kichkina Vatikan yoki Lixtenshteyndan tortib Germaniyagacha, Andorra yoki Monakodan toki Fransiyagacha o'z o'rnini, o'ziga xos ta'sir kuchi va doirasi bor. Shu

ma'noda, ularning har biri, hududining katta-kichikligi, aholisining soni qanchaligidan qati nazar, BMTda teng ovozga ega. Demak, tarkiblar tizimda muayyan tarzda amal qilgani singari har bir mamlakat jahon sivilizasiyasiga teng huquqli a'zo va muhim element sifatida kirib boradi.

Jaon hamjamiyati o'zida umumiylikni, har bir mustaqil mamlakat esa ayrimlik va o'ziga xoslikni ifodalaydi. Bu holda Osiyo yoki Markaziy Osiyo mamlakatlari xususiylikni aks ettirsa. O'zbekiston alohidalikni ifodalaydi. O'zbekiston mustaqillikka erishganiga ko'p bo'lmaganiga qaramay, jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega. Uning Markaziy Osiyodagi mavqeyi esa bu mintakaning asosiy taraqqiyot yo'nalishlarini ko'p jihatdan belgilaydi.

Har bir xalq, millat o'zining betakror, noyob xususiyatlarini saqlagan holda mustaqil rivojlanadi va jahon hamjamiyatiga qo'shilib boradi. Bunday qo'shilish ko'p qirrali, rang-barang bo'lib, u ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, xukuqiy, davlatlararo munosabatlarni qamrab oladi.

Jahon hamjamiyatiga qo'shilish tabiiy-qonuniyatli jarayon bo'lib, har bir mamlakatning har tomonlama taraqqiy etishi, yer yuzida umumiy xavfsizlik, tinchlik va farovonlikni ta'minlashga, tabiiy resurslar, ilm-fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanishga, ekologik muvozanatni ta'minlashga imkon beradi. Mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgan xalqlarning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi, umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligini e'tirof etish, xalqaro xukuq me'yorlariga amal qilish, inson huquqlarini himoya etish, demokratiya tamoyillariga amal qilishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Jahon sivilizasiyasiga qo'shilish natijasida nafaqat iqtisodiy sohada, balki xalqlar ma'naviyati, siyosati va dunyoqarashida ham muhim ijobiy o'zgarishlar ro'y beradi. Bunday jarayonga tushgan xalqlar o'rtasida bir-biriga ishonch, o'zaro hurmat, hamkorlik hamda sodir bo'ladigan ziddiyat va ixtiloflarni o'zaro kelishuv, konsensus asosida hal qilishga intilish vujudga keladi. Bir-birining madaniy yutuqlari, qadriyatlaridan, tajribalaridan bahramand bo'lish xohish-istagi shakllanadi. Xalqlarning bir-biri bilan jiplashish tendensiyasi yaxlit, bir butun sivilizasiyani, insoniyatni e'zozlash kabi sayyoraviy ongni shakllantiradi. Ya'ni, milliylik va umuminsoniylikning uyg'unligi jahon sivilizasiyasida yaqqol namoyon bo'ladi va dunyo hamjamiyatining harakat dasturiga aylanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi bo'lish imkonini qo'lga kiritdi va umuminsoniy sivilizasiya bilan uyg'unlashib, rivojlanib bormokda. Bugungi kunda Mustaqil O'zbekistonning jahon sivilizasiyasiga qo'shilishining falsafiy-metodologik muammolarini o'rganish nihoyatda muhim.

O'zbekiston o'zining ko'p asrlik milliy davlatchiligi, madaniyati, ilm-fani, san'ati, o'ziga xos va betakror hayot falsafasi bilan jahon sivilizasiyasi rivojiga muhim hissa qo'shdi. O'zbek xalqi jahonga fan, san'at, falsafa, tibbiyot, siyosat, huquq, tarix sohalarida o'lmas asarlar yaratgan, buyuk allomalarni bergan. Biroq mustamlakachilik yillarida ro'y bergan quyidagi jarayonlar xalqimizning jahon sivilizasiyasiga qo'shilishi uchun imkon bermadi:

- o'z milliy davlatchiligiga ega bo'lmaganligi;
- milliy madaniyatning tabiiy rivojlanish imkoniyati cheklanganligi;
- mustabid tuzum mafkurasining tazyiqi ostida dunyodan o'zib qo'yilganligi;
- tarixi, ona tili, ma'naviy merosidan begonalashishi;
- milliy qadriyatlari, an'ana va urf-odatlarining yo'qolib borganligi.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston uz taraqqiyot yo'lini erkin tanlash, milliy davlatchilik asoslarini yaratish va jahon sivilizasiyasiga qo'shilish imkoniga ega bo'ldi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligining dastlabki yillaridanoq jahon sivilizasiyasiga qo'shilish yo'lini tanladi.

Jahon sivilizasiyasi yutuqlaridan bahramand bo'lish mustaqil rivojlanish yo'liga kirgan davlatning dunyo hamjamiyatida o'ziga xos rivojlanishini ta'minlaydi. Binobarin, har bir xalq mustaqil bo'lganidan keyin o'zining iqtisodiyoti, madaniyati, milliy davlatchilik siyosatini amalga oshiradi. U o'z imkoniyatlariga tayanib, jahon hamjamiyatiga kirib borar ekan, bu jarayon milliy falsafada ham o'z ifodasini topadi.

Mustaqillik milliy falsafaning negizi, uning umumjahon falsafiy jarayoni bilan qo'shilishi va uyg'unlashuvining eng asosiy shartidir. Mustaqillikka erishmagan xalq milliyligini, o'ziga xos qadriyatlari, urf-odatlarini, ruhiyati va dunyoqarashini o'z falsafasida to'la-to'kis aks ettira olmaydi.

Mustaqil bo'lmagan xalqning falsafasida mustamlakachilarning g'oyalari doimo ustuvor bo'ladi. Faqat mustaqillikkina ijtimoiy ongning hamma sohalarida, dunyo qarashning barcha jabhalarida milliylikning to'la-to'kis namoyon bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Tarixning saboq berishicha, hiech qanday davlat boshqa bir davlatga, boshqa bir xalqda o'z manfaatlarini ko'zlamasdan beg'araz yordam ko'rsatmaydi. Jahon sivilizasiyasiga qo'shilish har bir mustaqil rivojlanayotgan davlatning taraqqiyotida o'z kuchi va imkoniyatlariga, ilg'or an'anasiga, qadriyatlariga, milliy davlatchilik tajribalariga, intellektual salohiyatiga, tabiiy boyliklariga tayanishini inkor etmaydi, balki ularning keng rivojlanishini taqozo etadi.

Erkinlik, mustaqillik hamisha zaruratni, mas'uliyatni anglashni taqozo etadi, erkinlik va mustaqillik jamiyatning har bir a'zosi oldiga "Biz kim edik?", "Hozir qanday ahvoldamiz?" va "Qanday bo'lishimiz kerak?" degan savollarga vijdonan javob berishni talab etadi. Mustaqillik yillarida farovon va baxtli hayotni bizga kimdir yaratib bermasligini, balki o'z aqlimiz, kuchimiz bilan yaratishimiz lozimligini anglashni taqozo etadigan dunyoqarash shakllangani bu savollarga javoblar izlanilayotganligidan, ularni hal qilish choralari kurilayotganidan dalolat beradi. Boshqa mamlakatlardan, yaxlit va bir butun jahon tizimidan ajralib qolgan holda bu borada ham taraqqiyotga erishib bo'lmaydi.

Taraqqiyotga sivilizasiyali yondashuv o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'zbekiston va jahon tarixini o'rganishga bunday qarash hozirgi zamon falsafasida muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaror topmoqda. U tarixiy haqiqatni xolisona baholashga, milliy xususiyatlarning o'ziga xosligini anglashga, insoniyatning ilg'or rivojlanish tajribalarini bilishga va ulardan ijodiy foydalanishga imkon beradi. Jahon tarixiga sivilizasiyali yondashuv insoniyat taraqqiyoti zurliksiz va inqilobiy sakrashlarsiz o'ziga xos tadrijiy yo'ldan ilgarilab borganida jamiyat katta foyda ko'rishi, odamzod boshiga turli ijtimoiy ofatlar tushmasdan rivojlanishi mumkinligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda mustaqilligini mustahkamlash, jamiyat hayotini tubdan isloh etish uchun Taraqqiyotning o'zbek modeli Prezident I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqildi. Bu jarayonning umuminsoniy jihatlari va jahon sivilizasiyasiga xos tomonlarining amalga oshishi muayyan muddatni talab qiladi. Bu muddatda amalga oshiriladigan barcha ishlar o'tish davri zaruratidan kelib chiqadi.

Mustabid tuzum davrida jahon sivilizasiyasidan ajratib qo'yilgan O'zbekiston bu borada ikkita uzviy yo'nalishda faoliyat yuritishga majbur bo'lmoqda. Birinchidan, mustaqillikni mustahkamlash, milliy qadriyatlarni tiklash va asrab-avaylash asosida o'ziga xos va o'ziga mos yo'ldan borish. Ikkinchidan esa, bu jarayonda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligini ta'minlash, jahon sivilizasiyasi yutuqlaridan keng foydalanish, demokratik jamiyat qurish vazifalarini amalga oshirmoqda.

Bir qarashda ikki xil yo'lga o'xshab ko'ringan bu taraqqiyot usuli aslida umumiy jarayonning uzviy bog'liq ikki jihati, bir-birini taqozo etadigan tomonlarning dialektikasidir.

O'zbekistonning I.A. Karimov tomonidan asoslab berilgan o'ziga xos taraqqiyot yo'li ya'ni Taraqqiyotning o'zbek modeli quyidagilarni uzida aks etdiradi

- 1) iqtisodning siyosatdan ustuvorligi;
- 2) davlatning bosh islohotchi ekanligi;

- 3) qonun ustuvorligi;
- 4) kuchli ijtimoiy siyosat;
- 5) bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish.

O'zbekistonning tadrijiy taraqqiyot yo'li ayrim davlatlarning bozor munosabatlariga "shokterapiya"si usuli bilan o'tish tajribasidan keskin farqlanadi. O'zbekistonning mustabidlikdan qutulgan dastlabki davrdagi o'ziga xos iqtisodiy ahvoli, sobiq ittifoq davrida o'lkaning xom ashyo yetkazib berishga ixtisoslashishi kabi og'ir meros bilan birga xalqning ming yillik tajribasi, undan kelib chiqadigan xulosalar bozor munosabatlariga tadrijiy ravishda bosqichma-bosqich o'tishni taqozo etdi.

O'zbekistonning Dunyo sivilizasiyasiga qo'shilishining asosiy yo'nalishlari, mamlakatimiz istiqloli va o'ziga xos tadrijiy taraqqiyot yo'lining nazariyasi, amaliyoti I. A. Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", "O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy yo'nalishlari", "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida", "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" kabi asarlari va nutq larida keng yoritilgan.

O'zbekiston mustaqilligi obyektiv zaruriy jarayon, ajdodlarimizning azaliy orzusi, o'zbek xalqining buyuk tarixiy yutuqidir. Bunda quyidagilar alohida e'tiborga molikdir

- O'zbekiston Konstitusiyasining qabul qilinishi;
- milliy mustaqillik ramzlari bo'lgan davlat bayrog'i, davlat madhiyasi, davlat gerbining qabul qilinishi;
- milliy davlatchilik demokratik tizimining shakllanganligi;
- xalqimiz tabiat ato etgan barcha boyliklarga egalik huquqini o'z qo'liga olganligi;
- milliy armiya va xavfsizlik tizimi yaratilganligi;
- milliy qadriyatlarning tiklanishi va rivojlantirilishi.

3. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar va Respublikaning jahon sivilizasiyasi tarkibiy qismiga aylanish imkoniyati va istiqbollari. Iqtisodiy plyuralizm va bozor munosabatlari-sivilizasiya belgisi.

O'zbekistonda mustakillik sharoitida bozor munosabatlarini shakllantirish uchun iqtisodiy islohotlar ya'ni mehnatga, mulkka va insonning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirishga tugri keldi xamda uning nazariy-falsafiy asoslarini ishlab chiqish zarurati vujudga keldi va bu I.A. Karimov asarlarida uz ifodasini topdi.

Mehnat va mehnatga munosabat sohasida qator yangiliklar joriy etildi. Mehnatga munosabatda xususiy mulkning o'rnini mulkdorning jamiyat hayotidagi ahamiyati yangicha tushunila boshlandi. Davlat va jamiyatning kuch-qudrati fuqarolarning tadbirkorligi, boyligi, ishbilarmonligiga bog'liq ekani e'tiborga olindi. Uzoq yillar davomida shakllangan iqtisodiy strukturada tub o'zgarishlarni zudlik bilan qisqa vaqt ichida amalga oshirishning salbiy oqibatlarini oldini olishda puxta o'ylangan strategik rejalar amalga oshirildi. Islohotlarning amalga oshirilishi milliy manfaatlar uchun xizmat qilishi zarurligi, odamlar islohotlar uchun emas, balki islohotlar odamlar uchun xizmat qilishi zarurligi e'tiborga olindi.

Islohotlar amalga oshirilgunga qadar respublika aholisining aksariyat qismi iqtisodiy jihatdan nochor ahvolda bo'lib, mulkning davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiylashtirilishi jarayonida aholining ikki toifaga ajralishi, haddan tashqari boyib va qashshoqlashib ketishi muqarrar ravishda turli noroziliklar va ijtimoiy larzalarni keltirib chiqarishi mumkin edi. Ana shularni hisobga olib, I.A. Karimov bozor munosabatlariga o'tishning muhim xususiyatlaridan biri sifatida aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan kuchli siyosat g'oyasini ilgari surdi.

Bozor munosabatlarini amalga oshirish bir necha bosqichdan iborat qilib belgilandi. Har bir bosqichda ma'lum iqtisodiy tadbirlar amalga oshirilib, bular quyidagilarda uz aksini topdi:

- mulkni xususiylashtirish;
- mulkni davlat tasarrufidan chiqarilishi;
- mulkning xilma-xil shakllarini vujudga keltirish;
- agrar islohotlarni amalga oshirish;
- milliy valyutani muomalaga kiritish;
- yangi iqtisodiy infrastrukturaning yaratilishi;
- rivojlangan mamlakatlar hamkorligida qo'shma korxonalarining barpo etilishi;
- innovasiya siyosatini amalga oshirilishi;
- xorijiy investisiya, texnika va texnologiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilishi va boshqalar.

Xulosa kilib aytganda, bozor munosabatlariga o'tishning madaniy sivilizatsiyali xarakterga ega ekanligi O'zbekiston mustaqilligini mustaxkamlashning muhim xususiyatidir. Chinakam sivilizatsiyalashgai bozor munosabatlari, bozor vositalari faqat



yuksak ma'naviyat, yuksak axloqiylik va vatanparvarlik negizlarida barpo etilishi mumkin. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va bozor munosabatlarini shakllantirishda respublikamizning bugungi holati imkoniyatlaridan kelib chiqib, islohotlarning maqsadi xalq va davlat munosabatlari tomon yo'naltirildi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirishiga imkon beradigan qo'lay shart sharoitlar quyidagilarda uz aksini topdi:

- mamlakatning nihoyatda ko'p boyliklarga ega ekanligi;
- sanoat uchun zarur bo'lgan xom ashyo zaxiralarining ko'pligi;
- ishchi kuchlarining mulligi;
- O'zbekistonning tabiiy-jo'g'rofiy qulay o'ri;
- mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik.

Ana shu imkoniyatlarning ro'yobga chiqishi O'zbekistonning iqtisodiyot sohasida jahon sivilizasiyasiga qo'shilib borishi uchun keng istiqbollar yaratadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar negizida kishilarning mehnatga, mulkka, mehnat mahsuliga bo'lgan munosabatini o'zgartirish g'oyasi yotadi. Uzoq yillar davomida mehnatga bo'lgan qarashlarda bir yoqlamalik hukm surib keldi. Ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan ijtimoiy mulkchilik — kishilar mehnat faolligining asosi barcha ijtimoiy illatlarning bosh sababchisi — xususiy mulkchilik degan noto'g'ri qarash o'zini oqlamadi. Shaxsiy manfaatdorlikni inkor etish, jamoa, jamiyat uchungina faol mehnat qilish, iqtisodiyotni mafkuraviy maqsadlarga bo'ysundirish, mexnat raqobati o'rniga soxta musobaqani joriy etish insonning mehnatdan, o'z-o'zidan va jamiyatdan begonlashuviga, boqimandalik kayfiyatining shakllanishiga olib keldi. Bu esa jamiyat inqirozini tezlashtirdi.

Iqtisodiy plyuralizm va bozor munosabatlari – sivilisasiyaning muxim belgisi xisoblanadi. Bozor munosabatlari sharoitida maqsulot sifati va samaradorligini yaxshilashning muqim qonuniyatlaridan biri raqobat muhitini yaratish, kishilarda xo'jayinlik hissini shakllantirish, meqnat mahsuliga egalik qilish, shaxsiy manfaatdorlik va uni davlat manfaatlari bilan bog'lash muhim tamoyil sifatida joriy etila boshlandi. Mehnatni tashkil etish jarayonida kishilarning kasbiy mahorati, bilimi, tajribasi, ko'nikma va malakasi, mehnat madaniyati, mehnatni tashkil etishga ijodiy yondashish kishilarning mehnat va mulkka bo'lgan munosabatini ko'rsatuvchi mezonga aylandi.

Har bir inson o'zining ongli faoliyatida mulkka ega bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymokda. Mulk insonning aqliy va jismoniy mehnat faoliyatida yaratilgan va uning

barqaror yashashi uchun kafolat beradigan moddiy va intellektual boylik xisoblanadi. Mulk avloddan-avlodga meros bo'lib o'tishi ham mumkin. Mulk mulkdorning tasarrufida bo'lgan barcha tirikchilik va ishlab chiqarish vositalaridir. Mulkning shaxsiy, xususiy, jamoa, davlat mulki singari shakllari mavjud. Mulk egasi o'z tasarrufidagi mulkni asrab-avaylaydi, tejaydi, undan oqilona foydalanadi va muttasil ravishda ko'paytirishga harakat qiladi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat xususiy mulkni qo'llab-quvvatlaydi, mulkchilikning turli shakllarini rivojlantiradi, xususiy mulk daxlsizligini huquqiy kafolatlaydi, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar berishni yo'lga qo'yadi. Bu esa ularning mulkdor bo'lishi, o'rta mulkdorlar sinfini shakllanishi uchun imkoniyat yaratadi.

Mustaqillik sharoitida aqliy mexnat mahsuli bo'lgan fan, san'at asarlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ta'lim-tarbiyaning yangi konsepsiyalarini yaratish intellektual mulk hisoblanadi. Intellektual mulk egasi o'z mehnati mahsulini o'z xohishicha tasarruf etadi. Bunday mulkning qadr-qimmati, baxosi, sifati, jamiyatda tutgan o'rni raqobatli muhitda yaqqol namoyon bo'ladi. Intellektual mulkning talabgori, buyurtmachisi davlat va jamiyatdir.

Mexnat jarayonida yaratiladigan har qanday mahsulot o'z qiymatiga ega bo'ladi. Kiyamat mahsulotda o'z ifodasini topadigan xodimning aqliy va jismoniy kuchi, qobiliyati, bilimi, sarflagan vaqti, xom ashyo, yoqilgi, energiya, yo'l harajatlari uchun mablag'i va hokazolardir. Mulkdor mahsulot ishlab chiqarishga kamroq xarajat qilib, ko'proq foyda olishga intiladi. Foyda bozor munosabatlari sharoitida amal qiladigan muhim qonuniyatlardan biridir. Xususiy mulkning rivojlanishida foyda hal qiluvchi o'rin tutadi. Hozirgi paytda mehnat, mulk, foyda tushunchalarini falsafiy-iqtisodiy jihatdan teranroq idrok etish, yoshlar dunyoqarashida yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish ularning jahon sivilizatsiyasi andozasi talablari darajasida fikr yuritishi va faoliyat ko'rsatishi uchun zamin yaratadi.

O'zbekistondagi demokratik jarayonlar jahon sivilizatsiyasi bilan uyg'unlashishning yana bir imkoniyatidir. O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo'shilib borishida demokratik jarayonlarni va rivojlangan davlatlarning siyosiy tajribalarini ijodiy o'rganish va hayotga tatbiq etish muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston qonunchiligini xalqaro huquq talablariga muvofiqlashtirish, nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish, hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatlariga bo'lish, mamlakat Prezidentini muqobillik asosida saylash, fikrlar xilma-xilligi va ko'p partiyaviylik tizimini qaror toptirish, demokratik qadriyatlarni

hayotga tatbiq etish, O'zbekistonning jahon sivilizasiyasiga qo'shilib borayotganidan dalolat beradi.

O'zbekistonning jahon sivilizasiyasiga kirib borishidagi tajribalarini falsafiy idrok etish va umumlashtirish juda muhimdir. Prezident I.A. Karimovning qator asarlarida yuksak ma'naviyat jamiyat taraqqiyotida muhim omil ekanligi to'g'risidagi g'oya yangicha falsafiy tafakkurning metodologik asosi, ja-hon taraqqiyoti tajribalariga tayanishning yorqin namunasidir. Milliy g'oya va milliy mafkura o'zida mamlakatimizning jahon sivilizasiyasiga qo'shilish nazariyasi, yo'llarini yaqqol aks ettiradi.

O'zbekistonning jahon sivilizasiyasiga qo'shilish tajribasi, uning milliy g'oyasi va mafkurasi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun olamshumul ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon sivilizasiyasining muhim xususiyatlarini va O'zbekistonning sivilizasiyali taraqqiyot yo'lidan jahon hamjamiyatiga qo'shilib borishini, milliy g'oya va mafkurani falsafiy idrok etish yoshlarda Vatan tuyg'usi, ma'rifatparvarlik, milliy g'urur, burch, mas'uliyat hissini tarbiyalashda katta yordam beradi.

4. O'zbekistonda bunyod etilayotgan jamiyat va uning XXI – asrdagi ustuvor yo'nalishlari, asosiy tamoyillari. Ma'naviy barkamol avlod - buyuk kelajak poydevori.

O'zbekistonda bunyod etilayotgan jamiyat va uning XXI – asrdagi ustuvor yo'nalishlari, asosiy tamoyillari milliy falsafamiz rivoji bilan uzviy bog'liq. Uning dolzarb vazifalari orasida O'zbekistonning mustaqilligi, istiqloq yillarining tajribasi, o'tgan davrda yurtimizda amalga oshirilgan tub o'zgarishlar, islohotlar jarayonini falsafiy jihatdan o'rganish, tahlil qilish va shu asosda amaliyot uchun zarur xulosa va takliflar ishlab chiqish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, istiqloq yillarida xalqimiz tafakkuridagi yangilanishlar, ma'naviy merosimizning tiklanishi, milliy o'zlikni anglash sohalaridagi o'zgarishlarni falsafiy izohlash masalalari ham dolzarb vazifalar qatoriga kiradi. Bular orasida mustaqillik, unga asoslangan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy jarayonlarga falsafiy yondashuv bilan bog'lik vazifalar alohida o'rin tutadi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamdagi o'zgarishlar jahon hamjamiyatiga teng huquqli a'zo bo'lish va ayni paytda, O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgandir. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz hamkorlik munosabatlari, tinchlik madaniyatiga o'tish, millatlararo, davlatlararo, konfessiyalararo tolerantlik munosabatlarini chuqurlashtirish, insoniyatga umumiy xavf turdiruvchi terrorism, narkobiznes, ekspremizmga qarshi kurashayotgan davlatga aylandi. Mamlakatning ichki dunyosida, ya'ni iqtisodiyot, ma'naviyat, siyosat, turmush tarzida, xalq xarakteri va mentalitetida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. O'tgan davrda

O'zbekiston mustaqilligining huquqiy-me'yorni asoslari yaratildi, mamlakat Konstitusiyasi qabul qilindi. Milliy davlat tizimi an'anaviy davlatchilik g'oyalari va jahon davlatchiligi ilg'or tajribalarining sintezi shaklida barpo etildi. Boshqaruvda yangi usullar qaror topdi. Mahalliy davlat hokimiyati tizimi tubdan o'zgardi. Nodavlat tuzilmalar, jamoat tashkilotlari va o'z-o'zini boshqarish organlarining vakolatlari kengaytirildi.

Ko'ppartiyaviylik tizimi tarkib topishiga keng sharoit yaratildi. Jamiyat hayotida sog'lom demokratik jarayonlar muhiti vujudga keldi va chuqurlashdi. Inson xaq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning huquqiy asoslari vujudga kelmoqda. Sud hokimiyati hozirgi zamon xalqaro huquq tamoyillari negizida tubdan isloh qilindi. Millatlararo totuvlikni ta'minlash choralari ko'rildi. Milliy xavfsizlik konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mamlakat hududiy yaxlitligini va tinchligini ta'minlashga qodir bo'lgan zamonaviy qurolli kuchlar tizimi yaratildi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish ning asosiy tamoyillari doirasida aholini kuchli ijtimoiy himoyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi qilib belgiland. Iqtisodiy islohotlarning "o'zbek modeli" vujudga keldi va amalga oshirilmoqda. Makro iqtisodiyotni barqarorlashtirish, pul-kredit siyosati tamoyillari ishlab chiqildi. Mulkchilik, mulkka egalikka xos yangi tushunchalar shakllandi. Mulkdorlar tabaqasi vujudga keldi. Xususiy mulkka egalikning yangi tizimi barpo etildi.

Milliy qadriyatlarni tiklash, vorislik an'alariga sadoqatli avlodni tarbiyalash konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mamlakatimizni ozod va obod jamiyatga aylantirish, Vatan ravnaqini ma'naviy ta'minlab berishga qaratilgan nazariya — milliy istiqlol g'oyasi shakllandi.

Mustaqil O'zbekiston jahon hamjamiyatining teng huquqli va faol subyektiga aylandi. U jahon hamdo'stligida o'ziga xos va mos o'ringa ega bo'lib, mintaqa taraqqiyotida ham muhim rol uynay boshladi. Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro hamkorlik va qardoshlik munosabatlarini yanada rivojlantirishning strategik yo'nalishlari ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda.

Bular O'zbekistonning taraqqiy topgan demokratik davlatlar kabi erkin va farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsadiga yetish yo'lida ma'lum bir butin va bosqichni tashkil etadi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, taraqqiyotning har bir bosqichi yangi muammolar va ularni bartaraf etish yo'lidagi yangi vazifalar demakdir. Falsafa ham ana shu vazifalarni bajarish jarayonidan chetda tura olmaydi.

Bunday maqsadni amalga oshirish davlatning insonlarga xizmat qilishi, hayotda insonparvarlikka yo'g'rilgan adolatni qaror topishi, tenglik, erkinlik, yuksak ma'naviyat, farovonlik, osoyishtalik, millatlararo totuvlikni ta'minlashga, diniy bag'rikenglikni, jahon xalqlari bilan hamkorlikni amalga oshirishga yo'naltirilgan. O'zbekistonda sog'lom avlodni voyaga yetkazishning mantiqiy davomi sifatida barkamol avlodni tarbiyalashning

ham qonuniy asoslari yaratilgan. Bu asosni yaratish jarayonida ta'lim tubdan isloh qilindi, kadrlar tayyorlash milliy modeli yaratildi, ta'lim jahon andozalari darajasiga ko'tarildi. Bu modelning asosiy mahsadi — ma'naviy-axloqiy fazilatlar mazmunini mujassamlashtirgan, jamiyatda o'zligini va o'z qobiliyatini har tomonlama namoyon eta oladigan, ma'rifatli, dunyoviy bilimlarni puxta egallagan, aqlan yetuk, yuksak iste'dod va salohiyatga ega bo'lgan, ma'naviy jihatdan yuksak, jismonan sog'lom, hayot go'zalliklarini xis eta oladigan, erkin, ijodkor avlodni tarbiyalashni ifodalaydi.

Umuman olganda, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ajdodlarimiz orzusidagi barkamol avlod ta'limi va tarbiyasini tashkil qilishga erishishning qonun bilan himoyalangan hujjatidir. Bu dasturda tarixiylik bilan zamonaviylik, umuminsoniylik bilan milliylik uyg'unlashib ketgan. Shu bois ushbu dastur salohiyati va ahamiyati jihatidan teran falsafiy mohiyatga egaligi uning xalqaro miqyosida tan olinganida ham ko'rinadi.

Hozirgi davrda mamlakatimizdagi keng ko'lamlı o'zgarishlar va intilishlar jarayoni mamlakatimizni rivojlantirish, iqtisodiyotni modernizasiya qilish, jamiyatni ma'naviy yangilash va barkamol avlodni tarbiyalash uchun kamarbasta bo'lishi lozim.

## TESTLARLAR

1. Sezgi a'zolari orqali olingan bilim qanday bilim hisoblanadi?

- A. Hissiy
- B. Aqliy
- V. Tanstsendental
- G. Irratsional

2. Bilish jarayonini, inson ongini o'tmish va kelajak bilan bog'lovchi, egallangan bilimlarni saqlovchi hodisa nima deyiladi?

- A. Xotira
- B. Tasavvur
- V. Xayol
- G. Idrok

3. Qachonlardir insonning sezgi a'zolariga ta'sir ko'rsatgan va keyinchalik miyada saqlanib qolgan aloqalar bo'yicha gavidalanadigan narsalarning obrazlari bu - ...

- A. Tasavvur
- B. Xotira
- V. Xayol
- G. Idrok

4. Empirik bilim qaysi metodlar yordamida shakllanadi?

- A. Kuzatish va eksperiment
- B. Mavhumlashtirish va kuzatish
- V. Anketa va so'rovnoma
- G. Eksperiment va bayonnoma

5. Ilmiy dalilning ikki muhim xossasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Ishonchlilik va bir variantlilik
- B. Ishonchlilik va invariantlilik
- V. Isbotlanganlik va betakrorlik
- G. Tasdiqlanganlik va bir variantlilik

6. Haqiqat – mulohazalar va amaldagi holat o'rtasidagi muvofiqlikdir, deya haqiqatga ta'rif bergan faylasuf kim?

- A. Aristotel'
- B. Platon
- V. Suqrot
- G. Demokrit

7. Haqiqatni tushunishda intuitivizmga asos solgan faylasuf kim?

- A. SHopengauer
- B. Kant
- V. Fixte

- G. Nitsshe
8. Haqiqatning qanday shakliga shunday ta'rif beriladi: ...-bilimlarimizning inson insoniyatga bog'liq bo'lmagan mazmuni.?
- A. Ob'ektiv haqiqat
  - B. Sub'ektiv haqiqat
  - V. Mutloq haqiqat
  - G. Nisbiy haqiqat
9. Predmetni kelajakda to'ldirilishi yoki unga aniqlik kiritilishi mumkin bo'lmagan tarzda to'la, mukammal bilishi bu - ...
- A. Mutlaq haqiqatdir
  - B. Nisbiy haqiqatdir
  - V. Ob'ektiv haqiqatdir
  - G. Sub'ektiv haqiqatdir
10. Borliqni asosan to'g'ri aks ettirsa-da, obraz ob'ektga uncha mos emasligi bilan ajralib turadigan bilim, bu - ...
- A. Nisbiy haqiqat
  - B. Ob'ektiv haqiqat
  - V. Sub'ektiv haqiqat
  - G. Mutlaq haqiqat
11. Axborotning muhim xususiyatlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
- A. Ob'ektivlik, moddiylashtirish va uzatish imkoniyatining mavjudligi
  - B. Ob'ektivlik, xolislik, bir ma'nolilik
  - V. Moddiylashtirish va uzatish imkoniyatining mavjudligi
  - G. Uzatish imkoniyatining mavjudligini va yangi bilim sifatini aniqlash imkoniyati
12. Informativlik va uning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga asos bo'luvchi holatni aniqlang?
- A. Fanning integratsiyalashuvi
  - B. Globallashtirish
  - V. Fan taraqqiyotining yangi bosqichi
  - G. Ijtimoiy hayot darajasining oshishi bilan
13. Moddiy jismlarda qayd etilgan va belgilar tizimida ifodalanib, sub'ektlararo jarayonga qo'shilib idrok etiluvchi va olimning bilim darajasini o'zgartiruvchi axborot qanday axborot deyiladi?
- A. Ijtimoiy axborot
  - B. Ilmiy axborot
  - V. Sub'ektiv axborot
  - G. Ommaviy axborot
14. Yangi axborot yaratish borasidagi faoliyat nima deyiladi?

- A. Eksteriorizatsiya
- B. Interiorizatsiya
- V. Globallashuv
- G. Informativlik

15. Ilmiy bilish jarayonida olingan, tushunchalar, mulohazalar, xulosalar, nazariyalar va gipotezalar tizimida qayd etilgan, ijtimoiy ahamiyatga molik va mantiqiy jihatdan (shaklan) umumiyashtirilgan axborot, bu-...

- A. Ilmiy axborot
- B. Ijtimoiy axborot
- V. Sub'ektiv axborot
- G. Ommaviy axborot

16. Tushunish va tushuntirish muammolarini o'rganuvchi falsafiy ta'limot, bu - ...

- A. Germenevtika
- B. Dialektika
- V. Pragmatizm
- G. Lingvistika

17. M. Xaydeggerning germenevtik qarashlari tushunishning qanday xususiyatini ochib beradi?

- A. Ontologik
- B. Gnoseologik
- V. Ekzistentsial
- G. Epistemologik

18. Germenevtikaga oid mashhur "Haqiqat va metod" asari muallifi kim?

- A. X.G. Gadamer
- B. M. Xaydegger
- V. F. Sossyur
- G. L. Vitgenshteyn

19. Germenevtikada asosiy tadqiqot ob'ekti sifatida nima e'tirof etiladi?

- A. Matn
- B. So'z
- V. Faoliyat
- G. Ijtimoiy hodisalar

20. Badiiy ijodni tushunishni chuqur tahlil etgan mashhur rus faylasufini toping?

- A. M. Baxtin
- B. V. Solov'ev
- V. V. Kuznetsov
- G. A. CHumakov



21. Quyidagi soʻzlar muallifi kim: «Inson oʻzini dunyodan oldinroq va koʻproq biladi, ayni shu sababli u dunyoni oʻzidan keyin va oʻzi orqali anglab etadi...»?
- A. N.A.Berdyayev
  - B. V.Solovʻev
  - V. V.Kuznetsov
  - G. A.CHumakov
- 22.«Inson-mashina» asarining muallifi kim?
- A. J.Lametri
  - B. Dj.Berkli
  - V. Dj.Bruno
  - G. B.Spinoza
23. Insonning paydo boʻlishi haqidagi evolyutsion kontsepsiya asoschisi kim?
- A. CH.Darvin
  - B. K.Linney
  - V. CH.Pirs
  - G. A.Eynshteyn
- 24.Insonni oʻrganishning introvertiv yondashuvi vakillari toʻgʻri koʻrsatilgan javobni toping?
- A. M.SHeler, A.Gelen, K.Lorents
  - B. N.A.Berdyayev, A.Gelen, K.Lorents
  - V. S.L.Frank, L. P.Karsavin, S.N.Bulgakov
  - G. N.O.Loskiy, L. P.Karsavin, S.N.Bulgakov
- 25.Falsafa tarixida inson haqidagi qarashlarni «antropologik materializm» sifatida baholangan faylasuf kim?
- A. L.Feyerbax
  - B. I.Kant
  - V. V.Gegelʻ
  - G. F.Nitsche
- 26.Inson faoliyatini oʻrganishga bagʻishlangan falsafiy taʼlimot qanday nomlanadi?
- A. Praksiologiya
  - B. Aksiologiya
  - V. Fenomenologiya
  - G. Tonatologiya
- 27.Insonni faoliyatga undovchi sabablarni toping?
- A. Ehtiyojlar
  - B. Maqsadlar
  - V. Orzular
  - G. Xayollar
- 28.Faoliyatning eng muhim atributlari qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?

- A. Moddiylik va sub'ektlilik
- B. Moddiylik va ma'naviylik
- V. Sub'ektlilik va doimiylik
- G. CHEklilik va muayyanlik

29. Quyidagi fikr muallifni toping: “Amaliyot o'zgartirilgan tabiat predmetlarini insonning ko'zgidagi aksiga o'xshaydi, degan edi”?

- A. I. Fixte
- B. G. Leybnits
- V. B. Spinoza
- G. I. Kant

30. Inson faoliyatini boshqa tirik mavjudotlar faoliyatidan farqlovchi muhim xususiyatlar nima?

- A. Onglilik va maqsadga muvofiqlik
- B. Oqilonalik va irratsionallik
- V. Maqsadga muvofiqlik va hissiylik
- G. Iroda va tassavur qilish imkonining borligi

31. Globalistika mustaqil ilmiy yo'nalish va ijtimoiy amaliyot jabhasi sifatida nechanchi yillardan shakllana boshladi?

- A. 1960-yillarning oxirlaridan
- B. 1950-yillarning oxirlaridan
- V. 1970-yillarning oxirlaridan
- G. 1980-yillarning oxirlaridan

32. Globallashuvning vujudga kelishiga asos bo'lgan yirik sabablarni toping?

- A. Hayotning barcha sohasidagi integratsiyalashuv
- B. Fan va texnika kashfiyotlari
- V. Falsafada yangi ta'limotlarning vujudga kelishi
- G. Odam sonining keskin o'sishi

33. Ikkinchi jahon urushidan so'ng yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy holat bugungi kunda global muammolarni bartaraf qiluvchi qaysi asosiy hamkorlikning vujudga kelishiga sabab bo'ldi?

- A. BMT
- B. YUNESKO
- V. EHHT
- G. MDH

34. Hozirgi zamonda jahon fuqarosi deb hisoblovchi odamlarning paydo bo'lishiga nima sabab bo'ldi?

- A. Serqirra globallashuv
- B. Ekologik globallashuv
- V. Siyosiy globallashuv
- G. Madaniy globallashuv

## GLOSSARY

**Agnostisizm** – inson ob’ektiv borliqni to’liq bilishi mumkin emas, deb hisoblaydigan falsafiy ta’limot.

**Antissientizm** – fanning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini salbiy baholaydigan falsafiy nuqtai nazar.

**Antropogen** – inson faoliyati bilan bog’liq.

**Antroposentrizm** – dunyoni bilishda insonni ustun qo’yuvchi falsafiy yondashuv.

**Aprior** – tajribadan tashqarida. Inson tafakkurida tajribada ko’rilgunga qadar, tajribadan qat’iy nazar paydo bo’lgan obraz, g’oya, tushuncha.

**Ateizm** – xudoning borligini inkor etuvchi falsafiy nuqtai nazar.

**Atribut** – xossa.

**Belgi** – boshqa bir predmet, xossa yoki munosabatni ifodalaydigan va muayyan xabarni uzatish, saqlash yoki unga ishlov berishda ishlatiladigan moddiy, hissiy idrok etiladigan predmet.

**Garmoniya** – bir butun narsa qismlarining o’zaro muvofiqligi.

**Germenevtika** – falsafada – tarix, madaniyatni, o’zga individuallikni tushunish san’ati.

**Gipotetik** – ehtimol tutilgan, faraz qilingan, taxmin (gipoteza)ga asoslangan.

**Globalashuv** – ijtimoiy hayotning turli jabhalarida yaxlit tuzilmalarning dunyo miqyosida shakllanish jarayoni.

**Globalistika** – globalashuv va uning oqibatlari mohiyatini anglab etishga qaratilgan ilmiy va falsafiy tadqiqotlar fanlararo sohasi.

**Gnoseologiya** – bilish nazariyasi.

**Deduksiya** – tadqiqot yoki tavsiflash metodi, usuli bo’lib, bunda ayrim qoidalar umumiy xulosalar, aksiomalar, qoidalar, qonunlardan tadrijiy yo’l bilan keltirib chiqariladi.

**Dezintegrasiya** – butunning ayrim qismlarga parchalanishi.

**Deizm** – Xudo dunyoni yaratgach, unda ishtirok etmaydi va uning voqealari tabiiy kechishiga aralashmaydi, deb hisoblaydigan falsafiy nuqtai nazar.

**Determinizm** – barcha voqealar va hodisalarning qonuniyligi va sababiy bog’langanligi haqidagi falsafiy ta’limot.

**Dialektika** – harakat, rivojlanish, o'zgarish haqidagi falsafiy ta'limot.

**Diskret** – uzlukli.

**Differensiasiya** – butunning turli-tuman qismlar, bosqichlar, shakllarga bo'linishi, parchalanishi, ajralishi.

**Ideal** – mutlaq barkamollik, bunday barkamollik haqidagi tasavvur.

**Ierarxiya** – bir narsaning funksional ahamiyati yoki xizmat mavqeiga ko'ra ikkinchi narsaga, uchinchi narsaga va hokazolarga bo'ysunishi.

**Izotrop** – barcha yo'nalishlarda bir xil.

**Indeterminizm** – determinizmga qarama-qarshi ta'limot.

**Integrasiya** – birlashish, birikish, yaxlit bir butunning shakllanishi.

**Introvertiv** – o'ziga, o'z ichki dunyosiga qarab mo'ljal oluvchi.

**Imitasiya** – taqlid qilish, soxtalashtirish.

**Axborot inqilobi** – fan-texnika inqilobining rivojlanish bosqichi bo'lib, bunda axborot o'ta muhim resursga aylanadi.

**Irrasionalizm** – borliqni oqilona mantiqiy bilish imkoniyatini rad etuvchi nuqtai nazar.

**Kauzallik** – sababiyat, sabab va oqibatning qonuniy aloqasi.

**Kommunikasiya** (keng ma'noda) – muloqot. Ekzistensializmda – muloqot turi bo'lib, uning yordamida «Men» o'zini boshqa odamda topadi.

**Konstitusiyalash** – yaratish, belgilash, muayyan tashkiliy tus berish.

**Konsyumerizm** – iste'mol qilishga bo'lgan kuchli ehtiyoj.

**Koevolyusiya** – birgalikda tadrijiy rivojlanish.

**Kreasionizm** – butun borliqni Xudo yaratgan deb hisoblaydigan diniy ta'limot.

**Materializm** – dunyoning moddiyligidan va ongdan qat'iy nazar mavjudligidan kelib chiqadigan falsafiy yo'nalish.

**Metafizika** – Gegeldan oldingi va hozirgi G'arb falsafasida borliqning o'ta hissiy tamoyillari va asoslari haqidagi fan. Falsafaning sinonimi sifatida ishlatiladigan atama.

**Metodologiya** – metod haqidagi ta'limot, bilishning yangi metodlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish.

**Mistika** – sirli, g'ayritabiiy, tushunarsiz narsa yoki hodisa.

**Moddiylashtirish** – ma'no strukturalari, sxemalar, loyihalarning inson faoliyatida gavdalanishi.

**Modus** – predmetning unga ayrim holatlardagina xos bo'lgan muvaqqat xossasi.

**Monizm** – plyuralizmga zid o'laroq, muayyan bir asosdan kelib chiqadigan falsafiy yondashuv.

**Negativ** – salbiy, biror narsaga zid.

**Noumen** – mushohada yo'li bilan anglash mumkin bo'lgan mohiyat.

**Noosfera** – aql-idrok sohasi yoki biosferaning shunday bir holatiki, bunda odamlarning oqilona faoliyati biosfera rivojlanishining muhim omiliga aylanadi.

**Obraz** – amaliy faoliyat va bilish jarayonida shakllangan hissiy yoki oqilona tasavvur.

**Okkultizm** – maxsus ruhiy mashqlar, alohida marosimlar orqali ayrim insonlarga bila oladigan koinotda sirli kuchlar mavjudligini e'tirof etuvchi ta'limot.

**Oppozisiya** - qarshi harakat, muayyan narsaga ochiqdan-ochiq yoki zimdan qarshilik ko'rsatish.

**Panteizm** – Xudoni tabiat bilan tenglashtiruvchi falsafiy ta'limot.

**Paradigma** – mazkur davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan muayyan ilmiy tadqiqot yo'nalishini belgilovchi prinsiplar majmui.

**Passionar** – ichki energiyaga egalik yoki o'ta g'ayratlilik.

**Permanent** – doimiy, uzluksiz.

**Persepsiya** – idrok etish.

**Rasionalizm** – aqlni bilish va odamlar xulq-atvorining negizi deb e'tirof etadigan falsafiy yo'nalish.

**Reduksionizm** – murakkab narsa yoki hodisani soddaroq narsa yoki hodisaga bog'lash.

**Relyativizm** – bizning barcha bilimlarimiz, qadriyatlarimiz va xulosalarimizni nisbiy, shartli deb hisoblaydigan falsafiy yondashuv.

**Refleksiya** – o'z fikrlari va kechinmalarini tahlil qilishga qaratilgan mulohaza.

**Sakral** – muqaddas.

**Sensualizm** – hissiy bilishning rolini oqilona bilishning ahamiyatidan ustunroq qo'yuvchi falsafiy yo'nalish.

**Simvol** – biron-bir g'oyani ifodalovchi belgi, obraz.

**Sinkretizm** - qismlarga ajralmaganlik, biron-bir hodisaning noraso holati bilan belgilanadigan har xil jinsli elementlarning aralashuvi.

**Skeptisizm** – inson bilimining ishonchliligiga shubha bildiruvchi va barcha haqiqatlarni nisbiy deb e'lon qiluvchi falsafiy konsepsiya.

**Stereotip** – ko'pincha jamiyat tomonidan faol ilgari suriladigan va individ tanqidsiz qabul qiladigan borliqning nisbatan barqaror va soddalashtirilgan obrazi.

**Substansiya** – birinchi asos, barcha narsalar va hodisalarning mohiyati.

**Ssientizm** – madaniyat tizimida, jamiyat hayotida fan rolini mutlaqlashtirish.

**Tabu** – biron-bir narsa, harakat, so'zga nisbatan belgilanadigan diniy taqiq.

**Teologiya** – diniy ta'limotlar tizimi.

**Teosentrizm** – dunyoni tushunish markaziga Xudoni qo'yuvchi falsafiy yondashuv.

**Texnogen** – texnika bilan bog'liq, uning ta'siri bilan belgilangan.

**Texnokratik** – texnikani birinchi o'ringa qo'yuvchi.

**Texnooptimizm** – turli muammolarni echishda fan-texnika taraqqiyotining rolini oshirib ko'rsatuvchi falsafiy yondashuv.

**Texnopessimizm** – fan-texnika taraqqiyotini jamiyat va tabiat tanazzulining manbai va omili deb e'lon qiluvchi falsafiy yondashuv.

**Texnotron jamiyat** – kompyuter inqilobi bosqichiga kirgan jamiyat.

**Transsendental** – o'ta umumiy.

**Universum** – yagona Olam, yaxlit dunyo.

**Fauna** – barcha turdagi hayvonlar majmui.

**Fenomen** – insonga hissiy bilish tajribasida berilgan hodisa.

**Fenomenologiya** – bevosita kuzatish mumkin bo'lgan ideal mohiyatlar sifatidagi fenomenlar haqidagi falsafiy ta'limot.

**Flora** – o'simliklar dunyosi.

**Fluktuasiya** – o'zgarish, belgilangan parametrlardan tasodifiy og'ish.

**Futurologiya** – kelajak haqidagi fan.

**Evolyusion epistemologiya** – bilishni jonli tabiat evolyusiyasining momenti va uning mahsuli sifatida o'rganuvchi fan.

**Evristik** – ijodiy, noma'lum narsalar va hodisalarni bilishda sakrashni amalga oshiruvchi.

**Egalitarizm** – umumiy tenglikni targ'ib qiluvchi g'oyaviy-siyosiy oqim.

**Ekzistensializm** – diqqat markazida hayotning ma'nosi, inson erkinligi va mas'uliyati muammolari turuvchi falsafiy yo'nalish.

**Ekologiya** – jonli mavjudotlarning o'zini qurshagan muhit bilan o'zaro munosabatlari haqidagi fan.

**Ekologik muammo** – jonli organizmlarning atrof muhit bilan muvozanatining buzilishi.

**Ekologik tanglik** – ekologik muammoning keskinlashuvi, bunda uning oqibatlari orqaga qaytarib bo'lmaydigan xususiyat kasb etadi.

**Eksplikasiya** – u yoki bu predmet (yoki madaniyat ob'ekti)ning mohiyatini aniqlash, uning mazmunini keng tavsiflash.

**Ekstravertiv** – sirtga qaratilgan.

**Empirizm** – hissiy idrok etish va tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydigan falsafiy ta'limot.

**Empirik** – tajribada ko'rilgan.

**Etimologiya** – u yoki bu so'z yoki iboraning kelib chiqishi.

**Epistemologiya** – bilish haqidagi falsafiy ta'limot.

**Etnogenez** – xalqlar yoki millatlarning kelib chiqishi.

**O'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish** – o'zining betakror mohiyatini faoliyatda namoyon etuvchi va gavdalantiruvchi har bir individ axloqiy faoliyatining maqsadi.

**Falsafa** – tushunchasi yunoncha phileo – sevaman va sophia – donolik so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, mazkur atamaning dastlabki ma'nosini donolikka muhabbat deb talqin qilish mumkin. Falsafa so'zini ilk bor qadimgi yunon mutafakkiri Pifagor miloddan avvalgi VI asrda tayyor holda (afsonalar, rivoyatlar, an'analar orqali) avloddan avlodga o'tuvchi bilim va inson o'z aqliga tayanib, mushohada yuritish va borliqni tanqidiy tushunish yo'li bilan olishi mumkin bo'lgan bilimni farqlash maqsadida ishlatgan.

**Dunyoqarash** – insonning o'zini qurshagan borliqqa va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatga nisbatan yondashuvlar tizimi, shuningdek odamlarning mazkur yondashuvlar bilan belgilangan hayotiy ideallari, e'tiqodlari,, bilish va faoliyat tamoyillari, qadriyat va mo'ljallaridir.

**Mifologik dunyoqarash** – «mif» tushunchasi yunoncha mythos so'zidan kelib chiqqan bo'lib, afsona, rivoyat degan ma'noni anglatadi. **Mif** – bu turli xalqlarning dunyoning kelib chiqishi, tabiat hodisalari, fantastik mavjudotlar, xudolar va qahramonlarning ishlari haqidagi tasavvurini ifodalovchi muayyan tarzda tizimga solingan dunyoqarashdir.

**Diniy dunyoqarash** – dunyoqarashning tarihan ikkinchi shakli dindir. (Din so'zi arabchadan tarjimada e'tiqod, ishonch, ishonmoq degan ma'nolarni anglatadi.) Mif kabi, din zamirida ham e'tiqod, tuyg'ular va emosiyalar yotadi. Garchi din kurtaklari «aqli odam» dunyoqarashi shakllanishining dastlabki bosqichlarida, ya'ni taxminan 40-60 ming yil muqaddam paydo bo'lgan bo'lsa-da, umuman olganda u dunyoqarashning mustaqil shakli sifatida keyinroq, jumladan mif ta'sirida insonning abstrakt fikrlash qobiliyati sezilarli darajada kuchaygan davrda vujudga kelgan.

**Falsafiy dunyoqarash** - miloddan avvalgi VII-VI asrlarga kelib asosan mif va din ta'sirida odamlar dunyoqarashi nafaqat kengaydi, balki ancha murakkablashdi. U abstrakt nazariy fikrlash qobiliyati va (to'plangan bilimlar ko'rinishida) real asoslarga ega bo'lishi natijasida o'z rivojlanishining butunlay yangi darajasiga ko'tarildi. Bunga, hech shubhasiz, mehnat taqsimotiga olib kelgan rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ma'lum miqdorda ortiqcha mavjudlik vositalari, bo'sh vaqtning paydo bo'lishi ham imkoniyat yaratdi.